

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA TA'LIM  
VAZIRLIGI  
MUQIMIY NOMIDAGI QO`QON DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

**N. S. JO'RAEV, D.A.SALIYEVA, N. A. SULTONOVA**

# **PSIXOLOGIYA**

## **TARIXI**



## **Annotatsiya**

Psixologiya fanining rivojlanishi uzoq o'tmishga ega bo'lib asrlar davomida rivojlanib kelmoqda. Ushbu o'quv qo'llanmada antik davr psixologlarining, Sharq mutafakkirlari va hozirgi zamon psixologlarini fikrlari yoritib berilgan. Ushbu o'quv qo'llanma "Pedagogika va psixologiya" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, psixologiya tarixi fanini o'rGANISH, psixologiya fanining ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo`lgan shaxs va shaxsga xos bo`lgan psixik jarayonlar, xususiyatlар va empirik yo`nalishdagi ma'lumotlarni tahlil qilishga qaratilgan.

**Tuzuvchilar:** psixol.f.n., dots. N. S. Jo'raev, psixol.f.n., dots. D.A.Saliyeva, katta o'qituvchi N. A. Sultonova

Taqrizchilar: p.f.n., dok. Erkaboyeva H.Sh.  
p.f.n., dots. Karimov I.

Muqimiy nomli QDPI Ilmiy Kengashining 2019 yil \_\_\_\_\_ sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## **1-Mavzu: Psixologiya tarixi.**

### **Reja:**

- 1.Psixologiya tarixi faniga kirish.
- 2.Psixologiya tarixi fanining predmeti va metodlari.
- 3.Psixologiya fanining rivojlanish borsqichlari.
- 4.Psixologiyani rivojlanishining asosiy omillari va tamoyillari.

**Tayanch so'zlar:** *psixologiya tarixi, fanining predmeti, metodlari, fanning rivojlanish borsqichlari, fanning asosiy omillari va tamoyillari.*

**1.Psixologiya tarixi faniga kirish.** Har bir fan o`zining tarixiga egadir. O`rgatilayotgan har bir nazariy qarashlarni o`ziga xos bo`lgan tarixini o`rganish zarur. Fanning tarixini bilish hozirda oldinga qo`yilgan maqsadini to`la yechishga imkon beradi va katta ahamiyatni kasb etadi. Faylasuf Arastu “eksperimental va nazariy psixologiyani talqin qilish uchun, shunday qiyoslash o`tkazish zarurki, bu yerda hozirgi kun muammolarini ko`raylik va tarix bilan muloqatga kirishaylik” deb takidlaydi. Tarixga nazar solib yangilik yaratish psixologiya fanini yangi qirralarini ochib beradi. Psixik xususiyatlar va jarayonlar to`g`risida barcha ilmiy qarashlarni o`rganishda empirik ma'lumotlarni shartli ravishda yo`nalishlarga ajratish lozim.

Psixologiya tarixi boshqa fanlar singari qiziqarli va mazmundor bilimlar sohasidan iborat. Psixologiya tarixi insoniyat tomonidan hayvonlarga va insonlarga xos bo`lgan psixik hayot hodisalari haqidagi bilimlarning asta-sekin to`planib borishi tarixidir. Insonning o`zi haqidagi bilimlarni to`plab hamda chuqurlashtirib borishidir. Biz psixologiya tarixi bilan tanishar ekanmiz inson va hayvonlar psixik hayotini o`rganishga bo`lgan ishtilish kishilar hayotini har-xil tarixiy bosqichlarda ularning qanday nazariy va amaliy ehtiyojlar bilan toqazo qilinganligini, ba`zi qonuniyatlari qanday ochilganligini bilib olamiz.

Psixologiya tarixi tarixiy hayotning bosqichlarida, fan va madaniyatning umumiy taraqqiyoti munosabati bilan psixologik bilimlar sohasi qanday kengayib borganligi hamda dastlabki yakkayu-yagona bo`lgan psixologiya qay tarzda

taraqqiy etib, butun bir psixologiya fanlar sistemasi darajasiga ko'tarilganligi haqida ham ma'lumot beriladi. Psixologiya tarixi psixikaning yanada chuqur va aniq bilish imkoniyatini beradi. Psixologiya fani taraqqiyotga ko'maklashadigan foydali ilmiy tekshirish metodlarini izlanish va yaratishda katta o'rin tutadi.

Psixologiya tarixi shaxsning o'ziga xos bo`lgan psixik xususiyatlari, g`oyalari, dunyoqarashi, rivojlanishi va takomillashish qonuniyatlarining psixik mexanizmlarini o`rganadi. Ma'naviy va ilmiy ahamiyatga ega bo`lib, buyuk allomalar, faylasuflar, olimlar va shaxslarning hayoti, qarashlari, ilmiy yo`nalishlarni, g`oyalari o`rganiladi.

**2.Psixologiya tarixi fanining predmeti va metodlari.** Psixologiya tarixi fanini o`rganishda psixik haqiqiylik emas, balki tasavvurlar o`rganilgan har bir davrda o`ziga mos bo`lgan. Fanini ruvojlanish jarayonida bu tasavvurlar juda qadimdan mavjud ekanligi aniqlangan va ular 319 yo`nalishga ajratilgan. Birinchi, qalb haqida fan ekanligi, ikkichisong haqidagi fan, uchinchisi faoliyat haqidagi fandir. Psixologiya tarixi to`g`risida ta`limotlarni haqiqiylik darajasini belgilaydigan mezon ilmiy qarashlarni bir-biridan farqlari bo`lib, ular ba`zida umuman tan olinmas edi. Psixologiya tarixi fani rivojlanishida ahamiyati kasb etadigan yutuq va kamchiliklari yangi haqqoniy psixologik qarashlarni keltirib chiqarar va shu davrga mos ravishda tahlil qilingan. Psixologiya tarixini o`rganishda empirik ma'lumotlar katta ahamiyat kasb etadi.

**Psixologiya tarixi fanning vazifalari.** Psixologiya fanini paydo bo`lishida hozirgi kungacha barcha ilmiy qarashlar, bilimlar nazariy qarashlar, faylasuflar va psixologlar asarlari asosiy manba hisoblanadi. Psixologiya rivojlanishda - tibbiyot, ta`lim, tarbiya, yuridik amalyot, amalyot katta o'rin egallaydi. Psixologiya fani rivojlanishida boshqa fanlarning ahamiyati katta bo`lib ular bir - biriga bog`liqdir. Psixologiya tarixi boshqa fanlar tarixi singari va ma'zmundor bilimlar sohasidan iborat.

Psixologiya tarixi u avvalo insoniyat tomonidan hayvonlarga va insonlaga hos bo`lgan psixik hayot hodisalari haqidagi bilimlarni asta -sekin to`planib borish tarixidir. Insonning o`z-o`zi haqidagi bilimlarni to`plab hamda chuqurlashtirib

borishidir. Biz psixologiya tarixi bilan tanishar ekanmiz, inson va hayvonlar psixik hayotini o`rganishga bo`lgan intilish kishilar hayotining har xil tarixiy bosqichlarida, ularning qanday nazariy va amaliy e`htiyojlar bilan taqazo qilganligini, ba`zi bir ma'lumotlar, ya`ni psixik hodisalar qay tarzda kashf qilingan, qaror topgan va aniqlanganligini, ular qanday tushuntirilganligini, ularning ba`zi qonuniyatlari qanday tushuntirilganligini, ularning ba`zi qonuniyatlari qanday ochilganligini bilib olamiz. Bunda tashqari psixologiya tarixi tarixiy hayotning har xil bosqichlarida, fan va madaniyatning umumiylara taraqqiyoti munosabati bilan psixologik bilimlar sohasi qanday kengayib borganligi hamda dastlab yakkayu-yagona bo`lgan psixologiya qay tarzda taraqiy etib, butun bir psixologiya fanlari sistemasi darajasiga kutarilganligi haqida kam ma'lumot beradi.

Psixologiya tarixida psixikani yanada chuqur va aniq bilish imkoniyatini beradigan, psixologiya fani taraqqiyotiga ko`maklashadigan foydali ilmiy tekshirish metodlarining izlanilishi va yaratilishi katta o`rin tutadi. Psixologiya hech qachon ajralgan fan bo`lmagan: u hamisha boshqa bilim sohalari bilan bog`liq holda taraqqiy etib borgan. Umumfan taraqqiyoti tarixida u bog`lanishlar kengaydi va chuqurlashdi. Boshqa fanlarning yutuqlari psixologiya taraqqiyotiga qanday ta`sir ko`rsatganligini bilim sohalarining taraqqiyotida psixologiyaning roli qay darajada bo`lganligini, psixologiyaning ilmiy yutuqlari praktikada qanday tadbiq qilinganligini kuzatib borish juda qiziqarlidir.

Psixologiyaning butun tarixi (shuningdek, filosofiya tarixi) davomida idealizm bilan materializm o`rtasida kurash ketgan. Bu kurash psixologiyaning mohiyatini turlicha tushunishda hamda psixologiya predmetini tushinishda ifodalangan. Shuning uchun, psixologiya fani sistemasini o`zi ham, uning metodlari, ma`zmuni va vazifalari ham turlicha talqin qilingan. Barcha qo`llaniladigan psixologiya tarixi fanini o`rganishda qo`llaniladigan arxiv materiallari, intervyu, suhbatlar, biografik, avtobiografik uslublar kengqo`llaniladi. Har bir uslubning o`ziga xos tomonlari tahlil qilinganida har bir darslik o`ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi va tarixan baho berishshartlariga buysunadi. Albatta, psixologiya tarixida turlicha qarashlar va yo`nalishlarbo`lishiga qaramasdan, bu

fanining predmeti, ya’ni hayvon va insonlarga xos bo’lgan psixika, psixik hayot birdamligicha qolaveradi. Tarixiy jihatdan psixologiyaning o`rganish predmeti emas, balki shu predmetni tununish, psixik hayot mohiyatini tushunishi o`zgarib keldi.Psixologiya predmetini tushunishdagi muhim o`zgarishlar, yangi psixologik tekshirish metodlarining yaratilishi hamda ularning keng tadbiq qilinishi, ilmiy falsafiy tafakkurining umumiy yo`nalishi psixologiya fanining tarixiy taraqqiyotidagi xususiyatlarini belgilab berdi.

Psixologiya tarixi boshqafanlar singari qiziqarli va mazmundor bilimlar sohasidan iborat. Psixologiya tarixi insoniyat tomonidan hayvonlarga va insonlargaxos bo’lgan psixik hayothodisalari haqidagi bilimlarning asta-sekin to’planib borishi tarixidir. Insonning o’zi haqidagi bilimlarni to’plab hamda chuqurlashtirib borishidir. Biz psixologiya tarixi bilan tanishar ekanmiz inson vahayvonlar psixik hayotini o’rganishga bo’lgan intilish kishilar hayotini xarxil tarixiy bosqichlarda ularning qanday nazariy vaamaliy ehtiyojlar bilan toqazo qilinganligini, ba`zi qonuniyatları qanday ochilganligini bilib olamiz. Psixologiya tarixi tarixiy hayotning bosqichlarida, fan va madaniyatning umumiy taraqqiyoti munosabati bilan psixologik bilimlar sohasi qanday kengayib borganligi hamda dastlabki yakkayu-yagona bo’lgan psixologiya qay tarzda taraqqiy etib, butun bir psixologiya fanlar sistemasi darajasiga ko’tarilganligi haqida ham ma`lumot beriladi. Psixologiya tarixi psixikaning yanada chuqur vaaniq bilish imkoniyatini beradi. Psixologiya fani taraqqiyotga ko’maklashadigan foydali ilmiy tekshirish metodlarini izlanish va yaratishda katta o’rin tutadi.

**3.Psixologiya fanining rivojlanish borsqichlari.** Psixologiyaning butun tarixi davomida idealizm va materializm o’rtasida kurash kechgan. Bu kurash psixologiya mohiyatini turlicha tushunadi, insondagi psixik va fiziologik hodisalarini o’zaro munosabatlarini tushunishda hamda psixologiya predmetini tushunishda ifodalangan. Albatta, psixologiya tarixida turlicha qarashlar va yo’nalishlar bo’lishiga qaramasdan bu fanning predmeti, ya’ni inson va hayvonga xos bo’lgan psixika, psixik hayot bidayligicha qolaveradi.«Biz o’zimizni o’tmish bilan birga ko’rishimiz kerak», chunki biz unga tayanamiz. Umumiy

psixologiyaning predmet va metodlaridan farqli ravishda psixik voqelikni emas, uning rivojlanish tarixi haqidagi fikrlar turli davrlarda qanday bo'lganligini o'rghanadi. Psixologik fikrning o'zi o'z tarixiga ega. Bu tarixning vazifasi psixika haqidagi ilmiy bilimlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini analiz qilish psixologik fikrlar taraqqiyoti davomida psixologiya fanning predmeti bo'lib, avval ruh, keyin ong, keyin xulq-atvor hisoblanadi. Oxirgi fan hozirgi turgan bosqichda, avvalgi bosqichlarda ajratib tashlagan psixika va xulq-atvor faoliyat birligi tiklandi.

Umuman psixologiyada fikrlar taraqqiyoti hech qachon bir tekisda kechmagan. Ba'zi davrlarda u zigzaklar bilan xarakterlangan bo'lsa, ba'zida ortga qaytgan yoki bir joyda turib qolgan. Har bir bosqich o'z yutuq va kamchiliklariga ega bo'lgan. G.Ebbengauz aytganidek «Psixologiya uzoq o'tmishtga va qisqa tarixga ega».

Psixologiyaga oid bilimlarni rivojlanishini xar xil davrlashtirish mumkin. Davrlashtirish ishiga xronologik jihatdan yondoshilsa, XVII asr psixologiyasiga xududiy territorial jihatdan yondoshilsa, Meksika psixologiyasining tarixi, Amerika psixologiyasining tarixi kabilarga ajratish mumkin. Demak, har qanday davrlashtirish nisbiydir. Shuni hisobga olib quyidagi davrlashtirish sxemasini ham navbatdagi variantlardan biri deb hisoblash kerak.

Psixologiya tarixi 2 ta davrga ajratiladi. Ular o'z navbatida kichikroq davrlarga bo'linish prinsipiga asosan tuzilgan.

**1-davr.** Psixologiya fanining falsafa tarkibida rivojlangan davri. Bu davrda Er.av. VI asrdan XIX asr o'rtasigacha 2,5 ming yil davom etgan davrdir.

**2-davr.** Psixologiya fanining mustaqil fan sifatida rivojlangan davri. Bu davr XIX asr o'rtasidan hozirgi kungacha davom etib kelayotgan davrdir.

### **Psixologiyaning falsafa tarkibida rivojlanishi**

Xronologiya	Bosqichning mazmuni	Natija
Er.av. V-VI asrlar	Psixika haqidagi dastlabki ilmiy fikrlarning paydo	Ruh haqidagi fanning paydo bo'lishi va unda 2 yo'nalish. Materialistik va idealistik yo'nalishlarning paydo

	bo'lishi va rivojlanishi	bo'lishi. Psixik jarayonlar sezgi, idrok, xotira, tafakkur, affekt, iroda haqidagi ilk empirik bilimlarning paydo bo'lishi. Tana va ruh munosabatiga har xil yondoshish.
V-VIII asr	Ruh haqidagi fanning falsafiy ta'limoti doirasida tibbiy bilimlar asosida rivojlanishi	Tomistik psixologiyaning paydo bo'lishi.
XV-XVI asr	Ruh haqida fanning anatomik fiziologik bilimlar asosida rivojlanishini davom ettirish.	Tadqiqot ob`ekti sifatida ruhni inkor etish «Psixologiya» terminini kiritilishi.

### Psixologiyaning mustaqil fan bo'lib rivojlanishi

Xronologiya	Bosqichning mazmuni	Natija
XIX asr boshidan XIX asrning 60-yillarigacha	Psixologiya mustaqil fan ekanligini ta`kidlovchi ilk bilimlarning paydo bo'lishi.	Nerv sistemasi va sezgi organi faoliyatini eksperimental metod bilan o'rjanila boshlashi psixofizika va psixogeomeriyaning paydo bo'lishi, sezish va idrok etish teoriyalarining kashf etilishi.
XIX asrning 60-yillaridan XIX asrning oxirigacha	Psixologiyaning bevosita mustaqil fan sifatida rivojlanishi	Eksperimental metodlar psixologiyadan mustaqil o'rinnegallashi psixologiyada amaliy tadqiqotlarni paydo bo'lishi fanda yangi tarmoqlarni vujudga kelishi
20 asrning 10-30-yillari	Psixologiyada ochiq krizis /inqiroz/	Chet el psixologiya maktablari. bixevoizm
30-50-yillar	Inqirozning tugallanishi	Yangi tarmoqlar: genetik psixologiya, shaxs psixologiyasining paydo bo'lishi, yangi maktablar, neobixevoizm, neofreydizmning vujudga kelishi
60-yillar	Yangi nazariy va amaliy qidirish	Yangi yo'nalish: gumanistik psixologiya, logopediya, kognitiv

		psixologiyaning paydo bo'lishi, psixologiya predmetini taxlil qilinshi, ongsizlik masalasiga katta e'tibor, sotsial psixologiya masalalarini chuqurlashtirish
--	--	---

Psixologiya tarixining manbalari bo'lib, psixologik bilimlarni to'plashni aks ettiruvchi barcha materiallar eng avvalo o'tmish – psixologlarning faylasuflarning asarlari hamda tibbiyotga ayniqsa, psixatriya sohasiga oid bilimlar, shuningdek boshqa fanlar tabiatshunoslik, jumladan fizika, ximiya, astronomiya, tilshunoslik, etnografiya, antrapologiya kabi fanlarning ma'lumotlari ham psixologiya tarixining manbai hisoblanadi.

Idealizm (fransuzchadan idealisme) – idealizm: falsafaning bosh masalasida – ongning borliqqa munosabati masalasida materializmga qarama – qarshi o'laroqong, ruh, birlamchi, moddiy dunyo, borliq esa ikkilamchi, ong, sezgi, tasavvur va tushunchalarning mahsulidir deb da'vo qiluvchi g'ayri ilmiy falsafiy oqim. Idealistlar materialistlarga qarama-qarshi o'laroq, psixika tan bilan yashirin yo'sinda birlashgan, inson o'lgach, tananit ashlab «narigi dunyoga», g'oyalar dunyosiga ketib, u yerda abadiy yashaydigan moddiy bo'limgan qandaydir ilohiy substantsiya yoki mohiyatning namoyon bo'lishidir deb tushunadilar.

Materializm (lotincha materialis – moddiy) materialism falsafasidagi ikki asosiy oqimdan biri, ya'ni idealizmga qarama – qarshi o'laroq, birdan bir ilmiy, tarixan progressive dunyoqarashdir. Falsafa tafakkurning borliqqa munosabati haqidagi bosh masalasini hal qilishda materializm, dunyo o'z tabiatiga ko'ra moddiyidir, materiya, tabiat, borliq, inson ongidan tashqari unga bog'liq bo'limgan holda mavjuddir, material birlamchi hamda sezgilarning manbaidir, ong esa ikkilamchi, hosila narsadir, dunyonи va uning qonuniyatlarini to'liq bilish mumkin, deb ta'lim beradi. Materializm falsafiy oqim sifatida eramizdan birqancha asrlar avval qadimgi Xindiston, Xitoy va Gretsiyada paydo bo'lgan.

**Qadimgi Misr va Hindistonda qalb haqidagi ta'limotlar.** Eramizgacha bo'lgan IV ming yillikda buyuk Evfrot, Nil, Hind va Xuanxe daryolari vohalarida

davlatchilikning birinchi o'choqlari paydo bo'lganligi kuzatiladi. Bulardan birinchilar qatorida qadimgi misrliklar uchun Misr buyuk mamlakat sifatida ma'lum va mashhur bo'lган.

Misrliklarning ruhiy hayot haqidagi tasavvurlari o'ta murakkab tasavvuf, g'ayritabiyy tasavvur – diniy e`tiqodning umumiyligi tizimidan ajralmagan holda rivojlangan edi. Ularning tasavvuri bo'yicha oddiy insonda 5 alohida qalb bo'lib, bular: Ka, Ba (ayollarda shunga muvofiq Xemsut va Bat), Ax, Shuitva Ren Xudo va hukmronlarda bunday qalblar bir necha baravar ko'proq bo'lган. Masalan, Ra tangrisida Ba 7 nafar, Ka esa 14 nafar. Shuit – bu "soya" bo'lsa, Ren - "ism"ni bildirgan. Qalblardan biri "ikkilangan" (aynan o'xshash) bo'lib, bu Ka.Ka insonning ruhiy ibtidosi bo'lib, u bilan birlashish hayotni anglatgan.

Miloddan ilgarigi V asrda Hindistonda Upanishadlar falsafiy hayotda muhim o'rinni egallagan bir paytda uning diniy hayotida veda an`analari ustunlik qilardi. YAngi budda ta`limoti qadimgi veda adabiyotlariga keskin qarshi chiqdi va marosimlar hamda urf-odatlarning hamma shakllarini inkor etdi. Ayni bir paytda u Upanishadlar muayyan bir qismining tanqidiy idrok etishgan.

Mantiqqa zid-ku, lekin Buddha spekulyativ va diniy tafakkurlar nisbatan g'oyat salbiy munosabatda edi. Hozirgi sharhchilar ma'lum darajadagi anaxronizm bilan uni "empirisist" va "skeptik" sifatida tavsiflashadi. Ehtimol, Buddaga tegishli bo'lган matnlar uning keyinchalik ilohiyashtirishi uchun asos bermaydi. Upanishadlarning ko'plab parchalari singari yangi ta`limot ham insonning ozod etilishi yoki xalos bo'lishiga qaratilgan. Ozodlik holatini Buddha nirvana deydi. Bu atama ko'p jihatdan boshqa an`analardagi **moksha** atamasiga muvofiq keladi. Buddaning o'zi erishgani kabi nirvanaga erishishni xohlaydigan kishi o'zini bu dunyo bilan bog'lab turgan hamma narsadan, shu jumladan, falsafiy va diniy ta`limotlardan ham xalos qilishga o'rganishi kerak. Buddha sol bilan analogiyadan foydalananib, bunday talabning narigi qirg'og'iga suzib o'tishga majbur. U daraxt poyalarini yig'adi va ularni novdalar bilan bog'lab mustahkam sol yasaydi, shu sol yordamida daryoning narigi qirg'og'iga eson omon etib oladi. U maqsadga erishgach, o'ziga o'zi bu solning haqiqatdan ham yaxshi va foydali bo'lganligini

ta`kidlaydi. U solni o`zi bilan birga olib ketishga qaror qiladi va miyasiga joylab, yo`lga tushadi. Shunday qilib, u endilikda unga ortiq kerak bo`lmagan solni qirg`oqda qoldirib ketadi. Bunday analogiya ma`nosi shundaki, yangi ta`limot ham solga o`xshaydi. Sol uni o`zi bilan birga olib ketishi uchun emas, balki u yordamida daryoni kesib o'tish va *nirvanaga* erishish uchun mo'ljallangan. Falsafaning maqsadi haqidagi bunga o`xhash tasavvurlar uning tarixida bir necha marta paydo bo`lgan. Ularga binoan, falsafa shunchaki egallab qo'yilsa yomon bo`lmaydigan narsa emas, balki vositadir.

**Budda Shak`ya Muni** (miloddan avvalgi 556 – 476 yillar) Budda dunyoda eng keng tarqalgan dinlardan biri – buddizmning asoschisidir. U Hindistondagi Shak`ya qabilasi hukmdorining o'g'li bo`lgan. Budda Himolay tog'inining etagida dunyoga kelgan. Uning asl ismi – Gautama bo`lgan. Shak`ya Muni uning laqabi bo'lib, “shak`ya qabilasining zohidi” degan ma`noni bildiradi.

Gautama muhtasham saroyda, gullar va dur javohirlar ichida yashagan. Shuning uchun u hayot hamma erda go'zal va zavqli degan xulosaga kelgan.

Biroq bir kuni og'zida bitta ham tishi yo'q, qartayib qolgan qariyani uchratgach, keksalik muqarrar ekanini tushunadi. Bemor odamni uchratib, salomatlik omonatligini angladi va o'lim to'g'risida o'ylay boshladи. Shu tariqa zohidlikni ixtiyor qiladi. Etti yil tarki dunyochilikda, ochlik va sargardonlikda yashaydi. Kunlardan bir kuni u katta daraxt ostida chordona qurib chuqur o'yga tolgancha o'tirganda mo`jiza yuz berib, ongi tiniqlashadi va donishmandlik sari yuz tutadi. Shu paytdan boshlab uni Budda deb atashadi. Budda Gang daryosi bo'yidagi Banoras shahrida o'z ta`limoti asoslari bo'yicha dars bergan.

Budda Shak`ya Muni shunday degandi: “Inson hayoti azob uqubatlardan iboratdir. Biroq doimo to'g'ri so'zlab, ezgulikka intilish o'zgalarning haqiga xiyonat qilmaslik, g'azab va hasadni engish orqali uni engillatish mumkin. Shuningdek, inson behuda yugur – yugurlardan, mol dunyo orttirish havasi va haddan ziyoda huzur - halovat istagidan ozod bo`lmog'i lozim. Ana shunda har bir boy va kambag'al, shoh va qul, ruhoniy va oddiy kimsalar dunyoga qayta - qayta kelish azobidan xalos bo'ladilar”.

Budda ta`limoti ayni bir vaqtning o`zida ham qiyin, ham teran. Biz bu o'rinda faqat uning "to'rtta yaxshi haqiqat" degan nom bilan tanilgan asosiy qoidalarini sxematik tarzda tavsiflab berishimiz mumkin.

1) Dunyo azob uqubatlarga to'lib ketgan. Tug'ilish azob, qarilik azob, kasallik azob va o'lim azob. O'zing yomon ko'radigan odam bilan uchrashish azob, sevimli kishidan judo bo'lish azob, xohlagan narsani qondirish uchun behuda kurash azob. Aslida xohish istaklar va ehtiroslardan bo'limgan hayot har doim azob keltiradi. Bu azob haqidagi haqiqat deyiladi.

2) Inson azoblarining sababi shubhasiz jismoniy mavjud bo'lish ishtiyoqida va dunyoviy ehtiroslarning xomxayolligidadir. Agar bunday ehtiroslar va xomxayollarning kelib chiqishini kuzatilsa, shu narsa ma'lum bo'ladiki, ular hamma narsani yutib yuboradigan, instinctli tarzda kelib chiqadigan hoxish istaklarga asoslanadi. Masalan: yashashga nisbatan kuchli irodaga asoslanadigan hoxish, agar hatto uning izlaydigan narsasi ba`zan o'lim bo'lib chiqsada, o'zi hoxlagan narsani izlaydi. Bu azoblarining sababi to'g'risidagi haqiqat deb ataladi.

3) Agar insonning barcha ehtiroslari negizada yotgan xohish bartaraf etilishi mumkin bo'lsa, unda ehtiros o'ladi va odamning azoblari nihoyasiga etadi. Bu azoblarining to'xtatilishi haqidagi haqiqat, deb ataladi.

4) Xohish istaklar va azoblar bo'lmaydigan holatga erishish uchun muayyan yo'lga amal qilish lozim. Bunday saxovatli eski yo'lning bosqichlari quyidagilardir: to'g'ri tushunish, to'g'ri nutq, to'g'ri tafakkur, to'g'ri fe'l atvor, to'g'ri turmush tarzi, to'g'ri kuch g'ayrat, fikrning to'g'ri yo'nalishi va diqqat e'tiborni to'g'ri qaratish. Bu azoblarining sababidan xalos bo'lishning saxovatli yo'li haqidagi haqiqatdir.

Keyinchalik paydo bo'lgan **San`ya Vedanta, Yoga, Milansa** falsafa mifiklari ham rujni o'rganishga metofizik etik tomondan yondoshdilar. Vedantada Upanishadagi idealistik g'oyalar ilgari surildi. Ularda Ataman va Braxman haqida fikr yuritildi. Bu fikrga ko'ra ruh doim tananing intilishlari va hissiy kechinmalari ortida yashiringan bo'ladi. Qa'tiy intizom orqali ruh bulardan xalos bo'lib, abadiy Braxman darajasiga etadi. Yoga ta`limotida esa haqiqiy

yuksaklikka erishish uchun psixik faoliyatga to'sqinlik qilayotgan tomonlarni bartaraf qilish kerak bo'ladi deyiladi. Buning uchun yogalar maxsus 8 olamni: avval tana xarakatlarini (nafas olish gavda harakatlari (keyin psixik aktlar) diqqat, tafakkurni boshqarish uslublarini ishlab chiqqan. Yogalar tomonidan ishlab chiqilgan sezgi chegaralarida narsalarni idrok etish, ko'rish gallyusinasiya, idrok illyuziyasi hindlarning psixologik ta`limotida katta o'rin egalladi.

Hind adabiyotida qadimdan idrokning 2 xil: *noaniq* (*nirvikalka*) va *aniq* (*sarvikalka*) shakli farqlangan. Noaniq idrok sensor, narsa va hodisaning sezgi a`zosi bilan kontaktga kirishi orqali idrok qilinishi. Vedanta maktabining namoyondlari noaniq hech qanday individualligi ham, umumiyligi ham bo'lмаган hissiy kechinmalar yig'indisidir, deb ta`kidlaydilar. Aniq idrok bo'lingan nutq strukturasida namoyon bo'luvchi idrok bo'lib, buddistlarning ta`kidlashicha, u idrok emas, chunki unga aql ta`sir etadi. Nutq har xil belgilardan tashkil topganligi uchun idrok etilayotgan obrazni xiralashtiradi. Mimansa maktabining tarafdarlari vedantislarni ham buddistlarni ham, tanqid qilgan holda noaniq idrok ikki belgiga - umumiy va spesifik belgilarga ega ekanligini ta`kidlaydi. Umumiy belgi ko'pchilik individual ob`ektlarga ta`lluqli bo'lsa, spesifik idrok faqat berilgan ob`ektlarga tegishlidir. Noaniq idrok qilinishi mumkin emas, chunki buning uchun uning boshqalaridan ajratishga to'g'ri keladi. Lekin bu ob`ekt umumiy belgi sifatida ham idrok qilinmaydi, chunki buning uchun u boshqalar bilan birlashtirilishi kerak. Bunga esa faqat nutq hisobidan erishish mumkin. Chunki nutq narsalarga xos belgilarni ajratishi ham birlashtirishi ham mumkin degan xulosaga keldilar. Buni maktab namoyondalari "Reallik" va "Illyuziya" deb atardi. "Reallik" va "Illyuziya"ni Mimansa maktabining faylasufi Bxata organ va tashqi ob`ekt o'rtasidagi munosabat bilan belgilaydi. Agar bu munosabat qandaydir sabab bilan buzilsa, idrok illyuzior bo'lib qoladi. Buning sababi sifatida Bxata: periferik (sezgi a`zosidagi) va markaziy (manas) qismidagi buzilishni ko'rsatadi. Gallyusinasiya ham xuddi shunday paydo bo'ladi. Tush ko'rish ham gallyusinasiyaning bir turidir.

Psixik hayot davomida o'tish davri muammosi g'arbiy evropa faylasuflarini ko'proq qiziqtirdi. Hech kimni hindlar kabi "men" muammosi bunchalik ko'p

o'ylantirmagan. Masalan, lakata ma`lumotida umuman "men" muammosi inkor qilinadi. Ular shunga asoslanadiki, sezgi a`zolarimiz bizga "men" haqida hech narsani ma`lum qilmaydi. Xulosa chiqarish yo'li bilan olingan ma`lumotlar esa noto'g'ri bo'lishi ham mumkin.

Miloddan avvalgi bir necha ming yillikning o'rtalarida Hindiston va Xitoyda II-ming yillikda paydo bo'lgan. Vedalar eng qadimgi ariylik dunyoqarashini ifodalardi. Grek, skandinaviya va slavyan afsonalarida bo'lgani singari unda ham xudolar ko'pincha tabiiy kuchlarga qiyos qilinardi. Bunday dunyoqarash Koinot bilan Tartibsizlik (Xaos) o'rtasidagi azaliy kurash bilan tavsiflanardi. Bu jangda xudolarning uzil-kesil va abadiy g'alaba qilishi kafolatlanmaydi. Tartibsizlikka qarshi kurashda xudolar odamlarning yordamiga muhtoj bo'lgan. Qurbonliklar va to'g'ri bajariladigan marosimlar koinotdagi tartibni tutib turishga katta hissa qo'shib turadi. Vedalar bilan tanishishda muayyan afsonaviy olamga g'arq bo'lamic. Agar biz hind ma`naviy hayotida **afsonadan logosga** o'tish haqida gapirsak edi, unda uni matnlarning yangi va ancha tushunarli guruhlari (miloddan ilgargi 800-300 yillar) bo'lgan **Upanishadlarga** tegishli deyish mumkin bo'lardi. Upanishadlar veda dunyoqarashining tanqidiy jihatdan idrok etilishidir. Ehtimol, ular ariy madaniyatining ayrim jihatlariga nisbatan norozilikni ifodalar. Eng yangi tadqiqotlar ularda **noariy** tendensiyalarning ta`sirini topmoqda. Biroq bu murakkab masala din tarixchilari ixtiyorida qoldirilishi kerak. Lekin, baribir Upanishadlarga dalil asoslar muvofiq keladi. Bu narsa mazlumlarning o'z ovozini chiqarish usulini topganligini anglatadimi? Biz buni bilmaymiz va faqat taxminlar bilan cheklanishimizga to'g'ri keladi.

**"Upanishada"** atamasi donishmandning o'z shogirdlariga ta`lim berishi jarayonini anglatadi. Vaqt o'tishi bilan bu atama shu jarayonda beriladigan mazmunni ifodalaydigan falsafiy matnni ham ifodalaydigan bo'ldi. Shunday qilib, muayyan ma`noda Upanishadlarni Platonning dialoglari bilan o'xshatish mumkin.

Upanishadlarning markaziy mavzularidan biri tug'ilish va o'limning abadiy "almashinushi" g'oyasidir. Bunday g'oya tirik mavjudotlarning o'limidan keyin yana qayta tirilishini nazarda tutadigan ular ruhlarning ko'chib yurishi

(reinkarnasiya) haqidagi ta`limotga asos qilib olingan. Tug'ilish bilan o'lim o'rtaсидаги abadiy qayta tiklanib turadigan sikl sansara deyiladi. Aynan ana shunday siklda insonning eng teran “mohiyati” (atman) takror va takror qayta tiklanaveradi.

Sharqshunoslik adabiyotlarida nimani **atman** deb tushunish masalasi xususida munozara ko'pdan beri davom etib keladi. Upanishadlarning ayrimlarida, aftidan, atman o'zgarmas va substansial narsa hisoblanadi va idrok etuvchi “men” yoki “ego”dan farq qiladi.

Upanishadlarning boshqa bir muhim qoidasi **atman** bilan **braxmanning** bir-biriga tenglashtirilishidir. “Braxman” so'zining adekvat tarjimasini topish qiyin. Bu holda **atman** bilan **braxmanning** bir-biriga tenglashtirilishi atman absalyut yoki ilohiyot bilan teng degani bo'ladi. Bunga o'xhash qarashlar odam (yoki uning ruhi) Xudo bilan ayni bir narsa bo'la oladigan g'arb mistisizmida ham mavjud. Bunday birlik hind falsafasi va G'arb mistisizmi targ'ib qiladigan zohidona turmush tarzini nazarda tutadi.

Upanishada faylasuflari, shu tariqa olamdan teskari o'girilib olishdi. Ularning maqsadi zohidlarcha **dunyodan qochish** edi. Ularning e'tiqodicha, matndami yoki tabiatdami bo'lishidan qa`tiy nazar “tashqari”da emas, u sening ichingda. Sen “o'z-o'zingni topish”ni o'rganishing kerak. Mistisizm haqida ko'p narsani o'qib olish mumkin, lekin bu mistik bilishni anglatmaydi. U faqat sen tomoningdan va o'zingning shaxsiy sa`y-harakatlaring yordamida ishlab chiqiladi. Hindistonda bunga o'xhash mistik donishmandlik kohinlar tabaqasiga, haqiqiy “braxman”larga xos deb hisoblanardi.

**Atman** bilan **braxman** to'g'risidagi tezis atman absolyutga tengdir, deb talqin etilishi mumkin. Faqat ana shunday sharoitda individ o'limdan keyingi yangi qayta tirilishlarga qodir bo'ladi. Hind falsafasiga binoan odam *sansaran*, hayotlar va o'limlar “xorovodi”dan xalos bo'lishi lozim. Butun hind falsafasi mujassamlashishlarning abadiy siklidan xalos bo'lish (moksha) yo'lini izlaydi. Bunday qoida nafaqat Upanishadlarda, shu bilan birga buddizm falsafasida ham etakchi o'rin tutadi.

Hind falsafasining bu sikldan xalos bo'lishga nima uchun bunchalik alohida e'tibor qaratganligini qisqacha ko'rib, chiqamiz. SHubhasiz, bu unga xos bo'lган, karma haqidagi ta`limotda ifodalangan faoliyat tushunchasi bilan bog'liq edi. Unga ko'ra, bizning hatti-harakatlarimiz navbatdagi hayotda "braxman" yoki kaltakesak bo'lib qayta tug'ilishimizni belgilab beradi – bu million-million imkoniyat ichidan bizning peshonamizga bitishi mumkin bo'lган atigi ikkitagina taqdirdir.

Karma ko'pincha butun hind falsafasining o'zagi bo'lган asosiy tushuncha sifatida ko'rib chiqiladi. Karma hatti - harakat, amalni anglatadi. Karmacha fikrlash uslubi deb ataladigan uslub ayni bir vaqtida falsafaning axloqiy va metafizik mezonlarini ochib beradi, ular hozirgi G'arb falsafasida odatda bir-biridan ajratib qo'yilgan. Bu karmaning reinkarnasiyaga, qayta tug'ilishga ishonch va axloqiy sabablilik g'oyasi bilan chambarchas bog'langandir. Axloqiy sabablilik deganda koinotningadolat bilan sug'orilganligi tushuniladi. Biz har bir kishi o'zi xizmat qilgan narsasini oladigan olamda yashaymiz, lekin bu erda yana keyingi xayotda yaxshiroq holatga erishish imkoniyati ham mavjud. Boshqacha aytganda, saxovatpesha kishi uchun yaxshilikka, gunohkor odamga esa – yomonlikka tomon istiqbollar ochiladi. Dunyodagi barcha nomukamalliklar va azob-uqubatlar odamning o'z hatti-harakatlarining oqibatidir. Biroq muayyan tabaqaga mansublik odam uchun yaxshi va yomon bo'lib hisoblanadigan narsani jiddiy darajada taqdim etadi. Shunday qilib, Upanishadlar tabaqali tizimni legitimlashtiradi. Odamlar muayyan tabaqaga mansub bo'lish xuquqini o'zlarining bundan oldingi hayotida "ishlab topgan".

Karma haqidagi tasavvur evropacha tafakkurga butunlay yot emas. U jumladan, "har bir kishi o'z baxtining yaratuvchisidir" va "nima eksang, shuni o'rasan" kabi maqollarda ifodalangan. Biroq evropacha tafakkurda, hindlarnikidan farqli ravishda, axloqiy sabablilik reinkarnasiya bilan bog'lanmaydi. Reinkarnasiya g'oyasi – bu spesifik hindcha fenomendir.

Shunday qilib, hind falsafasida axloqiy hatti-harakatlar "aylanish"ga kiritilgan. Reinkarnasiya to'g'risidagi ta`limotning G'arbdagi ko'pgina talqinlari, ayniqsa, yangi davrga oidlari uni individning ko'plab hayotlari yoki hatto uning

abadiy hayoti haqidagi g'oyaning ifodasi sifatida ko'rib chiqilgan. Masalan, Nisshening hind falsafasi kayfiyatlar bilan sug'orilgan hamma narsalarning "abadiy takrorlanishi" to'g'risidagi nazariyasi borliqni xristiancha tushunishga pozitiv muqobillik sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Ehtimol, reinkarnasiya g'oyasini u o'lim oldidagi qo'rquvni bartaraf etishi va bizga takror va takror yangicha yashash, ya`ni amalda cheksiz sonli umrlarni yashash imkoniyatini berishi uchun ham ijobjiy baholasa kerak. Biroq bunday mulohazalar shaxsni karmaga oid shakl o'zgarishlar zanjiriga singdirib yuboradigan hindcha dunyoqarashga unchalik muvofiq kelmaydi.

Darhaqiqat, hatti - harakatlar (shu jumladan, nutq va tafakkur), xohish – istaklar va ehtiroslar muammosi hind falsafasi uchun assosiy muammolar bo'lib hisoblanadi. Reinkarnasiya haqidagi ta`limotning ta`kidlashicha, bizning navbatdagi hayotdagi mavjud bo'lish shaklimiz bu hayotdagi orzularimiz va ehtiroslarimizni aks ettiradi.

Buni o'z yo'lida uchraydigan xamma narsani eb, hazm qilib yuboradigan kapalak qurti bilan qiyoslash o'rinli bo'lishi mumkin.

Kapalak qurtiniki kabi xoxish istaklarga ega bo'lgan kishi navbatdagi hayotida unga aylanadi. Kapalak qurti G'arb mentalitetining tobora ko'proq va beto'xtov iste`molga nisbatan to'yim bilmas ehtiros bilan ifodalananadigan xususiyatining obrazi bo'ladi. Shu sababli kapalak qurtiga aylanmaslik uchun unga xos bo'lgan hatti-harakatlar va xohish-istiklardan yiroq bo'lish kerak.

Qadimgi Xitoy tibbiy manbalari (er. av. VIII asrga oid "Ichki olam haqidagi kitoblar")dan ma'lum bo'lishicha, bosh organ "tana knyazi" bu yuksak bo'lib, hayotiy jarayonlar asosan havosimon Si elementi bilan bog'liq. Tanadagi boshqa elementlar bilan aralashib, Si fiziologik jarayonlarni va psixik fe`lni bajaradi deb hisoblangan. "Yurak fikrni harakatlantirgani uchun u fikrimiz asosi, jigar esa hissiyotlarimiz asosidir" deb ta`kidlaydi, qadimgi Xitoy tabiblari. Tabiblar o'sha davrdayoq temperament haqidagi ma'lumotni yaratdilar. Bu ma'lumotga ko'ra temperament 3 ta element: Havosimon Si elementi, qon va balg'amning miqdoriga bog'liq bo'ladi.

1. Agar qon ko'p bo'lsa: odam kuchli yo'lbarsdek jasur bo'ladi.
2. Agar Si elementi ko'p bo'lsa: odam maymun kabi beqaror, harakatchan bo'ladi.
3. Agar shilimshiq modda ko'p bo'lsa, odam kamharakat sust bo'ladi.

Xuddi Hindistonda bo'lgani kabi er. av. I-ming yillikning o'rtalarida paydo bo'lgan Xitoy falsafasi maktablari o'zining etik yo'nalishi bilan ajralib turadi. SHunday mактабнинг eng yirigi Lao-Szi asos solgan mактаб hisoblangan.

**Lao – Szi (miloddan avvalgi 579-499 yillardan)** Xitoylik faylasuf Lao szi Chu podshohligining fuqarosi bo'lib, asl ismi Li Er edi. Lao szi "ustoz Lao" degan ma`noni anglatadi. Lao esa laqab bo'lib, "qariya" deganidir.

Lao szi Chjou saroyida arxiv xodimi bo'lib hizmat qilgan. Konfusiy bilan uchrashgan. Lao szi Chjou saltanatining inqirozga yuz tutganini ko'rib, "iste`foga" chiqadi va tarki dunyo qilib, g'arbgan qarab yo'l oladi.

Chegaraga etib kelganda chegara boshlig'i undan o'z vataniga nimadir qoldirib ketishni so'raydi. Li Er chegara boshlig'iga 5000 belgidan iborat qo'lyozmani topshiradi. Bu tarixda "Daodeszin" ("Ezgulik yo'li yoki kuch va harakat haqidagi kitob") nomi bilan mashhur kitob edi. Bu kitobda Dao ta`limotining mohiyati haqida so'z boradi. Bu "odamlar yuradigan yo'l", degan ma`noni bildiradi. Hozirga kelib "Dao" qonuniyat, qonun degan ko'chma ma`noni anglatadi.

Buyuk ishlar, albatta mayda ishlardan boshlanadi.

Bilguvchi so'zlamaydi, so'zlaguvchi bilmaydi.

Fikrlaringizga ehtiyyot bo'ling – ular qilmishlaringiz ibtidosidir.

Buyuk to'g'rilik egrilikka, buyuk zakovat axmoqlikka o'xshaydi.

Lao - Szining haqida ma`lumotlar ko'p emas. Faqat shu narsa ma`lumki, u Konfusiyning zamondoshi bo'lgan. U yolg'iz yashagan va mashhurlikdan o'zini yiroq tutgan, deb hisoblanadi. Lao-Szining nomi Dao de szin (Yo'l va uning saxovati haqidagi kitob yoki Dao va de haqidagi kitob) degan asar bilan bog'liqdir, lekin bu asarni uning yozganligi aniq emas. Bu asar uning muxlislari tomonidan bitilgan bo'lishi ham mumkin.

Dao de szin daosizm falsafasiga doir klassik matndan iborat. Uni tushunish qiyin, talqin qilishda esa katta muammolar ko'ndalang bo'ladi. Geraklit singari Lao-Szini ham ko'pincha "sirli" va "o'qib bo'lmaydigan" deb atashadi.  *asari tabiat yoki borliqqa oid xitoy falsafasiga qo'shilgan katta hissa bo'ldi. Bu uni amaliy yo'nalishdagi konfusiychilik an`analariga o'xshagan ayrim markaziy falsafiy qoidalaridan ham yaqqol ajralib turadi.*

Lao-Szi uchun "dao" tushunchasi fundamental tushuncha hisoblanadi. Daoni u "noaniq", "cheksiz", "o'zgarmas", "makon va zamonda cheksiz", "tartibsizlik va shakl" deb hisoblangan deyiladi adabiyotlarda. Bunga o'xhash so'zlar vositasidagi ifodalashlar faqat o'zlari ifodalaydigan narsalarning alomati bo'lishi mumkin. Qat`iyroq qilib aytganda, til bunday xolda adekvat bo'la olmaydi, chunki uni xatto salbiy ta`riflar orqali ifodalashda ham daoning nima bo'lishini darhol faraz qiladi. G'arb tafakkurida bunga o'xhash yondashuv *salbiy (apofatik) teologiyaga* o'xshaydi, unga ko'ra biz Xudo to'g'risida ijobiy fikr bildirishga ojizmiz. Biz faqat uning nima bo'la olmasligini ta`kidlashimiz mumkin. SHu bilan birga Lao-Szining Dao haqidagi fikrlari grek naturfalsafasi qo'llagan savollar va javoblar tiplari bilan ko'plab umumiylukka ega fikrlarga o'xshab tuyuladi.

**Konfusiy** (miloddan avvalgi 551 – 479 yillar) Konfusiy Xitoyning sharqidagi Lu knyazligida tug'ildi. U aslzodalar xonadoniga mansub bo'lib, otasi SHulyan Xe Lu knyazligidagi Szou muzofotini boshqargan. Konfusiy tug'ilganda otasi 70 yoshga to'lgan edi. Uch yoshga to'lganda otasidan, 17 yoshida onasidan ayrildi. Oilada Konfusiydan tashqari 9 qiz va bir nogiron o'g'il bo'lgan.

Konfusiylikda uning asoschisi Konfusiy birinchi bo'lib inson psixologiyasida irsiy va hayotda orttirilgan jixatlar mutanosibligi masalasini ko'tarib chiqdi. Uning fikricha, insonga xos psixik jixatlar tug'ma xisoblanadi shuningdek, odam o'z tabiatiga ko'ra mehribon mavjudot, uni tashqi muhit buzadi. Uning zararli ta`sirini engish uchun inson etuklikka erishish kerak.

Konfusiy (milodan avvalgi 551- 479 yilgacha) taxminan Budda, Fales va Pifagor yashagan davrda yashab o'tgan. U yozgan matnlar saqlanib qolmagan, lekin uning ta`limotining asosiy qoidalari Konfusiyning shogirdlari bilan

suhbatlari (savollar va javoblar) haqidagi qisqacha qaydlar to'plami **fikrlar va suxbatlarda** yozib qo'yilgan.

Ular asosan to'g'ri fe'l atvorning ijtimoiy etik muammolariga bag'ishlangan. Ulardan Konfusiy siyomasi an`analarga qattiq rioya qilgan mutafakkir sifatida gavdalananadi. Masalan: u odam faqat an`anani astoydil o'rganish yordamida o'z vazifalarini to'g'ri tushunib etishi mumkin deb hisoblaydi. An`ana, shuningdek, mavjud betartib ijtimoiy shart sharoitlarni isloh qilish borasidagi urinishlarga asos bo'ladigan me`yor tusini kasb etadi. Ana shunday yondashuv tufayli Konfusiy ta`limotida qadimgi yozma manbalarni o'rganish markaziy o'rinni tutadi. Hind falsafasida bo'lgani kabi olamdan qochish emas, balki dunyoga moslashish Konfusiyning asosiy fikri bo'lgan. Konfusiyning bunday qarashlarini uning izdoshi Men-Szi davom ettirgan.

**Men-Szi (miloddan avvalgi 372 (taxminan)-289 yillar)** "Men Koinot fuqorolaridanman", degan ekan Men-szi. U Xitoyning hozirgi Shandun viloyati hududida joylashgan Lu xonligida tug'ilib o'sdi. Men-szi Konfusiyning nevarasi Szi Si qo'lida tahsil olgan. Bu faylasuf mamlakatni muvaffaqiyatli idora etishning 12 qoidasini ishlab chiqqan.

O'zining ana shu g'oyalarini amalga tatbiq etish niyatida u hukumat tizimiga ishga kirish uchun Xitoyning turli xonliklarini kezib, qisqa muddat Si xonligida maslahatchi bo'lib ishlagan. Insonparvarlikka tayangan holda davlatni boshqarish g'oyalarini hayotga tadbiq etish yo'lidagi behuda urinishlardan so'ng Men-szi vatani Luga qaytadi va g'oyaviy qarashlarini o'zi tashkil etgan maktab, shogirdlari, kitoblari orqali targ'ib va tashviq qiladi.

Men-szining asosiy asari "**Men-szi**" deb ataladi. Lyudvig Feyerbax: "Men-szi Xitoyning Konfuysiyyidan keyingi eng buyuk faylasufidir", - deb yozgandi.

Konfusiy kabi u ham inson tug'ma ravishda yaxshi bo'ladi va bunday yaxshilik tarbiya yo'li bilan rivojlantirilishi mumkin, deb hisoblagan. U ham o'z davridagi ko'plab xitoylik faylasuflarga o'xshab o'z umrini turli imperatorlik saroylarida o'tkazgan va shahzodalarga ikkita eng muhim saxovat insonparvarlik

va adolatdan ta`lim bergen. Lekin Konfusiyda yana bir oqim Syun-szi asos solgan oqim paydo bo`ldi.

**Syun – Szi (taxminan miloddan avvalgi 313-235 yillar)** Qadimiy Xitoy faylasufi Syun szi CHjao hoqonligida dunyoga keldi. Miloddan avvalgi 266 yilda Chjaoni tark etib, Sinn sultanatiga jo'nadi va bu erda hoqon Chjao-van hamda uning bosh vaziri Suy bilan hamsuhbat bo`ldi.

Miloddan avvalgi 264 yili faylasuf Si hoqonligiga kelib, “Szisya” akademiyasida dars bera boshlaydi va tez orada sultanatdagi eng ko’zga ko’ringan a`yonlar qatoridan joy olib, olimlarga boshchilik qiladi.

O’ta mustaqilikka va fikrlarini ochiq oydin aytishga odatlangani bois Syun-szi 255 yilda tuhmatga uchraydi. Natijada Si xoqonligidan Chu sultanatiga qarab yo’l oladi va bu erda Lanlin tumaniga hokim qilib tayinlanadi.

Miloddan avvalgi 250 yilda Syun-szi vazifasidan ozod etiladi va Chjao xonligiga qaytib boradi. Oradan ko’p o’tmay u Chu hoqonligi Lanlin viloyati hokimligi vazifasiga qayta tiklanadi. Miloddan avvalgi 238 yili faylasufning homiysi bo’lmish Chun-shen viloyatining hukmdoriga suiqasd qilinadi. Syun-szi noiloj davlat xizmatidan ketadi. U Lanlin viloyatida muqim qolib, shogirdlari bilan birgalikda “Syun-szi” deb nomlangan asarini yozishga kirishadi.

Hukmdorlar-u vazirlar bilan dadil muloqatda bo’lib, o’z fikrini tap tortmay ayta olgan Syun-szi hayotini qashshoqlik va faqirlikda o’tkazadi. Zamondoshlari uning falsafiy salohiyatini munosib qadrlay olmaydilar. U hayotdan shu tariqa ko’z yumadi. Uning fikricha inson o’z tabiatiga ko’ra badjahl bo’lib, mehribonlik bu tarbiyaning natijasidir. Axir bunday bo’limganda insonni tarbiyalashga hojat qolmas edi-ku! Axir o’zingda bor narsaga, intilib nima qilasan. Inson xarakteri kulol loydan yasagan ko’zaga o’xshaydi deb ta`kidlanadi, Syun-szi tomonidan.

Syun-szining g’oyalarini targ’ib qilishda faollik ko’rsatgan shogirdlaridan biri Xan Feydir.

**Xan Fey (miloddan avvalgi 288-233 yillar)** Qadimgi Xitoy faylasufi Xan Fey Xan sultanatining aslzoda xonadonlaridan birida dunyoga keldi. U bolalik chog’idanoq duduqlanib gapirardi. Keyinchalik Syun-szining qo’lida tahsil olib,

Shan Yan, Shen Buxay, shuningdek, daosizm (xitoycha “dao” - qonun demak) ta`limoti bilan qiziqqan.

Xan Fey o’ziga qadar yashab o’tgan ko’plab yirik donishmandlar kabi legistik (“legist” - lotincha “qonun” degan ma`noni anglatadi) dunyoqarash tarafdoi bo’lib, davlatni boshqarish muammolari bilan shug’ullangan. “Qonunlar halqning otasi va onasidir. Xukmdor va amaldorlar, oliy nnervlilar-u past tabaqadagilar - hamma qonunga birdek amal qilmog’i lozim. Bu- buyuk boshqarish san`ati deb ataladi” degan g’oyani yoqlagan.

Xan Fey qonunni birinchi o’ringa qo’ygan Shan Yan (“qonunlar va farmoyishlar - halqning hayoti va boshqaruvning asosidir”), hukmdorlik san`atini birinchi o’ringa qo’ygan Shen Buxay (“Hukmdor qo’l ostidagi amaldorlarni ishlata biladi va xarakatlarining natijasi bilan o’zgalarni lol qoldiradi”), ierarxiya (quyi mansabdagilarning yuqori mansabdagilarga bo’ysunish tartibi) kuchini birinchi o’ringa qo’ygan Shen Dao (“Ahloqsizlarni itoatga keltirish uchun donishmandlikning o’zi etarli emas, ammo donishmandlarni egib olish uchun e`tiborli mavqening o’zi etarli”) qarashlariga tayanib, boshqaruvning “uch quroli” va “ikki tayanchi” haqidagi ta`limotni ishlab chiqdi.

Xitoydagi materialistik oqimning yirik namoyondalaridan biri Van CHun edi. U o’zining mashhur “**Tanqidiy mulohazalar**” nomli asarida tabiatshunoslik va medisinaning o’sha davrdagi - yutuqlari asosida diniy teologik g’oyalarni tanqid qiladi. Tabiat qonunlari inson ruhiyatini bilishda birdan bir xitoylik mutafakkir Fan` Chjen ham o’z davrida ilgari surdi. U ruhning abadiy emasligi aksincha moddiy tananing funksiyasi bo’lgani uchun ajralmasligi va u bilan birga yo’qolishi o’z traktida yozgan “Tana, – deb yozadi u, – ruhning materiyasi, ruh tananing funksiyasidir. Materiya uchun ruh pichoqdek o’tkirdir, o’tkirlik bu pichoq emas. Pichoq mavjud bo’lmay o’tkirlik bo’lishi mumkin emas. Xuddi shunday ravishda tana o’lib ruh qolishi mumkin emas” – deb ta`kidlaydi Fan` Chjen. Shu bilan birga u ruh faqat ma`lum tarzda tuzilgan materiyaga xos ekanligini aytib o’tdi.

Ma`lumki, er.av. IV-V asrda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi jamiyatning tabaqlanishi va quldorlik davlatlarining paydo bo’lishiga olib keldi.

Bu davlatlarda ruhning abadiyligini, u tanani tark etib bermalol xarakatlanib yurishi mumkinligini ta'kidlovchi diniy ideologiya hukmron edi. Shu bilan birga bizgacha etib kelgan manbalarda nafaqat diniy balki, tabiiy bilimlarning asoslari ham ta`riflangan. Narsa va hodisalarni teologik, mifologik jihatdan tushuntirishga xarakat qiluvchi tasavvurlar asta-sekin rasionalizasiyaga uchrab yangi tushunchalar bilan almasha boshladi. Xudo xali ham oliy hukmron bo'lib hisoblansa-da, odam hayotiga o'tkaziladigan ta`siri haqidagi qarashlar avvalgidan o'zgarib bordi.

**4. Psixologiyani rivojlanishining asosiy omillari va tamoyillari.** Hozirgi mustaqillik sharoitida psixologiyaga bo'lgan talab va ehtiyoj juda kuchayib ketdi. Yoshlar ma'naviyatini boyitish uchun ularning dunyoqarashi, tafakkuri, irodasi, umuman olganda ongini o'stirish zarur. Buning uchun eksperimental ishlarni kuchaytirishi, ta'lim jarayonini yangi texnologiyalar asosida qayta qurishi lozim. Hozirda Respublikamiz universitetlarining psixologiya bo'limlari, kafedra, laboratoriyalari ilmiy fikrlar markaziga aylantirildi. Mazkur muassasalarda psixologik tadqiqotlar o'tkazilib, psixik jarayonlar, holatlar, shaxsning individual xususiyatlari, hissiy-irodaviy sohasiga doir nazariy va amaliy bilimlar qo'liga kiritildi. Ayniqsa, fan sohasida tadqiqotlar shu darajada ko'paydiki, ular ma'lum qonun qoidaga tayanishi lozim. Shu bois olib borilayotgan izlanishlarga asos bo'lishi uchun tamoyillar ishlab chiqildi. Shunga ko'ra psixologiyaning tamoyillari quyidagicha:

**1. Determinizm tamoyili.** Bu tamoyiliga ko'ra, psixika yashash sharoiti bilan belgilanadi va sharoit o'zgarishi bilan o'zgaradi. Hayvonlar psixikasining taraqqiyoti tabiiy saralanish bilan, odam psixikasi taraqqiyoti esa ijtimoiy taraqqiyot qonunlari bilan belgilanadi.

**2. Ong va faoliyat birligi tamoyili.** Bu tamoyiliga ko'ra, ong va faoliyat bir-biriga qarama-qarshi ham, aynan bir narsa ham emas. Ular bir butunlikni tashkil etadi. Ong faoliyatni ichki rejasini, dasturini tashkil etadi. Bu tamoyil psixologlarga inson xulq-atvori, xatti-harakatlari va faoliyatlarini o'rganish orqali xatti-harakatlardan ko'zlangan maqsadlarga, muvaffaqiyatlarga erishishni

ta'minlovchi ichki psixologik mexanizm, ya'ni psixikani ob'ektiv qonuniyatlarini ochishga imkon beradi.

**3.Psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi tamoyili.** Bu tamoyilning mohiyati, psixikaga taraqqiyot mahsuloti va faoliyat natijasi deb qaralsa, uni to`g`ri tushunish hamda tushuntirib berish mumkin. Bu tamoyil L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, V.M.Teplov kabi psixologlar ishlarida o'z aksini topgan. L.S.Vigotskiy ta'lim psixikani rivojlantirishga yo'naltirishini, P.P.Blokskiy esa tafakkurning kichik maktab yoshida o'yinlar bilan o'spirinlik yoshida o'qish bilan bog'liq tarzda rivojlanishini tahlil qildi. S.L.Rubinshteyn «Ong faoliyatda paydo bo'lib, faoliyatda shakllanadi» degan edi.

### **Amaliy mashg'ulotlardagi muhokama uchun savollar.**

1. Psixologiya tarixifanining predmeti va metodlari haqida ma'lumot bering.
2. Psixologiya tarixifanining nazariy va amaliy vazifalari haqida izohlab bering.
3. Psixologiya tarixi haqida ma'lumot bering?
4. Psixologiya tarixida psixikaning ahamiyati qanday?
5. Psixologianing rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumot bering?
6. Psixologiya tarixi davrlarini taxlil qiling?
7. Idealizm haqida ma'lumot bering?
8. Materializmhaqida ma'lumot bering?
9. Psixologianing qanday tamoyillari mavjud?

4 bosqich	<p>Psixologiya, psixikaning mexanizmlari, qonuniyatlari va faktlarini o'rganuvchi fan sifatida</p>		<p>Dunyoga materialistik nuqtai-nazardan qarash shakllangan. Rossiya psixologiyasining asosida aks etirish nazariyasi asosiy qonuniyat sifatida ko'rsatiladi.</p>
3 bosqich	<p>Psixologiya hulq-atvor haqidagi fan</p>		<p>XIX asrdan boshlanadi. Psixologiyaning vazifasi ko'rgan narsalarni bevosita kuzatish, aniqrog'i inson hulq-atvorini faoliyatini reaktsiyasini kuzatish deb hisoblangan. Bunda motivlarning o'rni hisobga olinmagan.</p>
2 bosqich	<p>Psixologiya ong haqidagi fan sifatida</p>		<p>XVII asrda tabiiy fanlar rivojlanishi bilan boshlanadi. Fikrlash, xoxlash, his qilish, qobiliyatini ong deb atashgan. O'z-o'ini kuzatish asosiy metod hisoblangan.</p>
1bosqich	<p>Psixologiya jon haqidagi fan</p>		<p>Bu yo'naliish psixologiyada bundan 2500 yil oldin paydo bo'lган. Inson hayotidagi barcha narsalar tushunchalarni, tushunarsiz hodisalarini jon ruh bilan tushuntirishga harakat qilganlar.</p>

## **2-Mavzu: Psixologiyaning dastlabki va O‘rta asrlarda rivojlanishi.**

### **Reja:**

1. Antik davrning psixologik nazariyalari.
2. O‘rta asrlarda psixologiyaning umumiy tavsifi.
3. V-XI asrlarda Yevropa psixologiyasining rivojlanishi.
4. Yangi davrda psixologiyani rivojlanishi va uning birinchi nazariyasi.
5. Psixologiyada ratsionalizm va sensualizm.

*Tayanch so’zlar: psixologiya tarixi, fanning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, animizm, dualism, determinant, indeterminant, realist, nominalist dastlabki qarashlar, antik davr, o‘rta asr, yangi davr, ratsionalizm, sensualizm*

**1.Antik davrning psixologik nazariyalari.** Antik mutafakkirlar tomonidan to’plangan ruh haqidagi ta’limot keyinchalik fanning shakllanishi uchun zamin yaratdi. Insonda jismoniy tanadan tashqari undan farqlanuvchi yana nimadir borligi haqidagi tasavvurlar qadimdanoq mavjud bo’lgan. Eng qadimgi davrlardayoq inson tush ko’rish hodisasi orqali ayrim odamlarning noyob qobiliyatları (masalan, ovdagi muvaffaqiyatlar) o’lim va boshqa hodisalarning sabablarini tushuntirishga intilgan. Ammo dastlabki qarashlar mifologik xarakterda edi. Ular fikrlash orqali emas, ko’r-ko’rona ishonch vositasida egallanardi. Ruh haqidagi qarashlar ko’pincha nafas bilan boflanardi, rujni esa uchar mahluq sifatida tasavvur etardilar. Psixologiya haqidagi fikrlar qadim zamonlardan beri mavjuddir. Ilk davrlarda psixologik xususiyatlarni jonning ishi deb tushuntirilgan. Jonning o’zi esa odam tanasidagi maxsus ikkilamchi jism deb qaralgan. Bunday tasavvurlar "animizm" deb ataladi.

Animizm so’zi -anima "jon" degan ma’noni anglatadi. Jon o’z mohiyatiga ko’ra olovsimon uchqundan iborat ekanligi Geraklit tomonidan, yoki olovsimon atomdan iboratligi Demokrit tomonidan ta’kidlangan. Platonning "ideyalar tug’ma bo’ladi" degan g’oyalari psixologik fikr taraqqiyotiga juda katta hissa qo’shdı. Platon ta’limotiga ko’ra "ideyalar" mohiyati abadiy va o’zgarmas, ularning tabiiy

olamdan tashqarida oliy olam mavjud bo'lib, ularni odam ko'zi bilan ko'ra olmaydi. Platon psixologiyada "dualizm" oqimining asoschisi hisoblanadi.

Dualizm so'zi ikki yoqlamalik yoki ikki mustaqil fikr degan ma'noni anglatadi. Dualizm ta'limoti mohiyati moddiy va ruhiy olam tana va psixikaning bir-biriga bog'liq bo'limgan holda mavjud bo'lib, azaldan qarama-qarshi narsalar deb tushuntiradi. Platonning dualizmdagi shogirdi Arastu (Aristotel eramizdan oldingi IV asr 384-322 yillar) tomonidan bir muncha muvaffaqiyatli bartaraf etildi. Geraklit, Demokrit, Aflatun, Arastularning ta'limotlari keyingi asrlarda psixologik g'oyalarni rivojlanishida tayanch nuqta bo'lib hisoblanadi.

Platon bilan Aristotel yaratgan ruh haqidagi ta`limot o'rtaasrlarda – sharqda ham, farbda ham xukmron bo'lib qoldi. Psixologiyadagi bu oqim keyinchalik (XVIII asrda) metafizik yoki rasionalistik psixologiya deb nom oladi. Bu psixologiya shuning uchun ham metafizik deb ataladiki, uning tekshirish predmeti bo'lgan – ruh, psixik jarayonlar – fizik xissiy dunyo chegarasidan tashqarida mavjud mohiyat, fayri jismoniy bir narsa deb tushuntiriladi; shuning uchun ham rasionalistik deb ataladiki, uning tekshirish metodi tajribadan ajratilgan faqat quruq muloxazadan iborat edi.

Demokrit, Epikur, Lukresiy, kabilar Demokritning ruh haqidagi tasavvurlarni rivojlanishini davom ettirdilar. Lekin Epikurga ko'ra ruh atomlardan emas, o'zgarmas 4 elementlardan: olov- issiqlik asosi, buf - harakati asosi, shamol - sovish, nomsiz 4-element - ruhning ruhdan iborat. Epikurning nomsiz elementini Lukresiy «A», deb atadi. Shuningdek, Epikurning fikricha faqat sezish xususiyatiga ega narsalardagina ruh bo'ladi. Ruhni qanotli arava izvoshchiga o'xshatish mumkin, izvoshchi va otlar o'rtasidagi munosabat, tana va ruh o'rtasidagi munosabat kabidir.

“Psixologiya fan sifatida ruh xaqidagi ta`limotdan boshlanishi kerak edi. Ruh xaqidagi ta`limot odamzot tomonidan ilgari surilgan birinchi ilmiy gepoteza”dir deb yozadi L.S. Vigotskiy.

Anita - ruh haqidagi qarashlar ibtidoiy jamoa davridayoq mavjud bo'lgan bo'lsada er. av. II asrda tabiat va inson xaqidagi tasavvurlar tub burilishga uchrab,

antik olamda dastlabki ruh xaqidagi ilmiy farazlar paydo bo'la boshlaydi. Ilmiy psixologiya va undagi barcha muammolarning boshi shu erdadir.

"Qaysi yo'llar bilan bormagin, baribir ruhning chegarasiga borolmaysan" degan aforizm bilan Efeslik Geraklit (er.av.530 -470 yillar) individual ruh va koinot birligi g'oyasini ilgari surdi. Unga ko'ra barcha narsa asosida olov yotarkan. Organizmdagi olov uchquni psixologiyadagi - ruhdır. U "olvli va nam" holatda bo'ladi. Mast odam qaerga ketayotganini bilmaydi, chunki uning psixikasi namdir" - deb yozadi Geraklit. Uning ta`kidlashicha ruh nami umumiylar logos qonunlari bilan belgilanadi. Bu fikr bilan Geraklit barcha psixik hodisalar moddiy dunyo qonunlariga buysunishni ta`kidlamoqchi bo'ldi. Determinizm prinsipini juda sodda ko'rinishda ta`riflamoqchi bo'ldi.

Miloddan avvalgi Varsning ikkinchi yarmida yashab o'tgan YUnion faylasufi Kratil shunday degan edi: "Geraklit (Buqrot) aytganidek, oqayotgan suvga ikki marta emas, hatto bir marta ham sho'ng'ib bo'lmaydi. Chunki nima haqda gapirmaylik, biz tugal fikr aytib ulgurmasdan uzlusiz o'tkinchilik qonuniga bo'ysunuvchi har qanday voqelikning mohiyati o'zgarib ketadi". Lekin uning g'oyalari psixik hayotni hamma eshiklarini ochishga kalit bo'la olmas edi. Geraklit o'zidan oldin o'tgan milet maktabi, faylasuflari Fales, Anaksimandr, Anasimenlarning ruh bo'linmasligi to'g'risidagi fikrlarini izdoshidir.

Falesning ushbu fikrlari bizning nuqtai nazarimizcha hali hanuz o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uni quyida keltiramiz:

- Eng go'zal narsa nima?
- Odam chunki u Tangrining mahsulidir.
- Eng tez narsa nima?
- Aql u hamma narsani ortda qoldiradi.
- Hammadan donoroq narsachi?
- Vaqt chunki yolg'iz vaqtgina hamma narsani oydinlashtiradi.
- Hamma uchun eng umumiylar narsa nima?
- Umid, chunki u hech vaqosi yo'qlarda ham mavjuddir.
- Eng kuchli narsa nima?

- Zaruriyat, chunki u hamma narsaning ustidan hukmronlik qiladi.
- Eng qiyin narsa nima?
- O'zni anglash.
- Eng oson narsa-chi?
- O'zgalarga maslahat berish.
- Kimni baxtli sanash mumkin?
- Jismoniy sog'lom, ruhiy xotirjam hamda iste`dodini o'stira olgan kishini.
- Baxtsizlikka dosh berishning oson yo'li nima?
- G'animlarning sendan-da yomon ahvolga tushib qolganiga guvoh bo'lish.

Geraklit hayoti: Geraklit Mileet bilan qo'shni bo'lgan dengiz forti Efesda tug'ilib o'sgan. U miloddan avvalgi 500 yillar atrofida, ya`ni Falesdan taxminan 80 yildan so'ng yashab o'tgan.

U podshoh xonadoniga mansub bo'lib, akasining foydasiga shohlik martabasidan voz kechgan.

U "kosmos" so'zini birinchi bo'lib qo'llagan YUnion faylasufi edi. ("kosmos" so'zi "tartib" degan ma`noni anglatadi. Bu so'z dastlab davlat tizimi va hatto ayollarni "tartib"ga keltiruvchi pardoz andoz anjomlariga nisbatan ham qo'llanilgan. "Kosmetika" so'zi shundan kelib chiqqan).

Geraklit to'g'risida bir necha tarixlar ma`lum, biroq ularning real negizga egaligi ehtimoldan ancha yiroq. Bularning hammasiga qaramasdan, saqlanib qolgan parchalar asosida uning obrazini qayta tasvirlash imkoniga egamiz. Geraklit har doim ham o'z zamondoshlari tomonidan tushunilmagan, mahdud, achchiq istehzoli faylasuf sifatida gavdalanadi, u zamondoshlarining o'zini anglab etishmaganligi uchun ularning aqliy qobiliyatlarini juda past deb qaragan. Mana shuning uchun u odamlarning fikrlari va nuqtai nazarlari "bolalarning o'yinchoqlariga" o'xshaydi, deb ta`kidlagan. Geraklitga doir yana bir parchaga binoan, tushunmaydigan odamlar karlarga, "ishtirok eta turib qatnashmayotgan" kishilarga o'xshaydi. Buning ustiga, Geraklit ko'pchilik fikrini nazarda tutib, uning vakillarini "poxolni oltindan afzal ko'radigan eshaklarga" kiyoslaydi.

Zamondoshlarining Geraklit ta`limotini tushunmaganligi, shubhasiz, nafaqat ko`pchilikni noto`g`ri fikrlashi bilan bog`liq edi. Geraklitga faylasuf sifatida “Noma`lum” degan laqab berilgan. U ko`pincha o`z fikrlarini noaniq va ko`p ma`noli majozlar yordamida bayon qilardi. Afsonaviylikdan qat`iyat bilan yiroqlashishga harakat qilgan miletlik naturfaylasuflardan farqli ravishda Geraklit afsonaviylik uslubida bayon qilish tarafdori edi.

U miletliklarda bo`lgani kabi ilmiylik darajasiga ega bo`lmagan. U Parmenidga o`xshab mantiqiy, puxta belgilangan tushunchalarni ham qo`llamagan. Geraklit his qilish va kuzatuvga tayangan – uning nutqi folbinlarning gapso`zlariga o`xshab ketardi.

Bizning bilishimizcha, Geraklit o`z asarlarini Artemida Efesskaya ibodatxonasida saqlagan. Uning ko`p parchalari saqlanib qolgan. 126 ta parcha haqiqatdan ham unga tegishli deb hisoblanadi, 13 ta parchaning muallifi kimligi shubhalidir.

Geraklitning parchalarida boshqa faylasuflar ham esga olinadi. Bu shundan dalolat beradiki, faylasuflar nafaqat tashqi hodisalar bilan qiziqa boshlagan, shu bilan birga ular falsafiy muammolar xususida boshqa faylasuflarning bildirgan fikrlari to`g`risida ham muayyan pozisiyani namoyon etishgan. Natijada, faylasuflar o`rtasidagi bahs-munozaralar va bir faylasuflar asarlarining boshqa faylasuflar asarlarida izohlanishi tufayli falsafiy an`ana vujudga keladi va qo`llab quvvatlanadi.

Fales hayoti: Bizning eng qadimgi grek faylasuflari va ularning ta`limotlari to`g`risidagi bilimimiz g`oyat kam. Bizda ular haqidagi ishonchli axborotlar ko`p emas, ularning o`z asarlari bizga ko`proq parchalar holida etib kelgan. SHuning uchun, ular to`g`risida aytildigan ma`lumotlar taxminlar va ularning ta`limotlari haqida boshqa faylasuflar hikoya qilib ketgan xotiralarga asoslanadi.

Fales miloddan avvalgi 624 yil bilan 546 yil oralig`ida yashab o`tgan, deb hisoblanadi. Bunday taxmin qisman Falesning miloddan ilgarigi 585 yildagi quyosh tutilishini oldindan aytib bergenligi haqida yozgan Gerodot (miloddan avvalgi 484-430/420 yillar atrofida yashagan) fikriga asoslanadi.

Boshqa manbalar Falesning Misr bo'ylab sayohati to'g'risida ma'lumot beradi, bunday sayohat o'sha paytdagi greklar uchun ayniqsa noodatiy hol bo'lgan. Yana shunday ma'lumotlar borki, Fales ehromlarning balandligini hisoblash masalasini uning o'z soyasi o'zining bo'yni o'lchamiga tenglashgan paytda ehromdan tushgan soyaning uzunligini o'lchash yo'li bilan hal qilgan.

Miletlik Fales o'z zamonasidagi etti donishmandning biri bo'lgan. Aytishlaricha, Fales shu etti donishmandning ichida etakchilik qilgan. U birinchilardan bo'lib tabiat haqida fikr yuritgan. Quyosh tutilishi uning oy bilan to'silishi tufayli yuz berishini birinchi bo'lib Fales anglagan, diametr aylanani teng ikkiga bo'lishini isbotlab bergen.

Fales falakiyotshunoslik bilan ham shug'ullanib, quyosh tutilishini oldindan aytib bergen. Fales Misr ehromlarining balandligini ularning soyasiga qarab o'lchagan. U yolg'izlikda hayot kechirib, davlat ishlariga aralashmagan.

Falesning quyosh tutilishini oldindan aytib bergenligi haqidagi hikoya uning ehtimol, Bobildan o'tib kelgan astronomiyaga oid bilimlarni bilganligini ko'rsatadi. U shuningdek, matematikaning greklar tomonidan rivojlantirilgan sohasi geometriyaga doir bilimlarni ham egallagan. (Arifmetika va nol` bizga arablardan etib kelgan. Bizning raqamlarimiz greklar yoki rimliklarniki emas, balki arablarnikidir). Matematik fikrlarning universalligi greklarda nazariya va nazariy tekshirish haqidagi tasavvurlarning shakllanishiga yordam bergen. Darhaqiqat, matematik fikrlar alohida xususiy voqe-a-hodisalar haqidagi fikrlarga nisbatan boshqacha ma'noda haqiqiy bo'lib hisoblanadi. SHuning uchun matematikaga doir universal fikrlar nomatematik fikrlarga nisbatan qo'llananiladiganidan boshqacha usulda tanqid qilinishi kerak. Bularning hammasi dallillash uslublari va idrok etiladigan haqiqatga asoslanmaydigan fikrlarning rivojlanishini zarur qilib qo'ydi.

Ta`kidlanishicha, Fales Miletning siyosiy hayotida ishtirot etgan. U navigasiya uskunalarini yaxshilash uchun o'zining matematik bilimlarini qo'llagan. U birinchi bo'lib, quyosh soati bo'yicha vaqtini aniq belgilab bergen edi. Va nihoyat, Fales qurg'oqchilik tufayli hosil bo'lmaydigan yilni oldindan aytib berib, uning arafasida zaytun moyini shaylab qo'yish va keyinchalik uni foydasiga sotish

yo'li bilan boyib ketgan. Uning asarlari haqida ko'p ma'lumot berish qiyin, chunki bunday asarlar bizga faqat boshqa kishilarning takroriy bayonlari orqali kelgan. Shuning uchun biz ularni bayon qilishda boshqa mualliflarning bu asarlar to'g'risida bildirgan ma'lumotlariga tayanib ish ko'rishga majburmiz. Arastu Metafizika asarida Fales jami mavjudot, ya`ni mavjud bo'ladigan narsalar kelib chiqadigan va yana qaytib borib joylashadigan ibtido haqidagi masalalarni qo'yadigan falsafa turini asoschisi bo'lgan, deydi. Arastu yana shuningdek, Fales bunday ibtido suvdan (yoki suyuqlikdan) iboratdir deb faraz qilgan deydi. Biroq, agar hatto Fales haqiqatan ham shunday deb ta`kidlagan bo'lsada uning bunda nimani nazarda tutganligi aniq ma'lum emas. Bunday izohni hisobga olgan holda biz "Fales falsafasi"ni rekonstruktiv tarzda talqin etishga harakat qilamiz.

Faylasuf Anaksimandr shogirdi Pifagor: "Donishmandlik ibtidosi: fikrlashni o'rganish, vaysaqilikka barham berish" deya ta`kidlab ilk bora tafakkur operasiyalariga e'tibor qaratish kerakligi haqidagi fikrlarni ilgari suradi.

Quyida Pifagorni bir qancha aforizmlarini keltirib o'tamiz, ularni psixologik tahlil qilishga harakat qilib ko'ring.

- Tinglash va sukut saqlash seni donolikka etaklaydi. Sukut-donolikning boshlanishi.
- Bilimlilik va donishmandlikni ayni bir narsa deb hisoblamang.
- Jonzotlarni o'ldirishdan saqlaning, chunki odam o'ldirish jonivorlarni o'ldirishdan boshlangan.
- O'tgan kun haqidagi: "Men uni qanday o'tkazdim, nimalar qildim-u, nimalarga ulgurolmadim?"- degan savollarga javob topilmaguncha ko'zlarining uyquga ketmasin.

**Pifagor hayoti: (miloddan avvalgi 576-496 yillar).** Janubiy Italiyaning Regiya shahrida tug'ilib o'sgan qadimgi YUnion faylasufi Pifagor Mnesarx ismli kishini farzandi bo'lgan. Otasi uni xizmat safariga doimo o'zi bilan olib yurgan. Oqibatda Pifagor qiziquvchan va yangi narsalarni bilishga intiluvchan bo'lib o'sadi.

Pifagor uzoq vaqt davomida Misrda tahlil olgan. Zardushtiylik diniga juda qiziqqan. U Misrda ilm sirlarini o'rganish uchun hatto xatna qildirishga ham rozi bo'lган. Aks holda uni kitoblarga yaqinlashtirishmasdi. U hech qachon yig'lamagan va umuman ehtiros hamda his-hayajonga berilmagan.

Pifagorning quyidagi asarlari ma'lum: "Tabiat haqida", "Davlat haqida", "Tarbiya haqida", "Jon haqida", "Olam haqida", "Ilohiy kalom". Pifagor miloddan avvalgi 496 yilda dushmanlari tomonidan o'ldirilgan. Pifagor hayotning mazmuniga oid qarashlarga "falsafa", deb nom bergan birinchi donishmand edi. Rivoyat qilishlaricha, Fliunt shahriga safari chog'ida hokim Leon Pifagordan so'radi: "Sen qaysi ilm bilimdonisan?" – "Hech qaysi, - deb javob berdi Pifagor. – Men shunchaki bir faylasufman". – "Falsafa degani nima o'zi?"- taajublanib so'radi hokim. Pifagor shunday javob berdi. "Inson umrini bozor va Olimpiya o'yinlariga qiyoslash mumkin. Bozordagi sotuvchilar ham, xaridorlar ham doimo o'z foydalarini ko'zlaydilar.

Olimpiya o'yinlari ishtirokchilari esa shon-shuhrat va mashhurlik payida bo'ladilar. O'yingohdagi tomoshabinlar esa ularni diqqat bilan kuzatadilar. Hayotda ham shunday. Odamlarning katta bir guruhi boylik va shon-shuhrat orttirish maqsadida elib yuguradilar. Ana shu olomon orasida kamchilikdan iborat bir guruh borkim, ular chetdan turib atrofdagilarni jimgina kuzatadilar. Voqealarni, inson tabiatini tadqiq etadilar. Haqiqatni anglash ularning eng sevimli amalidir. Ana shu toifadagi odamlar faylasuflar – donolikni sevuvchilar, deb ataladi. Ular sofoslari, ya'ni donishmandlar emas. Chunki tom ma`nodagi donishmandlik yolg'iz Allohga xos sifat. Bandalar esa donishmandlikka intilish bilan kifoyalanadilar xolos".

Platon fikriga ko'ra inson ruhining 3 ta asosi bor:

1. Hayvonlar va o'simliklarga xos aqlsiz asos. U tufayli tirik mavjudot o'zining tana ehtiyojlarini qondirishga harakat qiladi. Ruhning mana shu qismi bilan odam sezadi, ochlik va tashnalikni sezadi. Bu asos inson ruhining katta qismini tashkil etadi.
2. Asosning intilishlariga qarshi chiqadi.

3. Asos azob va qiyinchiliklar asosidir. Bu qism bilan "odamning jaxli chiqadi, folib chiqish uchun qiyinchiliklarga tayyor bo'ladi». Platon fikriga ko'ra, doim mana shu asoslar o'rtasida kurash kechib, uning oqibatlari tushlarda namoyon bo'ladi.

Platonning tushlarni tushuntirish bo'yicha fikrlari ko'p jihatdan zamonaviy fikrlardan biri freydizmga o'xshab ketadi. Chunki Platon ham ularning asosida mayllar shu jumladan xaqiqiy mayllar yotishini ta'kidlagan. Platon ruh tana o'lgandan keyin ham hayot bo'ladi deb fikr yuritadi. Uning yozishicha: "Agar ruh abadiy bo'lsa, unda ruh haqida nafaqat bu dunyoda balki keyingi uning hayoti haqida ham qayfurish kerak. Platon ruh haqidagi g'oyasining yetakchi qismi xissiyotlardir. Unda Platon birinchi o'rinda odamlar uchun roxatlanish xissi turmasligini aytadi. Qoramol, ot va boshqa hayvonlar uchun shundaydir, lekin odam uchun birinchi o'rin u yoqda tursin, ikkinchi o'rinda ham turmaydi, xatto uchunchi o'rindan ham ancha uzoqdadir. Platon o'zining «Fileb» dialogida roxatlanish, azoblanish va xar ikkisining bo'lmasligi ruhning 3 xil xolatidir deb aytib o'tadi.

Platonning ruh va qalb haqidagi qarashlari, Platon (427-347) bilan Demokritlar deyarli bir vaqtida yashadilar va ijod etdilar. Bular quldorlik aristokratiyasi mafkurasining namoyondalari edilar. Platon jon va tan mutlaqo har xil, hatto qarama-qarshi bo`lgan ikkita mohiyatidir, deb ta'lim bergenlar. Tana moddiyidir, uni tashqi sezgi organlari bilan idrok qilish mumkin: uni ko`rish va sezish mumkin, u fizik jismdir. Jon moddiy emas, balki ruhiyidir: uni sezgi organlari yordami bilan idrok qilish mumkin emas. U tanaga qarama-qarshi bo`lib, fizik jism emas, balki metafizik, sezib bo`lmaydigan narsadir. Jon moddiy dunyoga emas, balki boshqa ideal dunyoga, haqiqatdan yashayotgan ideallar (g`oyalar), "obrazlar" dunyosiga taaluqlidir. Jon inson tanasiga o'sha dunyodan kelib qo`shiladi. Uning tana bilan birga bo`lishi vaqtinchalikdir, tana o`lishi bilan jon yana ideal dunyoga qaytib ketadi.

Yerdagi hayot davomida jon tanaga mahkum etilgan, u zindondagi narsa kabi, doimo ideallar dunyosiga chiqib ketmoqchi bo`lib, intilib turadi. O`z ongini

oshirish yo`li bilan shu dunyo haqidagi eslash insonga haqiqiy demak, Platon fikricha, haqiqiy bilimning birdan-bir manbai-ideallar dunyosidir. Bizning atrofimiz dunyosini sezishimiz va idrok qilishimiz esa, faqatgina o`zgarib turadigan beqaror hodisalar haqida bilim beradi, holos. Biroq jonning (ruhning) ideal holda namoyon bo`lishi ko`pchilik kishilarda to`silib turilishi va moddiy tanaga bo`ysundirilishi mumkin. Oqibatda, jon ideallar dunyosini go`yo esdan chiqarib, materiyaga farq bo`lmog`i mumkin. Shuning uchun ham yer yuzidagi hayot sharoitlarida inson joni, materiyaga qanchalik farq bo`lishi darajasiga qarab, go`yoki 3 qismga bo`linadi. Har bir kishida ularning har biri har xil darajada namoyon bo`ladi. Jonning qaysi qismi ustun chiqishiga qarab, kishining har xil individual xususiyatlari hayotining yo`nalishi, harakteri, mayl va qobiliyatlari paydo bo`ladi.

Geraklitedagi ruh uchqunlari keyinchalik **Demokrit** (er.av.460–370 yillar) ning ta`limotida “olovli atom”larga aylandi. Demokrit va uning ustozи Levkipp (er.av.500—440) atomik materializm nazariyasini ilgari surdilar. Unga ko`ra barcha narsalar 2 ta asosdan - bo`linmas xarakatchan, sharsimon engil atomlardan va bo'shliqlardan paydo bo`ladi. Bu atomning eng harakatchanlari, ya`ni olov atomlari rujni hosil qiladi.

Bitta ilmiy isbotu dalilni qo'lga kiritish men uchun fors saltanatiga hokimlik qilishdan a`loroqdir,- degandi Demokrit.

Yana bir grek mutafakkiri **Anaksagor** (er.av.500-428) ning barcha narsalar gameomeriy nomli mayda moddalardan tashkil topganligi va ularning aql bilan va ya`ni ruh bilan boshqarilishi to'g'risidagi fikr ham Demokritning atomik qarashlariga o'xshaydi. Sochilib ketishidan iborat fizik qonuni tana uchun ham, taaluqli deb hisoblab, Demokrit rujni abadiyligini inkor etadi. Demokrit ruhning tana harakatining sababi deb biladi. Uning yozishicha ruh og'ir tanaga kirib harakatga keltiradi. Tana o'lgandan keyin esa u fazoda tarqalib ketadi. Biz nafas olganimizda rujni tashkil etuvchi atomlarni yutib nafas chiqarganda ruhimizni bir qismini tashqariga chiqarib yuboramiz. Shu tariqa ruhimiz doimo yengillashib

turadi, deb hisoblaydi Demokrit. Uning fikricha hamma narsaning hatto o'likning ham ruhi ham bor, faqat juda kam.

Demokritning bunday fikri panpsixizmga yaqinlashib qoldi. Tanadan tashqari ruh bo'lishi mumkin emas, degan umumiy hukm chiqardi. U nafaqat tana va ruh birligi balki ruhning o'zi tana ekanligini ta`kidlaydi. "Agar ruh tanani harakatlantirsa, demak, uning o'zi tana qismi" deb yozadi Demokrit. Epikur, Lukresiy, kabilar Demokritning ruh xaqidagi tasavvurlarni rivojlanishini davom ettirdilar. Lekin Epikur ta`limotiga ko'ra, ruh atomlardan emas, o'zgarmas 4 elementlardan: olov - issiqlik asosi, bug' – harakat asosi, shamol – sovish asosi, nomsiz 4-element - ruhning ruhidan iborat. Epikurning nomsiz elementini Lukresiy "A", deb atadi. Shuningdek, Epikurning fikricha faqat sezish xususiyatiga ega narsalardagina ruh bo'ladi.

"Anaksagor olov va quyosh ayni bir narsadir, deb hisoblaganda qattiq yanglishgandi, - deydi Suqrot – chunki odamlar olovga bemalol qaray olishlarini, Quyoshga esa hech qachon tik boqolmasliklarini nazardan qochirgan. SHuningdek, Anaksagor inson terisi quyosh nuri ta`sirida qorayishini, olov esa bunday qudratga ega emasligini, o'simliklar Quyosh haroratisiz yashay olmasliklari, olov taftidan esa halok bo'lishlarini unutgan. Anaksagor quyoshni olovda toblangan tosh, deb ta`riflagan. Ammo tosh qancha qizdirilmasin, hech qachon Quyosh kabi yog'du tarata olmasligi kundek ravshandir. Quyosh esa doimo eng porloq yoritgich bo'lib, qolajak".

Suqrot g'oyalari: "Taajubki, haykaltaroshlar toshni insonga o'xshatish yo'lida o'lib tiriladilar-u, ammo o'zlarning toshga o'xshab qolmasliklari haqida qayg'urmaydilar".

"Men bu odamdan donoroqman. Sababi, har ikkimiz ham ba`zi bir joiz va zarur narsalarni bilmasakda, u manmanlik qiladi, men esa manmanlikdan o'zimni tiyaman".

"O'zini anglagan inson o'zi uchun nima foydaliligi va nimalarga qodir ekanligini yaxshi tushunadi. U qo'lidan keladigan ish bilan shug'ullanish asnosida o'z ehtiyojini qondiradi va saodatga erishadi. Har qanday xato va baxtsizliklardan

xoli bo'ladi. Buning natijasi o'laroq, u o'zga odamlarni qadrlay oladi va ulardan ezgulik yo'lida foydalana biladi. Oqibatda o'zini kulfatlardan asraydi”.

**Demokrit hayoti:** Demokrit miloddan avvalgi 460 yildan 370 yilgacha yashagan deb hisoblanadi. Binobarin u Platonning katta zamondoshi bo'lgan. Demokrit Frakiyadagi Abderi koloniyasida tug'ilgan. Ma'lumki, u Afinaga tashrif buyurgan va Sharq hamda Misrga bir necha uzoq muddatli sayohatlarga chiqqan. Ehtimol, u bilish va tadqiqotchilik maqsadlarida sayohat qilgan. U badavlat oilaning farzandi edi. Ammo boylikdan kechib, butun umrini kambag'allikda o'tkazdi. Bor umrini donishmandlikka bag'ishladi.

Demokrit shahar tashqarisida joylashgan er ostidagi sag'anada kechayukunduz tinmay ijod bilan mashg'ul bo'lgan. Demokrit keng bilimlarga ega bo'lgan. U o'z zamonidagi fanning ko'pgina sohalarida samarali ish olib borgan. Uning bir necha asarlari nomini keltirish bilanoq qiziqishlarining keng doirasini ko'rsatish mumkin bo'ladi. “Buyuk diakosmos”, “Vrachlik fani”, “O'limdan keyingi narsalar haqida”, “Tabiatning tuzilishi haqida”, “Jahon tartiboti va tafakkur qoidalari haqida”, “She`riyat to'g'risida”, “Dehqonchilik to'g'risida”, “Matematika to'g'risida”, “To'g'ri nutq va tushunarsiz so'zlar to'g'risida”, “Yoqimli va yoqimsiz harflar to'g'risida” va hakozo.

Demokrit asarlaridan 200 dan 300 gacha parcha saqlanib qolgan. Muayyan ma'noda bu ko'pdır, lekin Demokritning ulkan ijodiy mahsuldor bo'lganligini hisobga olsak, biz faqat uning asarlarining nisbatan kam qismiga egamiz. Shuning uchun bizning uning qarashlarini talqin etishimiz Demokrit haqidagi mavjud ikkilamchi axborotlardan foydalanadigan qayta ta`mirlashlardan iborat bo'ladi.

**Anaksagor hayoti:** Anaksagor taxminan miloddan avvalgi 498 yildan 428 yilgacha yashagan. U yoshlik yillarini Klazomena shahrida o'tkazgan, balog'at yoshida Afinada istiqomat qilgan va u erda intelektuallar o'rtasida ko'zga ko'ringan o'rinni egallagan. Anaksagor Perikl (taxminan miloddan avvalgi 495-429 yillar) muhitiga mansub bo'lgan, lekin o'zining an`anaviy e`tiqodlarga zid bo'lgan qarashlari sababli Afinani tashlab chiqib ketishga majbur bo'lgan. Boshqa

narsalardan tashqari, u quyosh xudo emas, balki katta yolqinlanib turgan tanadir deb ta'kidlagan. Anaksagor asarlarining 22 ta parchasi saqlanib qolgan.

Yunon faylasufi Anaksagor tug'ilganidan so'ng uning na kulgani va na tabassum qilganini ko'rishgan. U faylasuf Anaksimenden tahsil olgan. Anaksagor falsafaga shu qadar sho'ng'ib ketganki, xo'jalik ishlari qarovsiz qolib, butun er mulki poda boqiladigan yaylovga aylangan. Anaksagor hur, noan`anaviy fikrlash tarzi tufayli ta`qiblarga duchor bo'lgan. Bir qancha muddat turmada o'tirgan. Anaksagorning faqat "Tabiat haqida" nomli asari bizgacha etib kelgan.

**Suqrot hayoti:** Suqrot taxminan miloddan avvalgi 470 yilda tug'ilgan va 399 yilda vafot etgan. Uning faol falsafiy faoliyati naturfalsafa davriga (miloddan avvalgi 450-400 yillar) to'g'ri keladi. Sofistlarga zamondosh bo'lgan Suqrot dastlabki Afinalik faylasuf edi va butun umr bo'yи ona shahrida yashagan. Uning otasi toshtarosh, onasi esa doya bo'lgan. U aslzoda va badavlat bo'lmasada, hech qachon o'zining moddiy ahvolinin yaxshilashga urinmagan. Suqrot Ksantippaga uylangan va uch farzandli bo'lgan. U juda ko'rimsiz qiyofaga ega bo'lgan. U doimo eski liboslarda, yalangoyoq yurgan. Ayollar borasida ham Suqrotning omadi yurishmagan. Garchi ikki marta uylangan bo'lsa-da, oilaviy baxtga erisha olmagan.

Suqrot asosiy vaqtini munozara va bahslarda o'tkazgan. Bahslarda doim uning quli baland kelgan. Shuning uchun ko'pincha uning sochidan tortib kaltaklashgan, ustidan kulib haqoratlashgan. Ssqrot hammasiga dosh bergen. Odamlar bundan ajablanishganda ularga qarata shunday degan: «Eshak tepsa uni sudga bera olmayman-ku!».

Suqrot mohir raqqos bo'lgan va bunday mashqni jismning salomatligi uchun foydali deb bilgan. U talabalarga og'zaki saboq bergen va hech qanday yozma manba qoldirmagan. Timey ismli shogirdi: "Ey, ustoz, nima sababdan dono fikrlaringizni qog'ozga tushirmaysiz?" - deb so'raganda, Suqrot: "Ey, Timey o'lik hayvonlarning terisiga ishonching va tirik, barhayot fikrlarga ishonchsizliging juda mustahkam ekan", - deb javob bergen.

399 yil Suqrot bir yurtdoshining fitnasi tufayli fuqorolik me`yorlarini buzganlikda ayblanib, o'lim jazosiga hukm qilingan va qatl etilgan. Sudda

Suqrotning og'zidan chiqqan so'nggi so'zlar shunday bo'lган: "Menga o'lish uchun, sizga esa yashash uchun bu yerni tark etish fursati etdi. Faqat buning qay biri afzalligi Xudodan o'zga hech kimga ayon emas".

Sudda 220 nafar odam Suqrotning aybsizligini yoqlab, 280 nafar kishi esa unga qarshi ovoz bergen. Suqrot Platonning dialoglarida tasvirlanganidek, g'arbiy dunyo ruhiga eng ko'p ta'sir ko'rsatgan kishilar sirasiga kiradi. Suqrot insoniy shaxs sifatida u yuksak ma`naviyati, kamtarin va oddiy turmush tarzi, zukkoligi, samimiyligi, xushfe`lligi va hazil-mutoyibaga moyilligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turar edi. Biroq Afinalik fuqarolar Suqrot ularni ko'chada yoki bozorda yo'ldan to'xtatib, suhbatga solib, qiyin savollarga tutadigan holatlarda muayyan darajada noqulay vaziyatga tushib qolishardi. Bir qator sabablarga ko'ra,

Suqrot ham sofistlar kabi o'zining yoshlik davrini xazon qilib, jamiyat uchun xavfli odamga aylanmoqda, degan qarash ham shakllangan edi. Suqrot hech narsa yozmagan. Uning ta`limoti (mabodo umuman uning ta`limoti xususida gapirish mumkin bo'lsa) haqidagi bizning bilimimiz u haqida boshqalarning yozgan asarlariga asoslanadi. Asosan, bular Platon asarlari bo'lib, Suqrot uning dialoglarida asosiy rol` o'ynaydi. Shuning uchun Suqrotning aslida nimalarni gapirganligini va Platonning dialoglarida Suqrot fikrlari bilan Platon fikrlari o'rta sidagi chegarani aniqlash ancha qiyin vazifadir. Ana shu jihatni e`tiborga olib, Suqrot falsafasini Platonning bayon qilgani tarzda talqin etishga harakat qilamiz.

Qadimgi grek materialistlari, shuningdek idealist Suqrot va Platonlar ham o`zlarining psixologik qarashlarini yozib sistemali bayon qilingan mukammal asar sifatida qoldirmaganlar. Ularning bu fikrlari asosan ayrim-ayrim mulohazalar tariqasida saqlanibqolgan. Platonning psixologik fikrlari esa har xil falsafiy asarlarida diologlarida saqlangan.

Sharqda Aflatun nomi bilan mashhur bo'lган Platonning fikricha, ruhni qanotli ot arava va izvoshchiga o'xshatish mumkin, Izvoshchi va otlar o'rta sidagi munosabat, tana va ruh o'rta sidagi munosabat kabidir. Platonga ko'ra inson ruhining 3 ta asosi bor:

1. Hayvonlar va o'simliklarga xos aqslsiz asos. U tufayli tirik mavjudot o'zining tana ehtiyojlarini qondirishga harakat qiladi. Ruhning mana shu qismi bilan odam ochlik va tashnalikni sezadi. Bu asos inson ruhining katta qismini tashkil etadi.

2. Asos azob va qiyinchiliklar asosidir. Bu qism bilan "odamning jahli chiqadi, g'olib chiqish uchun qiyinchiliklarga tayyor bo'ladi". Platon fikriga ko'ra, doim mana shu asoslar o'rtasida kurash kechib, uning oqibatlari tushlarda namoyon bo'ladi. Platonning tushlarni tushuntirishi ko'p jihatdan zamonaviy fikrlardan biri freydizmga o'xshab ketadi. Chunki Platon ham ularning asosida mayllar shu jumladan, haqiqiy mayllar yotishini ta'kidlagan. Platon ruh tana o'lgandan keyin ham hayot bo'ladi deb fikr yuritadi. Uning yozishicha: "Agar ruh abadiy bo'lsa, unda ruh haqida nafaqat bu dunyoda balki keyingi uning hayoti xaqida ham qayg'urish kerak. Platon ruh haqidagi g'oyasining yetakchi qismi hissiyotlardir. Unda Platon birinchi o'rinda odamlar uchun rohatlanish hissi turmasligini aytadi. Qoramol, ot va boshqa hayvonlar uchun shundaydir, lekin odam uchun birinchi o'rin u yoqda tursin, ikkinchi o'rinda ham turmaydi, xatto uchinchi o'rindan ham ancha uzoqdadir. Platon o'zining "Fileb" dialogida. Rohatlanish, azoblanish va har ikkisining bo'lmasligi ruhning uch xil holatidir deb aytib o'tadi.

Aflatun kelgusi avlodlarga hech qachon eskirmaydigan mana bu o'gitni meros qoldirgan: "Haqiqiy va to'g'ri fikrlay oluvchi faylasuflar davlat tepasiga kelmaguncha yohud hukmdorlar ilohiy iqtidorlari ila tom ma`nodagi faylasuflik maqomiga ko'tarilmagunlariga qadar insoniyat yovuzlikdan qutulolmaydi".

**Platon hayoti:** Platon taxminan miloddan avvalgi 427 yilda Afinada tug'ilgan va 347 yilda shu erda vafot etgan. Uning asl ismi Aristokl bo'lgan. "Platon" uning laqabi bo'lib, yunoncha "keng elkali", "bo'lali" degan ma`noni anglatadi. Bu laqabni unga Suqrot bergen. Aflatunning oilasi badavlat bo'lmasada, aslzodalar avlodidan edi. Otasi Ariston Afinaning oxirgi shohi Kodr avlodiga mansub bo'lgan. Aflatun aslzoda Afinaliklarga xos bo'lgan riyoziyot, musiqa, gramaatika va gimnastikadan ta`lim olgan. Geraklit, Parmenid, Zenon falsafasi

bilan tanishgan. Miloddan avvalgi 407 yilda Suqrot bilan tanishgan. Suqrotning o'limigacha uning eng yaqin shogirdlari qatorida bo'lган.

Ko'п vaqtini she`riyatga bag'ishlagan. Manbalarga ko'ra, u qator dostonlar, lirik asarlar, fojea va komediyalarning muallifi bo'lган. Uning 25 ga yaqin she`riy usulda bitilgan miniatyura- epigrammalari bizgacha etib kelgan. Bundan tashqari uning 23 ta asl nusxadagi va 11ta uning qalamiga mansub deya taxmin qilinadigan suhbat, "Suqrot madhi" deb nomlangan nutqi, shuningdek, 13ta maktubi ma'lum. Aflatunning suhbatlari quyidagilardan iborat: "Protagor", "Fedon", "Parmenid", "Teetet", "Timey", "Kritiy", "Laxet", "Davlat", "Siyosatdon", "Qonunlar", "Fedr", "Fileb" va boshqalar.

Aflatunning Atlantida to'g'risidagi hikoyasi keyingi madaniyatlarning halovatini buzib, avlodlarning ichiga g'ulg'ula soldi. Uning yozishicha, 12 ming yil oldin Gibraltar yaqinida sirli qit'a mavjud bo'lib, bir kecha-kunduz ichida dengiz qa`riga cho'kib ketgan. Aflatun halokatning aniq o'rnnini ko'rsatmagan, ammo faylasufning obro'yi shu qadar baland ediki, darhol g'oyib bo'lган atlantlar mamlakatini izlashga kirishilgan. Uni hozir ham izlashmoqda.

Oilaviy an`anaga rioya etib, uning siyosiy faoliyatga tayyorlashgan. Biroq taqdir boshqacha huki chiqardi. Afina demokratiyasi Spartadan mag'lubiyatga uchradi va Afinadagi hokimiyat qisqa muddatga o'ttizta tiranga o'tdi. O'z navbatida ularning o'rnnini yangi demokratik hokimiyat egalladi, bu hokimiyat 399 yilda Suqrotni o'lim jazosiga hukm qildi, Platon esa uning shogirdi va izdoshi bo'lган. Ehtimol shuning uchun Platon siyosiy faoliyatda, juda bo'limganda o'sha paytda Afinada mavjud bo'lgani kabi turdag'i bunday faoliyatda ishtirok etmaslikka qaror qilgan. U buning o'rniga siyosatni qanday qilib qayta qurish mumkinligi bilan qiziqa boshlagan. Platon Suqrotning sofistlar relyativizmini nazariy jihatdan inkor qilishga doir ishini davom ettirgan, u bunday oqimni ijtimoiy inqirozning namoyon bo'lish shakllaridan biri deb qaragan edi.

Platon ideal davlatning oqilona siyosatini qurish uchun asos bo'lishi mumkin bo'lган tamoyillarni ochib berish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. U siyosiy faoliyatda ishtirok etish o'rniga siyosatning o'zi nima va u qanday bo'lishi

kerak degan masalani tadqiq etishga kirishdi. Bunda Platon ushbu prinsipial masalalar xususida mushohada yuritar ekan, gerkcha **polisni** nazarda tutgan edi.

Platon o'zining siyosat haqidagi g'oyalarin bir necha marta amalga oshirishga urinib ko'rdi. Shunday bir urinish Sisiliyaning Sirakuzi shahrida hukmronlik qilgan tiran Dionisiy 1 (taxminan miloddan avvalgi 430-367 yillar) hokimiyati qoshida, boshqasi – uning o'g'li Dionisiy II ning (miloddan avvalgi 367-344 yillar) hokimligi davrida amalga oshirilgan. Uning har ikala urinishi ham to'la mag'lubiyatga uchradi va Platon Afinaga sog'-omon qaytib ketishga bazo'r muvaffaq bo'ldi.

Platon Sirakuziga qilgan sayohatidan tashqari Janubiy Italiya bo'ylab ham safar qildi va bu erda pifagorchilar bilan tanishdi. Aftidan, bu uchrashuv unga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Ularni quyidagi 1)matematika barcha narsalarning ichki mohiyatidir: 2)olam dualistik tusdadir, bu g'oyalarning haqiqiy borlig'i bilan g'oyalarning soyasi sifatidagi hissiy borliqqa bo'linishda aks etadi: 3)ruh abadiydir va bir jismdan boshqa jismga ko'chib yuradi degan umumiy qarashlar birlashtirgan. Platon va pifagorchilarga, shuningdek, nazariy fan diniy mistisizmga bo'lgan qiziqish va asketik axloq birdek xos edi.

Miloddan avvalgi 388 yilda Platon Afinadagi maktab Akademiyaga asos soldi. U o'zi joylashgan joy – yarim xudo akademga bag'ishlangan qayinzor nomi bilan atalgan edi. Akademiya 900 yildan ziyod amal qilib turdi va imperator Yustinian 1 ning (483-565) farmoniga ko'ra 529 yilda yopildi. Bu Rim imperiyasining tanazzulga uchragan davrida dastlabki xristian monastrlarining ommalashishi bilan qariyib bir vaqtida yuz berdi. 1100-yillarda ilk universitetlar (Balon`ya, Parij) tashkil etilgan vaqtgacha ayni shu manastirlar jamoalari O'rta asrlardagi Evropa madaniy institutlarining asosiy tayanchi bo'lgan edi. Shunday qilib, Platon akademiyasidan boshlab hozirgi universitetlar va "o'qituvchilar hamda olimlar sifatidagi akademiklar" bir qismi bo'lgan uzluksiz an'anaga asos solingan.

Afinadagi Akademiyada nafaqat falsafa, shu bilan birga geometriya, astronomiya, geografiya, zoologiya va botanikadan ham ta'lim berilardi. Biroq

siyosiy ta`lim markaziy o'rinni egallagan edi. Ta`lim ma`ruzalar, munozaralar va birgalikdagi suhbatlarga asoslanardi. Har kuni gimnastika mashg'ulotlari o'tkazilar edi.

Suqrotgacha bo'lган олимлар асарларининг фақат бир неча парчаларигина бизнинг давримизгача етib kelgan. Platondan 30 га яқин кичик ва кatta dialoglar, shuningdek, bir qator xatlar saqlanib qolgan. Bundan tashqari, Platonga bag'ishlangan ikkilamchi adabiyotlar ham mavjud.

Platon ta`limotini qayta tiklashning qiyinligi saqlanib qolgan асарлarning kamligi bilan emas, balki dialoglar yozilgan uslub bilan bog'liqdir. Ularda uzilkesil xulosa va qoidalar yo'q, Platonning o'zi esa ularda juda kamdan-kam namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, Platonning umri mobaynida uning qarashlarining o'zgarib borganligini ham hisobga olish kerak. Odatda Platon dialoglari ichidan uch guruhni ajratib ko'rsatishadi: 1) ilk, «Suqrotcha» dialoglar: 2) Platonning yetuk doktirinasini aks ettiruvchi dialoglar (Davlat shunga kiradi) va 3) so'nggi davrdagi dialoglari, qonunlar shularga mansubdir.

Grek filosoflaridan birinchi bo`lib ruh va ruhiy faoliyat haqida sistemali ta`limot yaratgan kishi Aristotel (384- 322y) bo'lган. Aristotel Platonning shogirdi bo`lib, uning ta`limotiga tanqidiy yondashgan ta'rifiga ko`ra, Aristotel o'z falsafiy ta`limotida idealizm bilan materializm o`rtasida ikkilanib qolgan. Aristotel ruh tana bilan uzviy bog`langan, deb hisoblaydi. Lekin uning fikricha ruh moddiy, jismiy har bir narsa emas.

**Arastu (Arastu) hayoti:** Qadimiy Yunon faylasufi Arastu Frakiyaning Stagira shahrida tug'ilgan. SHu tufayli ba`zan Arastuni Stagirit deb ham atashadi.

Arastuning otasi Nikomax Makedoniya hukmdori Amint II ning shaxsiy tabibi bo'lган. Arastu Makedoniyaning bo'lg'usi hukmdori Filipp bilan bolaligidanoq birga o'ynab katta bo'lган. U 17 yoshidan 37 yoshigacha (367-347) yillar faylasuf Aflatunning Akademiyasida tahsil olgan.

Miloddan avvalgi 343 yildan boshlab Arastu Iskandar Maqduniy (Aleksandr Makedonskiy)ga murabbiylit qila boshlaydi. Iskandar Maqduniy hukmdorlik taxtiga o'tirgach, o'z ustozи va do'stiga atab haykal barpo etadi. Bu haykalning

poyida shunday yozuvlar bor edi: “Iskandar ushbu yodgorlikni Nikomaxning o’g’li, buyuk donishmand va avliyo Arastu xotirasiga o’rnatdi”.

Sharq asotirlarida yozilishicha, bir kuni Iskandar Zulqarnayndan so’radilar:

- Ne sababdan ustozing Arastuni otang Sulton Faylaqus (Filipp) dan ham a`lo ko’rasan?

Shoh Iskandar shunday javob qaytaradi:

- Otam menin jismimni tarbiyalab, osmondan erga olib tushdi. Ustozim Arastu esa menin ruhimni tarbiya qilib, erdan osmon qadar yuksaltirdi.

Arastu peshonasiga sochini tushirib, kalta soqol qo’yib yurgan. Zamondoshlarining guvohlik berishicha, lablari chetidagi doimiy kinoyali tabassum natijasida paydo bo’lgan ajinlar Arastu o’zini faylasuf Aflatunni shogirdi, deb bilishidan darak berardi. Arastu YUnion ilm fani qo’lga kiritgan bilimlarni egallash borasida Aflatunni hatto shoh Iskandardan ham ustun qo’yan.

Miloddan avvalgi 336 yilda Arastu Afina shahrida o’zining xususiy maktabini ochdi. Bu ilmgoh kurash maktablari qatorida va Afinaning shimoliy darvozasidagi Likey maydonlariga tutash erda joylashgandi.

Arastuni hayajonga soluvchi muammolar favqulorra qiziqarli va teran edi. Masalan: inson eng avvalo o’zining sevishi kerakmi yo boshqanimi, degan savol uni ko’p o’ylantirardi. O’zini ko’proq sevgan odamni xudbinlikda ayblaydilar. Boshqa tomondan olib qaralganda esa, inson avvalo o’zining eng yaqin do’sti bo’lgan kimsani ko’proq qadrlashi va sevishi lozim, deyiladi. Vaholanki, har bir odamning o’zidan o’zga sadoqatli do’sti bormi dunyoda? Demak inson avvalo o’zini hurmat qilishi va sevishi lozim, deb fikr yuritadi Arastu. Agar faylasuf Zenon Eleyskiy Arastuga zamondosh bo’lganida shu so’zlari uchun unga ta’zim qilishi turgan gap edi.

Arastu havas qilarli darajada o’tkir zehn sohibi bo’lgan. U 445270 satrdan iborat 28 ta kitob yozgan. Faylasufning “Metodika”, “Metafizika”, “Jon haqida”, “Poetika”, “Osmon haqida”, “Fizika”, “Ritorika”, “Sevgi haqida”, “Uyqu va bedorlik haqida” asarlari shu kitoblar sirasiga kiradi.

Aristotel jon (ruh)ning uch qismi haqida Platon ta'limotidan farq qilib, uch xil jon (ruh) haqida vegetativ, sezuvchi va aqilli ruh turlari haqida ta'limot yaratdi. Vagitativ ruhning faoliyati ovqatlanishda va ko`payishda ifodalanadi. Ruhning bu turi o`simpliklarda, hayvonlarda, insonlarda ham bo`ladi. Hayvonlarda ham insonlarda ham bo`ladi. Sezuvchi ruhning faoliyati sezgi va hislarda xotira va tasavvurlar sezuvchi ruhning faoliyati sezgi vahislarida, xotira va tasavvurlarda namayon bo`ladi. Ruhning bu turi hayvonlarda ham insonlarda ham bo`ladi. Aqli ruhning faoliyati tafakkurda, bilimda va ixtiyoriy harakatlarda yuzaga chiqadi.

Antik psixologiyaning eng yuqori cho`qqisi Aristotel`ning ruh haqidagi mashxur ta`limoti hisoblanadi. Mashxur faylasuf Gegel` aytganidek, «biz psixologiyada ega bo`lgan yaxshi narsalar - bu Aristotel`dan olgan narsalarimizdir. Aristotel` «O dushe» ya`ni «Jon haqida» nomli traktida ruh muammosini sistemali o`rganishga bafishlangan o`z g`oyalarini yoritib beradi.

Shimoliy Gretsya Stariga shahridda tabib oilasida tavallud topgan. Aristotel` 17 yoshda Platonga shogird bo`lib tushgan. Ammo Platonning qarashlari yo`lidan bormadi. Aristotel`ga ko`ra, ruh organik tananing shakli. Bu tanani Aristotel` quyidagi metafora bilan tushuntirdi, «Agar ko`z alohida tirik mavjudot bo`lsa, ko`rish qobiliyati uning ruhi bo`lar edi. Ko`rish qobiliyatini yo`qotgan ko`z aslida ko`z bo`lmaydi, u faqatgina ko`z degan nomni saqlab qoladi, xolos. Bunday nomni chizilgan yoki biror narsadan yasalgan ko`zga ham berish mumkin. Tiriklik ruhsiz bo`lmaydi. Ruh tanani tirik qiladi. Tananing barcha xususiyatlari o'sish, nafas olish, fikrlash asosida ruh turadi. Boshqacha aytganda tana va boshqa organlar ruh xizmatidagi quroldir. «Tana ruh uchun mavjuddir», deb yozadi. Aristotel` ruhni tanadan ajratib bo`lmaydi» degan qat`iy xulosaga keldi. Aristotel` barcha ruhning xarakter va xususiyatlarni «entelexiya» degan maxsus tushunchaga birlashtiradi. Ruhharakat qilmaydi, tana harakat qiladi, lekin bunday tana ruhlidir. Shu tariqa Aristotel` Platonning tana va ruh ajralishi, ruhning qismlarga bo`linishi haqidagi g`oyasini o'tkir tanqid qildi.

Aqli ruh faqatgina insonlarga xosdir. Shu aqliy insonning ruh va uni faoliyati haqidagi mulohazalar Aristotel` psixologiyasida asosiy o`rin tutadi. Uning

fikricha bu ruhiyatning mohiyati yashirin, ilmiy yo`l bilan bilib bo`lmaydigan botir kuchdan iborat. “Ruh haqida aniq tushuncha berish-deydi. Aristotel, har jihatdan haddan tashqari kiyinish, ruh bu jism emas, balki oshanga xosbir narsadir. U mavhum tushunchadir”.

Aristotelning fikricha aqlli ruh ilohiy yo`l bilan paydo bo`lgan: u tanadan tashqarida ham yashay oladi. Tana o`lgandan keyin “Aqlli ruh ilohiy ruh bilan qo`shilib ketadi”. Aristotel ruh va tananing o`zaro munosabati masalasiga katta e`tibor bergen. “Ruh deydi u o`z tabiatiga ko`ra hukmron asosdir, tana esa tobe narsadir”. Forma materiyaga nisbatan qanday bo`lsa, ruh ham tanaga nisbatan xuddi shunday. U hayotga ma’no va yo`nalish beradi. Ruh ta’sir qiladi va harakatlantiradi, tana esa ta’sirlanadi va harakatga keladi. U ruhning birlamchiligi haqidagi umumiy tezisni quyidagi so`zlarda ifodalagan: “ruh tirik tananing sababi va manbaidir”.

Aristotel ruhning mohiyati va uning tana bilan o`zaro munosabati haqida bu o`zigaxos fikrlar bilan birga berdik birinchi bo`lib, o`z-o`zidan kuzatish mumkin bo`lgan ruhiy hodisalarni tasvirlab yozgan va klassifikatsiyalashtirilgan. Uning psixologiyasida hozirgi zamon psixologiyasiga asos bo`lgan ko`pchilik tushunchalarni uchratish mumkin, jumladan: tashqi beshta sezgi va sezgilar haqidagi, ixtiyoriy va ixtiyorsiz prosesslar haqidagi, tasavvur assotsiatsiyalar haqidagi, tafakkur haqidagi, tushunchalar va xulosa chiqarishlar va hakozalar haqidagi ta’limot yaratdi.

Aristotel, inson sezgilarini tashqi moddiy qo`zg`ovchilar ta’siri tufayli hosil bo`ladi degan fikrni takidlagan. Tafakkur haqidagi ta’limotda u Platonning umumiy va mavhum tushuncha-ideal narigi dunyodan kelib chiqqan degan ta’limotini inkor qildi. Aristotel tushunchalarida ifodalangan umumiylilik yakka narsalardan tashqarida yoki yakka narsalardan avval o`zi bor bo`lgan emas, ba’lki yakka narsalarni o`zida bo`ladi, degan ta’limotni ilgari surdi. U qadimgi Grek filiasoflari ichida birinchi bo`lib, mantiqiy tafakkur formalarini mukammal sistemasini ishlab chiqdi. Shunisi diqqatga sazovorki, Aristotel psixik hodisalarni tasvirlar va analiz qilar ekan, organizmdagi ruhiy va fizik (fizioloogik) hodisalar

o`rtasidagi boflanishlarni izladi. Uni psixologiya masalalarini hal qilishdagi materialistik tendensiyalari mana shunda ko`rinadi.

**Epikur hayoti: (miloddan avvalgi 341-270 yillar)** Yunon faylasufi Epikurning vatani – Lampaska shahri bo`lib, Afinadan Samos oroliga ko`chib o'tgan oilada tug'ilgan. Epikur Aflatunning shogirdi Pamfil qo'lida tahsil olgan. Donishmand miloddan avvalgi 310 yilda Lebosdagi Mitilen shahrida, 306 yildan o'limiga qadar Afinadagi o'z "BOG" ida talabalarga falsafadan saboq bergen. Bu bog' Epikurchilarining muqaddas dargohiga aylangan. Epikur umri davomida hech qachon o'zgalarning fikriga tayanmaslikka xarakat qilgan. Jami 300 ga yaqin asar yozgan, biroq ular bizga qadar etib kelmagan. Epikurning ta'limotiga asoslari bayon etilgan uchta maktubi va ba`zi qo'lyozmalaridan parchalargina saqlanib qolgan.

Donishmand umrining so'nggi 14 kuni davomida buyragidagi toshdan qattiq azob chekkan. Rivoyatlarga qaraganda, u issiq suv to'ldirilgan jomga yotib o'tkir sharobni simirgan-da, do'stlariga saboqlarini unutmaslikni vasiyat qilib, hayotdan ko'z yumgan.

Epikur aytadiki: Insonlar yo hasad, yo ko'rolmaslik, yoki nafrat tufayli bir-birining dilini og'ritadilar. Dono kishi esa aql idrok ila bularning barchasidan ustun turadi. Donolikka erishgan odam hatto atayin urinsa ham buning aksini qilolmaydi. Sezgi hech qachon aldamaydi. (Epikur beqaror va yuzaki sezgini barqaror va umumiy sanalmish fikrga qarama-qarshi qo'ygan qadimiy falsafa aqidalarini rad etgan. U sezgini haqiqatning mezoni deb hisoblagan.) Donolik hamma narsaning ibtidosi va buyuk ezgulikdir. Shu bois u hatto falsafadan ham qimmatliroqdir.

Qadimgi grek faylasuflarining talimotiga ko`ra, dunyoning asosida qandaydir bitta moddiy narsa yotadi. Ularning fikricha, inson dunyoning bir qismi sifatida shu moddadon tashkil topadi. Masalan, Falesning (624-547) yillar ta'lim berishicha, butun mavjudotning shu jumladan, inson tabiatining ham asosi suvdir. Inson ruhi va ruhiy hayoti par (bug') shaklida tasavvur qilingan.

Anaksimen (e.a.588-525y) butun mavjudot zichlashish va siyraklashish qobiliyatiga ega bo`lgan havodan tashkil topgan, deb ta`lim beradi. Ruh bu juda siyraklashgan havodir deydi u.


Geraklit Tyomniy (e.a. 544-483y) tabiatning asosi o`t (olov)dir deb hisoblagan. “Hamma narsa olovdan paydo bo`ladi va yana hamma narsa olovga aylanadi”. Butun dunyo, alohida narsalar, shuningdek inson ruhi ham olovdan kelib chiqadi deydi u. Geraklitning fikricha, ruh- bu dunyoning abadiy harakatlanadigan va o`zgarib turadigan asosining - olovning o`tkinchi holatlarining biridir. Hamma narsaning asosi tuproq uning zarrachalaridir deb hisoblagan mutafakkirlar ham bo`lgan.

Empedokl (Sitsiliya orolidan, 483-423y) “Tabiat haqida” degan poyemaning avtori bo`lib bu dunyoning asosida qandaydir bitta stixiya (suv, havo, tuproq yoki olovdan bittasi) emas, balki to`rttala stixiyaning hammasi, ya’ni suv, havo, tuproq yoki olov yotadi deb ta`lim bergen. «Psixologiya fan sifatida ruh haqidagi ta`limotdan boshlanishi kerak edi. Ruh haqidagi ta`limot odamzod tomonidan ilgari surilgan birinchi ilmiy gepoteza»dir deb yozadi L.S.Vigotskiy Anita ruh haqidagi qarashlar ibridoiy jamoa davridayoq mavjud bo`lgan bo`lsada er. av. asrda tabiat va inson haqidagi tasavvurlar tub burilishga uchrab, antik olamda dastlabki ruh haqidagi ilmiy farazlar paydo bo`la boshlaydi. Ilmiy psixologiya va undagi barcha muammolarning boshi shu yerdadir.

«Qaysi yo’llar bilan bormagin, baribir ruhning chegarasiga borolmaysan» degan Aforizm bilan Efeslik Geroklit (er. av. 530 -470) individual ruh va koinot birligi g’oyasini ilgari surdi. Unga ko’ra barcha narsa asosida olov yotarkan. Organizmdagi olov uchquni psixologiyadagi ruhdir. U «olovli va nam» xolatda bo`ladi va mast odam qayerga ketayotganini bilmaydi, chunki uning psixikasi hamdir» - deb yozadi Geraklit. Uning ta`kidlashicha ruh namini umumiyl logos qonunlari bilan belgilanadi. Bu fikr bilan Geraklit barcha psixik hodisalar moddiy dunyo qonunlariga buysunishni ta`kidlamoqchi bo’ldi. Determinizm prinsipini juda sodda ko’rinishda ta`riflamoqchi bo’ldi. Lekin uning g’oyalari psixik hayotni hamma eshiklarni ochishga kalit bo’la olmas edi. Geraklit o’zidan oldin o’tgan

milet maktabi, faylasuflari Fales, Anaksimandir, Anasimenlarning ruh bo'linmasligi to`g`risidagi fikrlarini izdoshi.

Geraklitdagagi ruh uchqunlari keyinchalik Demokrit (er.av. 400 – 370)ning ta`limotida «olovli atomlarga» aylandi. Demokrit va uning ustozি Levkipp (er. av. 500 — 440) atomik materializm nazariyasini ilgari surdilar. Unga ko`ra barcha narsalar 2 ta asosdan - bo'linmas harakatchan, sharsimon va yengil atomlardan va bo'shliqlardan paydo bo'ladi. Bu atomning eng harakatchanlari, ya`ni olov atomlari ruhni xosil qiladi.



**Geraklit**

**Demokrit**




**Platon**

**Aristotel'**

Geraklitdagagi ruh uchqunlari keyinchalik Demokrit (er.av.400 – 370)ning ta`limotida «olovli atomlarga» aylandi. Demokrit va uning ustozи Levkipp (er. av. 500 — 440) atomik materializm nazariyasini ilgari surdilar. Unga ko`ra barcha narsalar 2 ta asosdan - bo'linmas harakatchan, sharsimon va yengil atomlardan va bo'shliqlardan paydo bo'ladi. Bu atomning eng harakatchanlari, ya`ni olov atomlari ruhni xosil qiladi.

Yana bir grek mutafakkiri Anaksagor (er. av. 500 – 428) ning barcha narsalar gameomeriy nomli mayda moddalardan tashkil topganligi va ularning aql bilan va ya`ni ruh bilan boshqarilishi to`g`risidagi fikr ham Demokritning atomik qarashlariga o'xshaydi. Sochilib ketishidan iborat fizik qonuni tana uchun ham, taaluqli deb hisoblab Demokrit ruhning abadiyligini inkor etadi. Demokrit ruhning tana harakatining sababi deb biladi. Uning yozishicha ruh og'ir tanaga kirib harakatga keltiradi. Tana o'lgandan keyin esa u fazoda tarqalib ketadi. Biz nafas olganimizda ruhni tashkil etuvchi atomlarni yutib nafas chiqarganda ruhimizni bir

qismini tashqariga chiqarib yuboramiz. Shu tariqa ruhimiz doimo yengillashib turadi, deb hisoblaydi. Uning fikricha hamma narsaning xatto o'likning ham ruhi ham bor, faqat juda kam. Demokritning bunday fikri panpsixizmga yaqinlashib qoldi. Tanadan tashqari ruh bo'lishi mumkin emas, degan umumiy xukm chiqardi. U nafaqat tana va ruh birligi balki ruhning o'zi tana ekanligini ta'kidlaydi. «Agar ruh tanani harakatlantirsa, demak uning o'zi tana qismi» deb yozadi. Materializm g'oyalar antik psixologiyada anatomiya va medisinadagi yutuqlari bilan mustaxkamlab qo'yiladi. Er.av.VI asrda yashagan tabib va faylasuf Olkmson Krotonskiy fan tarixida birinchi bo'lib, fikrlarning bosh miyada tug'ilishi to`g`risidagi taxminni ilgari surdi. «Medisinaning otasi» Gippokrat (er. av. 460-377) Likseon kabi tafakkur va sezgi organi miya ekanini ta'kidlaydi. Uning yozishicha mana shu qism bilan biz fikrlaymiz, yaxshi va yomonni ajratamiz, tanamizning mana shu qismi bilan ko'ramiz. Miya sof xolatda bo'lgandagina biz soffikrlaymiz».



**Gippokrat**

**Tit Lukretsiy**

**Karr Galen Klavdiy**

Gippokratning ishlari orasida eng katta shuxrat keltirgani temperament haqidagi ta'limotdir. Unga ko'ra, inson temperamentini organizmdagi 4 xil suyuqlik: miyadagi shilimshiq modda, yurakdagi jigardagi safro, qora taloqdagi qora safroning nisbatini belgilab beradi. Qonning ustunligi - sangvinik temperamentiga (lot. - qon), shilimshiq modda ustunligi - flegmatik temperamentiga (grek – shilimshiq modda), safro ustunligi - xolerik temperamentiga (grek - safro, o't), qora safro ustunligi melanxolik temperamentiga

(grek - qora safro, o't) to`g`ri keladi. I.P.Pavlovning aytishicha, Gippokrat son-sanoqsiz variantlar ichida inson xulqini tushuntiruvchi kapital nazariyaga asos soldi.

Qadimgi grek va rim filosoflari Aristoteldan keyin Demokrit (materialistik psixologiya) Platon va Aristotel (idealistik psixologiya) lar yaratgan psixologik ta'limotlar sistemasiga deyarli hech qanday yangilik kiritmadilar. Demokritdan keyin materializmning ko'zga ko'ringan vakillari grek filosofi Epikur (342–271 y.) va rim shoiri-filosofi Lukretsiy Karr (99–55 y.) edilar.

Epikurning fikricha, ruh fayri jismoniy bir narsa emas, «Jismsiz bo'shliqdan boshqa hech narsani fikrlash mumkin emas. Ruhni fayri jismiy narsa degan kishilar alahsirayaptilar» Epikur moddiy bo'lмаган substantsiyaning mavjudligini mutlaqo inkor qilib, «ruh, butun organizmga tarqalgan juda nozik jismdir» deb hisobladi.

Lukretsiy o'zining «Narsalarning tabiat haqida» degan asarida atomistik materializm falsafasini, xususan ruh haqidagi materialistik ta'limotni poetik formada bayon qiladi. U moddiy bo'lмаган ruhning mavjudligini inkor qildi. «Jon, ruh yoki aql moddiy bo'lib, faqat inson tanasiga xos bo'lgan kuchlarnigina tashkil qiladi»... Ruh ham, jon ham, jismiy tabiatga ega. Lukretsiy psixik hodisalarning tanaga bog'liqligini tajribaga asoslanib isbot qiladi. U, «aql ham tana bilan birga o'sadi va so'ladi aql ham tana singari kasallikka duchor bo'ladi, mastlik natijasida xiralashadi degan va shunga o'xshash dalillab keltiradi. Lukretsiy bu materialistik dalillarga asoslanib, ruhning abadiyligi to`g`risidagi ta'limotning yolfonligi haqida xulosa chiqaradi.

Lukretsiy Karr psixik hayotning ba'zi bir hodisalarini analiz qilish bilan ham shufullandi. Masalan, u sezgi organlarga ta'sir etib turgan har qanday qo'zg'ovchi ham sezgi hosil qilavermaydi, balki ma'lum bir kuchga ega bo'lgan qo'zg'ovchigina sezgi hosil qiladi, deb aniqlagan. U birinchi bo'lib sezgi chegaralari haqida ta'limot yaratdi, uyqu va tush ko'rishning sabablarini tushuntirdi.

Psixologiyadagi idealistik oqim Platon izdoshlari tomonidan tarfib qilindi. Uning ruhning kelib chiqishi haqidagi ta'limoti nihoyatiga yetkazilib, Ammoni

Sakksning (e. z. a. I asr), ayniqsa Platonining (b. e. 205–270 y.) ta'limotidagi diniy mistik qarashlar bilan qo'shib ketdi.

Aleksandriyada ma'lum vaqtgacha o'liklarni yorib o'rganishga ruhsat berilishi Aleksandriyadagi 2 ta yirik tabib olim Gerofil va Erazistrantning yangi kashfiyotlariga sabab bo'ldi. Ptolemeyning shaxsiy tabibi Gerofil birinchi bo'lib, nervlar, paylar va boflamlar o'rtasidagi farqni aniqladi, ko'zning tuzilishini batafsil tariflab berdi. Erazistrat bosh miyaning tuzilishini ta'riflab, katta yarim sharlardagi egri va bugriliklarning ko'pligidan odam aqliy jihatdan hayvonlardan ustun turadi degan fikrga keldi. Bu barcha anatomo-fiziologik ma'lumotlarni rimlik tabib Klavdiy Galen (er .av. II asr) umumlashtirdi va yangilari bilan boyitdi. Uning asarlaridan XVII asrgacha keng foydalanildi. Har xil muskullarga boruvchi nervlarni kesish bilan Galen xulosaga keldiki, tananing nervsiz birorta qismi yo'q, birorta harakat, birorta xissiyot ularning ishtirokisiz kechmaydi.

Eksperimentlar orqali Galen orqa miyaning funksiyalarini ham aniqladi. Agar orqa miyani ko'ndalang kessa, kesilgan joydan pastda joylashgan barcha tana qismlari harakatchanligi va sezuvchanligini yo'qotadi, degan xulosani olim asoslab berdi. Galen Gippokratning temperament ta'limotini yanada rivojlantirdi. U barcha narsalarning 4 xil xolati – iliq, sovuq, quruq va nam va 4 xil suyuqlik 13ta temperamentni keltirib chiqaradi, degan fikrda edi. Shu temperamentlarning bittasi normal bo'lib, 12tasida normadan chetga chiqish mavjudligini Galen tushuntirmoqchi bo'ldi.

Ko'rish idrokini o'rganishga afinalik tabib Aleksandr Vfrodiyskiy (139-211) katta xissa qo'shdi.

**2. O'rta asrlarda psixologiyaning umumiyligi tavsifi.** O'rta asrlarda psixologiya falsafaning bir qismi edi. Falsafaning esa mustaqil ahamiyati yo'q edi: u yoteologiyaning dinning xizmatkori deb hisoblanardi. Psixologik ta'limotlar ham shulardan kelib chiqqan edi, chunki faqat muloxaza qilish yo'li bilan dinning ba'zi qonun-qoidalarini – ruhning abadiyligi, odamning kelib chiqishi, narigi dunyodagi hayot va xokazolarni asoslash mumkin edi.

Platon bilan Arastu yaratgan ruh haqidagi ta`limot o`rta asrlarda – Sharqda ham, G`arbda ham hukmron bo`lib qoldi. Psixologiyadagi bu oqim keyinchalik (XVIII asrda) metafizik yoki rasionalistik psixologiya deb nom oladi.

Bu psixologiya shuning uchun ham metafizik deb ataladiki, uning tekshirish predmeti bo`lgan–ruh, psixik jarayonlar–fizik hissiy dunyo chegarasidan tashqarida mavjud mohiyat, g`ayri jismoniy bir narsa deb tushuntiriladi; shuning uchun ham rasionalistik deb ataladiki, uning tekshirish metodi tajribadan ajratilgan faqat quruq mulohazadan iborat edi.

O`rta asr mutafakkirlarining ruh va ruhiy hayot haqidagi mulohazalari, asosan, ruhning mohiyati, uning kuchi, qobiliyatları va kelib chiqishi, uning tana o`lgandan keyingi taqdiri haqidagi, ruhning tanaga bo`lgan munosabati haqidagi masalalarga qaratilgan edi. Ruhning mohiyati haqidagi masala, odatda, Platon va Arastularda qanday hal qilingan bo`lsa, xuddi shunday hal qilinar edi. Ruh o`z tabiatiga ko`ra barcha moddiy va jismoniy narsalarga qarama-qarshi qo`yilar edi. Ruh o`z tabiatiga ko`ra alohida qobiliyatlarga egadir, deb fikr yuritildi.

Shuningdek, o`rta asr mutafakkirlari iroda masalasiga ham alohida e`tibor berdilar. Masalan, Avgustin birinchi bo`lib kishining boshqa ruhiy qobiliyatları orasida irodaning muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yuritgan.

Olovning g`aroyib sifatlarini kim tushuntirib bera oladi? Nega endi u o`zi yorug` bo`la turib, domiga tushgan narsalarni qoraytirib yuboradi? Yoki gulxanda toblangan toshlarning oqarish sababini qanday izohlash mumkin?- deya quyidagi o`zining muloxazakor fikrlarini ilgari surgan:

-Sukunat–shovqinning, yalang`ochlik–libosning, xastalik– salomatlikning, zulmat – yorug`likning yo`qligidan darak bergenidek, yovuzlik ezgulikning yo`qligini bildiradi.

- O`zgalar seni olqishlaganda, sen o`zingdan nafratlan. Seni sen orqali harakat kilmoqchi bo`lganlar olqishlaydi.

**Avgustin Avreliy hayoti:** Avgustin 354 yilda Shimoliy Afrikadagi Tagast shahrida tug`ildi. Uning onasi xristian otasi esa majusiy edi. Avgustinning o`smlirligi Karfagenda qayg`usiz o`tdi. Avgustin ulg`aygach, Karfagendagi

notiqlik mактабида уч yil davомida тahsil oldi. Ana shu vaqt ichida u Siseronning falsafiy qarashlarini katta qiziqish bilan o'rgandi.

Avgustin 375 yildan boshlab 8 yil davомida notiqlik san`ati bo'yicha talabalarga saboq berdi. 384 yilda u Italiyaga yo'l oldi va Milan shahridagi notiqlik mактабида muallimlik qildi. Bu erda nasroniylik diniga kirib, uni chuqur o'rganishga kirishdi.

388 yili Avgustin Afrikaga qaytib, oradan uch yil o'tgach, o'zini butkul diniy ilmlarni o'rganishga bag'ishladi va ko'p vaqt o'tmay Gippon shahrining episkopi Valeriy homiyligi ostida ruhoniyligini qabul qildi.

395 yil epsikop Valeriyning o'limidan so'ng, Avgustin Gippondagi episkoplik kafedrasiga etakchilik qilib, 34 yil – umrining so'nggi damlarigacha shu erda ishladi. U tinmay mutolaa qilar va shunga yarasha o'ta ma'rifatli, bilimdon edi. Avgustin o'zidan juda boy ma`naviy meros qoldirdi. Faylasuf 75 yoshiga qadar umumiy hajmi 232 ta kitobga jo bo'lган 90 ta traktat yozib ulgurdi. Bulardan atigi o'ntasigina bizga qadar etib kelgan.

Mashhur qomusiy olim Isidor Sevilskiy (570-638) Avgustin haqida shunday deb yozgan edi: "Avgustin tafakkuri va bilimi jihatidan hammadan ustundir". Chunki hatto kechasiyu kunduzi harakat qilgan taqdirda ham hech kim u kabi ko'p yozaolmaydi va o'qiy olmaydi.

Dastlab Avgustin o'z davrining mashhur diniy oqimlaridan biri- manixeylik bilan tanishdi. Manixeylik dunyoda ezgulik va yovuzlik dualizmi haqida ta`lim beradi hamda inson ikki ruhga ega bo'lib, ulardan biri ezgu va yorug', ikkinchisi esa yovuz va qora deya uqtiradi. Har bir insonning harakatlari mana shu ikki ruhning to'qnashuvi natijasi bo'lib hisoblanadi. Avgustin bu ta`limotni qabul qildi – u bu dunyoda yovuzlikning mavjudligini tushuntirardi. Ammo bu ko'pga cho'zilmadi, chunki manixeylik Avgustin intilgan ma`naviy hayot uchun kuch bermasdi. Avgustinning bu oqimga qiziqishi intellektual jihatdan ham yo'qotdi. Manixeylikdan qaytgach, u skeptisizm tarafdorligi qatoriga qo'shildi.

Ammo skeptisizm ham Avgustinni qoniqtirmadi va u neoplatonizmga yuz burdi. Avgustin neoplatonizmda yovuzlik haqidagi savolga ma`qul javob topdi.

Ma`naviy hayotni neoplatoncha real tushunish ham Avgustinga ma`qul keldi. U Platon va Plotinni o'rganishdan intellektual orom topdi. Ammo uning shaxsiy tajribasi “to'g'ri tushunish to'g'ri harakatlarga olib boradi”, degan neoplatoncha tafakkurga ishonchiga zid kelib qoldi. Zотан, Avgustin o'zi to'g'riliгini biladigan hayotni boshdan kechirishga qodir emasligini angлardi.

Shu bilan bir vaqtda, Avgustin xristianlar nazariy jihatdan undan zaif bo'lishsa-da, ma`naviy jihatdan undan kuchli ekanliklarini ham tushunardi. Shuning uchun Avgustin xristianlar nazariy jihatdan Avgustinni qoniqtirmasa-da, yuksak boholardi. Umrining ushbu bosqichida u ritorika muallimi sifatida Milanga sayohat qildi. Bu erda Avgustin episkop Ambroziy (Ambrose, 339-397)ning va`zlari ta`sirida qariyib o'ttiz yoshida xristianlikni qabul qildi. Avgustin SHimoliy Afrikaga qaytib keldi va episkoplik qila boshladi. Butun qolgan umrini u cherkovga bag'ishladi. Avgustin 430 yilda, ya`ni vandallar G'arbiy Rim imperiyasiga bostirib kirgan davrda vafot etdi. Avgustin lotin tilida juda ko'p kitoblar yaratdi. Shulardan faqat eng mashhur to'rttasini tilga olib o'tamiz.

“Akademiklarga qarshi” unda Avgustin skeptisizmni rad etadi va o'zining skeptisizm bilan qiziqqan davrini tanqid qiladi. “Erkin iroda haqida”, unda yovuzlik muammosi va iroda erkinligi muhokama qilinadi. “Va`z” Avgustin unda o'z hayotidagi murakkab ma`naviy kurashlarni ochib beradi. Bu kitobda ilk grek antik davridan tugab borayotgan xristian antik davriga o'tish ko'rsatiladi. Avgustin unda rasional grek fuqorosi bo'lib, emas balki alohida individ, his-tuyg'ular aqldan ustun keluvchi ruh va tananing ichki kurashiga berilgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. “Xudo shahri haqida” asarida Avgustin tarix haqidagi o'z tasavvurini va ikki shahar “Podsholik” Zamin shahri va Xudo shahri haqidagi ta`limotni ishlab chiqadi.

O'rta asr mutafakkirlarining ruh va ruhiy hayot haqidagi mulohazalari, asosan, ruhning mohiyati haqidagi, uning kuchi, qobiliyatları va kelib chiqishi haqidagi, uning tana o'lgandan keyingi taqdiri haqidagi, ruhning tanaga bo'lgan munosabati haqidagi masalalarga qaratilgan edi. Shuningdek, O'rta asr mutafakkirlari iroda masalasiga alohida e'tibor berdilar. Masalan, Avgustin

Ipponskiy (353–430 y.) birinchi bo’lib kishining boshqa ruhiy qobiliyatları orasida irodaning muhim ahamiyatga ega ekanligi "haqida" fikr yuritgan.

Irodaning ustunligi haqida, ayniqsa, Duns Skott (1265–1308 y.) ning ta’limotida yaqqol ko’rsatildi. Uning aytishicha, iroda aqldan ham yuqori turadi butun O’rta asr tarixi mobaynida, undan keyingi vaqtarda ham, filosofiya va psixologiyada iroda erkinligi haqidagi tortishuv juda katta o’rin egalladi. Bu masala bo’yicha V asrdayoq ikkita oqim – determinizm va indeterminizm paydo bo’lgan.

Anzel’m Kenterbenskiy (1033–1109 y.) va Shampolik Vil`gel`m (1121–1170 y.) lar realizmning eng ko’zga ko’ringan vakillari edi. O’rta asrlarda psixologiya filosofiyaning bir qismi edi. Filosofiyaning esa mustaqil ahamiyati yo’q edi u teologiyaning – dinning xizmatkori deb hisoblanardi, psixologik ta’limotlar ham shulardan kelib chiqqan edi, chunki faqat mulohaza qilish yo’li bilan dinning ba’zi qonun-qoidalarini – ruhning abadiyligi, odamning kelib chiqishi, narigi dunyodagi hayot va hokazolarni asoslash mumkin edi. Binobarin, kapitalizmning taraqqiyoti va shu munosabat bilan ilmiy metodlarning kelib chiqishi va mukammallahuvi tufayli sxolastik filosofiya, uning bilan birga ratsionalistik psixologiya ham o’z o’rni va ahamiyatini yo’qotgan.

Asta-sekin ruh haqidagi tushuncha hayotning barcha ko’rinishlariga emas, faqat hozir biz psixika deb atalgan darajaga nisbatan qo’llana boshlandi. Psixika kategoriyasining negizida idrok va tafakkurdan tashqari ong tushunchasi yuzaga keldi, buning natijasida ixtiyoriy harakatlar va ularni nazorat qilish imkoniyati tug’ildi. Masalan, Galen (eramizdan oldingi II asr) fiziologiya va tibbiyot yutuqlarini umumlashtirib, psixikaning fiziologik asoslari to`g`risidagi tasavvurlarini yanada boyitdi. Uning ilgari surgan g’oyalari "ong" tushunchasi talqiniga muayyan darajada yaqinlashadi.

**3. V-XI asrlarda Yevropa psixologiyasini rivojlanishi.** Butun O’rta asr tarixi mobaynida, undan keyingi vaqtarda ham, falsafa va psixologiyada iroda erkinligi haqidagi tortishuv juda katta o’rin egalladi. Bu masala bo’yicha V asrdayoq ikkita oqim – determinizm va indeterminizm paydo bo’lgan.

Deterministlar (lotinchadan determinare – belgilamoq) inson irodasi ham, dunyodagi hamma narsalar singari, sababiyat qonuniga bo'ysunadi, binobarin, insonning barcha irodaviy harakatlari ham erkin emas, balki zaruriyat bilan, o'z sabablari bilan belgilanadi, deb ta'lim berdilar.

Indeterministlar, aksincha, inson irodasi va uning xatti-harakatlari xar qanday sababiyatdan xoli hamda zaruriyatga bog'liq emas, deb ta'lim berdilar. Indeterminizm sof idealistik ta'limot edi. Determinizmda esa idealistik tendensiyalar ifodalangan edi. Umumiylar va mavxum tushunchalar haqidagi masala ham iroda erkinligi haqidagi masaladan kam tortishuvlarga sababchi bo'lmaydi. Bunda ikki oqim – realistlar bilan nominalistlar o'rtasida tortishuv ketadi.

Realistlar – umumiylar tushunchalar («universallilar» o'sha vaqtida shunday deb atashardi) real, ob`ektiv xolda mavjuddir va inson aqlida yakka narsalarga bog'liq bo'limgan xolda aks etadi, deb da'vo qildilar. Shunday qilib, realistlar faqat Platonning narigi dunyo ideya (g'oya)lar dunyosi haqidagi, har bir kishi aqlidagi bu g'oyalarning tug'ma ekanligi haqidagi ta'limotini takrorladilar, xolos.

Realizm ilk bora o'rta asrlar falsafasida hukm surdi. O'rta asrlarning ravnaq topish davrida (taxminan 1250 yillar) Foma Akvinskiy mo'tadil realizm g'oyasini ilgari surdi. Universaliyalar Xudoning fikrlashida, yakka narsalarda va inson tafakkuridagi abstraksiya tarzida mavjud bo'ladi. Ammo tugab borayotgan o'rta asrlarda birinchi o'ringa nominalistlar, masalan, Okkam va keyinroq Lyuter ko'tarildi.

**F. Akvinskiy hayoti:** Foma Neapol` shahri yaqinidagi Akvino qishlog'ida dunyoga keldi. U Monte Cassino benediktchilar monastirida tarbiyalandi, Neapol` universitetida tahsil oldi. Ota-onasining istagi qarshi o'laroq, u yaqinda tashkil qilingan dominikanlik ordenining monaxi bo'ldi. Uning otasi graf Landol'f Akvinskiy qirol Fridrix 2 saroyida risar bo'lgan.

Foma Neapol` dorilfununing tayyorlov qulliyotida falsafa va mantiq ilmini o'rgandi. U 17 yoshida Parijga jo'nadi va uch yil davomida o'z davrining nihoyatda mashhur olimi Buyuk Albert fon Bolshtedt qo'lida tahsil oldi. Foma 1249 – 1251 yillarda ustozи Buyuk Albertga ergashib, Kyoln shahriga boradi va u

erda talabalarga ilohiyotdan saboq beradi. 1252 yilda esa Parijga qaytadi va Parij dorilfununida yirik ilohiyotchi olim sifatida ish boshlaydi. Oradan ko'p o'tmay shogird ustozidan o'zib ketadi. Foma Buyuk Albertni yo'lida qoldirib, o'z ilmi bilan hammani hayratga soldi. Dunyoning turli burchaklaridan ko'plab nasroniy o'spirinlar uning huzuriga oqib kela boshlashadi. O'ta muloyimligi va yuvoshligi uchun Fomaga "farishta doktor" deb nom berishgan.

Foma 1272 yili Italiyaga jo'naydi va qadrdon Neapol` dorilfununida ilohiyotdan dars bera boshlaydi. Shunisi hayratlanarlikni bu ilohiyotchi olimning ilmiy asarlari lug'ati qariyb 13000000 atamadan iborat. Bu raqamning salmog'ini anglab etishingiz uchun mana bu dallilarga diqqat qiling:

- rus tili ilmgohining ma`lumotlariga qaraganda, rus tilida jami 440000 ta so'z mavjud:

- sermahsul ijodkor A.S.Pushkinning asarlarida jami 60000 ta so'z ishlatilgan.

20 yoshida Foma Parij universitetiga tahsil olish uchun yo'l oldi va ma`lum vaqt Kyol`nda bo`lgach, bu erga yana tahsilni davom ettirish uchun qaytib keldi. 1245-1248 yillarda u xristianlik bilan aristotelizmni birlashtirish ustida ish olib borgan Al`bert Buyukning qo'lida tahsil oldi.

Foma bir umr ishlab va o'qib o'rganish uchun sayohat qilib yashadi. U salkam 50 yilgina umr ko'rganiga qaramay juda ko'p asarlar yaratdi. U 1323 yilda o'limidan so'ng 49 yil o'tib cherkov tomonidan ilohiyolashtirildi. 1879 yilda uning ta`limoti Rim katolik cherkovining rasmiy falsafasi sifatida tan olindi.

Fomaning eng mashhur asarlari bo'lib, "Teologiya summasi" va "Katolik e`tiqodining majusiylikka qarshi haqiqatlari summasi" nomli teologiya bo'yicha darsliklari hisoblanadi. Bu katta va tez yozilgan asarlarga qo'shimcha ravishda u falsafiy va theologik mazmunda juda ko'p asarlar yaratdi. Ular orasida "Bibliyaga sharhlar", "Knyazlar hukmronligi haqida" va "Bahsli masalalar" asarlari ham bo'lib, ular yovuzlik, haqiqat, ruh va boshqa shu kabi muammolarni ko'taradi. Fomaning quyidagi asarlari bizgacha etib kelgan: "Tafakkurning yaxlitligi xususida ibn Rushdga qarshi mulohazalar", "Olamning manguligi haqida vaysaqilarga qarshi mulohazalar", "Mo''jizalar xususida", "Ollohning qudrati xususida", "Farishtalar

xususida”, “Iblislar xususida”, “Tabiatning sirli ishlari xususida”, Arastuning “Metafizika kitobiga sharh” va xokozo. Foma 1274 yilning bahorida vafot etdi.

Anzel'm Kenterbenskiy (1033-1109 y.) va Shampolik Vil'gel'm (1121-1170 y.) lar realizmning eng ko'zga ko'ringan vakillari edi.

Nominalistlar (lotinchadan. nominale – nom, ot) umumiy tushunchalarni faqat predmetlarning nomlaridir, deb hisoblaydilar. Realistlarga qarama-qarshi o'laroq, nominalistlar faqat individual sifatlarga ega bo'lgan alohida-alohida narsalarnigina real mavjuddir, deb da`vo qildilar. Umumiy tushunchalar esa faqat biz butun bir klassga kiradigan predmetlarning hammasiga tatbiq qilinadigan so'zlardir. Nominalistlarning ta'limotlarida ba`zi bir o'rta asr mutafakkirlarining materialistik tendensiyalarida ham ifodalangan.

Nominalizmning eng ko'zga ko'ringan vakillari I.Rosselin (1050-1125 y.), Duns Skott (1265-1308 y.), Vil`yam Okkam (1200-1349 y.)lar edilar. Ayrim psixik jarayonlarni tushuntirishda ham ba`zi bir psixologlarda materialistik element va tendensiyalar namoyon bo'ldi. Masalan, O'rta Osiyolik shifokor va faylasuf Ibn Sino (980-1037 y.) va Arab mutaffakiri Ibn Rashid (1125-1198 y.)lar Aristotelga ergashib, «sezuvchi ruhning harakatlanuvchi va jozibador kuchlarini» o'rganish uchun harakat qildilar. Ular sezgilarni keltirib chiqargan qo'zfovchilardan farq qilish zarurligi haqidagi masalani qo'yadilar, ong faoliyati bilan fiziologik jarayonlar o'rtasida yaqin aloqa va bog'lanishlar o'rnatishga intiladilar.

**Uilyam Okkam hayoti:** Ingliz faylasufi Uilyam Okkam Londonning janubiy g'arbida joylashgan Okkam shaharchasida tug'ilib o'sdi. U Oksford dorilfununing ilohiyotchi olimi Duns Skott (1266 - 1308) qo'lida ta`lim oldi. Uilyam 1324 yilga qadar Oksford dorilfununida tahsil oldi va o'qituvchilik qildi. Bu ilm dargohida tez-tez ilmiy munozaralar, mubohasa, himoyalar o'tkazilib turilardi. Ilmiy bahslarda odatda talabalar o'zlarining muayyan fikrlarini o'rta ga tashlashar, boshqa qatnashchilar esa unga e'tiroz bildirishardi. Talaba o'z fikrini qa`tiy himoya qilib, ularga munosib javob berishi munozara ishtirokchilarining asosiy sharti hisoblanardi. Bunday bahslar odatda keskin, hayajonli bir vaziyatda o'tar va ko'pincha mushtlashuv bilan tugardi.

Uilyam ilohiyot magistri darajasiga erishgan olim. U fan tarixida yangi uslubiy qoidalari muallifi sifatida nom qoldirdi. Faylasufning bu qoidalari keyinchalik “Okkam ustarasi” deb nom olgan. Okkamning mashhur “ustarasi” o’simlikning ortiqcha novdalarini kesib tashlovchi tokqaychi kabi bilish, anglash daraxtidagi tekinxo’r atamalarni yo’qotishga xizmat qilgan. Okkam ilmiy bilish uslubida oddiylik, soddalik tamoyillariga rioya etishni afzal hisoblagan.

Okkam 1323 yilda Oksford dorilfununi kansleri bilan janjalashib qoladi. Kansler faylasufga qator ayblar taqab, papa Ioann XXII ga xabarnoma yo’llaydi. 1324 yilda Okkam papa Ioann XXII ning Avinondagi qarorgohiga jo’natiladi. U Avinon ibodatxonasining turmasida to’rt yil sud hukmini kutib yotadi va 1328 yilning may oyida olmon imperatori Lyudvig IX Bavarskiy huzuriga qochib boradi. Faylasuf umrining oxirigacha Olmoniyada yashaydi. 1349 yili Uilyam Okkam Myunxen shahrida vabo bilan og’rib, vafot etadi. Bizning bilimimiz sezgilar tufayli hosil bo’ladi – deydi Okkam. Ayrim psixik jarayonlarni tushuntirishda ham ba`zi bir psixologlarda materialistik element va tendensiyalar namoyon bo’ldi. Masalan, O’rta Osiyolik shifokor va faylasuf Abu Ali ibn Sino (980-1037 y) va arab mutaffakiri ibn Rashid (1125-1198 y)lar Aristotelga ergashib, “sezuvchi ruhning harakatlanuvchi va jozibador kuchlarini” o’rganish uchun harakat qildilar. Ular sezgilarni keltirib chiqargan qo’zg’ovchilardan farq qilish zarurligi haqidagi masalani qo’yadilar, ong faoliyati bilan fiziologik jarayonlar o’rtasida yaqin aloqa va bog’lanishlar o’rnatishga intiladilar.

Qadimgi Rossiyada kitob madaniyati boshlanishi bilan (X-XI asrlarda) psixologiya sohasida Farb va Sharq mutafakkirlarida qanday tarkib topgan bo’lsa, xuddi o’sha xolda fikr va bilimlar tarqala boshlaydi. Bu bilimlarning eng muxim manbai Vizantiya mutaffakkirlari Ioann Damaskning (673-777 y.) grek tilidan slavyan tiliga tarjima qilingan «Dialektika» va «Haqiqiy imon haqida» degan asarlari edi.

I.Damaskin ta’limotiga ko’ra, ruh alohida iloxiy substansiyadir. U so’z, aql-idrok hamda erkin irodaga ega bo’lgan fayri jismoniy, oddiy, tirik va abadiy mohiyatdir. Ayni vaqtida ruh inson tanasi bilan birikib bitta mavjudotni tashkil

qiladi. Uni insonning o'sish va ko'payish kabi funksiyalaridan ajratish mumkin emas. Ruh tana organlaridan o'z qurollari sifatida foydalanadi va xulq hamda xattiharakatlarida namoyon bo'ladi. Ayni vaqtida Damaskin ruh tanaga bog'liq: masalan, u biologik o'sishga va boshqa tashqi sabablarga qarab o'zgaradi deb ta'kidlaydi. Biroq Damaskin ruh va tananing birligini yashirin, qanday birlashganligi sirli bir hodisa va insonning aqli buni bilishda ojizlik qiladi, deb hisoblaydi. Bu fikrlarda Aristotelning ta'siri va xissasi ko'rinish turibdi.

Rasionalistik psixologiya fan taraqqiyotidagi bosqichlardan biridir. Hozirgi vaqtida bu psixologiyani bilish tarixiy jihatdan qiziqarli, xolos. Bu psixologiya qandaydir ilmiy yoki amaliy ahamiyatga ega emas. SHu psixologiya negizida ishlab chiqilgan terminologiyaganiga undan qolgan meros deb hisoblash mumkin.

O'rta asrlarda psixologiya falsafaning bir qismi edi. Falsafaning esa mustaqil ahamiyati yo'q edi: u yoteologiyaning–dinning xizmatkori deb hisoblardi. Psixologik ta`limotlar ham shulardan kelib chiqqan edi, chunki faqat mulohaza qilish yo'li bilan dinning ba`zi qonun-qoidalarini– ruhning abadiyligi, odamning kelib chiqishi, narigi dunyodagi hayot va hakozolarni asoslash mumkin edi. Binobarin, ilmiy metodlarning kelib chiqishi mukammalashuvi tufayli sxolastik falsafa bilan birga rasionalistik psixologiya ham o'z o'rni va ahamiyatini yo'qotgan.

**4.Yangi davrda psixologiyani rivojlanishi va uning birinchi nazariyasi.**

XV – XVI asrlarda ilm – fanga yangicha qarashlar paydo bo'ldi. Bu yangicha qarashlar ratsionalizmga va nazariy yondashuvlarni amaliy asoslashga qaratilgan edi. Bu esa psixologiya fani rivojlanishida yangi bosqichga qadam qo'yishni anglatdi. Aynan shu yondashuvlar olimlar uchun yangi psixologik kontseptsiyalarni ishlab chiqish uchun motiv bo'lib xizmat qildi. Psixologiya fanining dastlabki shakllanish jarayonida, falsafaning tarkibida edi. Buni psixologiyaning predmeti faqatgina "jon – ruh" deb qaralganida yaqqol kuzatish mumkin. Psixologiya rivojlanish jarayonida nafaqat jon – ruh borasidagi muammolarni, balki insonning shaxs sifatida shakllanishi jarayonida uning psixik rivojlanish qonuniyatlarini o'rgana boshladi.XVII asr psixologlar ko'z o'ngida

psixikaga bo’lgan qarashlarning tubdan o’zgarishi davri sifatida namoyon bo’ladi. Psixologik fikr taraqqiyotidagi yangi davrini “fanlar malikasi” bo’lib hisoblangan mexanika fani ta’sirida paydo bo’lgan kontseptsiyalar ochib berdi.

Yangi davr psixologiyasi rivojida ko’plab olimlar turli g’oyalari bilan o’z hissalarini qo’shganlar. Rene Dekart (1596 – 1650) o’z qarashlari bilan psixologiya fani rivojiga o’zining salmoqli hissasini qo’shganlar. Frantsuz faylasufi, matematigi va tabiatshunosi Rene Dekart ham Bekon va Gobbslar singari tabiat fanlaridagi tajriba metodiga katta ahamiyat beradi. Lekin ayni vaqtda u ratsionalistik metodning himoyachisi ham bo’lib chiqdi.

Dekart boshqa olimlardan farqli ravishda barcha yondashuvlarga shubha bilan qarardi va o’z shubhalanuvchanligi bois eng haqqoniyligi bilimlarni jamlardi. U o’z shubhalari asosida barcha narsani inkor etish mumkin deb hisoblardi va shu izlanishlari oqibatida “Men fikrlayapman, demak MEN borman, mavjudman” degan tamoyilni o’zi uchun qabul qildi hamda o’zining barcha izlanishlari unga asoslangan holda qurdi. Dekart ikki mustaqil substantsiya mavjud – Ruh (birlamchi asos) va Tana (borliq) deb hisoblardi. Ruhning asosiy xususiyati tafakkur deb hisoblaydi, tana xususiyati esa – tortilishdir. Dekart tafakkur deganda faqatgina tafakkur operatsiyalarini emas, balki sezgi, tasavvur, hissiyot kabilarni ham kiritgan. Inson o’z ruhiyatidagi barcha holatlarni his etadi, biladi. Demak, inson psixikasi anglangan faoliyatlardan iborat deb hisoblaydi. Dekart ongning tarkibiy qismi sifatida g`oyalarning uch turini ajratadi:

1. Insonning o’zi tomonidan shakllanitirilgan g’oyalari; insonning o’zi tomonidan shakllanitirilgan g’oyalari asosan insonning o’z malakasi oqibatida shakllantiriladi. Bu malaka va bilimlar induktsiya yordamida vujudga keladi va Dekart uni Enumeratsiya deb atagan. Dekart Bekon tomonidan taklif etilgan anglash jarayonini inkor etmaydi. Lekin bu yo’l bilan tarkib topgan g’oyalari insonni ob`ektiv qonuniyatlarga emas, balki alohida predmetlar borasidagi bilimlarga yetaklaydi deydi.

2.O'zlashtirilgan g'oyalarni o'rganish, bilim olish, boshqalar bilan muloqoti va kitoblarni o'qish jarayonida orttiriladi. Bu turdag'i g'oyalar bir necha shaxslar malakasiga asoslanganligi bois haqqoniyligi ortadi.

3. Tug`ma g'oyalar. Faqatgina tug`ma g'oyalar inson ongida paydo bo'ladi va insonning asl mohiyatini ochib beradi. Bu bilimlar shunchalik aniqligidan, mantiqiy fikrlar va sezgi xususiyatlari ishtirokini talab etmaydi.

Dekartning aytishicha, bu metod hatto tajriba (empirik metoddi) dan ham mukammalroqdir. Dekart misol tariqasida deduktiv metodga asoslangan, binobarin eng aniq fan bo'lgan matematikani ko'rsatadi. Dekartning fikricha to'liq ilmiy falsafa tizimi shu jumladan psixologiya ham faqat ratsionalistik metod asosidagina qurilishi mumkin. Dekart o'zining psixologiya sohasidagi ta'limotini asosan o'zining "Ruh ehtiroslari haqida" degan asarida bayon qilgan.

Dekart tana bilan rujni bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi deb hisoblaydi. Tananing mohiyati barcha moddiy narsalarniki singari o'rinni ishg'ol qilish, fazoviylikdir, ruhning mohiyati esa tafakkurdir (Dekart sezgi, tasavvur va irodani ham shunga kiritadi). Uning fikricha ruh faqat insonlarga xosdir, hayvonlar esa aksincha ruhga ega emas. Hayvonlar –murakkabroq mashinadir, xolos. Inson tanasi ham xuddi shunday murakkab mashinadir. Ruhning faoliyati sezgilar xotira, tafakkur, iroda o'z qonuniyatlariga ya`ni ruhiy qonunlarga binoan ro'y beradi. Shunday qilib, psixik va fiziologik jarayonlar parallel holda ro'y beradi. Shuning uchun ham Dekart XX asrgacha bo'lgan psixologiyada keng tarqalgan nazariyaning ya`ni psixofizik parallelizm ta`limotining asoschisi hisoblanadi.

Dekart ta`limotiga ko'ra, ruh va tananing bir-biri bilan aloqasi faqat ruhning tanada bo'lishidan kelib chiqadi, xolos. Dekart ruhning makoni miyaning asosida joylashgan shishsimon bez deb taxmin qildi. Dekart zamonasida shishsimon faqat odamlardagina topilgan edi. Biroq tez vaqt ichida u bir qancha hayvonlarda ham topildi albatta, bu Dekartning ruh va tananing munosabati haqidagi ta`limotini rad etilishiga sabab bo'ladi. Dekart inson organizmini o'rganishga katta e'tibor berdi. Uning ta`limotiga ko'ra, organizmning faoliyati ayrim-ayrim iplar singari organizmga tarqalgan va bir markazda miyada birlashadigan nervlar yordami bilan

amalga oshiriladi. Shu nerv tizimi orqali organizm sezadi, idrok qiladi va atrofdagi olam hodisalarini biladi. Nerv iplari orqali miyada u yoki bu javob mushak harakatlari beriladi. Masalan, Dekart birinchi nerv fiziologik jarayonlarning mexanizmini aniqladi, fiziologiyaga “refleks” tushunchasini kiritdi. Xususan, keyinchalik “shartli reflekslar” deb nom olgan nervlar o’rtasidagi yangi bog`lanishlar mexanikasini ham u tasvirlagan. Shuning uchun ham genial ru fiziologi I.P.Pavlov o’z institutida frantsuz faylasufi Dekartning haykalini o’rnatgan.

Dekart tajribaga asoslangan tekshirish yo’li bilan hosil qilinadigan bilimlarga katta ahamiyat bergen. Lekin shuning bilan birga matematika va falsafaga doir eng umumiy tushunchalar tajribadan hosil qilinmaydi, balki ular bizda tug`ma holda mavjuddir. Bu erda Dekart, Platon va o’rta asr realistlari tomonidan targ`ib qilingan “tug`ma idealar” haqidagi ta`limotni quvvatlantirdi. Shunday qilib, Dekart psixika (ruh) haqidagi ta`limotda o’taketgan idealist, tabiat haqidagi hayvon va inson haqidagi ta`limotda esa mexanistik materialist edi. Xulosa qilib aytilganda Dekart mutafakkir sifatida bir oyog`i bilan O’rta asrlarda, ikkinchi oyog`i bilan esa Yangi davrda turgan deyish mumkin.

Frantsuz matematigi, tabiatshunos va faylasufi Dekartning ismi bilan psixologiya tarixidagi g`oyat muhim bosqich boshlanadi. Aynan, u o’zining ong haqidagi ta`limoti bilan Aristotelning ruh haqidagi ta`limotidan psixika to’g`risidagi tushunchalarning ajralib chiqishi uchun asos yaratdi. U avtomat kabi mexanik ishlovchi organizm modelini tanlaydi va u bilan o’sha kunlargacha ruh bilan boshqariluvchi bo’lib hisoblangan tirik tanani uning ta`siridan “xolos etdi”. Shu davrda Garve tomonidan qon aylanishining kashf qilinishi “organizm mexanik mashina” degan fikrni rivojlantirdi. Unda yurak qon o’tkazuvchi nasos bo’lib hisoblanadi va bu jarayonda ruhning hech qanday funktsiyasi yo’q deb ta`lim berildi.

Dekartgacha barcha faoliyat jarayonlari, yerdagi hayot tashqarisidan energiya oluvchi maxsus agent ruh bilan boshqariladi, deb hisoblab kelindi. Ammo Dekartdan boshlab, tana mexanika qonunlariga asosan tuzilgan avto tizimdir,

undagi organlarning ishlashi ham tananing faoliyati ham, boshqa tanalar bilan aloqasi ham, ruhga muhtoj emas, deb takidlandi. Lekin, bu bilan ruh “ishsiz” bo’lib qoldimi? Yo’q, Dekart ruhni hech narsaga bog’liq bo’lmagan oliy substansiyagacha ko’tardi. “Ruh ongning uzluksiz bo’lmagan hodisalari-fikrlaridan iborat” deb aytdi olim.

Ruhning birdan bir asosiy belgisi uning fikrlashidir. Fikrlashdan to’xtash ruhning yo’q bo’lishiga olib keladi, deb hisoblaydi. Dekartning tana va ruh substansiyalarini o’zaro taqqoslashi shunga olib keladiki, Dekart tana o’z tabiatiga bo’linuvchi, ruh esa bo’linmas, shuning uchun u turli xil narsa degan xulosaga keldi. Dekart dualizmning ma`nosi shuki, tana va ruh mustaqil substansiyalardir. Ularning har qaysisi mavjud bo’lishi uchun o’zidan boshqa hech narsaga muhtoj emas. “Ruh butunlay mening tanamdan butunlay ayru bo’lib, u tanamsiz ham mavjud bo’la oladi”.

“Bizdagi issiqlik va harakat fikrga bog’liq bo’lmagani uchun ular faqat tanamizga tegishlidir” deb yozadi Dekart. Buni Dekart ruhsiz tanalar ham, masalan, olov issiqlikka ega bo’lishi va harakatlanishi bilan isbotlashga harakat qiladi. Hayotni ruh bilan bog’laganlar xato qiladilar. Negaki “o’lim hech qachon ruh tufayli sodir bo’lmaydi, balki tananing muhim qismidagi buzilishi tufayli ro’y beradi” deb ko’rsatadi.

Dekartning fikriga ko’ra asoslarning asosi shubhlanishdir. Uning fikricha, hamma tabiiy va g`ayri tabiiy narsalardan shubhalanish kerak. Chunki shubhalanganda inson odatdagidan ko’ra yaxshiroq fikrlaydi. Bunda Dekartning mashhur “Men fikrlayapman, bundan chiqdi mavjudman” aforizmini keltirish mumkin. O’zining asosiy fikrlarini Dekart “Aqlni boshqarish qoidalari”, “Ruhlar ehtiroslari”, “Odam haqida” nomli asarida bayon etdi.

XVIII asrning eng yirik kashfiyotlari qatoriga refleks tushunchasining paydo bo’lishini kiritish mumkin. Refleks tushunchasi Dekart fizikasida paydo bo’ldi. Agar Garvey o’z kashfiyoti bilan ruhni ichki a`zolarini boshqaruvchisi sifatida inkor etgan bo’lsa, Dekart ruhni tashqaridan ta’sir etish xususiyatidan mahrum qildi. U fanga fiziologiya va psixologiyada fundamental bo’lgan refleks

tushunchasini (terminini emas) kiritdi. U davrda nerv tizimi to'g'risidagi bilimlar ham oz edi. Dekart uni ingichka quvurchalar “trubkachalar”dan iborat deb tasavvur qildi. Dekartning tasavvurida go'yo shu trubkachalardan mayda yengil havosimon zarralar harakatlanadi. Bu zarralarni Dekart “hayvon ruhlari” deb nomladi. “Men ruh deb atagan narsalar kichiklik va tez harakatlanishdan boshqa hech qanday xususiyatga ega bo'lman tanachalardan o'zga narsa emas. Bular qonning eng harakatchan zarralari bo'lib, doim miya tomonidan harakatlanadi”, deb tushuntirmoqchi bo'ldi Dekart.

Uning refleks sxemasiga ko'ra, tashqi impuls nerv trubkachalari ichida joylashgan nerv “iplarining” uchiga tasir qilib, ular shu “ip” chiqqan miyaning qismini go'yo arqonning bir uchi ikkinchisini harakatga keltirganidek qo'zg'atadi. U yerdan “hayvon ruhlari” nerv orqali tegishli muskulga o'tib, qisqarishga majbur qiladi. Shu tariqa harakat ro'y beradi. Shuning uchun qaynoq buyum qo'lni kuydirib tortib olishga majbur qiladi. Bunda xuddi yorug'lik nurining ko'zgudan qaytganidek reaktsiya sodir bo'ladi. Xatti-harakatlarning reflektor tabiatni ruhga murojaat qilmay ochib bergen Dekart umid qiladiki, kelajakda ancha murakkab hodisalarni ham u ta`riflab bergen fiziologiya mexanika qoidasiga ko'ra tushuntirish mumkin bo'lar: “Masalan, it o'ljani ko'rgach, unga tashlanadi, lekin o'q ovozini eshitsa, albatta qochadi. Shunga qaramay ovga o'rgatilgan itlar o'ljani ko'rgach to'xtaydi. Aqlsiz hayvonlar miyasida shunday o'zgarish hosil qilib, ularni o'rgatish mumkin ekan, ehtimol odamga biror narsani o'rgatishda bundan ham yaxshiroq narsalarga erishsa bo'lar”, deb taxmin qildi. Bundan u shunday xulosa chiqardiki, “ruhning kuchi emas balki, mexanika qoidalari asosida ro'y beruvchi tanadagi o'zgarishlar asosida inson avvalo o'z tabiatining, qolaversa tashqi olamning hukmdoriga aylanishi mumkin”.

Dekartning fikricha, “Kuchli va oliyjanob odamlarning kayfiyati xotirjamlik onlarida ham, kulfatga ro'para bo'lganda ham o'zgarmaydi”. - Sen taqdiri azalni emas, avvalo o'zingni yengishga harakat qil. Dunyoni tartibga solishga urinma, eng avval o'z istaklarining boshqara bil.O'zlikni anglashdan ko'ra sermahsulroq mashg'ulot yo'qdir.

XVI asr oxirlariga kelib psixologiyada shaxs psixikasini tadqiq etish metodlarining ob`ektivligi, olingen natijalarning tahlili muammosi F.Bekon qarashlarida birlamchi ahamiyat kasb etgan bo`lsa, R.Dekart izlanishlarida esa inson ruhiyati va uning shaxs hulq – atvoriga ta`siri o`rganila boshlandi.

Psixologiya fanida turli yondashuvlar vujudga kela boshladi. Muammoga bu tartibda yondashish ratsional intuitsiya deb ataldi. Tug`ma g`oyalarga Dekart “Xudo”, “Men” va “son”larni kiritgan. Ratsional intuitsiya bilan bir qatorda olingen ma`lumotlar haqqoniyligini tekshirish metodi sifatida Dekart deduktsiya (umumiyyadan xususiyaga borish)ni e`tirof etgan. Dekart “Ongni boshqarish qoidalar” (1628 – 1629), “Metod borasidagi qarashalar” (1637), “Ilk falsafa borasidagi qarashlar” (1641), “Falsafaning boshlanishi” (1643), “Ehtiroslar haqida” (1649) va boshqa asarlar muallifidir. Mashhur grek faylasufi Platon xarakter va intellekt tug`ma bo`lgani kabi fikrlar g`oyalar ham shak- shubxasiz tabiiy va tug`ma bo`ladi deb taxmin qilgan.

F. Bekon, Spinoza, Gobbs va Dekart ta`limotlari tabiri bilan aytganda, F.Bekon “ingiliz materializmning va umuman tajriba fanlarining” asoschisidir. Bekon, avvalo shuning bilan mashhurki, O`rta asr sxolastik filosofiyasini qattiq tanqid qildi va ilmiy bilimning yangi yo`llarini belgilab berdi.

Bekon ta`limotiga ko`ra, fan, birinchi navbat da atrofdagi tabiatni, uning ba`zi bir hodisani qonunlarini o`rganish bilan shufullanmofi zarur. Bekon ratsionalistik deduktiv metodni hamda befoyda deb inkor qildi va tajribaga asoslangan induktiv metodni asoslab berdi. Bekon rujni ikkiga bo`ldi: aqliy va hissiy ruhlar. Birinchi iloxiy nafasdan kelib chiqadi. Ikkinchisi moddiy bo`lib, barcha organik mavjudodlarga hosdir. Hayvonlarning tanasi xissiy ruh organidir, insonda esa tana aqliy ruh organi bo`lib hizmat qiladi.

Bekonning ta`limotiga ko`ra hissiy ruh moddiyidir, lekin issiqlik bilan siyraklanishi natijasida ko`zga ko`rinmaydigan bo`lib qolgan, u suyuqlikka o`xshash bo`lib, o`z tabiatiga ko`ra havo va o`tga yaqindir. Bekon fizik o`lim qonuniyatlarini inson psixik hayotiga ko`chirish psixikani tajriba va kuzatish yo`li bilan o`rganish mumkin, deb taxmin qildi. Bekonning fikricha, “birinchi psixik

element” tasavvurdir. Bekonning tasavvurlar mexanikasi haqidagi fikrlarini boshqa bir ingiliz filosof materialisti Gobbs yanada mufassalroq rivojlantirdi.

Psixologik hodisalarining o`zi moddiy tartibdagi faktlardir. Ularning rivojlanishinutqning rivojlanishi bilan bog’liqdir. Gobbs yangi materialistik psixologiyaning asoschisi hisoblanadi.

**5. Psixologiyada ratsionalizm va sensualizm.** Rasionalistik psixologiya fan taraqqiyotidagi bosqichlardan biridir. Hozirgi vaqtida bu psixologiyani bilish tarixiy jihatdan qiziqarli, xolos. Bu psixologiya qandaydir ilmiy yoki amaliy ahamiyatga ega emas. Shu psixologiya negizida ishlab chiqilgan terminologiyaganiga undan qolgan meros deb hisoblash mumkin.

XVII asrga oid psixologik fikrlarning o’ziga xos tomonlarining talqinida ochiq namoyon bo’ldi.

A) tushuntirish uchun hech qanday ruhga muxtoj bo’lmagan tana-mexanik tizim haqidagi ta`limot;

B) ichki kuzatish orqali o’z psixik holati haqida hamma narsani bilish mumkin bo’lgan individning ongi haqidagi ta`limot;

V) inson faoliyatini unga foydali narsalar tomon yo’naltiruvchi yoki zararli narsalardan qaytaruvchi ehtiroslar (affektlar) haqidagi ta`limot;

G) fiziologik va psixologik tomonlar o’rtasidagi munosabati haqidagi ta`limot.

Bu ta`limotlarning asosida fanning ulug` zahmatkashlari Rene Dekart(1598-1660), Benedikt Spinoza (1632-1677), Tomas Gobbs (1588-1679), Djon Lokk (1632-1704), Gotfrid Leybnits (1646-1716) kabilar turar edi. Natijada fanda tajribaga asoslangan yangi oqim (empirik oqim) rivojlana boshlaydi.

1600 yilda Evropa faylasuflari debat tashkil qilishdi. Djon Lokk g`oyalar va fikrlar tug`ma ekanligiga o’z amaliy tajribalaridan kelib chiqqan holda rad javobini beradi. Ingliz olimi va pedagogi Djon Lokk Bekon kashf qilgan ilmiy metodning bevosita davomchisi edi. Lokk psixologiya ham, boshqa tabiat fanlari singari, ofzaki mulohazalarga emas, balki tajribaga asoslanmog’i kerak, deb hisoblaydi. Shuningdek u ruhning va uning kuchlarining asl mohiyatini bilish mumkinligini

inkor qildi. «Men, deydi Lokk, - ruhning mohiyati nimadan iborat yoki hayotiy ruhimizning qanday harakatlari sezgilarga yoki tasavvurlarga olib keladi degan tekshirishlar bilan o'zimni qiy nab o'tirmayman, chunki bu quruq mavhum fikr yurgizishdir». Lokkning aytishicha, faqat ruhiy hodisalarni o'rganish kerak. Bu hodisalarni o'rganishning birdan-bir metodi tajriba va kuzatishdir.

Dj.Lokkning asarlari tufayli psixologiyada empirik tajribaga suyangan psixologiya deb ataladigan yangi oqim paydo bo'ldi. Lokkning fikricha, asosiy hamda birlamchi psixik hodisa sezgidir. Ruhiy hodisalarning barcha qolgan turlari, qanchalik murakkab bo'lmasin, faqat sezgilarning bir-biriga munosabati va qo'shilishidir. Ruhda (Platon va Dekart aytganidek) tug'ma ideallar yo'q. Ruh o'zining barcha ideallarini tashqi tajriba sezgilaridan (birlamchi sifatlar) va qayta ishlangan ichki tajribadan, reflekslar, xotira, farq qilish, taqqoslash, murakkab tasavvur va boshqalardan (ikkilamchi sifatlar) hosil qiladi. Yangi tug'ilgan bolaning ruhi go'yo hech narsa yozilmagan toza qofoz yoki toza taxtdir, lekin tarbiyachi va hayot tajribasi bunga sezgilar orqali hohlagan narsani yozishi mumkin.

Sezgilar haqidagi ta'limotida Dj.Lokk birlamchi va ikkilamchi sifatlarga ta'rif berdi. Narsalarning sezgi organizmlariga bevosita ta'sir etishi natijasida hosil bo'ladigan sezgi obrazlari birlamchi sifatlar yoki obrazlar deb ataladi; bu ob'ektiv sifatlar. Lokk birlamchi yoki ob'ektiv siftlarga harakatni, o'tkazmovchanlikni, zichlikni, zarrachalarning ulanishini, figurani, hajmni va boshqalarni sezishni kiritadi. Lokk ta'limotiga ko'ra, ikkilamchi yoki sub'ektiv sifatlar «narsalarning o'zida emas», balki birlamchi sifatlarga bog'liq bo'lib, sub'ektiv ravishda yaratiladi.

Dj.Lokk hodisalarning tasodifiy bir vaqtida sodir bo'lish natijasida tasavvurlar o'rtasida hosil bo'ladigan boflanishlarni belgilash uchun birinchi bo'lib psixologiyaga «assotsiatsiya» terminini kiritdi.

Rene Dekart esa Jon Lokkning fikriga qo'shilmagan holda ba'zi fikr g`oyalar tug`ma va tabiiy bo'lishini aytib o'tadi. Ikki asrdan so'ng Dekart tabiiy bilimlar va

fikrlarning yutuqlarini isbotlab bergan<sup>1</sup>. Charlz Darvining fikriga ko'ra inson tanasi qanchalik tabiiy bo'lsa uning xulq-atvor ko'rinishlari va shakllari ham shunchalik tabiiy va tug'ma bo'ladi. Darwin 22 yoshida uzoq vaqtlar mobaynida dengiz sayohatiga chiqib turli qo'ng'izlar, molyuskalar va dengiz sayohatida uchrashi mumkin bo'lgan barcha narsalarning kollektiyasini qilib ularni kuzatib shu fikriga kelgan<sup>2</sup>.

Dekartning birinchi opponenti bo'lib, gollandiyalik faylasuf Barrux Spinoza chiqdi. Gegelning fikricha, B.Spinoza Dekart falsafasidagi dualizmni olib tashladi. Unga ko'ra yagona va abadiy ajralmas xususiyatlarga ega bo'lgan substantsiya - bu tabiat. Shuning uchun odamni substantsiyalar uchrashadigan "joy" sifatida Spinoza inkor etadi. Odam bir butun moddiy va ruhiy mavjudot deb biladi. O'zining eng mashhur psixologik asari "Etnika"da faylasuf dastlab substantsiyalar masalasida to'xtaladi. Shu yerdanoq uning qarashlari Dekartning qarashlaridan uzoqlashadi. Dekartdan farqli ravishda Spinoza monestik ta`limotni ilgari surdi.

Substantsiya deganda Spinoza bizdan tashqarida joylashgan tabiatni tushunadi. Bu substantsiya o'z navbatida bir qancha xususiyatlarga ega bo'lib, inson ularning faqat ikkitasi - tana va fikrni biladi. Shuning uchun ruh va tana bitta individuallikni, ya`ni fikrlaydigan tanani tashkil etadi. Alovida ruhiy substantsiyaning borligini Spinoza inkor etadi, lekin materiya va tafakkur birligi muammosini oxirida ochib berolmadi. Substantsiyalar ta`limoti asosida Spinoza insoning hissiy holatlari ko'proq affektlar masalasini yoritib berdi. O'zining affektlar haqidagi ta`limotida affektlarning paydo bo'lishi va ularning tabiatini: odamlarning affektlarga qulligi va affektlarning kuchi, inson ozodligi va inson aqlining kuchi masalalari yuzasidan to'xtaldi. Affektlarni Spinoza tabiiy hodisa deb biladi. Affektlar orasidan Spinoza 3 tasini alovida ajratib ko'rsatadi.

## 1. Xohlash

## 2. Qoniqish

---

<sup>1</sup>David G. Mayers "Psychology ninth addition in moduls "2010. 6pages

<sup>2</sup>David G. Mayers "Psychology ninth addition in moduls "2010. 7 pages

### 3. Qoniqmaslik

Qolgan barcha emotsiyalar shulardan paydo bo'ladi, deb hisoblaydi. Spinoza affektlar butunlay inson irodasiga bog'liq va ularni to'liq boshqarish mumkin, degan fikrga qo'shilmaydi. Bu borada u affektlarni inson ustida o'tkazadigan hukmronligi haqida fikr yuritadi. Barcha affektlar Spinozaning fikricha insonni shunday holatga olib keladiki, bunda u o'z-o'zini boshqara olmaydi. Tasodiflarga qaram bo'lib, aniqlik ko'z oldida, noaniqlik tomon boradi, ozodlik esa affektlarga ergashishda emas, balki ularni aqlga bo'ysundirishdir.

Spinozaning fikricha, qalblarni qurol bilan emas, mehr- muhabbat va olivjanoblik vositasida zabt etish mumkin. Spinoza psixologiyasi ongning psixologik ob`ekt sifatida shakllanishi yo'lidagi Dekartdan keyingi muhim qadam bo'ldi.

Dekart dualizmining tanqid qilinishidan boshqa yo'naliish Angliyalik faylasuf Tomas Gobbs nomi bilan bog'liq. T.Gobbs ruhni alohida mavjudlik sifatida mutlaqo inkor etdi. Uning fikricha, dunyoda G.Galiley tomonidan ochilgan mexanika qonunlariga bo'ysunuvchi moddiy tanalardan boshqa hech narsa yo'q. Uning fikricha "Men katta masalalar xususida uzoq bahslashib, hech narsaga erisha olmagandan ko'ra, arzimas narsalarga oid kichik bir haqiqatni kashf etishni afzal ko'raman." deb hulosalaydi.

**Tomas Gobbs hayoti: (1588 - 1679)** Ingliz faylasufi Tomas Gobbs Angliyaning janubidagi Vesport qishlog'ida tug'ilib o'sdi. Uning onasi sodda dehqon ayoli, otasi ruhoniy edi. T.Gobbs 15 yoshida Oksford dorilfununiga o'qishga kirdi va ikki yildan so'ng uni bitirib, mantiq ilmidan ma`ruza qila boshladi. 1608 yilda u Uilyam Kavendishning o'g'liga murabbiylik qila boshladi. T.Gobbs 1610 yildan boshlab uch yil davomida Farangiston va Italiyada yashaydi. 1613 yilda u siyosatchi va faylasuf Frensis Bekonga kotiblik qiladi. 1636 yilda faylasuf Italiyaga jo'naydi va u erda G.Galiley bilan uchrashadi. T. Gobbs xandasasi ilmini juda katta qiziqish bilan o'rgangan. Uning quyidagi asarlari ma'lum: "Falsafa asoslari" (1640-1658), "Fuqaro haqida" (1642), "Jism haqida" ( 1655), "Inson haqida" (1658), "Leviafan" (1658).

1646 yilda T.Gobbs Karl I ning o'g'li shaxzoda Uelsskiyga (bo'lg'usi Karl II) riyoziyotdan saboq bera boshlaydi. Faylasufning atrofida uni ko'rolmaydiganlar ko'p edi. SHu bois T.Gobbsni keksaygan chog'ida dahriylikda ayblaydilar. Uning "Fuqaro haqida" va "Leviafan" nomli kitoblari ruhoniylar tomonidan ta`qiqlangan adabiyotlar ro'yxatiga kiritiladi. T.Gobbs so'qqaboshlikda hayot kechirgan.

**Galileo Galiley hayoti: (1564 - 1642)** Italiyalik qomusiy olim, riyoziyotchi, falakiyatshunos, faylasuf, tabiiyatshunos alloma Galileo Galiley Piza shahrida dunyoga keldi. U obro'li, biroq kambag'allashgan aslzoda oilaga mansub edi. Otasi G.Galileyning hakim bo'lishini orzu qilardi. SHu bois u Piza dorilfununining tibbiyot qulliyyotiga o'qishga kirdi. Lekin G.Galileydagi riyoziyotga bo'lган qiziqish ustunlik qildi.

G.Galiley avval ibodatxona maktabida, keyin dorilfununda o'qidi. U Arximedni o'ziga ustoz deb bilgan. 1589 yilda G.Galiley Piza dorilfununida professor ilmiy unvonini oldi. U dorilfununda dars berish bilan bir vaqtida mexanika va falakiyatshunoslikka oid qator tadqiqot ishlarini olib borib, jismlarning tushishi, ularning qiyalik sirdagi harakati qonunlarini o'rgandi. SHuningdek, osmon jismlarining harakatini kuzatdi.

G.Galiley o'z tadqiqotlariga tayangan holda Arastuning Koinot tuzilishi va mexanik holatiga doir ta`limoti xato ekanini ma'lum qildi. Dorilfunun o'qituvchilari va din peshvolari uning bu fikriga qarshi chiqishdi. Oqibatda olim Pizani tark etishga majbur bo'ldi.

G.Galiley 1592-1610 yillarda Paduan dorilfununining riyoziyot kafedrasida ishladi. Olim 1609 yilda teleskopni ixtiro qildi. Bu ilk teleskop orqali osmon jismlarini 30 baravar kattalikda ko'rish mumkin edi. Olim 1610 yildan Florensiya gersogi saroyida xizmat qila boshladi.

G.Galiley Oydag'i kraterlar va tog' tizmalarini aniqladi. Mushtariyning yo'ldoshi, Quyoshdagi dog'lar, Zuhra sayyorasi fazalari, Zuhalning xalqalarini kashf etdi. 1633 yilda ruhoniylar Galileyning "Olamning ikki tizimi haqidagi suhbatlar" nomli asarini muhokama qilib, unda ilgari surilgan fikrlarni (Erning Quyosh atrofida aylanishi, Quyoshning esa tinch turishi) rad etdilar. Rim papasi

G.Galiley ustidan sud olib borish to'g'risida ko'rsatma berdi. Yoshi 70ni qoralab qolgan xasta G.Galileyni Rimga keltirib, zo'rlik bilan sayyoralar olamiga oid fikrlaridan voz kechishga majbur qildilar. Sud tugagandan keyin G.Galiley Florensiyaga qaytadi va reaksiyon ruhoniylarning ta`qibiga qaramay, ilmiy tadqiqotlarini davom ettiradi. Olim 1642 yili shogirdlari Viviani va Torrichelli qo'lida jon beradi. Katolik cherkovi 1971 yilga kelibgina G.Galiley ustidan chiqarilgan ayblov hukmini bekor qildi.

Barcha psixik hodisalar ham shu qonunlarga bo'ysunadilar. Moddiy narsalar T.Gobbs fikricha, organizmga ta`sir etib, sezgini hosil qiladi. Inertsiya qonuniga ko'ra, sezgidan uning kuchsiz izi sifatida tasavvurlar paydo bo'ladi. Ular esa fikrlar zanjirini hosil qiladi va bu fikrlar sezgilar qanday ketma-ketlikda almashgan bo'lsa, shunday tartibda joylashadi. Bunday bog'lanishdan keyin assotsiatsiya nomini oldi. Agar avvalgi harakat yana takrorlansa va ustunlik qilsa, keyingilari harakatlanuvchi materiya bilan bog`liq bo'lgandan tekis stolda tomchi harakatlanganda suv ham harakatlanganidek uning ketidan harakatlanadi.

Asosiy psixologik fenomenlardan biri sifatida assotsiatsiyalarni Dekart va Spinozalar tan olishgan. Lekin tafakkur va irodaga nisbatan uning bilimning quyi shakli deb hisoblagan. T.Gobbs birinchi bo'lib assotsiatsiyani psixologiyaning universal qonuni sifatida ta`riflaydi. O'zining qobiliyatlar haqidagi ta`limoti bilan T.Gobbs Dekartni "Tug`ma g'oyalar" haqidagi gipotezasini qattiq tanqid qildi va odamlarda tug`ma bir-biridan ustun belgilari bo'lmasligini isbotlashga intildi. T.Gobbs bevosita F.Bekonning davomchisi sifatida empirik yo'nalish namoyondasi sifatida tanildi.

Empirik psixologiyaning "otasi" J.Lokk bo'ldi. Uning "Inson aqli haqidagi tajriba" asari psixologiyaning keyingi taraqqiyotiga kuchli ta`sir etdi. Lokkning maqsadi inson bilishining paydo bo'lishi va rivojlanishining tajribaviy o'rganishdan iborat edi. Bunda u "tug`ma g'oyalar" g'oyasini inkor etib, bilimlarning manbai individning hayotiy tajribasi deb biladi. Tajribaning o'zida esa Lokkning fikricha ikkita manba bor: sezgi va refleksiya. Sezgi ob`ektdagi, tabiatdagi barcha moddiy narsalar bo'lib, ularning mahsuloti fikrlardir. YA`ni "biz

sariq, oq yashil, issiq, sovuq, yumshoq, qattiq, shirin, achchiq va boshqalar haqidagi fikrlarni shu manba orqali olamiz” deb hisoblaydi J.Lokk. Refleksianing ob`ekti aqlimiz faoliyati bilan egallangan va biz tashqaridan ololmaydigan fikrdir. Ongning ob`ekti shu fikrdir, chunki ong J.Lokkning bergan ta`rifiga ko`ra aqlimizda ro`y berayotgan narsalarni idrok etishdir. J.Lokk tajriba manbalarini o`zaro farqlasada, ularni bir-biridan ajratmaydi. Uning fikricha, sezgi bilimning boshi, refleksiya sezgi asosida paydo bo`ladi. Buni u shunday ta`riflaydi: “Aqlda birorta narsa ham yo`qliki, u sezgida ham mavjud bo`lmasa”. J.Lokka ko`ra, fikrlar 2 xil, oddiy va murakkab, bo`ladi. Oddiy fikr faqat bitta bo`ladi. Oddiy fikr faqat bitta tushunchani o`zida saqlaydi. Boshqa fikrlar parchalanmaydi. Murakkab fikrlar oddiy fikrlarni qo’shish, taqqoslash, umumlashtirish va abstraktlashtirish natijasida paydo bo`ladi. Oddiy fikrlar yig’indisi ongni tashkil etadi. Murakkab fikrlarning hosil bo’lish manbalaridan biri sifatida J.Lokk assosiasiyani keltiradi. U birinchi bo’lib “fikr assosiasiyasi” degan atamani kiritadi.

Bilimlarimiz – deydi, J.Lokk barcha mushkulotlarni qamrab olish va hamma savollarga javob topish qudratidan maxrumdir.

Ilm olmoqlik yaxshi ruhiy sifat egalarida ezgu fazilatlarning yanada ravnaq topishiga xizmat qiladi. YAxshi ruhiy sifatlardan mahrum odamlar esa qancha ko’p ilm olsalar, shuncha ahmoqroq va bema`niroq bo’lib boradilar.

Ehtimollik bilimdagi kemtiklarni to’ldiradi.

**Jon Lokk hayoti:** Ingliz faylasufi J.Lokk (1632-1704) Angliyaning janubiy g’arbidagi somerset grafligiga qarashli Rington shaharchasida puritanlar oilasida tug’ildi. Uning otasi advokat bo’lib, Kromvel armiyasining otliq eskadroniga qo’mondonlik qilgan.

J.Lokk Oksford dorilfununi qoshidagi diniy kollejda ta`lim oldi. Keyinchalik tibbiyot ilmini o’rgandi. 1656 yilda u Oksford dorilfununing bakalavrlik, 1658 yilda esa magistrlik ilmiy darajasiga sazovor bo’ldi. U kimyogar Robert Boyl bilan do’stlashadi. Bu do’stlik unda faylasuflar Dekart va Gassendi ta`limotiga qiziqish uyg’otadi.

J.Lokk oliy hukumat idoralarida xizmat qilib, mansab pog'onalaridan tez yuqorilab boradi va Angliya hukumatining lord kansleri lavozimiga erishadi. J.Lokk 39 yoshidan boshlab falsafa ilmini ishtiyoy bilan o'rganishga kirishadi. 1682 yilda olim hukumatda yuz bergen siyosiy tanglik tufayli Angliyani tashlab Niderlandiyada yashaydi. 1689 yilda u vataniga qaytadi va birin – ketin horijda yozgan asarlarini chop etadi.

J.Lokkda sxolastik falsafaga tanqidiy munosabat va tabiiy fanlarga, ayniqsa tibbiyat va kimyoga qiziqish juda erta paydo bo'ldi. J.Lokk o'z oldiga intellektual "tozalash"ni amalga oshirish, ya`ni bilishni tanqidiy tekshirishni maqsad qilib qo'ydi. U aynan diniy va ahloqiy muammolarga doir tunganmas bahslar uni qo'llanuvchi tushunchalarning ko'pchiligi umidsiz darajada noaniq va noto'g'ri emasmi, degan savolni berishga majbur qilganini tan oladi. J.Lokk faylasuflar ham tabiat hodisalarini tadqiq qiluvchi olimlar singari, tajriba yordamida qadam baqadam olg'a yurishlari kerak, deb hisoblaydi. Buyuk muammolarni ko'rib chiqishga o'tishdan oldin o'z, vositalarimiz, ya`ni o'z tushunchalarimizni o'rganib chiqishimiz kerak. Shuning uchun J.Lokk bilishni tanqid qilish va tilni tahlildan o'tkazishdan boshlaydi. Ammo "vositalar"ga bo'lgan qiziqish uning konkret muammolar bilan shug'ullanishiga ham halaqit bermaydi. J.Lokk pedagogika va siyosiy nazariyaning klassiklaridan biri hisoblanadi.

Boshqaruv haqida traktat asarini liberalizmning bibliyasi deb ataydilar. Uning birinchi qismi absalyutizm ideologini ser Robert Filmer (1588-1653)ni tanqid qilishga bag'ishlangan. Ikkinci qismida J.Lokkning davlat va tabiiy huquq haqidagi o'z g'oyalari ko'rib chiqilgan. Bu asarni Vil'gel'm Oranskiy (1650-1702) konstitutsion monarxiyasining asoslanishi sifatida baholaganlar, ammo uning g'oyalari Fransiyada ham, Amerikada ham inqilobiy rol o'ynagan. J.Lokk shuningdek, diniy bag'rikenglik, tarbiya haqida o'ylar, xristianlikning aqlga muvofiqligi asarlari hamda insonning bilishi haqida tajriba nomli epistemologik asar muallifidir. Uning quyidagi asarlari ma'lum: "Tabiat qonunlariga doir tajribalar" (1662-1664), "Din erkinligini e`tirof etishga doir tajriba" (1667), "Tibbiyat sa`nati haqida" (1669 y), "Inson taffakuriga doir tajribalar" (1689 – yil,

olim bu asar ustida 20 yildan ziyod mehnat qilgan), “Tarbiyaga oid ba`zi fikrlar” (1693 y.) va hokazo.

Rene Dekartdan so’ng **ratsionalizm nazariyası** Gotfrid Vilgelm Leybnits va Benedikt Spinoza tomonidan davom ettirilgan. G.V.Leybnits qarashlarida insonning bilishdagi ob`ektivligi muammosiga to’htalgan bo’lsa, Spinoza ahloqiy, yetik jihatlarini o’rganishga qaratgan.

**Leybnis hayoti:** Gotfrid Vilgel`m Leybnis (1646-1716) nemis edi ammo, qirol-of tob Lyudovik XIV (1638-1715) davrining faylasufi bo’lgani bois, asosan fransuz tilida hamda lotin tilida ijod qilgan. Uning turmush tarzi Spinozaning uzlatlanish turmush tarziga tamomila teskari bo’lgan. Leybnis tom ma`nodagi dunyoviy inson bo’lib, uning uyi butun Evropa hisoblangan. Uning qobiliyati turli nazariy va amaliy sohalarda namoyon bo’lgan. Masalan: u konchilik, siyosiy islohotlar, moliya, qonunchilik, optika transport muammolari va ilmiy hamjamiyatlarni tashkil qilish bilan shug’ullangan. Bundan tashqari, Leybnis juda ko’p sayohat qilgan va o’zidan 15 mingdan ortiq xatdan iborat epistolyar meros qoldirgan. U turli qirol saroylari bilan aloqa qilgan va qirol naslidan bo’lgan shaxslar bilan tanish bo’lgan. Nazariy miqiyosda u falsafa, teologiya, huquq, fizika, tibbiyat, tarix va filologiya sohalarida faoliyat ko’rsatgan. U ayniqsa N`yuton bilan bir vaqtda va unga bog’liq bo’limgan holda yaratgan o’zining differensial hisoblash kashfiyoti bilan mashhur.

Ko’plab asarlaridan faqat ikkitasini tilga olib o’tamiz. Teodiseyada Xudo va iblisning o’zaro aloqasi masalalarini ko’rib chiqadi va mumkin bo’lgan dunyolarning eng yaxshisi hisoblangan bu dunyodagi yomonliklar uchun javobgarlikdan Xudoni xalos etishga urinadi. Monadologiyada asosiy va fundamental elementlari “monadalar” bo’lgan olamning tuzilishi muhokama qilinadi. Leybnis shuningdek, J.Lokkning epistemologiyasini inson bilishi haqidagi yangi tajribalarda tanqidiy tahlildan o’tkazgan.

Benedikt (Barux) Spinoza(1632 – 1677) Dekrat kabi ob`ektiv va ratsional ilm – fan tarafidori edi. Haqqoniy natijalar asosi bo’lib, matematika fani deb bilardi. U o’zining falsafiy va psixologik qarashlari isboti va dalilini geometriya

orqali amalga oshirishni ko'zлади. Spinoza о'зининг mashhur асари “Etika”ни геометрик тамоъйлар асосида исхлаб чиқди ва material bayoni uchun aksioma, teorema va isbotlar qonuniyatlaridan foydalandi.

Dekartning dualistik qarashlaridan chetlashmagan holda, Spinoza yakka va ajralmas substantsiya sifatida “Xudo va Borliq” ni e'tirof etadi. Spinoza qarashlarida, Xudo borliq ustidan hukmronlik qilmaydi yoki borlikdan alohida, tashqarida ham emas. Xudo borliq ichida, uning tarkibidadir. Bu g`oya Spinozaning panteistik qarashlari isboti substantsiya cheksiz belgi va xususiyatlarga ega. Inson ongi ulardan faqat ikkitasini anglay oladi – tafakkur va kengaytirma. Bundan ko'rinib turibdiki, Spinoza ruh – tana birligini ta'kidlaydi. Spinozaning fikricha, inson ruhiyatining mohiyati bilishfaoliyatida hamda g`oya va tushunchalar mavjudligi bilan belgilanadi: “... g`oya inson ruhiyati asosini tashkil etadi”. U g`oyalarning uch turini ajratadi:

1) Fikr yoki tasavvur – aniq narsalar haqida hissiyotlarga tayangan holda ma'lumotga ega bo'lish. Bu g`oyalar noadekvat, noaniq va noto'g`ri, ular asl g`oyalar emas. Sababi, ular sub`ektiv va narsa – hodisalarga ichki kechinmalar асосида yondashiladi.

2) Aql va ong – mantiqiy fikrlar va xulosalash orqali olingan bilimlar. Bular umumiyligi tushunchalar (avvalo, matematik), adekvat, aniq va ravshan g`oyalar. Bu bosqichda inson ruhiyati narsa – hodisalarning ichki o'xshashlik va farqlarini anglaydi.

3) Intuitiv bilish – narsalarning asl mohiyatini anglash. Bu g`oyalar ongda refleksif tarzda ochiladi, intellektual intuitsiya yordamida ishga tushadi.

Spinozaning fikricha, “Insonga ikkinchi va uchinchi turlarni egallash muhim. Faqat ularning yordamida rost xukmni yolg`on xukmdan ajratish mumkin. Bu adekvat anglash narsa – hodisalarni alohida emas, balki umumlashgan va aloqador tarzda qonunlarga tayanib o'rganishni lozim”.

Gotfrid Vilgelm Leybnits(1646 – 1716) serqirra ijodkor bo'lishiga qaramay, uning ilmiy qiziqishlari orasida falsafa va psixologiya alohida o'rinni tutardi. Buning aksini “Inson ongi haqidagi yangi malakalar” (1705), “Monadologiya” (1714) kabi

asarlarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ratsionalistik qarashlarni davom ettirgan holda, matematik metod va qonuniyatlarga tayanib inson psixik funktsiyalarini hamda ruh – tana birligi g'oyasini o'rgandi.

Spinozaning yakka substantsiya borasidagi fikriga qarshi chiqdi. G.V.Leybnits fikricha, substantsiyalar ko'p va ularni *monadalar* (grekcha monos – yakka) deb atagan. Borliq asosini tashkil etuvchi birliklar sifatida monadalar antik psixologlarning “arxe”lari bilan o'xshash. Biroq G.V.Leybnits ideal substantsiya sifatida psixik faolliklar jarayonini aks ettiruvchi rujni e`tirof etadi. G.V.Leybnits o'zining asarlarida, jumladan, “Monadologiya” (1714) asarida monadalarning asosiylarini idrok va faollik deydi. Leybnits qarashlarida ruh ham monada, u aniq idrok va xotira bilan ajralib turadi deydi. Inson ruhi – monada appertseptsiya xususiyatiga ega, ya`ni u anglash va o'zini anglash qobiliyatiga ega va monadalarning yuqori ko'rsatkichini egallaydi.

Ingliz filosofi Dj. Berkli (1689-1753) va uning izdoshlari Lokkning ikkilamchi sifatlar haqidagi ta'limotini haddan oshirib yubordilar. Ularning ta'limotiga binoan, bizning hamma sezgilarimiz sub'ektiv bo'lib, ongimiz tomonidan yaratilgandir.

Tajriba psixologiyasining paydo bo'lishi bilan avvalgi ratsionalistik psixologiya darhol o'z kuchnni yo'qotmadi. Ratsionalistik psixologiya O'rta asr ideyalari hamda ratsionalistik metod haqidagi Dekart ta'limotining ta'sirida, ruh, haqidagi ta'limot sifatida, empirik psixologiya bilan birgalikda yashashni davom ettirdi. Shuning uchun ham nemis filosofi Xristian Volf (1679–1754 y.) ikki psixologiya fanining –«ratsionalistik» va «empirk» psixologiyaning birgalikda yashashi qonuniyligi haqidagi fikrni ilgari surdi. U o'zining «Ratsionalistik psixologiya» va «Empirk psixologiya» degan ikkita katta asarida bu ikki oqimni asoslab beradi.

Ratsionalistik psixologiyaning predmeti ruh va uning mohiyatidan iborat. Uning metodi esa aqliyratsionalistik metoddir. Ratsionalistik psixologiya filosofiya fanlari sistemasiga kirishi kerak. Empirk psixologiyaning predmeti ruh hodisalarini, ya'ni ichki tajriba faktlarini kuzatish va tajribaga suya-nib

o'rganishdan iborat. X.Volf ta'limotiga ko'ra, empirik psixologiya tabiat fanlari sistemasiga taalluqlidir. Umuman, shuni aytish kerakki, XVIII asrda Evropaning barcha mamlakatlarida, ayniqsa Angliyada empirik psixologiya yagona hukmron psixologiya sistemasi bo'lib qoldi.

### **Amaliy mashg'ulotlarda muhokama uchun savollar.**

1. Antik davr mutafakkirlarinnig psixologik qarashlarihaqida ma'lumot bering?
2. Arrestotelning asarlaridagi psixologik qarashlarining mazmunini izohlang?
3. Gippokratning temperament haqidagi ta`limotini asoslang? O'rtaasr mutafakkirlarinng psixologik qarashlari haqida fikr bildiring.
4. Determinizm va indeterminizm oqim tarafdorlarining fikrlaridagi farqlari haqida ma'lumot bering.
5. Rasionalistik psixologiya haqida ma'lumot bering.
6. Platon psixologiyada qaysi oqim asoschisi hisoblanadi?
7. Epikurning fikricha qanday xususiyatga ega narsalar Ruh bo'ladi?
8. Falesning ta'limotiga ko'ra butun mavjudod va inson tabiatini asosini nima tashkil qiladi?
9. Tabib va faylasuf Olkmson Kratonskiy fan tarixida birinchi bo'lib qanday taxmini ilgari surgan?
10. Gippokratning eng katta shuhrat keltirgan ta'limoti qaysi?
11. Bekon psixikani qanday yo'l bilan o'rganish mumkun deb taxmin qilgan?
12. Dekart qaysi asarlarida o'zining asosiy fikrlarini bayon etgan?
13. Bekon qaysi metodni fanda befoyda deb inkor qilgan?

### **3-Mavzu: XVIII - XX asrlarda psixologiyaning rivojlanishi.**

#### **Reja:**

1. XVIII asr psixologiyasiga umumiy tavsif.
2. Fransuz va nemis psixologiyasining rivojlanishi.
3. Assotsiativ psixologiyaning yuzaga kelishi va rivojlanishi.
4. Eksperimental psixologiyaning shakllanishi.

**Tayanch so'zlar:** fransuz psixologiyasi, nemis psixologiyasi, assotsiativ psixologiya, eksperimental psixologiya, yangi psixologiya, strukturalizm, vyursburg maktabi, funksionalizm, fransuz psixologiya maktablari.

**1.XVIII asr psixologiyasiga umumiy tavsif.** XIX asrning boshlaridan boshlab ilmiy madaniyat ma`orifining o`sish bilan psixologiya bilimlari sistemasida empirik psixologiya xukmron mavqeni egallay boshladi, buning ichida esa materialistik oqimlar tez o`sa boshladi. XVII asr psixologlar ko`z o`ngida psixikaga bo`lgan qarashlarning tubdan o`zgarishi davri sifatida namoyon bo`ladi.

Psixologik fikr taraqqiyotidagi yangi davrni "fanlar malikasi" bo`lib hisoblangan mexanika ta`sirida paydo bo`lgan konsepsiylar ochib berdi. XVII asrga oid psixologik fikrlarning o`ziga xos tomonlarining talqinda ochiq namoyon bo`ldi.

- A. tushuntirish uchun hech qanday ruhga muxtoj bo`lmagan tana-mexanik sistema haqidagi ta`limot;
- B. ichki kuzatish orqali o`z psixik xolati haqida hamma narsani bilish mumkin bo`lgan individning ongi haqidagi ta`limot.
- C. inson faoliyatini unga foydali narsalar tomon yo`naltiruvchi yoki zararli narsalardan qaytaruvchi extiroslar /affektlar/ haqidagi ta`limot.
- D. fiziologik va psixologik tomonlar o`rtasidagi munosabati haqidagi ta`limot.

Bu ta`limotlarning asosida fanning ulug` zaxmatkashlari Rene Dekart, Benedit Spinoza, Tomas Robbe, Djon Lokk, Gomfris Leybnis kabilar turar edi.

XVIII asrning ikkinchi yarimida ingiliz psixologlari Yum va Gartli har xil psixik hodisalar va elementlar ideya- tassavurlarning yaxlit bo`lib birlashishini asosiy qonuni sifatida assotsiatsiyalar haqidagi ta`limotni ilgari surdilar.

XVII-XVIII asrlarda psixologiya Kiyev-Magilyan akademiyasida va Moskvadagi Slavyan-Grek-Lotin akademiyasida o`qitish predmetiga aylandi. Bu akademiyalarning professorlari psixologiyaga oid ko`pgina asarlar yozganlar, ular ruh haqidagi metoafizik mulohazalar emas, balki tajriba qilib ko`rish mumkin bo`lgan ba`zi psixik hodisalar haqidagi kuzatishlardan olingan ma'lumotlar asosiy o`rinni egallagan edi. Masalan, Kiyevlik olimlar inson aqliy faoliyatida tashqi

tajribaga alohida e'tibor berdilar. Ular tafakkur faoliyati faqatsezgilar asosidagina ro`y berishi mumkin deb hisobladilar. Endi shu narsa ma'lumki, Kiyev olimlari I.Myullerdan 200yil ilgari sezgi organlarining maxsusligi haqidagi masalani qo`ydlar va uni hal qilishga intildilar.

Innekentiy Gezelning talqin qilishicha sezgi organlarining maxsusligibu organlarga tashqi olamdag'i predmet va hodisalarining ta'sir etish tufayli paydo bo`lgan. Kiyev filosoflarining asarlarida monokulyar va binokulyar ko'rish haqidagi, emotsiyalarning fiziologik asoslari haqidagi, iroda va uningemotsiya hamda tafakkurning birlashishidan rivojlanishi haqidagi masalalar talqin qilingan.

Moskva – Slavyan-Grek-Lotin akademiyasida o`quv ishlari Kiyev-Mogilyan akademiyasi namunasida o`tkazildi. Psixologiya kurslarida asosiy o`rinni ruh,aql va iroda haqidagigi boblar o`rganilgan edi.

M.V. Lomonosov o`zining asarlarida psixologiya masalalariga, xususan, sezgilar sohasiga katta e'tibor berdi va bir qancha hodisalarini materialistik jihatidan tushuntirdi. U sezgilar inson tomonidan atrofdagi olamni bilishning shartidir, chunki ular inson ongiga bog'liq bo`lmagan holda mavjud bo`lganmoddiy predmetlarning miyaga bevosita ta'sir qilishining natijasidir, deb hisobladi. M.V.Lomonosov o`z zamonasida keng tarqalgan sezgilar sohasidagi, “birlamchi va ikkilamchi sifatlar” haqidagi ta'limotga qarshi chiqdi. Uning ta'limotiga ko`ra ikkilamchi subyektiv sifatlar yo`q: bizning barcha sezgilarimiz ob`yektivdir.

A.P.Radishchev (1749-1802y) asosan inson tabiatini tushunishdagi dualizmga, ruhiy hayotni moddiy hayotdan-miyadan ajratib qo`yishga, nutqni tafakkurdan ajratib qo`yishga qarshi chiqdi. U psixikani miyadan ajratish mumkin emas va uning manbai xissiy idrok qilinadigan olamdir, debtakidladi. “Ruh tana bilan birgalikda o'smaydimi, uning bilan birga ulgayib mustaxkamlaydimi, uning bilan birga sulib o'tmaslashmaydimi sen barcha o`z tushunchalarining xisdan olmaysanmi” deb yozgan edi u. Miya-psixikaning moddiy asosiy, bu siz inson aqli mavjudod bo`la olmaydi.A.P.Radishchev inson ongini taraqqiyotida nutqining katta ahamiyatga ega ekanligini takidlagan, nutq “fikrlarni bir joyga toplash

vositasidir; modomiki narsaga nom berilmas ekan, narsa haqidagi fikr so`zlar bilan ifodalanmas ekan, u bizning aqlimizga yotdir va bizning aqlimiz ishga solinmaydi”.

**2. Fransuz va nemis psixologiyasining rivojlanishi.** XVIII asr frantsuz materialistlari Kondilyak (1715– 1780 y.), Kabanis (1757–1808 y.), Lametri (1709–1751 y.), Gelvetsiy (1715–1771 y.), Golbax (1723–1789 y.) psixika haqida izchil materialistik ta'lilot yaratdilar.

XVIII asr frantsuz materialistlari birdan bir asos – materiya deb ta'lim berdilar. Ular materiya tushunchasini qadimgi grek materialistlaridan olgan edilar, ya'ni materiya atomlardan tashkil topgan bosh negizdir deb fikrladilar, Tabiatdagi har xil narsalar faqat bitta materianing ko'rinishidir deb qaradilar. Inson, tabiatning bir qismi sifatida, o'zining ham jismoniy, ham psixik mohiyatiga ko'ra moddiyidir deb tushunildi. Bu materialistlar ruhning mustaqil holda mavjud bo'lishini inkor qildilar va psixik jarayonlarning mohiyatini fiziologik jarayonlarga tenglashtirib qo'ydilar. Fransuz materialistlarining qoidasi psixika miyaning fiziologik jarayoni, u moddiy protsessdir degan fikrdan iborat. Bu qoida spiritualizm va umuman idealizmga, uning moddiy bo'limgan psixika va ichki tajriba haqidagi ta'lomitiga qarama-qarshi qo'yilgan edi. Lametri (vrach) aniq materiallarga, ayniqsa patologiya sohasidan olingan ma'lumotlarga asoslanib o'zining «Inson – mashina» degan mashhur kitobini yozdi. Asarda u shunday deb yozadi: «Ruhning barcha qobiliyatlari miyaning va butun gavdaning tuzilishiga bog'liq bo'lganligi uchun ravshanki, ular shu tuzilishning o'zidan iboratdir».



Gelvetsiy



David Yum

Psixikani fiziologik jarayonlar bilan bunday tenglashtirish Kabanis tomonidan uning «Insonning jismoniy va ahloqiy tabiat o'rtasida munosabat» nomli asosiy asarida keskin qo'yiladi. Buni Kabanis quyidagicha ifodalaydi: «Fikrni keltirib chiqaradigan jarayonlar haqida aniq, tushuncha hosil qilish uchun oshqozon va ichaklar ovqat hazm qilganday, jigar o't ajratib chiqarganday, qulq oldi, jag' osti va til osti bezlari so'lak ajratganday bosh miyani ham faqat fikr ishlab chiqarishga tayinlangan alohida organ deb qaramoq kerak». Biz, bosh miya ma'lum ma'noda ta'sirotlarni qaytadan ishlaydi, u organik holda fikr ajratib chiqaradi, deb hisoblaymiz».

Biz bunday fikrlarni XVIII asrning boshqa materialistlarida ham uchratamiz. Bunda, XVIII asr materialistlari psixik hayotning barcha hodisa va jarayonlari, barcha tabiat jarayonlari va hodisalari singari, mexanika qonunlari bilan tushuntiriladi. F.Engels XVIII asr frantsuzlarining kamchiliklari haqidagi mulohazalarida shunday deydi: «O'simlik va hayvon organizmi juda kam tekshirilgan edi, uning ishlari sof mexanistik sabablar bilan tushuntirilar edi. Dekartning nazarida odam hayvon bo'lgani singari, XVIII asr materialistlarining nazarida odam mashina bo'lgan. Psixik hayotni mexanistik tushunishning sababi shundaki, XVIII asrda boshqa fanlar orasida eng taraqqiy qilgani mexanika edi. Frantsuz materialistlari odamda ro'y bergen hamma hodisalarni shu mexanika qonunlari asosida tushuntirishga urindilar. Fizika, ximiya, biologiya fanlari o'sha vaqtarda endigina bosh ko'tara boshladi. F.Engels frantsuz materialistlarining mexanistik qarashlari asossiz deb ko'rsatadi.

XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlaridayoq psixologlar o'rtasida psixik hodisalarni o'rganishda eksperimentni tadbiq qilish mumkin emasmikan degan masala maydonga chiqdi. Bu masala bo'yicha filosof I.Kant o'z fikrini aytди. Uning fikricha, psixologiyada eksperimentning bo'lishi mumkin emas, unga matematikani tadbiq qilish mumkin emas.

F.Bekon va T.Gobbsdan boshlab empirik psixologiyaning vazifalaridan biri psixik hodisalar tarkib topgan elementlarni aniqlashdan iborat edi. Yuqorida aytildi, F.Bekon bilan T.Gobbs tasavvur hamda sezgini shunday elementlardir

deb hisobladilar. Psixologlar psixik elementlar murakkab struktura (tarkib) va jarayonlarga birikishidan bo'ysunadigan qonunlarini topishga intiladilar. Masalan: T.Gobbs psixik hodisalar intilish va qochish qonuniga bo'ysunadi deb hisoblagan.

**Frensis Bekon (Lord Verulamskiy) hayoti:** (1561-1626) Ingliz faylasufi Frensis Bekon 1561 yilning 21 yanvarida Londonda tug'ildi. U Angliyaning siyosiy hayotida ko'zga ko'rinarli o'rin egallagan dvoryan oilasiga mansub bo'lib, otasi Nikolas Bekon qirolicha Elizavetaning birlinchi vaziri va muhrdori edi. F.Bekonning onasi – Anna Kuk qirol Eduard VI ning tarbiyachisi bo'lib xizmat qilgan.

1573 yilning bahorida 12 yoshli F.Bekonni Kembrijdagi Triniti kollejiga tahsil olish uchun jo'natadilar. F.Bekon 16 yoshdan boshlab ingliz diplomatlari tarkibida bir necha yil Farangistonda xizmat qiladi. U erda Farangiston madaniyati, ilm fanining taniqli namoyondalari bilan tanishadi. F.Bekon 18 yoshida otasidan ayrıldi. 23 yoshida qirolicha Elizavetaning nufuzli a`yonlaridan sanalgan amakisi lord Berli ko'magida mamlakat parlamentiga saylanadi.

F.Bekon Angliyaga qaytgach, huquq ilmini o'rganishga kirishadi. U huquqshunoslik uyushmasining rahbari lavozimiga tayinlanadi. F.Bekon keng miqyosdagi sud amaliyotlarini olib boradi va huquqshunoslik masalalariga doir asarlar yozadi. F.Bekonning sud jarayonidagi yuksak mahorati hamda sud xakamlari yig'ilishidagi so'zamolligi va aql farosati barchani xayratga solgan. Hech kim u kabi aniq, qisqa, zalvorli, ayni damda o'ta ma`nodor gapira olmagan. U so'zlayotganda tinglovchilar har bir so'zni jon quloqlari bilan tinglab, kiprik qoqmay o'tirishgan.

F.Bekon 52 yoshida Angliyaning bosh prokurori etib saylanadi. 1617 yildan esa qirol YAKOV I ning muhrdori bo'lib xizmat qiladi. Keyinroq lord-kanslerlik martabasiga ko'tariladi. 1621 yilda F.Bekon parlament tomonidan fitnachilik va poraxo'rlikda ayblanib sud qilinadi. Sud F.Bekonga 40 ming funt-sterling jarima solish va Tauer qal`asiga bandi etish haqida hukm chiqaradi. To'g'ri, ikki kundan so'ng bu hukmnинг ayrim bandlari bekor qilingan bo'lsada, ammo F.Bekonning davlat arbobi sifatidagi faoliyati butkul barham topadi. Lordlar palatasining

hukmiga muvofiq u qirol saroyiga yaqinlashmaslik va 12mil uzoqlikda yashashga mahkum etiladi.

Faylasuf hayotini so'ngi yillarini betoblik va qashshoqlikda o'tkazadi. 1626 yilning bahorida u tovuq go'shti qor ostida qanday saqlanishini sinab ko'rish uchun uni qo'llari bilan qorga ko'madi va shu bahona bo'lib, qattiq shamollaydi. Bir necha hafta xastalanib yotgach, vafot etadi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida ingliz psixologlari David YUm va Gartli har xil psixik hodisalar va elementlar g'oya – tasavvurlarning yaxlit bo'lib birlashishining asosiy qonuni sifatida assosiasiyalar haqidagi ta`limotni ilgari surdilar. Assosiasiyalar haqidagi bunday ta`limot bir vaqtida ham idealistik, ham materialistik yo'naliishda paydo bo'ldi. Idealistik yo'naliishning vakili va umuman assotsiativ oqimning asoschisi David YUm (1711-1776 y.) edi. Uning ta`limotiga ko'ra, ongning barcha murakkab hodisa va mahsullari va o'zining "men" ekanligi (o'z-o'zini) anglash, o'zaro tashqi bog`lanishlar – assosiasiyalar bilan bog`langan "tasavvur birikmalari"dir, xolos

**3. Assotsiativ psixologyaning yuzaga kelishi va rivojlanishi.** XVIII asrning ikkinchi yarmida ingliz psixologlari David Yum va Gartli har xil psixik hodisalar va elementlar g'oya – tasavvurlarning yaxlit bo'lib birlashishining asosiy qonuni sifatida assotsiatsiyalar haqidagi ta`limotni ilgari surdilar. Assotsiatsiyalar haqidagi bunday ta`limot bir vaqtida ham idealistik, ham materialistik yo'naliishda paydo bo'ldi. Idealistik yo'naliishning vakili va umuman assotsiativ oqimning asoschisi David Yum (1711-1776 y.) edi. Uning ta`limotiga ko'ra, ongning barcha murakkab hodisa va mahsullari va o'zining "men" ekanligi (o'z-o'zini) anglash, o'zaro tashqi bog`lanishlar – assotsiatsiyalar bilan bog`langan "tasavvur birikmalari"dir, xolos.

Materialistik oqimning vakillari David Gartli (1705-1757y) va uning shogirdi Djozef Pristli (1733-1804y) edilar. Ular assotsiativ tasavvurlarni miyadafiziologik boflanishlarga tenglashtirib qo`ydilar. Gartli psixologiya ruhningfizikasi deb qaradi.

**David YUm hayoti: (1711-1776)** Ingliz faylasufi, psixolog olim va muarrix David YUm SHotlandiya poytaxti Edinburg shahrida, uncha boy bo'lмаган dvoryan oilasida dunyoga keldi. Uning otasi huquqshunos bo'lgan. David YUm Edinburg Universiteti va Lya-Flesh nomli Farang kollejida tahsil oldi. U kollejda ilk marta Rene Dekartning ilmiy qarashlari bilan tanishdi.

David YUm birinchi bo'lib, "sabab"ning mohiyatini hodisa va tushuncha sifatida jiddiy o'rghanishga kirishdi. Uning bu boradagi mulohaza va xulosalari falsafa fanining asosiy yutuqlaridan biriga aylandi.

Faylasufning quyidagi asarlari ma`lum: "Inson tabiatiga doir mulohazalar" (1739), "Ta`b me`yori haqida" (1739-1740), "Axloqiy va siyosiy ocherklar" (1741-1742), "Ruhning barhayotligi to'g'risida", "Tabiiy din haqida so'zlashuv (dialog)" (1751). Materialistik oqimning vakillari Gartli (1705-1757 y.) va uning shogirdi Djozef Pristli (1733-1804 y.) edilar. Ular assosiativ tasavvurlarni miyadagi fiziologik bog'lanishlarga tenglashtirib qo'ydilar. Gartli psixologiyaga ruhning fizikasi deb qaradi.

D.Pristli barcha psixik jarayonlar miyaning tebranishlaridir, deb jar soldi. U psixik va fizik hodisalar o'rtasidagi prinsipial farqni inkor qildi va psixologiyaga fiziologiyaning bir qismi deb qaradi.

Assosiasiyalar va ularning inson psixik faoliyati tarkibidagi muhim roli haqidagi ta`limot XIX asrda juda keng tarqaldi. Empirik psixologiyaning ichida "assosiativ psixologiya" deb atalgan alohida oqim paydo bo'ldi. Bu oqim XIX asrning uch choragi mobaynida hukmron mavqeni egallab oldi.

XIX asrda assosiativ psixologiyaning tarafdarlari Angliyada Djeyms Mil` (1773-1836 y.), Djon Styuart Mil` (1806-1837 y.), Aleksandr Ben (1818-1903 y.), Gerbert Spenser (1820-1903 y.) edilar. Bularga Fransiyada T.Ribo (1829-1916 y.), Germaniyada Teodor Sigen (1862-1950 y.)larni va qisman Ebbingauzni (1850-1909 y.) ham kiritish mumkin.

Assosiativ psixologiyaning vakillari barcha murakkab psixik jarayonlar (xotira, tafakkur, nutq, xayol va iroda) bir xil birlamchi psixik elementlar bo'lgan sezgilardan va ularning nusxasi bo'lgan tasavvurlardan hosil bo'ladi deb da`vo

qildilar. Ayrim sezgi va tasavvurlar assosiasiyalarning qonunlariga binoan, o'zaro mexanik bog'lanishlar bilan birlashadilar. Masalan, xotira jarayonlari assosiasiyalarga tenglashtirib qo'yiladi, ya`ni esda qoldirish yangi assosiasiyalar hosil qilishdir, esga tushirish esa avval mustahkamlangan assosiasiyalarning jonlanishidir. Assosianistlarning fikricha, tafakkur ruhning alohida bir qobiliyati yoki maxsus psixik qobiliyati emas, tafakkur ham faqat tasavvurlarning assosiasiyalar qonuniga binoan harakatlanishidir. Masalan, muhokama faqat ikkita tasavvurning assosasiyaga bog'lanishidir. Bunda ongning boshqa momentlari yo'q. Xulosa chiqarish ikki yoki birqancha hukmlarning assosiasiyasi (bog'lanishi)dir, bulardan ham assosiasiya bo'yicha yangi hukm hosil qilinadi, ya`ni xulosa chiqariladi. Tushunchalar ham bir qancha so'zlarning o'zaro o'xshash tasavvurlar bilan bo'lgan assosasiyasi (bog'lanishi)dir deb ta`riflanadi.

Assosiativ psixologiya vakillarining fikricha, nutq ham tasavvurdir. Masalan, Ebbingauzning aytishicha, nutq – bu “ikki element”ning mustahkam assosiasiyalar bo'lib qo'shilishidir: bir tomondan, so'z va gaplarning ularning ma`nolari bilan, ikkinchi tomondan esa so'z va gaplarning narsalar bilan birikishidir. Gap va so'zlarning haqiqiy mohiyati nutq organlari faoliyati orqali hosil bo'ladigan, “ohang va shovqinlar”dan va bu faoliyat natijasida harakat va holatni sezishdan, ya`ni eshitish va kinestetik yoki nutq tassurotlaridan iboratdir.

Qayd qilingan har ikkala so'z elementlari ham o'zaro mustahkam assosiasiyalar bilan bog'langan, deb ta`kidlaydi Ebbingauz. Nutq jarayonlarida, ya`ni fikrning shakllanishida, fikrni o'zgalarga bayon qilishda va o'zgalarning fikrini o'zlashtirishda assosiativ jarayonlar, alohida tasavvurlar, xususan so'zlarning asosiy elementlari bo'lgan harakat (kinestetik) tasavvurlar bilan tovush tasavvurlari o'rtasida bog'lanishlar hosil bo'ladi. Nutq maxsus funksiya sifatida tafakkur bilan tashqi – assosiativ bog'lanishlardan tashqari hech qanday munosabatda bo'lmaydi.

Bu psixologlarning ta`limotiga ko'ra, diqqat ongimizda qolgan barcha tasavvurlarni siqib chiqargan, qandaydir bitta tasavvurlar gruppasining hukmron bo'lishi bilan izohlanadi, emosiyalar xush va noxush hislarni anglash bilan

birlashgan sezgi hamda tasavvurlar yig'indisidir va hokazo. Assosianistlar inson shaxsining o'zini ham o'z tanasini sezishga va shunga mos keladigan tasavvurlarga "tasavvurlar birikmasi"ga asoslangan ancha barqaror va doimiy psixik hodisalar komplekslari deb tushunadilar.

Assosiativ psixologiya vakillarining xizmati shundan iboratki, ular ongning yuksak murakkab jarayonlarini, ya`ni tafakkur, nutq va irodalarni tajriba asosida (asosan o'z-o'zini kuzatish yo'li bilan) o'rganishni diqqat markazida tutdilar.

Biroq keyinchalik assosiativ psixologiya vakillari va boshqa psixologlarning bu ta`limoti amalda o'zining yaroqsizligini ko'rsatdi. Psixik hayotning murakkab hodisalarini faqat assosiativ jarayonlarga tenglashtirib qo'yish mumkin emasligi ma'lum bo'ldi.

Tafakkur jarayonini har tomonlama tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, tafakkurda mavjud bo'lgan ba`zi momentlarni tafakkurlarning oddiy assosiasiyo yo'li bilan oddiy bog'lanaverishlariga tenglashtirish mumkin emas va shu momentlar bilan tafakkur oddiy assosiativ jarayonlardan tubdan farq qiladi.

Biz assosiativ jarayonda, avvalo, tasavvurlar harakatini ko'ramiz, bunda ongimizda hosil bo'lgan har qanday tasavvur avvalgi tasavvurlar yoki idrok tufayli hosil bo'ladi. Lekin, bir xil turtki (idrok yoki tasavvur) orqali birin-ketin paydo bo'lgan tasavvurlar o'z yo'lida har xil yo'nalishlarga ega bo'lishlari mumkin.

**Birinchidan**, tafakkurda ham, albatta, tasavvurlar yoki boshqa psixik mahsullar (hukm tushunchasi)ning harakati sodir bo'ladi. Lekin bu erda bu harakat avvalgi idrok va tasavvurlar turtkisi sodir bo'lmasdan, balki dastavval qo'yilgan maqsad va vazifa bilan belgilanadi va boshqariladi. Tafakkur maqsadga muvofiq yo'naltirilgan jarayondir. Tafakkur jarayoni hamma vaqt birorta masalani hal qilishga yo'naltirilgan bo'ladi.

**Ikkinchidan**, assosiativ jarayonlar esa passiv jarayonlardir. Assosiativ qonunga binoan tasavvurlar harakati go'yo o'z-o'zicha ro'y beradi, bu harakat oldindan belgilanmasdan, ongli kuch sarflanmagan holda boraveradi. Agar tasavvurlarning assosiativ oqimida aktivlik bo'lsa ham, u beixtiyor aktivlikdir. Bu o'rindagi beixtiyor aktivlik shaxsning emosional holati bilan mavjud tasavvurlar

tufayli ro'y beradigan emosional momentlar bilan belgilanadi. Tafakkur esa, aksincha, oldindan ongli kuch (diqqat) sarflash yo'li bilan sodir bo'ladigan jarayondir. To'g'ri, tafakkur jarayonlarida ham passiv xolatlar bo'ladi, lekin ular bu o'rinda faqat qo'shimcha va yordamchi ahamiyatga ega bo'ladilar. Passiv xolatlar tafakkurni belgilab bermaydilar, ular birlamchi emas, balki ikkilamchidir, ko'pincha aqliy taraqqiyotning yuksak bosqichlarida paydo bo'ladilar.

**Uchinchidan**, assosiativ jarayonlarda faqat esga tushirish, tajribadan hosil bo'lgan, sezilgan va idrok qilingan narsalardan nusxa ko'chirishgina bordir. Tasavvurlar assosiasiysi faqat reproduktiv (takrorlovchi) jarayondir. Bu jarayonlarda ongimizda yangi mazmun hosil qilinmaydi.

Tafakkur mahsuldor (produktiv) jarayondir. Bunda ongimiz yangi mazmunga, yangi mahsulotga ega bo'ladi. Bu yangi mahsulot ob`ektiv borliqning shunday momentlarini aks ettiradiki, bu momentlarni bevosita sezgi organlari orqali bilish mumkin emas, binobarin, tasavvurlarda ham takrorlash mumkin emas.

Dj.Pristli barcha psixik protsesslar miyaning tebranishlari, deb jar soldi. Upsixik va inkor qildi va psixologiyaga fiziologiyaning bir qismi deb kiradi. Assotsiatsiyalar va ularning inson psixik faoliyati tarkibidagi muxim rolihaqidagini ta'limot XIX asrda juda keng tarqaldi. Empirik psixologiya ichida "assotsiativ psixologiya" deb atalgan alohida oqim paydo bo`ldi. Bu oqim XIX asrning uch choragi maboynida xukumron mavqeyini egallab qoldi.



**David Gartli      Pristli      Djon Boynton      Djon Stuart Mill      G. Ebbingauz**

Assotsiatsiyalar va ularning inson psixik faoliyati tarkibidagi muhim roli haqidagi ta`limot XIX asrda juda keng tarqaldi. Empirik psixologiyaning ichida

“assotsiativ psixologiya” deb atalgan alohida oqim paydo bo’ldi. Bu oqim XIX asrning uch choragi mobaynida hukmon mavqeni egallab oldi. XIX asrda assotsiativ psixologiyaning tarafdarlari Angliyada Djeyms Mil (1773-1836 y.), Djon Styuart Mil (1806-1837 y.), Aleksandr Ben (1818-1903 y.), Gerbert Spenser (1820-1903 y.) edilar. Bularga Frantsiyada T.Ribo (1829-1916 y.), Germaniyada Teodor Tsigen (1862-1950 y.)larni va qisman Ebbingauzni (1850-1909 y.) ham kiritish mumkin.



**Aleksandr Benn**

**Teodor Adorno**

**Teodor Benfey**

Assotsiativ psixologiyaning vakillari barcha murakkab psixik jarayonlar (xotira, tafakkur, nutq, xayol va iroda) bir xil birlamchi psixik elementlar bo’lgan sezgilardan va ularning nusxasi bo’lgan tasavvurlardan hosil bo’ladideb da’vo qildilar. Ayrim sezgi va tasavvurlar assotsiatsiyalarning qonunlariga binoan, o’zaro mexanik bog`lanishlar bilan birlashadilar. Masalan, xotira jarayonlari assotsiatsiyalarga tenglashtirib qo’yiladi, ya’ni esda qoldirish yangi assotsiatsiyalar hosil qilishdir, esga tushirish esa avval mustahkamlangan assotsiatsiyalarning jonlanishidir.

Assotsianistlarning fikricha, tafakkur ruhning alohida bir qobiliyati yoki maxsus psixik qobiliyati emas, tafakkur hamfaqat tasavvurlarning assotsiatsiyalar qonuniga binoan harakatlanishidir. Masalan, muhokama faqat ikkita tasavvurning assotsiatsiyaga bog`lanishidir. Bunda ongning boshqa jihatlari yo’q. Xulosa chiqarish ikki yoki birqancha hukmlarning assotsiatsiyasi (bog`lanishi)dir, ulardan ham assotsiatsiya bo’yicha yangi hukm hosil qilinadi, ya’ni xulosa chiqariladi.

Tushunchalar ham bir qancha so'zlarning o'zaro o'xshash tasavvurlar bilan bo'lgan assotsiatsiyasi (bog`lanishi)dir deb ta`riflanadi.

Assotsiativ psixologiya vakillarining fikricha, nutq ham tasavvurdir. Masalan, G.Ebbingauzning aytishicha, nutq – bu “ikki element”ning mustahkam assotsiatsiyalar bo'lib qo'shilishidir: bir tomondan, so'z va gaplarning ularning ma'nolari bilan, ikkinchi tomondan esa so'z va gaplarning narsalar bilan birikishidir. Gap va so'zlarning haqiqiy mohiyati nutq organlari faoliyati orqali hosil bo'ladigan, “ohang va shovqinlar”dan va bu faoliyat natijasida harakat va holatni sezishdan, ya`ni eshitish va kinestetik yoki nutq taassurotlaridan iboratdir. Qayd qilingan har ikkala so'z elementlari ham o'zaro mustahkam assotsiatsiyalar bilan bog`langan, deb ta`kidlaydi.

Nutq jarayonlarida, ya`ni fikrning shakllanishida, fikrni o'zgalarga bayon qilishda va o'zgalarning fikrini o'zlashtirishda assotsiativ jarayonlar, alohida tasavvurlar, xususan so'zlarning asosiy elementlari bo'lgan harakat (kinestetik) tasavvurlar bilan tovush tasavvurlari o'rtasida bog`lanishlar hosil bo'ladi. Nutq maxsus funksiya sifatida tafakkur bilan tashqi – assotsiativ bog`lanishlardan tashqari hech qanday munosabatda bo'lmaydi. Bu psixologlarning ta`limotiga ko'ra, diqqat ongimizda qolgan barcha tasavvurlarni siqib chiqargan, qandaydir bitta tasavvurlar gruppasining hukmron bo'lishi bilan izohlanadi, emotsiyalar xush va noxush hislarni anglash bilan birlashgan sezgi hamda tasavvurlar yig`indisidir va hokazo. Assotsianistlar inson shaxsining o'zini ham o'z tanasini sezishga va shunga mos keladigan tasavvurlarga “tasavvurlar birikmasi”ga asoslangan ancha barqaror va doimiy psixik hodisalar komplekslari deb tushunadilar.

Assotsiativ psixologiya vakillarining xizmati shundan iboratki, ular ongning yuksak murakkab jarayonlarini, ya`ni tafakkur, nutq va irodalarni tajriba asosida (asosan o'z-o'zini kuzatish yo'li bilan) o'rganishni diqqat markazida tutdilar. Biroq keyinchalik assotsiativ psixologiya vakillari va boshqa psixologlarning bu ta`limoti amalda o'zining yaroqsizligini ko'rsatdi. Psixik hayotning murakkab hodisalarini faqat assotsiativ jarayonlarga tenglashtirib qo'yish mumkin emasligi ma'lum bo'ldi. Tafakkur jarayonini har tomonlama tahlil qilishshuni ko'rsatdiki,

tafakkurda mavjud bo'lgan ba'zi vaqlarni tafakkurlarning oddiy assotsiatsiya yo'li bilan oddiy bog`lanaverishlariga tenglashtirish mumkin emas va shu vaziyatlar bilan tafakkur oddiy assotsiativ jarayonlardan tubdan farq qiladi. Biz assotsiativ jarayonda, avvalo, tasavvurlar harakatini ko'ramiz, bunda ongimizda hosil bo'lgan har qanday tasavvur avvalgi tasavvurlar yoki idrok tufayli hosil bo'ladi. Lekin, bir xil turtki (idrok yoki tasavvur) orqali birin-ketin paydo bo'lgan tasavvurlar o'z yo'lida har xil yo'nalishlarga ega bo'lishlari mumkin.

Birinchidan, tafakkurda ham, albatta, tasavvurlar yoki boshqa psixik mahsullar (hukm tushunchasi)ning harakati sodir bo'ladi. Lekin bu erda bu harakat avvalgi idrok va tasavvurlar turkisi sodir bo'lmasdan, balki dastavval qo'yilgan maqsad va vazifa bilan belgilanadi va boshqariladi. Tafakkur maqsadga muvofiq yo'naltirilgan jarayondir. Tafakkur jarayoni hamma vaqt birorta masalani hal qilishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ikkinchidan, assotsiativ jarayonlar esa passiv jarayonlardir. Assotsiativ qonunga binoan tasavvurlar harakati go'yo o'z-o'zicha ro'y beradi, bu harakat oldindan belgilanmasdan, ongli kuch sarflanmagan holda boraveradi. Agar tasavvurlarning assotsiativ oqimida aktivlik bo'lsa ham, u beixtiyor aktivlikdir. Bu o'rindagi beixtiyor aktivlik shaxsning emotsiyonal holati bilan mavjud tasavvurlar tufayli ro'y beradigan emotsiyonal vaziyatlar bilan belgilanadi. Tafakkur esa, aksincha, oldindan ongli kuch (diqqat) sarflash yo'li bilan sodir bo'ladigan jarayondir. To'g'ri, tafakkur jarayonlarida ham passiv xolatlar bo'ladi, lekin ular bu o'rinda faqat qo'shimcha va yordamchi ahamiyatga ega bo'ladilar. Passiv xolatlar tafakkurni belgilab bermaydilar, ular birlamchi emas, balki ikkilamchidir, ko'pincha aqliy taraqqiyotning yuksak bosqichlarida paydo bo'ladilar.

Uchinchidan, assotsiativ jarayonlarda faqat esga tushirish, tajribadan hosil bo'lgan, sezilgan va idrok qilingan narsalardan nusxa ko'chirishgina bordir. Tasavvurlar assotsiatsiyasi faqat reproduktiv (takrorlovchi) jarayondir. Bu jarayonlarda ongimizda yangi mazmun hosil qilinmaydi. Tafakkur mahsuldor (produktiv) jarayondir. Bunda ongimiz yangi mazmunga, yangi mahsulotga ega bo'ladi. Bu yangi mahsulot ob'ektiv borliqning shunday vaziyatlarni aks ettiradi,

bu momentlarni bevosita sezgi organlari orqali bilish mumkin emas, binobarin, tasavvurlarda ham takrorlash mumkin emas.

Assosiativ psixologiya Bekon va Gobbsdan boshlab empirik psixologiyaning vazifalaridan biri psixik hodisalar tarkib topgan elementlarni aniqlashdan iborat edi. Yuqorida aytilganday, Bekon bilan Gobbs tasavvur hamda sezgini shunday elementlardir deb hisobladilar. Psixologlar psixik elementlar murakkab struktura (tarkib) va jarayonlarga birikishida bo'ysunadigan qonunlarini topishga intiladilar. Masalan, Gobbs psixik hodisalar intilish va qochish qonuniga bo'ysunadi deb hisoblagan.

Assotsiativ psixologiyaning vakillari barcha murakkab psixik jarayonlar (xotira, tafakkur va nutq, xayol va iroda) bir xil birlamchi psixik elementlar bo'lган sezgilardan va ularning nusxasi bo'lган tasavvurlardan hosil bo'ladilar deb da'vo qildilar. Ayrim sezgi va tasavvurlar assosiasiyalarning qonunlariga binoan, o'zaro mexaniq bog'lanishlar bilan birlashadilar. Masalan, xotira jarayonlari assosiasiyalarga tenglashtirib qo'yiladi, ya'ni esda qoldirish yangi assosiasiyalar xosil qilishdir, esga tushirish esa avval mustaxkamlangan assosiasiyalarning jonlanishidir.

Assosianistlarning fikricha, tafakkur ruhning alohida bir qobiliyati yoki maxsus psixik qobiliyati emas: tafakkur ham faqat tasavvurlarning assosiasiyalar qonuniga binoan harakatlanishidir. Masalan, muxokama faqat ikkita tasavvurning assosiasiyaga bog'lanishidir. Bunda ongning boshqa momentlari yo'q. Xulosa chiqarish ikki yoki bir qancha xukmlarning assosiasiyasi (bog'lanishi)dir, bulardan ham assosiasiya bo'yicha yangi xukm xosil qilinadi, ya'ni xulosa chiqariladi. Tushunchalar ham bir qancha so'zlarning o'zaro o'xshash tasavvurlar bilan bo'lган assosiasiyasi (bog'lanishi)dir deb ta'riflanadi. Bu psixologlarning ta'limotiga ko'ra, diqqat ongimizda qolgan barcha tasavvurlarni siqib chiqargan, qandaydir bitta tasavvurlar gruppasining xukmron bo'lishi bilan izohlanadi, emosiyalar xush va noxush xislarni anglash bilan birlashgan sezgi hamda tasavvurlar yig'indisidir va xokazo. Assosianistlar inson shaxsining o'zini ham o'z tanasini sezishga va shunga mos keladigan tasavvurlarga («tasavvurlar

birikmasi»ga) asoslangan ancha barqaror va doimiy psixik hodisalar komplekslari deb tushunadilar.

**4. Eksperimental psixologiyaning shakllanishi.** XIX va XX asrdagi psixologiya – bu asosan empirik psixologiyadir. Psixologiyada XVII asrda paydo bo’lgan bu yo’nalish XIX va XX asrning boshlarida o’z taraqqiyotining eng yuqori cho’qqisiga erishdi. Uning yutuqlariga erishuviga sabab eksperiment metodining tatbiq qilinishi edi. Eksperimentning predmet doirasi juda kengaydi. Yuqorida aytilgandek, psixologiya fanining maxsus vazifalari va metodlariga ega bir qancha shaxobchalari maydonga keldi. Empirik psixologiya bir butun narsa emas edi. Bu psixologiyaning ichida bir qancha yo’nalish va oqimlar mavjud edi. Psixologiya tarixida bulardan ancha mashhur va muhimlari assotsianizm, intellektualizm, volyuntarizm, geshtalsixologiya va freydizmlar edi.

Eksperimental psixologiya ma’lumki, XIX asr fizika, biologiya, fiziologiya, ximiya va boshqa tabiat fanlarning gurillab o’sishi bilan xarakterlanadi. Fanda paydo bo’lgan eksperimental metodning keng qo’llanilishi fanning bunday o’sishiga yordam berdi.

XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlaridayoq psixologlar o’rtasida psixik hodisalarini o’rganishda eksperimentni tadbiq qilish mumkin emasmikan degan masala maydonga chiqdi. Bu masala bo’yicha filosof Kant o’z fikrini aytdi. Uning fikricha, psixologiyada eksperimentning bo’lishi mumkin emas, ularga matematikani tadbiq qilish mumkin emas.

XIX va XX asrlarda psixologiya faqat empirik (tajribaga asoslangan) fan sifatida taraqqiy etadi. Bu davrda uning predmeti, ya`ni o’rganadigan voqelik sohasi kuchli ravishda kengaydi, bu fanning alohida yangi sohalari paydo bo’ladi va shakllanadi, yangi yanada samaraliroq tekshirish metodlari kashf qilinadi. Psixologiyaning bergen ma`lumotlaridan amaliy faoliyatning turli sohalarida foydalanila boshlaydi. Ayni vaqtida, XIX va XX asrlarda idealizm bilan materializm o’rtasidagi kurash yanada chuqurlashadi. Ma`lumki, XIX asr fizika, biologiya, fiziologiya, ximiya va boshqa tabiat fanlarining gullab yashnashi bilan

xarakterlanadi. Fanda paydo bo'lgan eksperimental metodning keng qo'llanilishi fanlarning rivojlanishiga turtki bo'ldi.

XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlaridayoq psixologlar o'rtasida psixik hodisalarini o'rganishda eksperimentni tadbiq qilish mumkin emasmiyan degan masala maydonga chiqdi.

Bu masala bo'yicha filosof I.Kant o'z fikrini aytdi. Uning fikricha, psixologiyada eksperimentning bo'lishi mumkin emas, unga matematikani tadbiq qilish mumkin emas.

**Kant Immanuil hayoti: (1724-1804)** Germaniyalik mutaffakkir Immanuil Kant Kyonigsberg shahrida hunarmand usta oilasida tug'ilib o'sdi. U oiladagi 9 nafar farzandning to'rtinchisi bo'lgan. I.Kant bolalik va o'smirlik chog'larida tez-tez kasalga chalingani sababli nimjon, jizzaki hamda vahimachi edi.

1745 yilda u Kyonigsberg universitetining ilohiyot fakul'tetini tamomlagan. 1755 yildan to 1797 yilgacha shu erda metafizika, mantiq, ahloqiy falsafa, fizika, riyoziyotdan dars bergan. Umrining oxirigacha bo'ydoq o'tgan. 57 yoshida "Sof tafakkur tanqidi" deb nomlangan asosiy asarini yozib tugallagan.


Uning quyidagi asarlari ma'lum: "Osmonning umumiyl tabiiy tarixi va nazariyasi" (1755), "Mantiq" (1800), "Amaliy mantiq tanqidi" (1788), "Antropologiya" (1798). Bular I.Kantning eng yirik va mashhur asarlari sirasiga kiradi.

Olim shaxsiy hayotida falsafiy masalalar xususida suhbatlashishni xush ko'rmagan. Aftidan, u o'zining tinglashga emas, faqat o'qitishga qobiliyatli ekanini yaxshi anglagan.

Hayotining har bir lahzasi muayyan tartibga solingan faylasuf har kecha roppa-rosa 10 da uyquga yotgan, tonggi soat 5 da uyg'ongan. U 30 yil davomida bir marta ham bu tartibni buzmagan. Roppa-rosa kechki soat 7 da sayrga chiqqan. Kyonigsberda yashovchilar Kantga qarab soatlarini tekshirishgan.

Psixik hodisalarini o'lchashning mumkinligi, binobarin, psixologiyada eksperimentning bo'lishi mumkinligi haqida nemis psixologi I.Gerbart (1776-1841 y.) ijobjiy fikr aytgan. U «psixologiyada matematikani tadbiq etish mumkin

va zarurligi haqida» shunday degan: «Mening tekshirishlarim amalda faqat psixologiyaning o'zi bilan cheklanib qolmasdan, balki fizikaga va umuman tabiat fanlariga ham qisman aloqadordir». Gerbartning fikricha, asosiy psixik element tasavvurdir, qolgan barcha jarayonlar – xissiyot, iroda, tasavvurlar kombinasiyasidan va munosabatlaridan iboratdir. Ruhiy xolatlar doimo o'zgarish jarayonida bo'ladi. Tasavvurlarning bu doimiy o'zgarish va almashish jarayonida ma'lum darajada doimiylik, qonuniyat bor. Bu doimiylikning miqdor tomonini o'lchash mumkin. Shuning uchun ham, Gerbartning fikricha, psixologiyaga matematikani tadbiq qilish mumkin. Gerbart, garchand psixologiyada eksperimentdan foydalanishning zarurligi va foydalilagini isbotlagan bo'lsa ham, lekin uning o'zi bu metoddan foydalanmagan.



**Weber**

**Fexner**

**Alfred Adler**

**Gerbart**

Eksperimental psixologiya taraqqiyotida ayniqsa nemis fiziologi va psixologi Vil`gel`m Vundt (1832-1920 y.)ning ishlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. V.Vundtgacha faqat ichki tajribadan va o'z-o'zini kuzatishdan foydalanib kelgan psixologiya faqatgina tasviriy fan edi. V.Vundt eksperiment va o'lchash metodlarini zarur deb topib, psixologiyani izohli fanga aylantirishni maqsad qilib qo'ydi.

V.Vundt psixologiya uchun klassik metodlar bo'lib qolgan bir qancha metodlarni, ya`ni qo'zg'atish metodi, ifodalash metodi va reaksiya metodlarini kashf etdi hamda rivojlantirdi.

V.Vundt 1879 yili Leypsigda birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasini tashkil qildi. Oradan ko'p vaqt o'tmasdan (1881 y.) u Berlin universiteti huzurida eksperimental psixologiya institutini tashkil qildi.

V.Vundt shug'ullangan masalalardan biri o'sha vaqtda astronomlar tomonidan ochilgan diqqatni bir vaqtda ikkita har xil qo'zg'atgichga toplash mumkin emasligi haqidagi masala edi. Bu hodisani aniqlash uchun V.Vundt (laboratoriya tashkil qilingunga qadar) 1861 yilda alohida mayatnik ish o'ylab chiqardi (Vundt mayatnigi). Bu mayatnik graduslarga bo'lingan yoy atrofida harakatlanadi va har bir ma'lum vaqtdan keyin jing'irlaydi. Bu psixologik elementlar uchun kashf etilgan birinchi asbob edi.

Ilmiy (izohli) psixologiyani oyoqqa turg'izish uchun V.Vundt qo'shimcha vosita sifatida yondosh fanlar, ayniqsa fiziologiya, astronomiya, etnografiya, tarix, mifologiya va boshqa fanlardan olingan ma'lumotlardan foydalanish zaruriyatini ilgari surdi.

Leypsig laboratoriyasi va institutidan namuna olib, Germaniyaning boshqa universitet shaharlarida ham, shuningdek, boshqa mamlakatlarda ham, jumladan, Fransiya, Angliya va Amerikada laboratoriya hamda institutlar tashkil qilindi. XIX asrning oxirida Rossiyada ham bir qancha eksperimental psixologiya laboratoriyalari tashkil qilindi: Moskvada Tokarskiy, Qozonda Bexterev, Odessada N.N.Langerlar tomonidan shunday laboratoriylar ochildi. 1911 yil Moskva universiteti huzurida, maxsus qurilgan binoda professor Chelpanov rahbarligida eksperimental psixologiya instituti tashkil qilindi. Hozirgi vaqtda bu institut RF Pedagogika fanlari akademiyasi sistemasiga kiradi.

Professor A. F. Lazurskiy (1874-1917 y.) tomonidan eksperimental metodning alohida turi-tabiyyi eksperiment ishlab chiqildi. Eksperimentning bu turidan bizda bolalar psixologiyasini o'rganishda, pedagogika masalalarini, ayniqsa, ta'lim psixologiyasi masalalarini hal qilishda keng va unumli foydalanilmoqda.

Eksperimental metodning tatbiq qilinishi psixologiya fani taraqqiyotiga juda unumli ta'sir ko'rsatdi. Bu metod yordamida oddiy kuzatish yoki o'z-o'zini

kuzatish yo'li bilan aniqlash qiyin bo'lgan yoki butunlay mumkin bo'limgan ko'p ma`lumotlar aniqlandi, ayrim psixik hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlar aniqlangan, psixik jarayonlardagi, ayniqsa, sezgi, diqqat, idrok, xotira sohasidagi ba`zi bir qonuniyatlar ochilgan.

Eksperimental tahlil yo'li bilan murakkab psixik jarayonlar (idrok, xotira, tafakkur)ning alohida komponentlari tarkibiy qismlari ajratilgan, psixik jarayonlarning fiziologik hodisalar bilan, shuningdek, tashqi fizik muhit hamda ijtimoiy muhit bilan bo'lgan bog'lanishlari ochilgan.

Eksperimental tekshirishlarning yakunlari, shuningdek, eksperimental metodning usullaridan foydalanish amaliy faoliyatning turli sohalarida – o'quv tarbiya ishlarida, medisinada, mehnatni tashkil qilish va rasionalizasiyalashtirishda, sud ishlarida, san`atda juda ko'p foyda keltiradi.

Psixologiyada eksperimentni tatbiq qilish bo'yicha dastlabki ishlarni fiziolog Weber (1796–1878 y.) va fizik Fexner (1803 – 1887 y.)lar amalga oshirdilar. Weber va Fexnerning maqsadi tashqi ta'sirotlar (fizik omillar) va ularning muvofiqi – sezgilarning o'zaro munosabatlari sohasidagi qonuniyatlarni topishdan iborat edi.

Fexner eksperimental metodlar asosida sezgilarning ortib borishi bilan ularni ko'zfatuvchi ta'ssurotlar ta'siridagi qiyosiy munosabatni aniqlab, sezgi qo'zg'atgich logarifmasiga proportionaldir degan psixofizik qonunni kashf etadi.

Veber va Fexnerlar o'tkazgan tajribalar «Psixofizika» degan alohida fanning paydo bo'lishiga olib keldi. Veber va Fexner ishlarining ahamiyati, asosan, shundan iboratki, ular birinchi bo'lib psixologiyani, tabiat fanlari singari, eksperimental fanga aylantirish mumkin ekanligini isbotladilar. Shu vaqtgacha faqat kuzatish, asosan, o'z-o'zini kuzatishdan foydalanib kelayotgan psixologiya endi aniq, fanlardagi ob'ektiv metoddan foydalana boshlaydi.

Eksperimental psixologiya taraqqiyotida ayniqsa nemis fiziologi va psixologi Vilgelm Vundt(1832– 1920y.)ning ishlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Vundtgacha faqat ichki tajribadan va o'z-o'zini kuzatishdan foydalanib kelgan psixologiya faqatgina tasviriy fan edi. V.Vundt eksperiment va o'lchash metodlarini zarur deb topib, psixologiyani izohli fanga aylantirishni maqsad qilib qo'ydi.

V.Vundt psixologiya uchun klassik metodlar bo'lib qolgan bir qancha metodlarni, ya'ni qo'zfatish metodi, ifodalash metodi va reaktsiya metodlarini kashf etdi hamda rivojlantirdi. V.Vundt 1879 yili bиринчи eksperimental psixologiya laboratoriyasini kashf qildi. Oradan ko'п vaqt o'tmasdan (1881 y.) u Berlin universiteti huzurida eksperimental psixologiya institutini tashkil qildi. V.Vundt shufullangan masalalardan biri o'sha vaqtda astronomlar tomonidan ochilgan diqqatni bir vaqtda ikkita har xil o'tkazgichga to'plash mumkin emasligi haqidagi masala edi. Bu hodisani aniqlash uchun V.Vundt (laboratoriya tashkil qilinganga qadar) 1861 yilda alohida mayatnik ish o'ylab chiqardi (Vundt mayatnigi). Bu mayatnik graduslarga bo'lingan yoy atrofida harakatlanadi va har bir ma'lum vaqtdan keyin shinfirlaydi. Bu psixologik eksperimentlar uchun kashf etilgan bиринчи asbob edi.

Ilmiy (izohli) psixologiyani oyoqqa turfizish uchun Vundt qo'shimcha vosita sifatida yondosh fanlar, ayniqsa fiziologiya, astronomiya, etnografiya, tarix, mifologiya va boshqa fanlardan olingan ma'lumotlardan foydalanish zaruriyatni ilgari surdi. Leyptsig laboratoriyasi va institutidan namuna olib, Germaniyaning boshqa universitetli shaharlarida ham, shuningdek boshqa mamlakatlarda ham, jumladan Frantsiya, Angliya va Amerikada laboratoriya hamda institutlar tashkil kilindi. XIX asrning oxirida Rossiyada ham bir qancha eksperimental psixologiya laboratoriyalari tashkil kilindi: Moskvada Tokarskiy, Qozonda – Bexterev, Odessada, N.N.Langerlar tomonidan shunday laboratoriya ochildi. 1911 yil Moskva universiteti huzurida, mahsus ko'rilgan binoda professor Chelpanov rahbarligida eksperimentengal psixologiya instituti tashkil qilinadi. Hozirgi vaqtda bu institut RSFSR Pedagogika fanlari akademiyasi sistemasiga kiradi.

Professor A.F.Lazurskiy (1874–1917y.) tomonidan eksperimental metodning alohida turi – tabiiy eksperimental metodning alohida turli tabiiy eksperiment metodi ishlab chiqilgan. Eksperimentning bu turidan bizda bolalar psixologiyasini o'rganishda, pedagogika masalalarini, ayniqsa, ta'lim psixologiyasi masalalarini ishlab chiqishda keng va unumli foydalanimoqda. Eksperimental metodning tatbiq qilinishi psixologiya fani taraqqiyotiga juda unumli ta'sir

ko'rsatdi. Bu metodning yordamida oddiy kuzatish yoki o'z-o'zini kuzatish yo'li bilan aniqlash qiyin bo'lgan yoki butunlay mumkin bo'lмаган ko'p ma'lumotlar aniqlandi, ayrim psixik hodisalar o'rtasidagi boflanishlar aniqlangan, psixik jarayonlardagi, ayniqsa, sezgilar, idrok, diqqat, xotira sohasidagi ba'zi bir qonuniyatlar ochilgan.

Eksperimental tahlil yo'li bilan murakkab psixik jarayonlar (idrok, xotira, tafakkur)ning alohida komponentlari tarkibiy qismlari ajratilgan, psixik jarayonlarning fiziologik hodisalar bilan, shuningdek, tashqi fizik muhit hamda ijtimoiy muhit bilan bo'lgan bog'lanishlari ochilgan. Eksperimental tekshirishlarning yakunlari, shuningdek, eksperimental metodning usullaridan foydalanishamaliy faoliyatning turli sohalarida – o'quv tarbiya ishlarida, meditsinada, mehnatni tashkil qilish va ratsionalizatsiyalashtirishda, sud ishlarida, san'atda juda ko'p foyda keltiradi.

Eksperimental metoddan tadbiq qilinishi psixologiya fani taraqqiyotiga juda unumli ta'sir ko'rsatdi. Bu metod yordamida oddiy kuzatish yoki o'z-o'zini kuzatish yo'li bilan aniqlash qiyin bo'lgan yoki butunlay mumkin bo'lмаган ko'p ma'lumotlar aniqlandi, ayrim psixik potsesslardagi, ayniqsa, sezgilar, idrok, diqqat, xotira sohasidagi, ba'zi bir qonuniyatlar ochilgan. Eksperimental tekshirishlarning yakunlari, shuningdek eksperimental metodining usullaridan foydalanish praktik faoliyatining turli sohalarida o'quv tarbiya ishlarida, meditsinada, mehnatni tashkil qilish va ratsionalizatsiyalashda, sud ishlarida, san'atda juda ko'p foyda keltirdi.

XIX va XX asrlar psixologiya fanining yutuqlari uchun metod bilan birligida taraqqiyot prinsipini kiritilishi ham katta ahamiyatga ega bo`ladi. Taraqqiyot ideyasi xususan ruh haqidagi ta'limotdagi taraqqiyot ideasi qadimgi zamон mutafakkirlarining ko`pchiligi (Geraflit, Efissk va boshqalar), tomonidan aytilgan ideyadir.

### **Amaliy mashg'ulotlardagi muhokama uchun savollar.**

1. XVIII asr psixologiyasiga umumiyl tavsif bering.

2. Fransuz va nemis psixologiyasining rivojlanishi haqida qanday ma`lumotlarni bilasiz?
3. XVIII asrning ikkinchi yarimida ingiliz psixologlari Yum va Gartlilar qanday ta`limotlarni ilgari surdilar?
4. Assotsiativ psixologiyaning yuzaga kelishi va rivojlanishi haqida ma`lumot bering.
5. Assosiativ psixologiya vakillaridan kimlarni bilasiz?
6. Eksperimental psixologiyaning shakllanishi qanday yuzaga kelgan?
7. V.Vundt psixologiya uchun qanday metodlarni kashf etdi va rivojlantirdi?
8. Professor A.F.Lazurskiy tomonidan eksperimental metodning qaysi turi ishlab chiqilgan?

#### **4-Mavzu: XIX –XX asrlarda horijda psixologiyaning rivojlanishi.**

**Reja:**

- 1.Yangi psixologik maktablarni shakllanishi va rivojlanishi. Strukturalizm.
- 2.Vyusburg maktabi.
- 3.Fransuz psixologiya maktabi.

**Tayanch so'zlar:** Fransuz psixologiyasi, nemis psixologiyasi, assotsiativ psixologiya, eksperimental psixologiya, yangi psixologiya, strukturalizm, vyursburg maktabi, funksionalizm, fransuz psixologiya maktablari.

#### **1.Yangi psixologik maktablarni shakllanishi va rivojlanishi.**

**Strukturalizm.** XIX asrning oxirlaridan boshlab psixologiyaning sohalari hayvonlar psixologiyasi, tarixiy psixologiya va turli yoshdagilar psixologiyasi maydonga keldi.

Yangi zamonda esa (XVIII–XIX asrlarda) bu ideya nazariy jihatdan Fridrix Shelling (1775–1854 y.) va ayniqsa Gegel filosofiyasida ishlab chiqilgan edi. XIX asrning o'rtalaridan boshlab Ch.V.Darvin (1809-1882 y) va Gekkel (1834–1918y.)

larning asarlari tufayli taraqqiyot ideyasi biologianing tamoyili bo'lib qoldi. Filosofiya va tabiatshunoslikdagi umumiy yo'nalish ta'sirida psixologiyada ham psixik hayot hodisalarini o'rghanishda genetik tamoyil qaror topadi. Bu tamoyil inson hamda hayvon, katta yoshdagi kishilar hamda har xil yoshdagi bolalar psixik hayotining xususiyatlarini yaxshi tushunish zaruriyat bilan taqozo qilindi. Jamiyatniig tarixiy taraqqiyotida inson ongi qanday paydo bo'ldi va qanday o'zgarib keldi degan masala ham o'zining hal qilinishini talab qilib turardi. XIX asrning oxirlaridan boshlab, psixologianing sohalari – hayvonlar psixologiyasi (zoopsixologiya), tarixiy psixologiya va turli yoshdagilar psixologiyasi maydonga keldi.

Yangi zamonda tabiatshunoslardan J.Lamark va Ch.Darvin hamda ular evolyutsion ta'limoti izdoshlarning asarlari ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'ldi. Zoopsixologianing taraqqiyotiga bu fanning Rossiyadagi asoschisi biolog darvenist V.A.Vagner katta xissa qo`shdi. U bir qancha chuqur ilmiy asarlar yozgan. Shulardan eng muxumlari: "Qiyosiy psixologianing biologik asoslari" ikki tomlik, "Biopsixologiya va yondosh fanlar", "Psixik qobiliyatlarning paydo bo`lshi va taraqqiysi" 1-9 nashri, "Qiyosiy psixologiyadan etyutlar"dir. Yuqori taraqqiy qilgan hayvonlar psixologiyasini o'rghanishda ilmiytadqiqotchilar ham juda ko`p xissa qo`shdilar.

Ayniqsa N.N.Ladigina - Kotsning yuqori taraqqiy qilgan hayvonlar psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlari shuhrat qozondi. U maymunlar faoliyatining turli xil formalarini batafsil tasvirlab berdi: hayvon va inson tafakkurining sifat jihatidan farqini o'rgandi, maymun (shimpanze) va inson bolasi psixikasini taqqoslab tekshirdi, hayvonlar hulqini o'rghanishning yangi metodikasini ishlab chiqdi. Ladigina–Kots tadqiqotlarining natijalari uning quyidagi asarlarida bosib chiqarilgan: «Shimpanzening bilish qobiliyatlarini tekshirish» (1923 y.); «Eksperiment sharoitlarida moslashish-harakat malakalari» (1928 y.); «Inson bolasi va shimpanze bolasi» (1935 y.).

Zoopsixologiya – bu hayvonlarning nerv sistemasi taraqqiyotiga, biologik sistematikasiga (hayvonlarning har xil turiga), shuningdek yashash tartibi xususiyatlariga binoan ularningpsixik hayot formalarini o'rganadigan fandir.

Bu psixologiya har xil hayvonlar psixikasini bir-biriga taqqoslab, qiyosiy qilib o'rgangani uchun, qiyosiy psixologiya deb ataladi. Bu psixologiya psixika taraqqiyotni hayvon organizmlarining biologik tuzilishiga bog'lab o'rganganligi uchun u biologik psixologiya deb ham yuritiladi. Hayvonlar hulqini o'rganishga bo'lgan qiziqish juda qadim zamonlardayoq paydo bo'lgan. Olimlar tomonidan boy ma'lumotlar to'plangan.

Hayvon psixikasi haqidagi ta'limotda ikki oqim – antropomorfik (idealistik) hamda mexanistik (materialistik) oqimlar kurash olib bordilar. Birinchi oqim vakillari hayvonlar hulqida ularning insonlarnikiga o'xshagan sub'ektiv psixik hayoti namoyon bo'ladi, deb hisobladilar. Bu ilmga asoslanmagan oddiy qarash edi. Darwin va uning bir qancha izdoshlari (Romene va boshqalar) hayvon hulqining ba'zi murakkab formalarini «aqli» harakatlar deb talqin qildilar. Dekart o'z zamonasida, hayvonlar – bu faqat mashina ularda ruh yo'q ularning butun hulqi faqat mexanik mushak harakatlardangina iboratdir deb jar soldi.

V.A.Vagner o'z tekshirishlarida hayvonlar hulqini tushuntirishda antropomorfizmni ham, soddalashtirilgan mexanik ta'limotini ham tanqid qildi. Hayvon psixikasini o'rganish sohasida nemis olimi Wolfgang Keller ham muhim ishlar qildi. Biroq, u o'zining «Odamsimon maymunlarning aqlini tekshirish» (1917 i.) degan va boshqa psixologik asarlarida maymun psixikasi bilan odam psixikasining farqlarini aniq ko'rsatib bermaydi. Bu antropomorfik qarashlar I.P.Pavlov tomonidan qattiq tanqid kilindi. I.P.Pavlov maymun va boshqa hayvonlar psixik faoliyatining moddiy shartli-reflektor asosini isbotlab berdi.



**I.P.Pavlov**



**Jan Piaje**



**Vilgelm Vundt**

N.Yu. Voytonist maymunlar aqlini ularning oriyentirofka qilish qobiliyati va qidiruv faoliyatini “qurollar” dan foydalanish, to`dalanish munoabatlarini o`rgandi. Hayvon psixikasi haqidagi ta’limot ikki oqim- antrapomofik hamda mexanistik oqimlarda kurash olib bordilar. Darwin va uning bir qancha izdoshlari hayvon xulqining ba’zi murakkab formalarini harakatlar deb talqin qildilar.

**2.Vyursburg maktabi.** Psixologiya fani taraqqiyotida nemis psixologiya maktabi muxim o`rinlardan birini egalladi. XX asrning boshlarida Germaniyada Vyursburg psixologiya maktabi deb nomlangan yangi yo`nalishga ega bo`lgan psixik oqim vujudga keldi. Mazkur yo`nalishning yirik vakillari sifatida O.Kyulpe (1862-1915), K.Byuller (1879-1922), A.Messer (1837-1937), Ax Nartsis (1871-1946) va boshqalarni sanab o’tish mumkin. Ushbu maktab namoyondalari o’zlarining eksperimental tadqiqotlari bilan tafakkur muammosining rivojiga ma’lum darajada hissa qo’sha oldilar. Ular tomonidan olib borilgan eksperimental tadqiqotlar tafakkur muammosining rivojiga ma’lum darajada hissa qo’sha oldi.

Vyursburg psixologiya maktabi vakillari tafakkurni hissiy bosqichda turgan psixik jarayonlarga, ya’ni sezgi va tasavvurlarga ajratib o’rganishda rasional bosqichdagi murakkab jihatlardan mexanik ravishda vujudga keladi, deb tushuntirish mumkin emasligini eksperimental yo’l bilan isbotlashga harakat qildilar. Olib borilgan tadqiqotlarni o’zlarining ustilarida o’tkazib, natijalarni ob’ektiv bo’lishiga kamroq e’tibor bergenlar.

Vyursburg psixologiya maktabining namoyondalari tafakkur bu ichki harakat, aktidir deb qaray boshlaydilar. O’z-o’zini kuzatish metodidan foydalaniib,

ish tutishda ular mana bunday ifodaning ma'nosini tushuntirib berishlari lozim, tafakkur haddan tashqari mashaqqatligi, shunga qaramay ko'pchilik shunchaki hukm chiqarishni ma'qul ko'radilar. Shuningdek, ular oldida munosabatlarni o'rnatish qism, yaxlit, tur, jins ob'ektning nisbati va o'zaro munosabatlarini, ushbu munosabatlarning aniq a'zolarini idrok qilishni aniqlash vazifalari turadi. Shuning bilan birga ularning barcha tadqiqotlari ob'ektiv metodlarni izlashga oid faoliyatlarida avj oldi.

Jumladan, N.Ax tomonidan sun'iy tushunchalarning shakllanishi bo'yicha dastlabki metodika yaratildi. Mazkur nazariya vakillari tafakkurni munosabatlarning aks etishi bilan bog'lab, tafakkurni munosabatlarning birlamchi qarab chiqish, yoki birlamchi ma'lumot berish manbai sifatida talqin qiladilar. Tafakkur taraqqiyoti masalasini ko'tarib chiqib, o'sishning fikrlarni faollashtirish orqali amaliy faoliyatdan tafakkurni mutlaqo ajratib qo'ydilar. Tafakkurni tadqiq qilishning asosiy metodi bu o'z-o'zini kuzatish ekanligini tan oladi, xolos. Mazkur muammo gnoselogik nuqtai nazardan olib qaralganda ushbu pozisiya idealizm izmiga kirib borayotganligini anglab olish unchalik qiyin emas. Vyursburg maktabi namoyondalari tafakkurni alohida mustaqil bilish faoliyati sifatida aniq ko'rsata bildi. Biroq tafakkurni amaliyotda nutqdan va hissiy obrazlardan qat'iy ajratib tashladilar.

Vyursburg psixologiya maktabi namoyondalaridan biri O.Zels tafakkurni intellektual operasiyalar harakati sifatida qabul qilgan. U o'z oldiga fikr yuritish faoliyatining u yoki bu jihatlari qay yo'sinda shakllanishini kuzatish, intellektual faoliyat bosqichlarini ko'rsatish aqliy faoliyatning produktiv va reproduktiv ko'rinishidagi ziddiyatlarni bartaraf qilish vazifasini qo'ydi. O.Zels masala yechish jarayonini o'rganishda umumiylukka ega bo'lgan masalani vujudga keltirish bosqichlariga alohida e'tibor berib, elementlar bilan predmetlar munosabatini ajratib ko'rsatadi. Buning natijasida muammo kompleksi namoyon bo'ladi. Kompleks o'z ichiga ushbu jihatlarni qamrab olishi nazarda tutilgan:

- a) ma'lumning tavsifnomasini bo'laklarga ajratish;
- b) qidiriluvchi noma'lumning o'rnini aniqlash;

v)noma'lum qidiriluvchi bilan ma'lum o'rtasidagi munosabatlarni ajratib ko'rsatish.

Shunday qilib, Vyursburg psixologiya maktabining namoyondasi O.Zels psixologiya tarixida birinchi bo'lib tafakkurni jarayon sifatida eksperimental metodlar bilan tadqiq qilgan, intellektual operasiyalar va ularning tarkibiy qismlarini nazariy va amaliy jihatdan ta'riflab bergan, izchil ilmiy metodlarga asoslanib, o'rganishga butun vujudi bilan intilgan psixologdir.

XIX asr oxirlarida, aniqrog`i, 1879 yilda nemis olimi Vilgelm Vundt Leybnits universitetida dunyoda birinchi eksperimental psixologik laboratoriya ga asos soldi, unda o'tkazilgan yuzlab tajribalar va eksperimentlar psixologiyaning ham alohida fan sifatida o'zini ko'rsatishga haqli ekanligini isbotladi. Aynan shu insonning psixologiya ilmi maktabini yaratganligida ma`no bor. Chunki V.Vundt tibbiyat fani bo'yicha ham mukammal bilimlarga ega bo'ldi, keyin fiziologiya sohasida muvaffaqiyatli ishladi, so'ngra falsafaga berilib ketdi. Balki, aynan bir qator fanlarni ham gumanitar, ham tabiiy fanlar asoslarini yaxshi bilganligi ob'ektiv sabab bo'lgandirki, olim inson psixologiyasi, unda ro'y beradigan jarayonlar oddiy sezishdan tortib, mavhum tafakkurgacha bo'lgan jarayonlarni, hissiy holatlarni amaliy tarzda eksperimentlarda o'rgana boshladi. Uning maqsadi – eng avvalo inson ongini tashkil etuvchi sof elementlarni ajratib olishdan iborat edi. Shuning uchun ham psixologiyada u asos solgan yo'nalish strukturalizm deb nomlandi.

V.Vundtning ta'siri shu qadar kuchli bo'ldiki, yer qurrasining boshqa bir tomonida – Amerika Qo'shma Shtatlarida funksionalizm deb nomlangan yana bir yo'nalish paydo bo'ldi. E.Titchener asos solgan bu yo'nalish vakillari nafaqat ko'zga ko'rmas ong tizimi elementlari, balki ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan va faoliyat natijalariga asoslangan belgilar asosida ham inson xulq-atvoriga baho berish mumkinligini isbotladi. Boshqa bir yirik amerikalik psixolog V.Jeymsning tadqiqotlari amaliy ahamiyatga molik bo'ldiki, endi u dadil psixologiyani ong elementlari emas, balki ong faoliyatini o'rganuvchi fan deb ta'riflay boshladi. Ong dinamik, harakatdagi, o'zgaruvchan yaxlit tuzilma bo'lib, uning namoyon

bo'lishida tananing shart-sharoitlari, uning faolligi muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bu ikki tuzilmalar odamning yangi sharoitlarga moslashuvi va umuman tashqi muhitda o'z o'rnini topishga imkon beradi.

Vyursburg psixologiya maktabining vakillari psixologiya tarixida keng o`rin egallagan assotsiativ psixologiyani tanqid qilib chiqdilar va sinaluvchilarni o`zini o`zi kuzatish metodiga suyangan holda tajribalar o`tkazish uslubi bilan yuksak darajada taraqqiy etgan psixik jarayonlarni jumladan, tafakkurni xissiy bosqichda turgan psixik jarayonlarga, ya'ni sezgi va tasavvurlarga ajratib o`rganishda ratsional (aqliy) bosqichdagi murakkab ruhiy jarayonlar ana shu ajratilgan jihatlardan mexanik ravishda vujudga keladi deb tushuntirish mumkin emasligini eksperimental yo`l bilan isbotlashga harakat qildilar. Ekperimental ishlarning ijodkorlari, tashkilotchilari va tashabbuskorlari bo`lib maydonga chiqqan Byuller, Messer, Kyulpe, singari namoyodalari psixologik tajribalarni dastavval o`zining o`zi kuzatish metodini o`zлari ustida o`tkazganlar. Lekin ular olinadigan natijalarning obyektiv bo`lishga kamroq e'tibor bergen.

Vyursburg psixologiya maktabining namoyondalari tafakkur-bu ichkiharakat (akt-asfus "harakat" degan ma'noni anglatadi) dir deb qaray boshladilar. O`zini o`zi kuzatish metodidan foydalanib ish tutishi ular manabunday ifodaning ma'nosini tushuntirib berishlari lozim: "Tafakkur haddantashqari mashaqqatlik, shunga qaramay ko`pchilik shunchaki xukm chiqarishni ma'qul ko`rdilar". Shuningdek, ular oldida munosabatlarni o`rgatish ("qism", "yaxlit," "tur", "jins") obyektning nisbatan va o`zaro munosabatlarini, ushbu munosabatlarini yaqqol a'zolarini idrok qilishni aniqlash vazifalarituradi.

**3.Fransuz psixologiya maktabi.** Bu maktabning asoschilaridan biri E. Dyurkgeym (1858-1917) yurist bo`lib, boshqa xalqlar maishiy huquqlarini o`rganib (qadimgi) ibtidoiy fikrlash kontseptsiyasini yaratdi. Uning g`oyalarini L.Levi-Bryul` rivojlantirdi. Bu maktabni rivojlantirishda J.Piaje, M. Gal`bvaks, Sh. Blondellar ham hissa qo'shganlar.

Qadimgi xalqlarning qarashlari, odatlari, axloqiy va yuridik normalarini o`rganib, E. Dyurkgeym bular har bir alohida shaxsning ongi ustidan hukmronlik

qiluvchi jamoaviy kuchni tashkil qiladi degan xulosaga keldi. Inson ikki yoqlama individual mavjudot: biologik va ijtimoiy.

Birinchisi, organizmdagi o'z ildizlariga ega bo'lib, psixikaning biologik aniqlanuvchi qismiga muvofiq hisoblanadi, uindividning atrofdagi olam bilan amaliy munosabatlarini boshqaradi. Dyurkgeymga binoan moddiy ishlab chiqarish sohasida, individ ajratib qo'yilgan mavjudot sifatida namoyon bo'lyapti. Uning individual ongi ob`ektlar ta`siri ostida bo'ladi.

Frantsuz ijtimoiy maktabida individual biologik bilan o'xshatiladi, ya`ni individ organizm sifatida ko'rib chiqiladi. Jamoaviy bilan individual muammolar ijtimoiy va biologik muammolarga o'xshatiladi. Insonda ijtimoiy mavjudot jamiyat tomonidan shakllantiriladi. Unga psixikaning ijtimoiy belgilangan qismi mavjud. Dyurkgeymning ta`kidlashicha, "dinyoki fan bizning miyamizga singdirayotgan umumiy g'oyalari, intellektual operatsiyalar, qaysiki bu foydalar bizning axloqiy hayotimizning mohiyatini taqozo etadi. Bular psixik faollikning eng oliy shakli bo'lib, ular bizni jamoaviylikka undaydi va rivojlanadir. Bizning tasavvurimizda namoyon bo'luvchi ijtimoiy hayot, o'zida oqib chiqmaydi balki, o'zining moddiy substansi ustida barpo bo'ladi".

Dualizm – E.Dyurkgeym kontseptsiyasining xarakterli xususiyatidir. Jamiyatni Dyurkgeym mavjud voqelik sifatida ko'radi. U ma`naviy yaratilgan: ma`lum turdag'i faoliyat uslublarining fikrlar, bilimlarning yig'indisi. Ular jamiyat hayotining turli tomonlarini aks etadi va jamoaviy tasavvurlar deb nomlanadi. Tilda mustahkamlanadi. Jamoaviy tasavvurlar hammabopligi va zaruriyligi bilan muhim bo'lib, uzoq davom etuvchi rivojlanish mahsulidir. U shaxs tomonidan emas, jamiyat tomonidan yaratiladi, insonga majburiy ta`sir o'tkazadi, ular affektiv tarzda bezalgan va har bir kishi tomonidan hech bir ikkilanmasdan qabul qilinadi.

Shu tarzda E.Dyurkgeym kontseptsiyasida inson faoliyatining rivojlanishi uning tafakkurining rivojlanishi bilan bog'liq emas. Individ tasavvurida jamoaviy tasavvurlarning singdirilishi idealistik nuqtai nazardan individual va jamoaviy ongning o'zaro ta`siri asosida deb hisoblanadi.

### **Amaliy mashg'ulotlardagi muhokama uchun savollar.**

1. Yangi psixologik maktablarni shakllanishi va rivojlanishi qanday amalga oshirilgan?
2. Strukturalizm nima?
3. I.P.Pavlovning psixologiyaga qo'shgan hissasi nimalardan iborat?
4. Vyusburt maktabining rivojlanishi va o'ziga xos jihatlarini ayting.
5. Vyursburg psixologiya maktabining namoyondalari tafakkurni qanday ta'riflaydilar?
6. Fransuz psixologiya maktabi haqida ma'lumot bering.
7. E.Dyurkgeym kontseptsiyasining xarakterli xususiyati nimadan iborat?
8. Dualizm nima?

### **5-Mavzu: XX asrda psixologiyaning rivojlanishi.**

#### **Reja:**

1. Psixologiyada metodologik inqiroz.
2. Bixevoirizmga umumiyligi tavsifnomasi. Neobixevoirizmni yuzaga kelishi va rivojlanishi.
3. Geshtal't psixologiyaga umumiyligi tavsif.
4. Psixoanaliz va uning rivojlanishi.
5. K.Yungning analitik psixologiyasi.
6. Adlerning individual psixologiyasi.

**Tayanch so'zlar:** *bixevoirizm, neobixevoirizm, geshta'ltpsixologiya, psixoanaliz, analitik psixologiya, individual psixologiya.*

**1.Psixologiyada metodologik inqiroz. Ochiq inqiroz davrida horij psixologiyasi** (XX asrning 10-30 yillari). XX asrning 10-yillarida boshida psixologiya ochiq inqiroz davriga yuztutdi. Bu davr XX asrning 30- yillari o'rtalarigacha davom etdi. Bu o'z navbatida ilm-fanning o'sishini ko'rsatar ekan, avvalgi tasavvurlarning yangilari bilan o'zgartirishi zaruriyatini ko'rsatar edi.

L.S.Vigotskiy baho berishicha, bu psixologiyaning metodologik asoslari inqirozi bo'lib namoyon bo'ldi.

Inqirozning pozitiv mazmuni horijiy Yevropa mamlakatlarda Rossiyada ham keng yoyilgan yangi psixologik nazariyalarni yaratishni tashkil etdi. Horij psixologiyasi inqirozi iqtisodiy va burjua jamiyatidagi ijtimoiy –psixologik qarama-qarshiliklar kuchaygan davriga to`g`ri keladi. Barcha qarama-qarshiliklar burjua ideologiyasi va falsafasida o'z aksini topdi. Adabiyot va san`atni turli-tuman obrazlardagi voqelikka teskari bo'lган, aql bovar qilmaydigan voqealarga, qo'rquv va umidsizlik ruhidagi to'la oqimlar bosib ketdi. Ijtimoiy vaziyatning murakkab va qarama-qarshiliqi, oldingi axloq normalaridagi nomuvofiqlik, jamiyat va tarixga turli valyuntaristik qarashlar burjua ziyolilarida inson shaxsiyati, ma`naviy qadriyatlarga ishonmaslik, insonning paydo bo'lishi haqidagi yolg'on tasavvurlar hosil bo'lishiga sabab bo'ldi.

Inson shaxsi va jamiyat o'rtasidagi qarama-qarshilik esa insonning biologik kelib chiqishining jamiyat axloq talablari bilan mos kelmasligi deb tushunildi. Bu esa o'znavbatida ijtimoiy nohaqlikka, nizolar, jinoyatchilik, urushlar ro'kach qilinib, normal shaxslararo munosabatlar o'rnatish mumkin emas, degan xulosaga olib kelgan. Bu davrda falsafada juda keng tarqalgan ijobiy shakldagi oqimlar A. Bergsonning maxizm va empirio-kritisizm, intuitivizm, E.Gusslerning nemis idealistik hayot falsafasi bo'lган fenomenologiyasi oqimlari yuzaga keldi. A.Shopengauer, E. Gartman, F.Nisshelarning volyuntaristik g'oyalari ta`siri davom etdi.

XIX asr oxiriga borib “ijtimoiy qiyinchiliklar” natijasida Sorel`va Bergson falsafiy nazariyalarida o'z ifodasini topgan anti intellektualizm qayta jonlana boshladi. Instinkt va intuisiya aql-idrokdan ham muhimroq deb baholana boshlandi. Aql-idrok eskirib qolgan tushuncha sifatida inkor qilindi... Bu yo'naliishlar psixologiya rivojlanishiga jiddiy ta`sir ko'rsatdi. Ko'pgina psixologlar Max falsafasiga ergashdilar.

Bugungi kunga kelib shu narsa ayon bo'ldiki, psixologiyaning ochiq inqirozi davrida biror bir rivojlangan psixologik oqim psixologiyani bu yanglish yo'ldan

olib chiqib keta olmadi. Biroq, shu davrda e`tirof etilgan yangi yondashuvlar, qo'yilgan muammolar, olingan empirik materiallar psixologiya fanining keyingi va hozirgikundagirivojlanishiga ulkanva mahsuldorta`sirko'rsatdi.

**2. Bixevoirizmga umumiy tavsifnomasi. Neobixevoirizmni yuzaga kelishi va rivojlanishi.** XIX asrning oxirida bir qancha amerika psixolog va fiziologlari, jumladan, E.Torndayk (1874-1949y), Dj.Uotson (1878-1958y) va boshqalar empirik psixologiyani tanqid qilib chiqdilar. Ular, avvalo, bu psixologiyadan foydalanib kelayotgan o`z-o`zini kuzatish metodi haqiqiy ilmiy bilimlar bera olmaydi, chunki uning xulosalari subyektiv harakterga egadir. Haqiqiy ilmiy bilimlar obyektiv va aniq bo`lmoqi kerak. Psixologiya falsafa faniga emas balki hozirgi zamon tabiatshunosligiga tayanmofi va boshqa tabiy fanlari singari tashqi tajriba dalillari asosida qurilmofi kerak. Psixik hayotni obyektiv meiod bilan o`rganishda ongning subyektiv hodisalari inson shaxsining ichki psixik kechinmalari inobatga olinmaydi. Ob`yekativ metodlar bilan organizmning harakatlari uning mimika va ishoralari nutq va boshqalarnigina o`rganish mumkin. Uotson o`zining psixologiya sohasidagi asosiy asarini “Psixologiya xulq haqidagigi fan” deb nomladi. “Bixevoir degan so`z ingilizcha -xulq degan so`z” Amerika psixologiyasidagi bu yo`nalish shuning uchun ham “Bixevoirizm” (Xulq psixologiyasi) deb atadi.

Odatda biz, organizmning harakatlari -mimika, imo-ishoralar, nutq ichki va ruhiy kechinmalarning faqatgina tashqi zoxira deb bilamiz. Traditsion ratsionalistik va empirik psixologiya ham bizning harakatlarimizni ko`pchiliginin ichki psixik kechinmalarining faqat tashqi ifodasidir deb ta`kidlagan. Lekin bixevoiristlar inson xulqini bunday tushuntirishni ilmiy emas deb rad qildilar. Ularning davosiga ko`ra, fizik qonuniyatlariga bo`y sunmaydigan fiziologik xususiyatlar inson xulqiga ta`sir qiladigan va uni boshqaradigan alohida psixik faoliyati yoki ong faoliyatini buzilishi mumkin emas.



**Dj.Uotson      E.Torndayk    Jan Piaje    V.M.Bexterev**

Yuqoridaagi fikrlar ta'sirida XIX asrning oxirlarida bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan **bixeviorizm** oqimi paydo bo'ldi. Bixeviorizm oqimining asoschilari amerikalik psixologlar Dj.Uotson va E.Torndayklardir. Keyinchalik bular qatoriga K.Levin (1890-1957) A.Vays (1974-1931) K.Leshli (1890-1958), va boshqalar kelib qo'shildilar. Ma'lum davrgacha mazkur oqim psixologiya olamida dominantlik rolini o'ynadi. Hozirgi davrda bu oqim bir necha mustaqil psixologik maktablarga ajralib ketgan. Ushbu yo'naliш vakillarining asosiy g`oyalari shundan iborat bo'ldiki, ular psixologiyaning predmeti nafaqat ong yoki nafaqat faoliyat, balki **xulqdir** deb asosladi. Xulq u yoki bu hattiharakatlar, amallar, reaktsiyalarda ifodalanib, tashqi ta`sir-stimulga bog`liqdir. Shuning uchun ham inson va uning psixologiyasini bilish uchun o'sha ta`sir ko'rsatuvchi va ta`sirlangan xulq o'rganilishi kerak. Bu narsalar bizning xozirgi sharoitimizda ham ishlab chiqarishni tashkil etishda, ta`lim berishda va psixoterapiyada inobatga olinadi, ular o'tkazgan mashhur «S-R» formulasi bizning sharoitlarda ham ta`sir ko'rsatish texnikasida inobatga olinadi, ular o'z dolzarbligini yo'qtgani yo'q.

Bixeviorizm psixologiya maktabi, psixologiya fanining predmeti psixikani emas, balki inson va hayvonlar xulqini o'rganishdan iboratdir, degan g`oyani ilgari suruvchi va himoya qiluvchi oqimdir. Atoqli jenevalik psixolog Jan Piage (1896-1980) murakkab **intellekt** muammosiga bag`ishlangan nazariyani ishlab chiqdi. U aksariyat hollarda “tafakkur” tushunchasi o'rniغا “intellekt” terminini qo'llaydi, lekin shunga qaramasdan, uning tadqiqotlarida “tafakkur psixologiyasi” degan so'z birikmasini uchratsa bo'ladi. J.Piajening intellekt nazariyasi ikkita muhim jihatga

ajratilgan bo'lib, intellekt funktsiyalari hamda intellektning davrlari ta`limotlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Psixika va ong haqidagi Uotson: "Agar bixevoirizm fanda" qandaydir ko`zga ko`rinarli o`rin olishni xohlasa (loaqal aniq obyektiv metod sifatida bo`lsa ham), u "ong" tushunchasini mutlaqo rad qilmofi kerak. Ong va uning takidiy elementlari bularning barchasi quruq gapdan iborat deb atagan. Shuning bilan bixevoiristlar psixologiyasining oddiy terminalogiyasini ham uloqtirib tashlaydilar. Ushbu Uotsonning o`zi yana shunday dedi: "Sezgi, idrok, diqqat, iroda, xayol..." kabi tushunchalardan, biror kimsa to`liq tushunchadan foydalana olishini men mutlaqo bilmayman va unga ishonmayman ham.

Bixevoirizmning asoschisi Torndayk kuzatish metodi va maxsus eksperimentlar o`tkazish bilan hayvonlarda (asosan, kalamushlarda) malaka hosil qilish jarayonini o`rgangan. Torndayk hayvonlar psixikasi o`rganishdagi xuddi shu obyektiv metodlarni inson psixik hayotini o`rganishga ham kuchirish (tadbiq qilish) mumkin deb hisoblanadi. Inson xulqi reaksiyalar yig'indisi sifatida bitta emas, balki butun bir qo`zg'ovchilar sistemasi bilan vujudga keltiradi. Organizimning javob harakatlari yig'indisi, harakatlari yig'indisini (xulqini) ro`yobga chiqaruvchi barcha qo`zg'ovchilarning murakkab yig'indisini bixevoiristlar situatsiya (tashqi sharoit) deb ataydilar.

Bixevoirizm nuqtai nazaridan, inson xulqi ong faoliyati bilan emas, balki tashqi qo`zg'ovchilarning yiqindisi bo`lgan situatsiya bilan belgilanadi. Bixevoirizm nuqtai nazaricha, ta'lim va tarbiya tarbiyalanuvchilar va o'quvchilar ongiga tarbiyachi va o'quvchi tomonidan ta'sir qilishdan emas, balki tegishli situatsiya (sharoit) tashqi qilishdan iboratdir. Bu situatsiya organizmga bevasita ta'sir qilib inson hulqini kerakli yo`nalishda shakillantirmog'i kerak. Ta'lim va tarbiya jarayonining o`zi esa, kerakli malakalar hosil qilishga tenglashtirib qo`yiladi, boshqacha qilib aytganda ta'lim va tarbiya jarayoni pressirovkadan iborat qilib qo`yiladi.

Dj.Uotson tafakkurning ichki nutq va noverbal tovushsiz imo-ishora, mimika, yelka qisishi, qosh suzish, kommunikasiya, muloqotni birga qo'shib, keng

ma'noda tushunadi va uni uchta shaklga ajratib o'rganadi. Nutq shakllaridan biri nutq malakalarini sekin-asta avj oldirish deb ataladi. Bu she'rni yoki sitatani aniq esga tushirishda o'z ifodasini topadi. Tafakkurning ikkinchi shakli sub'ekt uchun yangi bo'limgan topshiriqni so'z yordami bilan yechish, yarim-yortisi unutilgan she'rni eslashga harakat va nihoyat, yangi topshiriqni yaqqol ifodali harakat va so'z yordami bilan yechish Dj.Uotson uchun malaka u individual egallagan va o'rganilgan xatti-harakatdir. Ushbu nazariya nuqtai nazaridan qarasak, tafakkur malakaga yaqinlashtirilib qo'yiladi, chunki she'rni esga tushirish ham tafakkur deb talqin qilinadi. Dj.Uotson tilni o'zlashtirishning ijtimoiy jihatlarini umuman hisobga olmagan, nutqning tuzilishi va rivojlanishiga sira e'tibor qilmagan. Nutq bilan tafakkur birligi to`g`risida tamoyilni anglab yetmagan, tafakkur va ongning xulq ko'rinishi sifatida olib qaralgan.

Amerika bixevoirizmi bilan deyarli bir vaqtda Rossiyada ham psixologiyada alohida ob'ektiv yo'nalish paydo bo'lib, uning tashkilotchisi professor V.M.Bexterev(1857–1927 y.) edi. Bexterov ham, bixevoiristlar singari, o'z-o'zini kuzatish metodini va empirik psixologiyani sub'ektiv hamda ilmiy emas deb qattiq tanqid qildi. U ilmiy psixologiya tashqi kuzatish va eksperimentga asoslanmofi kerak, deb hisobladi. Sirtdan turib psixika – ongni kuzatish mumkin bo'limganligi uchun, psixologiya oddiy (tug'ma) va murakkab (hosil qilingan) reflekslarga asoslangan tashqi reaksiyalarni o'rganmofi kerak. Bu nomlar Pavlovcha shartsiz va shartli reflekslarga to`g`ri keladi.

V.M.Bexterev o'z ta'limotini ob'ektiv psixologiya deb, keyinchalik esa refleksologiya deb atadi. V.M.Bexterev inson shaxsining barcha murakkab harakatlarini mashinaga o'xshagan mexanik faoliyat, reflekslar zanjiri va qo'shilishi deb hisoblaydi. Masalan, Bexterevning fikricha, inson ongingin ijod singari murakkab harakatlari ham ma'lum bir maqsadni ko'zlagan, bir-birlari bilan ulangan reflekslar yig'indisidir, maqsad esa o'zining o'tmishdagi tajribasidan yoki boshqalarning tajribasidan olinadi. Bixevoirizmdagi singari, refleksologiyada ham, hissiyot, diqqat, xotira, tafakkur, iroda kabi barcha an'anaviy psixologik tushunchalar shartsiz (sodda) reflekslar va shartli (murakkab) reflekslar haqidagi,

markazlashish, reproduktiv, orientirovka reflekslari haqidagi, nutq reflekslari haqidagi ta'limotlar bilan almashtiriladi. Psixologik terminlar biologiya, fizika va mexanika sohasidagi terminlar bilan almashtirilgan edi, masalan, irradiatsiya, kontsentratsiya, differentsiatsiya, tormozlanish, tormozlanishning yozilishi va boshqalar. Bexterovning psixik faoliyati haqidagi ta'limoti, aslida, amerika bixevoiristlarining ta'limotini takrorlagan edi.

**3. Geshtal`t psixologiyaga umumiy tavsif.** Germaniyada psixologiyaning geshtal`t psixologiya yo'nalishi vujudga keldi. Bu yo'nalishning asosiy vakillariga X.Erenfels (1859-1932), V.Keller (1887-1967), K.Kofka (1886-1941) va boshqalar kiradilar. Geshtal`tchilar fikriga qaraganda, har bir psixik hodisaning mazmuni uning tarkibiga kiruvchi qism va elementlarni birqalikda aks ettirishdan ko'lam jihatidan keng, mazmun jihatidan rang-barangdir. Geshtal`tchilarning aksiomatik xarakterga ega bo'lgan ushbu tezislari mazkur ta'limot g'oyasini ochib berishga xizmat qiladi, alohida olingan qism va elementlarning yig'indisi yaxlit tuzilish mazmunini belgilab bera olmaydi, aksincha yaxlit tuzilma qism va elementlarning xususiyatlari va xossalarni belgilab berishga qurbi yetadi.

Geshtalt`psixologiyaning markaziy nazariyasi har qanday psixologik jarayonlarning bosh mohiyati ularning sezgilarga o'xshash alohida elemetlari emas, balki konfigurasiya shakl yoki geshtal`tchilarning yaxlit yaratishidan iborat. Geshtalt`psixologiyada tafakkur muammosining tadqiqoti keng qamrovli tarzda olib boriladi. Jumladan, V.Keller antropoidlarning intellektual harakatlarini eksperimental o'rGANISH natijasida yuqori darajada taraqqiy qilgan maymunlarning aqliy harakatida inson harakatiga xos o'xshashlik borligi to`g`risida xulosa chiqaradi.



**K.Kofka**



**V.Keller**



**Vilgel`m Vundt**

V.Kellerning fikricha, topshiriqni yechish mexanizmi quyidagilardan iborat: organizmning optik maydonidagi vaziyatlarning muhim elementlari bir butunlikni, ya'ni vaziyat elementlariga, geshtal`t ichiga kirib, geshtal`tda qaysi joyni egallashga bog'liq ravishda yangi ahamiyat kasb etadi. Vaziyatning muhim elementlaridan namoyon bo'luvchi geshtal`tchilar muammosi vaziyatda organizmda ba'zi bir zo'riqishlar ta'sirida vujudga keladi, topshiriqni yechish muammoli vaziyatning qismlari yangi geshtal`tda yangi munosabatda idrok qilina boshlaganida tugallanadi. Masalani yechish aniq qadamlarni yuzaga keltiruvchi geshtalt` sifatida maydonga chiqadi.

Geshtalt`chilarning ayrimlari "yo'naliш" atamasini qo'llab, uni o'tmishtajribasi bilan boflashga intiladilar. Shuningdek, ular "tafakkurning evrestik metodlari" to`g`risidagi tushunchadan ham foydalanadilar. Bunda materialni, qo'yilgan maqsadni, konfliktli holatlarni tahlil qilishni nazarda tutadilar.

Geshtal`tchilar tafakkur psixologiyasining qator muammolarini ko'tarib chiqadilar, chunonchi ijodiy tafakkurning o'ziga xosligi, tafakkur jarayonida yangilikning vujudga kelishi, bilimlar bilan tafakkur nisbati, topshiriqni bajarish jarayonida asta-sekin va birdaniga yechish yo'lini qo'llash kabilar. Tafakkurni psixologik o'rGANISHDA funksional rivojlanish g'oyasini amaliyotga tadbiq qilish ham ma'lum darajada geshtal`t psixologiya namoyondalarining xizmati hisoblanadi. Shunga qaramasdan V.Keller, M.Vertgaymer, K.Dunkerlarning eksperimental tadqiqotlari tafakkurning asosiy mexanizmlaridan biri bo'lgan predmetlarni yangi aloqalar va munosabatlarga fikran jihatini ochishni aniqladilar.

Ammo ular ham mazkur muammoli vaziyatda individning amaliy va nazariy aqliy faoliyatlari rolini mutlaqo tan oladilar.

Geshtal`t psixologiyaning vakillari bu ta'limotga qarama-qarshi o'larоq, har bir psixik hodisa yaxlit obrazdir, yaxlit struktura – Geshtal`tdir degan nazariyani ilgari surdilar. Har bir psixik hodisaning mazmuni uning tarkibiga kirgan qism va elementlarning yig'indisiga nisabatan mazmundorroq hamda boyroqdir. Ayrim element va qismlarning yig'indisi butunning mazmunini belgilamaydi, balki, aksincha, butun (yaxlit struktura) qism va elementlarning xususiyatlarini» belgilab beradi.

Bu psixik strukturaning yaxlitligi nazariyasi, avvalo, idrok faktlari asosida ishlab chiqilgan edi. Idrok – bu sezgilarning yig'indisi emas, balki yaxlit obrazdir, deb ta'kidlanadi. Psixik mahsullar va strukturalarning yaxlitligi haqidagi bu ta'limot keyinchalik xotira, tafakkur va iroda hodisalariga ham tatbiq qilingan edi. Bu alohida-alohida yo'nalish va oqimlar, bir qancha umumiyl xususiyatga ega bo'lган holda (ayniqsa eng muhim momentlarda) «Empirik psixologiya» degan umumiyl nom ostida birlashdilar. Psixologiyaning predmeti va metodlarini bir xilda tushunish bu barcha oqimlariing birlashuviga sababchi bo'ldi.

«Empiriklar» psixologiyani ruh haqidagi fan deb emas, «ruhiy hodisalar», yoki «ong hodisalari», yoki bo'lmasa faqatgina ong haqidagi fandir, deb ta'rifladilar. Bu «ruhsiz» psixologiyadir (N.N.Lange). «Hech qanday metafizikasiz psixologiyadir» (A.I.Vedenskiy). Empirik psixologiyaning tarixiy xizmati shundan iboratki, uning vakillari ilmiy jihatdan o'rganish predmeti sifatida ruhni inkor qildi. Bu holatni psixologiyaning metafizik va idealistik qarashlardan holi bo'lish yo'lidagn katta qadam deb hisoblash mumkin.

Yuqorida aytilganday, empirik psixologiyaning asosiy metodi kuzatish, tajribadir. Lekin tabiat fanlaridan psixologiya sohasiga ko'chirilgai bu metod ichki tajriba sifatida, o'z-o'zini kuzatish (introspeksiya) sifatida boshqacha tus oladi. Empirik psixologiya ob'ektiv kuzatish metodidan ham, eksperiment metodidan ham foydalangan: psixik hodisalar har xil mahsus asboblar yordami bilan mahsus

laboratoriyalarda o’rganildi; materiallarni tekshirish va yakunlashda matematik statistika (korrelyatsiya) metodlaridan foydalanildi.

Empirik psixologiyaning psixologiya fani tarixidagi ikkinchi katta xizmati tajribadan foydalanishdan, psixologik eksperimentlar o’tkazishning metod va texnikasini ishlab chiqishdan iborat. Psixologlar tomonidan eksperimentning tatbiq qilinishi tufayli inson psixologiyasi sohasida boy materiallar to’plagangan. Bu materiallarning ko’pchilik qismi hozirgacha ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan (masalan, Vilgel’m Vundt va Ebbingauzning eksperimental ishlari). Empirik psixologiya aniqlagan ma'lumotlar va ishlab chiqqan eksperimental metod va usullar amaliyotda ham, masalan, meditsina va pedagogika sohalarida foydali bo’lib chiqdi.

Empirik psixologiyadagi idealizm. O’z-o’zini kuzatish metodi empirik psixologiyaning asosiy metodi edi. Ob’ektiv kuzatish va eksperiment metodlari esa ikkinchi darajali o’rin egallardi: ular faqat psixologiyadagi asosiy metod – o’z-o’zini kuzatish natijalarini aniqlashga yordam beruvchi metodlar deb hisoblanardi. Shuning uchun ham «ong hodisasi», «ichki tajriba» (nnsomning sub’ektiv kechirik) larini o’z ob’ekta deb bilgan empirik psixologiya ko’pincha o’z-o’zini kuzatish metodidan foydalangan, shu sababli yana «sub’ektiv psixologiya» deb nom olgan. Shu jihatdan empirik psixologiyaning uning sub’ektivizmi bilan boflangan eng muhim kamchiliklaridan biri idealizm va dualizm edi.

Empirik psixologiyaning vakillari bu oqim paydo bo’lgandan boshlaboq, ruhning o’zini ilmiy o’rganish predmeti sifatida olishni rad qildilar va ruhning asli mohiyati haqida fikr yuritishdan, bu masalani hal qilishdan bosh tortdilar. Lekin, «ruhiy hodisalarini», «ong hodisalarini» o’rganishni asosiy vazifa qilib olgan psixologlar o’z ishlari jarayonida taqozo qilingan: bu ruhiy hodisalarning o’zi nima, ularning fizik hodisalardan farqi nimada va ular inson organnzmidagi fiziologik jarayonlar bilan qanday munosabatda bo’ladilar, degan savollar bilan to’qnash keldilar va bu savollarga javob berishga majbur bo’lib qoldilar.

Empiriklar sub’ektiv metod (o’z-o’zini kuzatish)dan olingan natijalarga asoslanib, psixik hodisalarini tasvirlab va analiz qilib, bu hodisalarни fizik hamda

fiziologik hodisalar bilan taqqoslaydilar. Bu taqqoslashlar natijasida ular odatda, tahminan quyidagicha xulosalar chiqaradilar. Psixik hodisalar o'z xususiyatlariga ko'ra fizik hamda fiziologik hodisalardan farq qiladi, masalan, psixik hodisalar fazoviy jismlar emas (ya'ni ularning uchburchak, kvadrat kabi geometrik shakllari bo'lmaydi);ular ofirlik, rang singari boshqa fizik xususiyatlarga ham ega emas, shunga asoslanib, empirik psixologiyaning vakillari psixik hodisalar fizik va fiziologik jarayonlardan tubdan farq qiladi, deb hisobladilar.

Psixik hodisalar moddiy emas, balki ruhiydirlar. Modomiki, psixik hodisalar o'z tabiatiga ko'ra moddiy emas ekan, u holda ularning negizida qandaydir moddiy bo'limgan alohida substantsiya bo'lsa kerak, dedilar, ya'ni alohida moddiy bo'limgan substantsiyadan iborat bo'lgan ruhning mavjudligiga ishonadilar. Masalan, Djems empirik psixologiya vakillari haqida gapirar ekan (uning o'zi ham shularga mansub edi), ular ongni o'rgatayotganlarida, ruhning o'zini emas, balki sochilgan substantsiya ruhdan tarqalgan aks-sadoni go'yo uning zohirini uzoqdan ovlayaptilar deb e'tirof etadi. Vundt materiya tabiatshunoslikning yordamchi tushunchasi bo'lgan materiya singari, ruh ham psixologiyaning yordamchn tushunchasidir, deb hisobladi, Vundt faqat ruhning substantsionalligini dolzarblik bilan almashtiradi, xolos. Shunday qilib, empirik psixologiya dastlab ruhni o'rganish ob'ekti sifatida olishni rad qilgan bo'lsa ham, lekin keyinchalik uning eng yirik vakillari oqibat-natijada o'z nazariy mulohazalariga asosan ruhni tan olishgacha bordilar. Empirik psixologiyaning vakillari ongni uning moddiy asosidan, inson faoliyatidan ajratib qo'ydilar.

Bu psixologiya vakillarining psixik hodisalarni qanday bo'lmasin materialistik talqin qilishdan chetlashishga intilganliklari, materializmga har qanday yaqinlik shubhasidan tashqarida bo'lishga intilganliklari (masalan, Djems) empirik psixologiyaning tamomila idealistik maqsadlarni ko'zlaganidan dalolat beradi. Ularning har biri hattoki psixologiyaning vazifasi materializm bilan kurashdan iborat deb bilganlar.

Rossiyada ham empirik psixologiya idealizm bilan suforilgan edi. Rus psixologiyasidagi bu yo'nalişning vakillari N.Ya.Grot, A.N.Vedenskiy, Lopatin,

Losskiy, Frank va boshqalar edilar. Ayniqsa o'sha vaqtda katta eksperimental ishlarni amalga oshirgan eng yirik psixologiya institutining tashkilotchisi professor G.I.Chelpanov nomi shuhrat qozongan edi.



**G.I.Chelpanov**

**N.N.Lange**

**A.F.Lazurskiy**

Empirik psixologiyadan asosan idealistik filosofiyani asoslash va materializm bilan kurash uchun foydalanilardi. Oliy, o'rta va pedagogik o'quv yurtlarida psixologiya o'qitish ishlari ham idealistik ruhda olib borilardi. To`g`ri, empirik va eksperimental psixologiyaning bir qancha namoyandalari (masalan, N.N.Lange, A.F.Lazurskiy) psixologiyani hech qanday falsafiy nazariyalar bilan boflamasdan, psixologik tajriba dalillaridan hech qanday falsafiy xulosalar chiqarmasdan oyoqqa turfizishga urindilar; boshqalari esa (masalan, A.P.Nechaev) empirik psixologiya dalillarini bevosita pedagogik amaliyot bilan boflashga intildilar. Aslida esa ularning hammasi idealizmni tarfib qildilar. Empirik psixologiya psixik hodisalarni tasvirlash va analiz qilish asosida materializmning yaroqsizligini isbotlashga, shunday qilib idealistik filosofiyani fanga o'xshatib asoslashga urindilar.

**4.Psichoanaliz va uning rivojlanishi.** Freydizm - bu o'z nomini avstriya nevropotologi va psixologi Zigmund Freyd (1856- 1939y) nomidan olgan bo'lib, psixologiya va nevropotologiyadagi alohida yo'nالishdir. Freyd ta'lilotiga ko'ra, shaxs psixologik hayotining asosi jinsiy lazzat olishga qaratilgan, tug'ma ongsiz mayl (instinkt)dir.

## **Psixoanaliz ilmiy maktabi asoschisi Zigmund Freyd va uning izdoshlari**



### **Zigmund Freyd (1856- 1939y)**

Lekin tarixan tarkib topgan odat, ahloqiy printsiplar tufayli, ijtimoiy «tsenzura»ning mavjudligi tufayli bu mayil to`g`ridan-to`g`ri to`siladi. Shuning uchun ham ba`zi kishilarda bu ongsiz tabiiy mayil bilan anglab turilgan vaziyat o`rtasida ichki ruhiy konflikt (to`qnashuv) paydo bo`ladi. bu to`qnashuvlar ba`zan barqaror asab kasalligiga (nevrozga) olib keladi.

Zigmund Freyd o`zining shaxs nazariyasiga oid ta`sirli qarashlari bilan mashhur bo`lgan avstriyalik fizik hisoblanadi. Uning fikriga ko`ra, bolalik davrida hissiyotlarga ko`rsatilgan ta`sir, keyinchalik shaxsning o`z-o`zini anglashida namoyon bo`ladi. Shundan boshlab 1920-yilda psixologiya “ruhiy hayot” haqidagi fan sifatida vujudga keldi. Freyd nazariyasi gumanistik nazariyaga qarshi qaratilgan hisoblanadi<sup>3</sup>.

Z.Freyd psixoanalizning asoschisi hisoblanadi. Ko`pchilikning fikriga ko`ra, bu sohadagi yutuqlari Ch.Darvin va A.Eynshteyn kabi olimlar bilan bir qatorda turadi.U o`ziga qadar inson haqida mavjud bo`lgan tasavvurlarni ag`dar-to`ntar qilib tashladi. R.Dekart, J.Lokk va I.Kant fikriga ko`ra, tabiat har bir individni iroda erki bilan ta`minlagan. Erkin tanlovni amalga oshirish layoqati individning eng asl mohiyatini bildiradi va ongli “men” bilan bog`langan bo`ladi. Inson psixikasi (jon) haqidagi fikrni Z.Freyd illyuziya sifatida talqin qiladi. Ongli “men” qudratli ongsiz mental hayotning faqat cho`qqisi xolos. Shunday qilib, Z.Freyd sub`ekt haqidagi bizning tasavvurlarimizda inqilobni amalga oshirdi. Ongli

<sup>3</sup>David G. Myers “Psychology ninth edition in modules”. NY, WORTH PUBLISHER-2010.4-5pages.

mental hayot insonning umumiyligi mental hayotida faqat kichkina bo'lak hisoblanadi.

Bizning ongimizdagi jarayonlar ongsiz omillar bilan qat`iy determinatsiya qilinadi. Bu holatni illyustratsiya qilish uchun ko'pincha aysberg bilan qiyoslashadi. Barcha ongli jarayonlarni aysbergning suv ustidagi qismiga o'xshatilsa, unda ongsizlik muzning ancha katta, ko'rinas suv ostidagi qismiga o'xshatiladi. Aynan mana shu ko'rinas massa ham og'irlik markazini, ham aysbergning harakat yo'naliшини aniqlaydi. Shunga o'xshash ongsizlik ham bizning individualligimiz negizi hisoblanadi.

Asr boshida yozilgan ikki muhim asarida Z.Freyd barcha individlarda ongsiz mental jarayonlar mavjudligi haqida gapiradi va psixoanaliz kundalik hayotning ongsiz sabablarini aniqlab berishga qodir ekanligini ko'rsatadi. Bu o'z navbatida inson ruhining yangi va har tomonlama nazariyasini ishlab chiqishga olib keladi. "Tushlar ta'birida" (1900) tushlar mazmunga ega ekani va anglanmagan mayllarning ongga buzilgan va o'zga shaklda bostirib kirishlari natijasi ekanligi qayd qilinadi. Tushlarga yashiringan ongsizlik mazmunini faqat murakkab talqin jarayoni yordamidagina aniqlash mumkin. "Kundalik hayot psixapatalogiyasi" asarida kundalik hayotdagi nutqdagi adashishlar va xotiradan ko'tarilib qolishlar kabi "xatoliklar" tadqiq qilinadi.

Z.Freydning fikricha, bunday fenomenlar tasodifiy va ma`nosiz emas, balki ongsizlik va niyatlarni ifodalaydi. Masalan: biz o'zimizga yoqmay qolgan kimsadan olingan tassurotni yo'qotamiz yoki esdan chiqarib qo'yamiz. Mana shu ernaling o'zidayoq aytish mumkinki, psixoanaliz insonni yangicha tushunishni taklif qiladi, bizning tushlarimiz, noadekvat reaksiyalarimiz, hazillarimiz va asariy "alomatlar" ortida aksariyat hollarda ongsiz motivlar bo'lishini ta`kidlaydi. Boshqacha qilib aytganda, Z.Freyd mulohazalariga amal qilsak, sub`ektning ongli motivlari va niyatlari asnosida tushunarli bo'lgan narsalar ongsizlikni psixoanalistik tadqiq qilish natijasida yangi ma`no kasb etishi mumkin. Bir qarashda tushunarsiz va ma`nosiz bo'lgan "alomatlar", ularga ongsiz motivlar va

niyatlar ifodasi sifatida qaralsa ma`no kasb etadi. Demak, biz Z.Freyd “shubha germenevtikasi”ni asoslayapti deb aytishimiz mumkin.

Nerv jarayonlari xastalikka uchragan bemorlar bilan muloqot qilar ekan, Z.Freyd ular o’zlarining “ichki xorij”i bo’lgan ongsizligini anglamayotganliklarini aniqladi. Shu bilan birga bemor psixoanalitikni o’zidagi nervozlik alomatlari deb tushunishga olib kelishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, alomatlar mazmunga ega, biroq bu alomatlarning egasi ham, doktor ham bu mazmun haqida bevosita bilimga ega emas. Shu o’rinda talqin zarur bo’lib qoladi.

Z.Freyd aytishicha, (yashirin yoki xavotirli) seksual mayllar ma`nisiz ko’rinadigan simptomlar yoki tushga aylanishi mumkin. Z.Freyd fikricha, emotsional kechinmalarni psixikaning xotira etib bora olmaydigan qismlariga siqib chiqarish mexanizmlari mavjud. Namoyon bo’lishi jihatidan almashtirilgan kechinmalar travma bo’ladi (travma o’zbek tilida “yara” ma`nosini bildiradi). Travmaning kelib chiqishi oxir oqibat ilk bolalikkacha tekshirilishi mumkin. Muhokamaning o’ziga xos (erkin assotsiatsiyalar) usulidan foydalanib, bemor va psixoanalitik travmaning ildizlarini aniqlashadi. Demak, psixoanalizning terapevtik maqsadi ong osti va siqib chiqarilgan axborotni qayta tiklash va uni ego tassarufiga uzatishdan iborat. Ongosti (podsoznanie)ni turli usullar bilan o’rganish mumkin. Jumladan, ana shunday usullardan biri “erkin assotsiatsiyalar” bo’lsa, ikkinchisi tush va yanglish harakat (ibora)larni chuqur germenevtik talqin qilishdir. Z.Freydnинг o’zi tushlarning ta`biriga markaziy o’rinni ajratgan edi.

“Tushlarni ta`birlash ongsizlikning bilishga (podshoh qasriga yo’l) bo’lib, psixoanalizning eng asosi va har qanday tadqiqotchi ishonch va ma`lumot oladigan sohadir. Mendan, qanday qilib psixoanalitik bo’lish mumkin, deb so’rashsa, men doimo o’z tushlaringizni o’rganish orqali, deb javob beraman”. “Tushlar ta`biri” asarida tushlar psixozlar bilan tashqi o’xshashlik va ichki o’zaro aloqadorlikka ega, deyiladi. Biroq ular sog’lom va normal holat bilan to’la mos kelishi mumkin. Umuman, tush “alomat” sifatida talqin qilinishi mumkin, biroq nimaning alomati sifatida? Z.Freyd yosh bolalar o’zlarida bir kun oldin (“kunduzgi fantaziya”) paydo bo’lmagan lekin qondirilmagan istaklar va mayllar haqida tush ko’rishlarini aytib

o'tadi. Tush, shunday qilib, ular istaklarining ro'yobga chiqishidir. Kattalarning tushi ham "kunduzgi fantaziyaning" muayyan qismiga ega, biroq bu erda vaziyat murakkabroq. Kattalarning tushlari ko'pincha tushunarsiz va kunduzgi mayllarni qondirishdan juda uzoq (dahshatli tushlar va vahimalar).

Z.Freyd fikricha, bunday tushlar ong ostiga siqib chiqarilish ob`ekti bo'ladilar. Tushlar qo'rqinch bilan birga bo'lsa, bu ularning siqib chiqarilgan, ega ma`qullamaydigan va ma`n qilingan istaklarini qondirish maqsadida vujudga keladi. Tushni tushunish uchun uning ochiq mazmunini va yashirin ongsiz mazmuni (tushdagi yashirin fikrlar)ni farqlashimiz kerak.

Birinchisi, biz uyqudan uyg`ongandan keyin ozmi-ko'pmi eslashimiz mumkin bo'lган narsalar.

Ikkinchisi, ong osti sathida yoki "boshqa qavatda" tushning ochiq mazmuni uning siqib chiqarilgan va anglanmagan mazmunining o'rniga vujudga keladi.

Siqib chiqarish bizning mental murvatlarimiz ta`siri natijasidir. Uyg`oqligimizda bu murvvatlar bizning ongimizga ong ostidagi va siqib chiqarilgan mayllarning kirib kelishiga yo'l qo'ymaydi. Biroq uxlaganimizda, ular bizning psixikamizga niqoblangan holda kirib keladilar. Demak uxlayotgan odam tushlarning ma`nosini xuddi nevrotik o'zidagi alomatlar ma`nosini tushuna olmaganiday tushunmaydi.

Biz eslaydigan (ochiq mazmunli) tushlar siqib chiqarilgan mayllarning buzilgan holda ro'yobga chiqishidir. Tushdagi yashirin ong osti fikrlarini buzib ko'rsatuvchi jarayonni Z.Freyd "tushning ishi" deb ataydi. Ko'p jihatdan u siqib chiqarilayotgan komplekslarni nevrotik alomatlarga aylantiradigan muvaffaqiyatsiz siqib chiqarish jarayoni bilan bir xil kechadi. "Tush ishi"ning murvatli tushlarni bo'rttirish, o'rnini almashtirish, dramatiklashtirish va timsollashtirishdir. Bundan tashqari tushning ikkilamchi ishi ham mayjud. Ong osti shunday qilib, "artistik" vositalardan foydalanishga harakat qiladi. Shu ma`noda biz barchamiz tushlarimizda ham aktyorlarmiz. Bo'rttirish masalan: tushdagi voqeа (esda qolgan) bir necha turli xil istaklardan iborat bo'lishi mumkin. O'rin almashtirish shunday jarayonki, tushimizda biz uchun juda zarur bo'lган hodisa yoki shaxs juda kichik

ishora yoki bizga notanish narsa sifatida namoyon bo'ladi. Xuddi shunday, hodisa mazmun jihatdan juda oddiy hodisa ifodalangan tushimiz qo'rqinch yoki kuchli hissiyotlar bilan bog`lanishi mumkin. Bo'rttirish yoki o'rin almashtirish o'z ishini qilib bo'lgandan keyin, psixoanalitik anglanmagan mazmunni aniqlash va tadqiq etish uchun "erkin assotsiatsiyalar" usulidan foydalanadi. Shunga o'xshash timsollashtirish buzishning bir varianti bo'lib chiqadi. Masalan: erkaklarning genitaliyasi unga shakl jihatdan o'xshash bo'lgan ob`ektlar. (Masalan, konserva bankasi, zontik, pichoq va revolver kabi narsalar bilan almashtirilishi mumkin.)

Ayollarining genitaliyasi bo'sh joyni o'rab turgan ob`ektlar (g`or, cuti, xona, bino va boshqalar) yordamida timsolan taqdim qilinishi mumkin. (Aflatun tomonidan taklif qilingan g`orga qiyoslash psixoanalitiklar tomonidan qanday talqin qilinishi mumkin edi.) Tushning ikkilamchi ishi tushni mantiqiy qarama qarshiliksiz, og`zaki ifodalashga harakat qilishimizdan kelib chiqadi. Freyd fikriga ko'ra, tushning ochiq mazmuni juda ko'p turli va qarama qarshi elementlarni qamrab oladi. Aytish mumkinki u o'ta aniq. Shunga o'xshash tarzda turli sabablar zanjiri va omillar psixologik alomatlarni o'ta aniqlab beradi.

Z.Freyd aytishicha, tushning yashirin fikrlari tsenzuradan o'tkaziladi. Soddarоq qilib aytsak, siqib chiqarilgan va ma'n qilingan mayllar ongda namoyon bo'lish uchun "tsenzuradan" o'tishlari kerak. Senzurani chetlab o'tish uchun tushning ishi tushdagi yashirin fikrlarni tushning ochiq mazmuniga aylantiradi. Biz eslaydigan tushimiz maxfiy, kodlashtirilgan axborotga ega bo'lib, u ongimizga kontrabanda yo'li bilan olib kiriladi. Biz tushimizning ochiq mazmuniga yechish lozim bo'lgan rebusga qaraganday qarashimiz mumkin. Psixoanalitik kodni ravshanlashtirgandan keyingina tushning yangi mazmuni paydo bo'ladi. Z.Freyd aytishicha, kattalarning tushlari ko'pincha seksual tomonga yo'naltirilgan va erotik mayllarini ifodalaydi. (Bu xulosa Z.Freyd keyinchalik agressiya yoki o'lim unikal instinkti haqidagi tushunchani kiritgandan keyin muammoli bo'lib qoldi). Tushlarning ta`birlashning asosiy qoidalarini quyidagi tarzda ifodalaymiz:

1. Tushdagi yashirin fikrlar va ochiq ma'no o'rtasidagi tafovut tushning mazmunini tushunishda kalit bo'lib, xizmat qiladi.

2. Tushning ochiq mazmuni- undagi yashirin fikrlarni buzilgan ifodasi bo'lib, ta'bir joiz bo'lsa, tush ishining mahsulidir.
3. Tushlarni tahlil qilish uchun Z. Freyd "erkin assotsiatsiyalar" uslini qo'llaydi, bu usuldan psixoterapiyada ham foydalanish mumkin.
4. Z.Freydning tushlarning talqin qilishga yondoshuvi bizga inson mental holatlarining boy manzarasini namoyon qiladigan psixologik modelning asoslarini ifodalaydi.
5. Z.Freydning tushlardagi yashirin ma`noni aniqlashga urinishi ong osti ba`zi "grammatik" qoidalarga mos tarzda ishlashi yoki ong osti "til"ga o'xshab tuzilmalashtirilganini (tushni rebus sifatida tushunish bilan taqqoslang) tushunishga olib keladi.

Bir qator sabalarga ko'ra, Z.Freydning mental "apparat" to'g'risidagi nazariyasini tushunish qiyin. Birinchidan, psixoanalizni ishlab chiqishning turli bosqichlarida Z.Freyd o'zining inson psixikasiga nisbatan psixikaga bo'lgan qarashlarini o'zgartirib, kengaytirgan. Garchi ularning hammasining birlashtirishga intilsa ham uning kontseptsiyasida noaniq holatlar ko'p. Ikkinchidan, Z.Freydning fiziologik va juda antropomorf (insonga o'xshash) atamalari ko'p ma'nolidir. U "bechora ego", "uch teram xo'jayinga" (tashqi dunyo, id va super ego) xizmat qiladi deganda, u mental funktsiyalarni ob`ektivlashtirib shaxsni individualashtirishga, Gilbert Rayl (1890-1976) "mashina ichidagi ruh" deb atagan narsani kiritmoqchi degan tasavvur paydo bo'lishi mumkin.

Z.Freydning birinchi "topografik modeli" (psixika yoki inson shaxsi tuzilmalari xaritasi) mental hayotning uch lokalizatsiyasini farqlaydi. Soddaroq qilib, mental apparat maydonda uch sohaga bo'lingan: ongsizlik, ongoldi va onglilikka bo'lingan, deyish mumkin. Ongni individ bevosita anglayotgan barcha narsalar, deb tavsiflash mumkin. Ongoldi-individ xotirada tiklashi yoki eslashi mumkin bo'lgan barcha narsalar sohasi. Z.Freyd ongsizlikni ongga ancha harakatlar bilan chiqadigan mental jarayonlar sifatida belgilaydi. "Psichoanalizga kirish bo'yicha ma'ruzalar"da (1815-1917) aytilganlarni tushunishga yordam beradigan misol keltiradi. Mehmon katta dahlizda (ongsizlik) va mehmonxonaga

(ongoldi)ga kirmoqchi. Biroq bu ikki xona o'rtasidagi koridorda qorovul (tsenzor) bor va u mehmonlarni tanlab o'tkazadi. Agar mehmon qorovulga yoqmasa, u haydab yuboriladi yoki siqib chiqariladi. Mehmon mehmonxonaga kirgan taqdirda ham, unga uyning egasi darrov e`tibor qaratadi, degan ma`noni bildirmaydi. Bu ongoldidagi g`oyalar anglanmaganini, biroq anglanishi mumkinligi haqidagi tasavvurlarga mos keladi.

Ongsizlikdagi g`oyalar anglanishi uchun ular avvalo mehmonxona yoki ongoldiga kirishlari kerak. Agar mehmon haydab yuborilgan bo'lsa, keyingi safar u niqoblangan holda ("tush ishi" bilan qiyoslang) bo'ladi. Bunday mehmon "alomat" sifatda qabulga qo'yilishi, xo'jayin uning mohiyatini bila olmasligi mumkin. Bu qiyoslar qorovul individning ongsizlikni anglashiladigan narsaga aylantirish uchunmos keladi. Qorovul charchaganda (yoki individ uxbayotganda) niqoblangan mehmonning kirib olishi (ya`ni, tushning ochiq mazmuni ko'rinishida) osonlashadi. Bunday siqib chiqarish jarayoni xo'jayin anglamagini holda yuz berishi mumkin.

1920 yillardan keyin Freyd topografik modelni o'zgartirdi va **id, ego,super ego** atamalarini kiritdiki, ular turli psixik instantsiyalarni ifodalaydi. Psixikaning mana shunday uch ko'rinishga – id, ego va super egolarga bo'linishi boshqa super analitiklarning (masalan: frantsuz psixoanalitigi Jak Lakan 1966) shuningdek, fanfalsafasi vakillari tomonidan qarshilikka uchradi. Popper bir kuni bunday bo'linish Gomer tomonidan, Olimp tog`ida yashovchilar haqidagi afsonalar kabi ilmiy mavqega ega degan edi.

Z.Freyd tomonidan mental apparatni tushunishni biz metapsixologik pozitsiya sifatida talqin qilishni afzal ko'ramiz. Bu esa bizga uning odamni o'rganishdagi nuqtai nazarini tavsiflash, uning klinik amaliyotda aniqlagan hodisalar kontseptual karkasini aniqlashga harakat qilishimizda yordam beradi. Epistemologik atamalaridan foydalanib, biz bu metapsixologik karkaz psixoanaliz "tadqiqot dasturi"ning markaziy qismida deb ayta olamiz. Aynan mana shu mental apparat, mental quvvat va instinktlar g`oyasi yordamida Z.Freyd irratsional qo'rqinch va miyaga o'rnashib qolgan harakatlarga qarshi kurashda ratsional

dallillar ojiz ekanini tushuntirmoqchi bo'ldi. Bizning instinktlarimiz, tashqi olamga munosabatimiz va vijdonimiz "ichki ovoz" o'rtasidagi nizoni tushunish uchun u bizning mental hayotimiz (id, ego va super ego) modelini ishlab chiqdi.

Z.Freyd bu o'rinda tushunchalar, mohiyatlar va to'qib chiqarilgan narsa chegarasida ish yuritdi. Avvalo uning mental hayotimizga bo'lган o'z qarashlarini qanday bayon qilganini ko'rib chiqaylik. "Makonda joylashgan, ong hodisalari faqat muayyan nuqtada sharoitlarda belgilaydigan hayot ehtiyojlari asosida ratsional tuzilmalashtirilgan, rivojlangan psixik apparat to'g'risida biz qabul qilgan faraz bizga boshqa har qanday fan, masalan, fizika poydevoriga o'xshash psixologiya poydevorini yaratish imkonini berdi". Ko'rinish turganidek, Z.Freyd psixoanalizni fizika kabi ko'radi. Bunday talqin uning ba`zi tayanch metopsixologik tahlillari bilan bog`liq. U mental hayotni mental kuchlar va mental quvvat bilan determinatsiya qilinadigan hodisa sifatida tushunadi. Demak, u psixoanaliz tabiiy fan deb aytishi mumkin.

Mental kuchlar va mental quvvat eng qadimgi mental soha bo'lган idda topilishi mumkin. U inson instinktlarining mental jihatlariga ega. Freyd idni "sharahlab qaynab turgan choynak"ka o'xshatadi. Bizning instinktlarimiz har doim bizning ehtiyojlarimizni qondirishga intiladi. Ular lazzat tamoyili, deb ataladigan narsaga bo'ysunadilar. *Id*ning individni faollashtiradigan boshqa funktsiyalari ham mavjud. Ular oldingi siqib chiqarilgan, biroq odamni faollashtirishda davom etayotgan g`oyalar harakatlar va tuyg`ularni "xotirlash" haqida gap yuritadi. Bu funktsiyalar mantiqiy tashkil etilmagan holda harakat qiladi. Ular mantiqiy emas. Biroq muayyan ma`noda baribir inson ongiga kirishadi: sabab va oqibatlarni tushunmasak, ular bizni harakatga undaydi, depressiya holatiga olib keladi yoki xayol va fantaziyalarni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, ongsizlik *iddagi* oliy mental sifat hisoblanadi.

Psixoanalizdagi eng muhim holatlar jumlasiga ongsizlik yoki *iddagi* jarayonlar bizning ongli hayotimizni boshqaruvchi qonunlardan farq qiladigan boshqa qonunlarga bo'ysunishi haqidagi farazlardir. Z.Freyd bu "qonunlarni" birlamchi jarayonlar deb ataydi. Tush ishini muhokama qilishimiz ongsizlikda yuz

berayotgan jarayonlarning g`alati va chalkash xususiyatlariga ishora qiladi. Masalan, undagi qarama-qarshiliklar ayniyat sifatida talqin qilinadi.

Tashqi olamning ta`siri tufayli *id* unikal taraqqiyotning boshdan kechirdi. Unda *id* va tashqi olamni o`zaro bog`lab turuvchi muayyan mental soha paydo bo`ldi. Mental hayotning bu sohasini Z.Freyd *ego* deb atadi. *Egoning* eng muhim vazifasi - o`zini saqlash. Bundan tashqari u ehtiyojlarni xavfsiz qondirishni ham ta`minlash kerak. *Ego* instinktlarni siqib chiqarish yoki to`xtatib turish to`g`risida qaror qabul qiladi. U reallik tamoyiliga bo`ysunadi. Demak *egoidning* talablari va tashqi dunyo o`rtasida vositachi bo`lishi kerak. *Ego* kuchsiz va kam rivojlangan paytida o`z oldidagi vazifalarni u hech qiyalmasdan bajaradi. Instinktlarimizning talablari va tashqi olam talablari travmaga olib kelishi mumkin. Nochor *ego* keyinchalik o`rinsiz bo`lib qolishi mumkin bo`lgan siqib chiqarishlar yordamida o`zini muxofaza qiladi. Ana shunday siqib chiqarishlarda *ego super egodan* yordam oladi.

Z.Freyd bir necha marta sub`ekt o`ziga ob`ekt sifatida qaray olishi va shu asosda o`ziga nisbatan tanqidiy va sog`lom (judmental) ustakovkalar ishlab chiqishga hayrat bilan qaragan edi. Bunday qobiliyat, deb o`ylagan edi u, *egoning* boshqa qobiliyatlardan keyingiroq bosqichda paydo bo`ladi. U bolalardagi ijtimoiylashuv jarayonlarda asta sekin paydo bo`ladi. *Super ego* ota-onalar me`yorlari va ideallarini anglamasdan internarizatsiya (o`zlashtirish) natijasidir. Bir muncha kengroq ma`noda jamiyat va an`ana o`zlarining axloqiy hokimiyatini biz vijdon deb ataydigan narsa yordamida amalga oshiradi. Aytish mumkinki, *super ego* egoni nazorat qilib turadi, unga “tavsiyalar” berib turadi va jazolash bilan “po`pisa” qiladi.

*Super egoning* faqat o`z hatti-harakatlari to`g`risida emas, hattoki fikrlari va xohishlari to`g`risida ham hisobot berishini talab qiladi. Demak, *super ego ego* hisobga olishi lozim bo`lgan uchinchi kuchdir. Z.Freydnинг vijdon nazariyasi to`g`ri va noto`g`ri haqidagi tug`ma yoki mutlaq tasavvurlar bo`lishi mumkinligini inkor qiladi. Shu nazariyadan foydalanib, Z.Freyd Xudo haqidagi g`oya bolaning otasiga proektsiyasining natijasi, degan xulosaga keldi.

Mashhur topografik modelni rivojlantirishga harakat qilib, Z.Freyd “dinamik” nuqtai nazarini taklif qildi. Z.Freyd fikricha, bizning mental hayotimiz kuchlari o’yinning natijasi bo’lgan mental nizolarni tushunish uchun muhimdir. Ular qanday ishlayotganini tushuna boshlaganimizdan keyin biz mental hodisalarga dinamik qarashni shakllantiramiz. Z.Freyd ta`kidlashicha, biz xulqni insonni turli tomonlarga tortayotgan tamoyillar o’rtasidagi kelishuv deb bilsak, bu kuchlarni identifikatsiyalashga asoslangan dinamik yondoshuv asosida tahlil qilinishi lozim, deb hisoblagan ko’rinadi. Boshida dinamik nuqtai nazar inson instinktlariga aloqador edi. Biroq u shunchalik ko’p o’zgarishlarni boshdan kechirdiki, endi u dastlabki kontseptsianing rivojimi yoki uning o’rniga kelgan yangi kontseptsiya ekanligi har doim ham ravshan emas.

Z.Freyd ko’pincha instinktlar to’g’risida kelib chiqishi somatik bo’lgan mental tasavvurlar, deb fikr yuritgan. Instinktlar cheksiz ko’p maqsadlarga ega bo’lishi va ular o’zaro nizoga kirishishi mumkin. Biroq ularning namoyon bo’lishi ijtimoiy yoki madaniy jihatga ega bo’lishi kerak: odamlar hamma joyda ham ochlik hissini sezadi, biroq uni qanday qondirish ijtimoiy determinatsiya qilinadi.

Z.Freyd o’zining keyingi asarlarida hayot instinkti (eros) va o’lim instinkti (tanatoz)ni bir-biridan farqladi. Uning ta`kidlashicha, bu ikki asosiy instinkt g`oya yunon faylasuflariga ham ma’lum edi. Alovida o’lim instinkti haqida Z.Freydnинг g`oyasi psixoanalitik doiralarda qattiq qarshilikka duch keldi va hozir ham u haqda munozaralar davom etmoqda. Z.Freyd ilmiy iste`molga o’lim instinktini kiritar ekan, agressiya va urushlar singari hodisalarni izohlamoqchi bo’ldi. Uning yana ta`kidlashicha, seksual agressiyaning haddan tashqari bo’lishi o’ynashni o’z ehtirosi predmetining qotiliga aylantirib qo’yishi ham mumkin.

Agressiya shuningdek, internalizatsiyalashgan (o’z ichiga qaratilgan) bo’lishi va o’zini emirib tashlashi ham mumkin. Butun erotik quvvatni Z.Freyd libido deb ataydi. Libido bir ob`ektdan ikkinchisiga o’tishi yoki muayyan ob`ektlardan jamlanishi mumkin. Topografik modelni yanada batafsilroq ishlab chiqish Z.Freydning “energiya” nazariyasiga olib keldi. Uning mohiyati barcha mental hodisalarni energiyaga bog`lashdan iborat. Z.Freyd har bir odam katta, lekin

cheklangan miqdordagi mental energiyaga ega ekanini, bu energiyalar g`oyalar va ob`ektlardan olinishi yoki ularga berilishi mumkinligini ta`kidlaydi. Bu energiyani o'lchash usullari hozir mavjud bo'lmasa ham, umuman uni o'lchash mumkinligi haqida Z.Freyd qat`iy fikr bildiradi. Ko'pchilik odamlarning hayotiy kechinmalari yoki bu ma`noda mental energiya atamalari yordamida bayon qilinishi mumkin. Kundalik hayotda biz, masalan, "ko'ngil ochish" ehtiyoji yoki salbiy quvvatdan xalos bo'lish zaruriyati to'g`risida gapiramiz. Biroq Z.Freyd bunday energiyaning qanday xususiyatlari borligi to'g`risida hech narsa demaydi va faqatgina uning qanday effektlarga olib kelishi mumkinligi to'g`risida fikr yuritadi.

Bir necha o'rirlarda Z.Freyd tushni illyuziyalar va noratsional belgilar bilan kuzatiladigan psixozlar sifatida tavsiflaydi. Uyqu paytida ego kuchsizlanadi va hukmronlik qiladi, chunki mental apparatdagи funktsiyalarni buzilishi nevroz va psixozlarda ifodalanadi. Bunda egoning voqelik bilan aloqasi buziladi va qisman to'xtatiladi. Bunday tushunish psichoanalizning terapevtik maqsadi uchun asos yaratadi.“Analitik vrach va unga kelgan bemorning kuchsizlangan MENi (egosi) real tashqi dunyo asosida dushman U (id)ning instinctiv talablari va super MEN (super ego)ning ongli talablariga qarshi birlashishi kerak”. Shu munosabat bilan psichoanalizning terapevtik maqsadi va Nitsshening supermen nazariyasi o'rtasida o'xshashlik borligini aytish mumkin. Z.Freyd uchun ham Nitsshe uchun ham asosiy muammo standart giper axloq va instinctlar talablari o'rtasidagi nizoni bartaraf qilishdir. Nitsshening supermeni o'zini nevrotik xuddi muvaffaqiyatli psichoanaliz seansida o'zini o'zi enggani kabi engadi.

**5.K.Yungning analitik psixologiyasi.** Karl Gustav Yung (1875-1961) Shvedsariyalik pedagog va psixiatr mulohaza psixologiyasining yunalishlaridan bo'lgan **analitik** psixologiya asoschisi. 1907-1912 yillarda Zigmund Freydning sherigi bo'lgan arxetipik tasvirlarning talqinini ko'rib chiqdi. Arxitiplarda universal inson simvolimizning manbai jumladan (“Afsona va Orzu”), (Libido metamorfozlari va ramzlari).

Karl Yung (1875-1961) Bazel` universiteti tibbiyot fakul`tetini tamomlab E.Beyler rahbarligida Burgxol`z Syurix universitetining psixiatrik klinikasida

psixiatr sifatida ishlaydi. Shu vaqtda 1902-1903 yilning qishki semestrida Parijda P.Jane rahbarligida ish olib boradi. Bu yerda ongsiz komplekslarni aniqlash maqsadida so'zli assosiasiyalar bilan eksperiment olib boradi. Freydning "Tushlar ta'biri" bilan qiziqib qoladi va o'z amaliyotida psichoanaliz tamoyillarini qo'llay boshlaydi. Biroq, bu jarayonda o'zining nazorat qilinuvchi assosiasiyalarni qo'llaydi.

Bu metod – assosiativ eksperimentning ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. 1906 yildan boshlab psixologlar I.A.Sokolyanskiy, A.I.Mesheryakovlar og'ir defekt (nuqson)larda psixik funksiyalarni va har tomonlama rivojlanishga olib keluvchi real jarayonni tadqiq qildilar. Freyd bilan hamkorlikda ish olib boradi. K. Yung va Freyd o'rtasidagi libidoning seksual tabiatini haqidagi qarama-qarshi qarashlar paydo bo'ldi. 1909 yilda Bleyler klinikasidan chiqib ketib, xususiy faoliyatni boshlaydi.



**Karl Yung**

1912 yilda K.Yung "Psixologiya bessoznatel'nogo" ("Xushsizlik psixologiyasi") kitobida Freydni tanqid qiladi. Yung ta'rifi bo'yicha, libido bu – hayotning intensivligini ifoda etuvchi psixik energiya bo'lib, inson rivojlanishining turli davrlarida turli shakllarda namoyon bo'ladi, seksuallik ana shu shakllardan biri hisoblanadi. 1914 yilda Yungning bu psixologik traktovkasiga Freydning negativ javobidan so'ng u psichoanaliz bilan aloqalarini uzadi.

K.Yungga asoslanib psixoterapiya maqsadi – bu shaxsning shaxsiylashuvi hisoblanadi. Dastlab K.Yung his –tuyg'u va fikrlash haqidagi gipotezasida, unga ko'ra erkaklar tuyg'usidan fikrlash ustun turishi, ayollarda esa fikirlashdan ko'ra

his- tuyg'u esa ustunroq ekanligi haqida edi. Keyinchalik u bu gipotezadan voz kechdi.

K.Yung insonning tajribasini, o'qishi va atrof muhidga ta'siri bilan to'liq belgilanishi haqidagi fikrni rad etdi. U har bir shaxsning tug'ilishidan boshlab kuch-qudrati bilan tasvirlangan, tasviri bilan tug'ilganiga ishondi. Uning fikriga ko'ra "atrof- muxit insonga aylanish imkoniyatini bermaydi, faqatgina unda mavjud bo'lgan narsani ochib beradi" shu bilan u psixoanalizning bir qator qoidalarini bekor qildi. Shu bilan birga, K. Yung bexushlikning bir necha darajalarini ajratib korsatdi: shaxs, oila, guruh, millat, irqiy va jamoaviy bexushlik, xar doim va madaniyat uchun universal bo'lgan arxetiplarni o'z ichiga oladi. Yung 100ming yillar davomida rivojlanayotgan ruxiyatning ma'lum bir merosxo'r tuzilishi borligiga ishondi va bu tuzilish bizni hayot tajribamizni boshdan kechirish va qo'llab- quvvatlashimizni muayyan tarzda amalga oshiradi. K.Yung fikrlarimiz, xis-tuyg'ularimiz xatti-xarakatlarimizga ta'sir qiladigan arxitipdir deb nomladi. **Arxetip**-bu grekchadan olingan birinchi tuzulishi, original, asl, na'muna degan ma'noni bildiradi.

**6. A.Adlerning individual psixologiyasi.** Alfred Adler individual psixologiya asoschisi, psixologiya sohasida fundamental asarlarning muallifi bo'lib, uning asarlari ko'p yillar o'tsa ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Birinchi bo'lib u fanga "Kompleks ne polnosennosti" atamasini kiritgan. Individual psixologiya (Shaxsiy psixologiya) o'ziga hos xususiyati insonni konglomerat yoki super pozitsiya deb hisoblaydi, asosan ongli ravishda identifikatsiya naqshlari bilan bo'lgan muammolarga taalluqli bo'lib, bugungi kunda bu holat neyrofiziologiyadagi individuallik tushunchasiga juda yaqin ekanligi tushunamiz. Identifikatsiyaning summasi har birimizning o'zimizga bog'liq bo'lgan ongli va ongsiz harakatlantiruvchi kuchlarning yigindisi bo'lib, u odamning nima haqida o'ylayotganini va nima yuzaga kelishi mumkunligini aniqlaydi. Vektorlar ko'p yo'naliшha qo'shilganidek summa bir vaqtning o'zida bitta yo'naliшha bo'lib, qo'shimcha o'zgaruvchan stimul kiritilsa qiyin Vektorlarning yigindisi o'zgaradi.

A.Adler psixologiyadagi ongsizlik rivojlanishibirinchi o'rinni egalladi, ammo u Z.Freyd kabi mashxur emas edi. A.Adlerning fikrlari ko'pincha Z.Freydning g'oyalariga qarshi bo'lgan bo'lib, bu sohada ular juda keng muhokamada bir vaqtning o'zida ikkita oqimning rivojlanishiga sabab bo'ldi.Psichoanaliz va shaxsiy psixologiya asosida ilmiy metodlar mavjud edi va ikkala yo'nalishdagi maqsad ham, har qanday yo'l bilan haqiqatga erishish edi, ammo Z.Freyd va A.Adler uchun muammolarning hal qilishning yo'llari juda katta edi.

Shaxsiy psixologiya o'tgan asirning 20-40 yillarigacha keng tarqalgan va neofreydizimning shakllanishiga katta tasir ko'rsatgan.Shaxsiy psixologiya quyidagi tezislarga bo'linganda, inson o'z kelajagini shunday vositalar yordamida shakllantirishda muvaffaqiyatga erishishi mumkin:

- Aql rivojlanayotgan taraqqiyot- aql;
- Rejalashtirish- o'z qadriyatlarini va ideallaringizni yaratish;
- O'z-o'zini tahlil qilish- ularning noplilik majmualari va hokimiyat istagi ustida ishslash;
- O'z-o'zini rivojlantirishi fayritabiylik va nafosat ustida ishslash;
- O'z-o'zini rivojlantirishi hamkorlik uchun o'zida kuch va shijoatini shakillantirish.

A.Adlerning fikricha, insonni harakatga undovchi asosiy kuch uning faoliyati maqsadini aniqlovchi, ularga erishish yo'llari manbai hisoblanadi.

### **Amaliy mashg'ulotlardagi muhokama uchun savollar.**

1. Psixologiyada metodologik inqiroz deganda nimani tushunasiz?
- 2.Bixevoirizmga umumiy tavсifnomasi bering.
3. Neobixevoirizmni yuzaga kelishi va rivojlanishini nimalar bilan izohlaysiz?
4. Geshtal`tpsixologiyaga nima?
5. Atoqli jenevalik psixolog Jan Piaje qanday nazariyani ishlab chiqqan?
6. Psichoanaliz va uning rivojlanishini tushuntirib bering.
7. Arxetip nima?

8. K.Yungning analitik psixologiyasi haqida nimalarni bilasiz?
9. K. Yung va Z. Freyd o'rtasidagi tortishuv sabablari nimada edi?
10. Adlerning individual psixologiyasi.

## **6-Mavzu: XX asrning ikkinchi yarmida yangi yo'nalishlarning yuzaga kelishi.**

### **Reja:**

- 1.Gumanistik psixologiyaga umumiy tavsif. Gumanistik psixologiyaning birinchi nazariyasi.
2. K.R.Rodjers va V. Franklning psixoterapeutik va nazariy konsepsiysi.
- 3.Genetik psixologiya.

**Tayanch so'zlar:** gumanistik psixologiyaga, Rodjers, Frankl, psixoterapeutik va nazariy konsepsiya, genetik psixologiya

**1.Gumanistik psixologiyaga umumiy tavsif. Gumanistik psixologiyaning birinchi nazariyasi.** Mazkur yo'nalish ekzistensializmning falsafiy g'oyalariga asoslangan bo'lib, vaqt, hayot, o'lirn, ozodlik, niasuliyat, tanlov huquqi, muloqot, sevgi, hayot mazmunini anglash muammolarini o'rganishga qaratilgan (M.Xaydeger, P.Sartr, Kamyu). Inson mehribon, ozod bo'lishi belgilangan deb qabul qilinib, individuallik integrativ yahlitlik hisoblanadi.

Gumanistik yo'nalishning asosiy tamoyillari:

1. Psixolog va mijoz uchrashuvi ikki har xil kishilarning uchrashuvi.
2. Agarda psixolog mijozga o'zining asl his-tuyg'ularini anglashga, qabul qilishga va namoyon qilishga imkon yaratib bera olsa, mijoz muammolari o'z-o'zidan hal bo'ladi.
3. O'z hayot tarzi, fikr-mulohazalari, xulq-atvorini tanlashga mijoz o'zi mas'ul.

Inson tomonidan ruhiy uyfunlikka erishish, yani hayot mazmunini anglash, ma'naviy qadriyat, estetik his-tuyg'ulami sifatiy o'zgarishiga asos bo'ladi. Men - konsepsiyasini adekvat shakllantirish o'z-o'zini anglash va shu asosida o'zini faollashtirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Psixokorreksion yordam ko'rsatishda mijozni o'z-o'zini anglashi, shaxsiy uyfunlik, "men"ni adekvat integratsiyasi, borliq chegaralarini kengaytirib berish psixologning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ushbu yo'nalishning asosiy metodi ekzistensial tahlil hisoblanib, unda "inson - biladi - his etadi - istaydi" formulasi inson ozod mavjudot tushunchasi asosida tahlil qilinadi. Agarda individ kelajakni tasavvur qila olmasa, o'zini salbiy his etib, ichki olami torayadi, rivojlanish imkoniyatlari sustlashib, oqibatda nevrozlar yuzaga kela boshlaydi. Demak, yordam ko'rsatish vaqtida shaxsning ruhiy olamini tahlil qilish asosida o'zini erkin his qilishga imkon yaratib berib, mijozni uni bog'lab turgan, bezovta qilayotgan oqibatlardan xalos qilinadi.

**2. Rodjers va Franklning psixoterapevtik va nazariy konsepsiysi.** Karl Rensom Rodjers (1902-1987) Amerikalik psixolog, (Abraxam Maslou qatorida) Gumanistik psixologiya asoschisi va yetakchilaridan biri hisoblanadi. Rodjers shaxsning fundamental asosini "Men konsepsiya" deb hisoblagan. U sub`ektning atrofidagi ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlar jarayonida shakllanishi va uning o'zini tutishining o'ziga xos mexanizmi deb hisoblagan. Rodjers direktiv psixoterapiya yaratishga katta hissa qo'shdi va uni "Shaxsga yo'naltirilgan psixoterapiya" deb nomladi. Rodjers o'zining metodini universal yani turli guruhlar(siniflar, mehnat jamoalari) va shaxsiy ish uchun (o'quvchilar, ota-onalar, faxriylar), turli madaniyatli insonlar, faoliyat, diniy etiqodli uchun ishlashda samarali deb hisoblagan. Xususan bu usul shaxsning ichki, shaxslararo va guruhlararo nizolarni bartaraf etishda qo'llaniladi.



**Karl Rensom Rodjers   Abraxam Maslou   Frankl Viktor**

Rodjersning mijoz markazlashgan terapiyasi mijozlarning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ko'plab amaliy muammolarni yechishga qodir: professional muammolar, turmush munosabatlaridagi muammolar, psixosomatik kasalliklar va boshqalar. So'nggi yillarda terapevtlar individual mijozlar bilan qanchalik muvaffaqiyatli ish olib borishganini kuzatib kelmoqdalar, ular "chuqur ta'sir orqali shaxsni shakllanishiga ta'sir ko'rsatishdi". Statistikaga nazar solsak, quyudagi ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin: "Agar o'n yil oldin, noaniq yondashuvdan foydalanadigan maslahatchi o'rtacha hisobda har bir mijoz bilan 5-6 marotaba so'rov o'tkazgan bo'lsa (juda kamdan-kam hollarda 15), bugungi kunda mijozlarga yo'naltirilgan yondoshuv asosida 15-20 marotaba so'rovni tashkil qiladi. (kamdan-kam hollarda 100 ga etadi).

Karl Rodjers muammoli bolalar bilan o'yin orqali mijoz terapiyasi samaradorligini ta'kidladi. Ushbu sohadagi ishlarda muallifning pozitsiyasiga ko'ra, ofzaki muloqot ko'pincha minimallashtiriladi va ba'zi holatlarda xatto uning to'liq yo'qligini ham ko'rishimiz mumkin. Bu yerda eng muhim nuqta guruh terapiyasidir, u nafaqat muammoli bolalar bilan ishslashda, balki kattalar bilan ham ishslashda yaxshi ta'sir qiladi). Uning ta'siri sherikning harakatiga misol sifatida qarashdir.

1951 yilda K.Rodjers o'zining shaxs va xulq-atvor nazariyasini "Mijozga yo'naltirilgan terapiya" kitobida keltirib o'tadi. Ushbu nazariyaga ko'ra xavotirlanish bu organizmning idrok oldi vaziyatga noqulaylik va qo'zfaлиш ko'rinishidagi reaksiyasidir. Xavotirlanish holatida idrok va tushunishda "Men"-kontsepsiysi yoki malaka o'rtasida nomuvoflqliк yoki nokongruentlikning vujudga kelishi kuzatiladi. Natijada "Men"-konsepsiyasining hozirgi holatida yetakchi bo'lgan o'zgarishlar vujudga keladi. Ushbu nazariyaga ko'ra, inson o'zini tushunish va o'zgartirish uchun cheksiz katta imkoniyatlarga ega. Biroq bu imkoniyatlarni kashf etish va ro'yobga chiqarish uchun odamga maxsus sharoit kerak. Bu sharoit uch shartga asoslanadi. Ushbu terapeutik yo'nalishda asosiy e'tibor terapeutik metodga emas, balki psixolog va mijoz o'rtasidagi munosabatga qaratiladi.

Bunda psixolog mijozni boshqarmaydi, unga ko'rsatma bermaydi, faqat o'zaro munosabatda ochiqlik, samimiylilik, hamdardlik muhitini yaratadi. Mijoz o'z muammosining yechimini o'zi topadi.

Frankl Viktor – zamonaviy chet el psixologiyasida logoterapiya sohasini rivojlantirgan avstriyalik psixolog bo'lib, u 1905 yilda tug'ilgan . Viktor Frankl - "3-Vena psixoterapiya maktabi"ning asoschisi hisoblanadi (1- Freydning psixoanaliz maktabi, 2-si A.Adlerning individual psixologiya maktabi). Logoterapiya psixoanaliz va individual psixologiyadan inson xulqining motivlari asosini talqin qilishi bilan farqlanadi. "Logoterapiyaga muvofiq insonning harakatlantiruvchi kuchi asosi bu hayot mazmuni hisoblanadi. Shu sababli men Freyd psixoanalizi o'zida mujassamlashtirgan "qoniqish" tamoyiliga, shuningdek, Adler psixologiyasida ta`kidlagan "hokimiyatga intilish" tamoyiliga qarama - qarshi "mazmunga intilish" haqida ta`kidlayman, deb yozadi Frankl.

V. Frankl – ilm sohasiga ko'plab yangiliklarni bera olgan avlod vakilidir. U Freyd va Adlerda tahsil oladi, M. Xaydeger bilan suhbatlashgan, K.Lorens bilan shaxsan tanish bo'lgan. Uning hayoti nemis fashistlarining bosqinchiliklari davridagi qiyinchiliklar bilan kechgan. Frankl 3 yil davomida Osvensim, Daxau, Terezien shtat kabi konslagerlada mahbus bo'lgan. Mana shu yerda uinsonning o'zini qanday tutishi sharoitga emas, balki o'zigagina bog'liq, deganqat iyfikrga aminbo'ladi.

V.Franklning ta`kidlashicha, inson uchun avvalo o'zining mavjudligi mohiyatini anglab olish zarur, zero, aynan mohiyatni izlashva anglash insoniylikning asl belgisidir. Psixoanaliz, gumanistik psixologiyava boshqa shaxsning psixologik konsepsiyanining zaif tomonlari borasida Frankl aniq tanqidiy fikrini bildiradi. Mazmun-mohiyatning mavjud emasligi yoki yo'qolishi ekstensial vakuumni hosil qiladi: inson o'zining mavjudligi mazmunini yo'qotadi, zerikish hosil bo'ladi, keksa kishilar inqiroziga o'xshash og'ir kechinmalarni kechiradi. Franklning uqtirishicha, ekstensial vakuumning manbai bu - zamonaviy ijtimoiy olam hisoblanadi.

Mohiyat ma`lum mazmunga ega bo`lib, u individual va har bir odamga alohida tegishli. Mohiyatni anglash, egallash insonni o`z hayotiga mas`uliyatlil qiladi. Ayni paytning o`zida mohiyatni inson o`zi ichidan, ya`ni o`ztanasiva qalbidan emas, balki atrofdagi olamga murojaat qilib topa oladi. Shunga ko`ra mohiyatga:

Birinchidan, inson hayoti faoliyatini takomillashtirish yo`li bilan erishiladi, bu keng ma`noda ijod, ya`ni biror vazifani bajarish, topshiriq, jasoratni amalgaga oshirish kabi.

Ikkinchidan, inson boshqalarga mehr ko`rsatish, muhabbatli bo`lishda mohiyatni anglaydi. Inson qanchalik o`zini esdan chiqarar ekan, shunchalik insoniyashib o`ziga o`xshay boshlaydi.

Uchinchidan, turli hayotiy vaziyatlarga aniq munosabat pozisiyasini ishlab chiqish orqali mohiyatni anglay boshlaydi.

Frankning xotiralarida yozilishicha: “Meni Osvensim konslageriga olib ketishganida nashrga tayyorlab qo`yilgan qo`l yozmamni musodara qilganlar. Albatta, bu qo`lyozmani qaytadan yozib chiqishga bo`lgan kuchli intilish lagerdagagi vaxshiyliklarga chidashimga yordam berdi. Masalan, men tif (terlama) bilan og`riganimda o`sha kovaklarda yotib, xuddi men g`alaba etib borgan kishi kabi kichik varoqchalarga qo`l yozmani qayta ishlash uchun muhim bo`lgan ko`plab turli qaydlarni yozib bordim. Mening ishonchim komilki, Bavariya konslagerining qorong`u yer to`lasida aynan mana shu yo`qolgan qo`l yozmaning qayta ishlanishi havfli sharoitni engib o`tishimga yordam bergen ”.

Yuqoridagi taassurotlarga muvofiq Frankl psixoterapiyaning boshqa shakllaridan farq qiluvchi logoterapiyani ishlab chiqadi. Logoterapiya mijozga o`z hayotining mohiyatini topishga ko`maklashishni o`z vazifasi deb hisoblaydi. Inson o`zining mavjudligining yashirin mohiyatini anglashida logoterapiyaning yo`l qo`yishi bu analistik jarayon hisoblanadi. Bu munosabat jarayonida logoterapiyava psichoanaliz bir – biriga o`xshab ketadi. Logoterapiya psichoanalizdan shunisi bilan farq qiladiki, uinsonning asosiy vazifasi xohish va instinktlarni qoniqtirish emas, balki mohiyatni amalga oshirish va qadriyatlarni muhimlashtirishdir.

Logoterapiya faqat kasal, bemor kishilarga emas, balki sog'lom kishilarga ham profilaktik maqsadlarda qo'llanishi mumkin. U har qanday kishiga hayotdagi har qanday vaziyatda mohiyat borligiga ishontirish va unga o'z resurslaridan foydalanishga (insonni hayotiy muammolarni hal qilishda "o'z joniga qasd qilish, ichkilik, narkomaniyaga berilish" kabi havg'li impul'slarga qarshi kurashish uchun o'zida kuch topishga, umidsizlik, tushkunlikdan himoya qilish) ko'maklashishga qaratilishi mumkin. Logoterapiya o'z muoalajalariga ega: bu logoterapevtik texnika, shuningdek, ekstensial vakuumni diagnostika qilishga qaratilgan metodikalar.

V. Frankl nazariyasi va amaliyotidagi ahamiyatli muammolar bu - insonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi inson ongiga hayotning mohiyatini aniqlash uchun kurashdan iborat bo'lib, bunda inson hayotining mohiyati uning ma'naviy tabiatini, insonparvarligi, har bir insonning betakror ekanligi alohida qadrlanishi bilan ta'kidlanadiki, bu o'z navbatida horijiy psixologiyada ko'plab yoyilgan mexanistik va biologizatorlik qarashlarga qarama-qarshi hisoblanadi. Rus psixologiyasida insonning mavjudligi usuli xususiyatlariga "Inson va olam" asarida S.L. Rubinshteyn murojaat qilgan.

**3. Genetik psixologiya.** Psixogenetika (yunon - ruh, genezis – kelib chiqishi) – psixologiya va genetika kesishmasidan kelib chiqqan aqliy va psixofizik xususiyatlarning nasl-nasab tarixi va o'zgaruvchanligi. "Xulq-atvori genetikasi" atamasi G'arb adabiyotida keng qo'llaniladi. Psixogenetikaning predmeti inson psixologik xususiyatlarining (bilim va vosita g'unktsiyalari, temperamenti) o'zaro bog'liqligini shakllantirishda irsiy va atrog'-muhitning o'zaro ta'siri. So'nggi yillarda psixogenetikaning genetik psixofizyologiyasi kabi bo'limlari jadal rivojlanmoqda ular miya bioelektrik faoliyatining irsiy va ekologik omillarini o'rganish, individual rivojlanish genetikasi hamda genetik ta'sirlarning xatti-harakatlarga va psixopatologiyaning turli turlariga ta'sirini o'rganishmoqda.

Psixogenetika predmeti. Psixogenetiklar, avvalambor, ishonchli tarzda baholanishi va o'rganilishi mumkin bo'lgan insonning aqliy va psixofizik

xususiyatlarini o'rganadi. Xususan, tadqiqot mavzusi ko'pincha naslga o'tishi va o'zgaruvchanligi hisoblanadi:

- Deviant hati-harakatlar;
- Aqliy kasallik;
- Temperament turlari;
- Miya ritmining turlari.

Psixogenetikaning asosiy metodlari: aholi, genealogik, boqib olingan bolalar va egizaklar metodi.

Egizaklar metodi: monozigotali (bir xil) egizaklar bir xil genotipga, dizigotalik nosimmetik bo'lmanligiga asoslanadi. Shu bilan birga, har qanday turdagи jug't-jug'tlik a'zolari xuddi shunday mehribonlik muhitiga ega bo'lishi kerak, shunda monozigotali egizaklarning dizigotalik bilan taqqoslaganda o'xshashligi, o'rganilayotgan belgining o'zgaruvchanligi haqida irsiy ta'sirlarni ko'rsatishi mumkin. Ushbu usulning muhim cheklovi, monozigotli egizaklarning haqiqiy psixologik xususiyatlarining o'xshashligi, genetik uxshash bo'lmasligi mumkin.

Genealogik usul – turli avlodagi qarindoshlar o'rtasidagi o'xshashlikni o'rganish. Bu ona va ona toifasidagi bevosita qarindoshlarning qator belgilarini va eng keng tarqalgan qonli-qarindoshlarini qamrab olishni talab qiladi. Shu bilan birga, turli xil oilalarning yetarli soni haqida ma'lumotlarni ishlatish mumkin. Ushbu usul asosan tibbiy genetika va antropologiya uchun qo'llaniladi. Shu bilan birga, psixologik sabablarga ko'ra avlodlarning o'xshashligi nafaqat ularning genetik o'tkazmalari, balki ijtimoiy uzluksizligi bilan ham tushuntirilishi mumkin.

Aholi metodi inson genofondining alohida genlarini taqsimlash yoki xromosomalar normalligini o'rganishga imkon beradi. Aholini genetik tarkibini tahlil qilish uchun vakillari katta bo'lgan guruhni, o'rganiladi bu butun aholini baholashga imkon beradi. Ushbu usul shuningdek, irsiy patologiyaning turli shakllarini o'rganishda ham foydali hisoblanadi.

Oddiy psixologik xususiyatlar – bu psixogenetikaning boshqa usullaridan ajratilgan bu usul, ishonchli ma'lumotlarni taqdim etmaydi, chunki ma'lum bir

psixologik xususiyatni taqsimlashda populyatsiyalar o'rtasidagi g'arb ijtimoiy sabablar, urg'-odatlar va boshqalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Asrab olingan bolalar metodi bolaning va uning biologik ota-onasi, bolaning va uni tarbiyalayotgan farzandlar o'rtasidagi o'zaro o'xshashliklarni har qanday psixologik asosda taqqoslashdir.

### **Amaliy mashg'ulotlardagi muhokama uchun savollar.**

1. Gumanistik psixologiyaga umumiy tavsif bering.
2. Gumanistik psixologiyaning birinchi nazariyasi nimadan iborat?
3. Gumanistik yo'nalishning asosiy tamoyillari qaysilar?
4. Rodjers va Franklning psixoterapevtik va nazariy konsepsiysi qanday edi?
5. Rodjers shaxsning fundamental asosini nimada deb hisoblagan?
6. Genetik psixologiya nima?
7. Psixogenetikaning predmeti nima?
8. Psixogenetikadagi egizaklar metodini tushuntirib bering.
9. Psixogenetikadagi genealogik metodini tushuntirib bering.

### **7-Mavzu:XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Rossiyada**

#### **psixologiyaning rivojlanishi.**

##### **Reja:**

1. Rossiyada psixologiyaning rivojlanishi.
2. Idealistik va mexanistik psixologiyaning rivojlanishi.
3. Psixologiya sohasidagi 30-yillardagi munozaralar.
4. 1940–1965 yillarda psixologiyaning fan sifatida rivojlanishi masalalari.

**Tayanch so'zlar:** *V.G.Belinskiy, Gertsen, Chernishevskiy, Dobrolyubov, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, idealistik va mexanistik psixologiya,*

**1. Rossiyada psixologiyani rivojlanishi.** Rus demokratik inqilobining vakillari Belinskiy, Gertsen, Chernishevskiy va Dobrolyubovlar idealizmni, xususan idealistik psixologiyani tanqid qilishda boshqa yo'lidan bordilar. Bu

mutaffakkirlar o'zlarining tekshirish va mulohazalarida mexanistik materialistlarning falsafiy tamoyillariga emas, balki Lomonosov va Radishchevlarning printsiplariga tayandilar. Revolyutsion-demokratlar materialist edilar, ular idealizm va vulgar mexanik materializmga qarshi kurashdilar. Ular moddiy-fiziologik va psixik hodisalarning o'zaro munosabati haqidagi ta'lilotda psixofizik birlik tamoyillarida turdilar.

V. G. Belinskiy (1811 – 1848 y.) borliqning, dunyoning negizi materiyadir, ong materianing mahsuli, shu jumladan miyaning xususiyatidir, deb hisobladi, «Eng mavhum aqliy tasavvurlar,— deydi, V.G.Belinskiy,—miya organlarining natijasidan boshqa hech narsa emasdir». Hamma aqliy funktsiyalar miyadagi fiziologik jarayonlar asosida ro'y beradi. Psixik hodisalarni miyadan tashqari deb qarash mumkin emas. Shuning uchun ham, Belinskiyning aytishicha, anatomiyanidan behabar fiziologiya qanchalik asossiz bo'lsa, fizologiyaga tayanmagan psixologiya ham shunchalik asossizdir». V.G.Belinskiy ong materiyaniig mahsulidir deb gapirar ekan, ong mazmunining rivojlanishi biologik asosga, miyaga emas, balki ijtimoiy sharoitlarga bog'liqdir, deb ta'kidlaydi. U shunday deb yozgan: «Insonni tabiat yaratadi, lekin jamiyat uni o'stiradi va ta'lim beradi»

A.V. Gertsen (1812–1870 y.) mexanistik materializmga qarshi chiqib, ong real mavjuddir deb ta'kidladi, ongni materiyadan, inson organizmidan ajratib qo'yan idealistlarni qattiq tanqid qildi. Psixika – bu materianing mahsuli:— u miyaning xossasidir, binobarin, uni miyadan ajratib bo'lmaydi. Ongni tabiatdan, tanadan tashqaridagi mustaqil substantsiya deb tasavvur qilish mumkin emas. «Ong,— deb yozgan edi A.V.Gertsen,— tabiat uchun butunlay yot narsa emas, balki tabiat taraqqiyotining yuksak darajasidir». Ongni uning moddiy asosi bo'lgan miyadan ajratib bo'lmaydi. Yuksak qobiliyatlar organi bo'lgan miyani o'z faoliyatini bajarish borasida olib qaralganda, to`g`ridan-to`g`ri ma'naviy tomonning fizik tomonga munosabatini o'rganishda demakki, psixologiyaga – olib keladi»,— deb yozadi. Shu bilan birga Gertsen, mexanistik materialistlarga qarama-qarshi o'laroq, ongni miyaning passiv xossasi emas, voqelikning ko'zgudagi

singari oddiy aksi emas, balki u ongni o'z tabiatiga ko'ra aktivdir deb tushunadi. Ong va uning barcha qobiliyatlari shaxsni har tomonlama va garmonik o'stirish vazifasidan iborat bo'lgan ta'lim va tarbiyaning ta'siri bilan rivojlanadi. Gertsen dialektik materializmga chinakam yondoshdi.

N.G.Chernishevskiy (1828-1889 y.)ning aytishicha, dunyo va hayotning negizida bitta manba – materiya yotadi. Psixika, inson ongi rivojlanayotgan materiyaning mahsulidir. Chernishevskiy inson tabiatini dualistik tushunishga va shunga asosan inson ongining uning miyasiga bog'liq emasligi haqidagi da'voga keskin qarshi chiqdi.


Psixikaning moddadan tashqari kelib chiqishini inkor qilib, Chernishevskiy inson ruhiy hayoti hodisalarining tabiiy yo'l bilan paydo bo'lishi va rivojlanishini isbotlashga harakat qilardi. Lekin u, ayni vaqtda, nemis vulgar materialistlari Byuxner, Fogt, Moleshottlarning yo'l qo'ygan xatolaridan, ya'ni moddiy miya jarayonlarini psixik jarayonlar bilan, moddiy substrakt bo'lgan miyani ongning o'zi bilan aynan tenglashtirib qo'yishdan uzoqda edi. «Inson tabiatini yagona bo'lishi bilan birga,— deb yozadi u,— biz unda ikki xil hodisa moddiy deb ataladigan hodisalarni (inson ovqat eydi, yuradi) hamda ma'naviy deb atalgan hodisalarni inson o'ylaydi, his qiladi, hohlaydi va shu kabilarni ko'ramiz». U «fikrning jismiy formasi yo'qligiga qattiq ishondi».

Dobrolyubov (1836–1867y.) Chernishevskiyning safdoshi bo'lib, o'z zamonasidagi tabiat fanlari yutuqlari asosida tabiat va insonning genetik birligi tamoyilini himoya qildi. Uning fikricha, dunyoda moddiy va ruhiy deb atalgan ikki manba yo'q. Butun mavjudot harakatdagi va o'sishdagi yagona materiyaning har xil holatidir. Materiya abadiydir, u yo'qdan bor bo'lmaydi, bordan yo'q bo'lmaydi, faqat o'z formasini o'zgartiradi, xolos. «Aslida hech narsa yo'q bo'lib ketmaydi,— deydi Dobrolyubov,— faqat formalar, shaxslar o'zgaradi, xolos». «Inson,— deydi Dobrolyubov,— tabiatning bir qismidir, mavjudotlarning eng mukammalidir, taraqqiyotning koinot tomonidan erishilgan eng yuksak bosqichidir.

Dobrolyubov dunyoning moddiyligini isbotlar ekan, u zamonasining reaktsion idealistik olimlariga qarshi kurash olib bordi. U insondagi psixik hamda fiziologik jarayonlarning birligi haqidagi ta'limotni himoya qildi.

Dobrolyubov psixik va fiziologik hodisalarni aynan tenglashtirib qo'ygan vulgar materialistlar – mexanistlarga qarshi chiqib, shunday deb yozgan edi: «Inson ruhi qandaydir juda nozik materiyadan iboratdir deb isbotlashga urinib, inson ruhiy tomonining yuksak ahamiyatini yo'qqa chiqaradigan qo'pol materializmning johilona e'tirozlari bizga kulgili va ayanchli bo'lib tuyuladi». Dobrolyubov idealistlarni tanqid qilish bilan birga olimlar uydirma nazariya va tajribaga boflanmagan aprior sxemalarga yopishib olmasdan, o'z hukmlarida faktlarga tayansagina, ularning dunyo haqidagi ideya va tushunchalari turmush amaliyotida sinalgan taqdirdagina, insonni o'rab turgan hodisalarning haqiqiy mohiyatini bilish mumkin ekanligini isbotlashga harakat qildi.

Rus fiziologiyasi va ilmiy psixologiyasining «otasi» I.M.Sechenovning (1829–1905y.) dunyoqarashi inqilobchi demokratlar vakillarining, ayniqsa Chernishevskiyning ta'sirida tarkib topdi. 1863 yil uning «Bosh miya reflekslari» degan mashhur asari bosilib chiqdi. Bu asarda I.M.Sechenov o'sha zamon fiziologiyasining ilfor yutuqlariga va shaxsiy tekshirishlariga asoslanib turib, odamning psixik faoliyati qandaydir moddiy bo'limgan ruhning namoyon bo'lishi emas, balki faqat miyaning faoliyati xolos, deb dadillik bilan aytди. Sechenov fiziolog sifatida Chernishevskiy va undan oldin maydonga chiqqan rus materialistlari tomonidan rivoj toptirilgan materialistik monizmni tabiiy-ilmiy jihatdan asoslاب berdi. «Insondagi psixik va fiziologik jarayonlar,— degan edi Sechenov,— bu bir xil tartibdagi hodisalar, bir-biriga yaqin, real dunyoga xos bo'lgan hodisalardir». Sechenov psixik jarayonlarning asosi bosh miya reflekslaridir, degan ta'limotni ilgari surdi. «Ongli va ongsiz psixikaning barcha harakatlari,— deb yozadi u, o'zining kelib chiqishi jihatidan reflekslardir». Shuni isbotlashni u o'zining vazifasi deb bildi.



**I.M.Sechenov**

**A.A.Smirnov**

**K.N.Kornilov**

I.M.Sechenov ilmiy psixologiyaning asosiy vazifasi bosh miyaning funktsiyalari bo'lgan psixik jarayonlarning kelib chiqishini o'rghanishdan iborat deb hisoblaydi. «Ilmiy psixologiya, deb yozadi u, o'zining butun mazmuni e'tibori bilan psixik faoliyatning kelib chiqishi haqidagi bir qator ta'limotlardan o'zga narsa bo'lmg'i mumkin emas». U inson psixikasining inson ongi taraqqiyotining birlamchi omili bo'lgan tashqi dunyo bilan belgilanganligini ta'kidladi. «Moddiy olam har bir insonga nisbatan, uning fikridan oldin mavjud bo'lgan va mavjud bo'ladi. Ma'lumki, insonning psixik jarayonlari,— deb yozadi Sechenov,— tashqi belgilarda ifodalanadi va odatda barcha kishilar, oddiy kishilar ham, olimlar ham, tabiatshunoslar ham, psixologlar ham psixik jarayonlar haqida shularga, ya'ni tashqi belgilarga qarab fikr yuritadila. Biroq psixik hodisalarni ilmiy jihatdan haqiqiy analiz qilib berishning kaliti fiziologiyaning qo'lidadir». Sechenovning psixik jarayonlarning mohiyatini tushuntirib beradigan asosiy qonun-qoidalari mana shulardan iborat. I.M.Sechenov ta'limotining davomchisi I.P.Pavlov edi. U materialistik psixologiyaning tabiiy-ilmiy asosi bo'lgan yangi fan, oliy nerv faoliyati fiziologiyasini kashf etdi.

**2. Idealistik va mexanistik psixologiyaning rivojlanishi.** Psixikani, psixik va fiziologik hodisalarning o'zaro munosabatini tushunishda idealizm bilan materializm o'rtasidagi kurash XX asming boshlarida ham davom etdi va kuchaydi. Bu davrda asosan, dialektik materializm pozitsiyasida turib mexanistik materializm va idealizmning eng yangi shakllariga qarshi kurash avj oldi.

Mexanistik materializmning uchiga chiqqan shakli ob'ektiv psixologiya deb atalgan oqim – «bixevoirizm», ideyalizmining uchiga chiqqan shakli esa Vyurtsburg» maktabi psixologiyasi edi.

Empirik psixologiyani tanqid qilish yana shuning uchun ham taqozo qilinar ediki, uning va umuman idealistik filosofiyaning tarafdorlari o'z pozitsiyalaridan birdaniga voz kechmadilar. Masalan, professor Chelpanov o'zining maqolalarida empirik psixologiya materializmga zid emas deb ko'rsatishga urindi. O'tgan davrda psixologiyadagi **mexanistik oqim** bo'lgan bixevoirizm va refleksologiyaga ham qarshi kurash zarur bo'lib qoldi. Inqilobning dastlabki yillarida bu oqimlar ancha keng tarqalgan edi. Refleksologiya hatto oliv o'quv yurtlariga o'quv fani sifatida kiritilgan edi. Biroq, u faqat 3-4 yil mobaynida o'qitildi, xolos.

Psixologiyadagi mexanistik oqimlar bilan kurash yana shuning uchun ham dolzarb ediki, uning vakillari o'z nazariyalarini sotsialistik jamiyat qurish ishida katta amaliy ahamiyatga ega bo'la oladigan ta'lilot deb da'vo qildilar. Bixevoiristlar hamda refleksologlar inson psixikasini faqat mexanistik ta'lilotga muvofiq tushunish asosida yangi pedagogika sistemasini yaratish lozim deb hisobladilar. Bu psixologlarning ta'lilotiga ko'ra, mehnat reaktsiyalar yoki reflekslar sistemasidir. Pedagogika muhitga moslashish reaktsiyalari yoki reflekslarini tarbiyalashdan iboratdir. Bunday qonun-qoidalarda biz insonning bilish va amaliy faoliyatida ong va uning turli shakllarining to'liq inkor qilinganligini ko'ramiz.

Professor K.N.Kornilov boshchiligidagi bir guruh sobiq Ittifoq psixologlari idealistik va mexanistik psixologiyani tanqid qilib, psixologiyani dialektik materializm asosida ko'rishga intildilar.

1923 yil psixonevrologiya fanlari bo'yicha birinchi Butun Rossiya s'ezdi bo'lib o'tdi. Shu s'ezdda idealistik psixologiyaga qarshi keskin kurash avj oldirildi. Ayniqsa bu kurash keyingi 1924 yilgi s'ezdda yana kuchaytirildi. 1924 yili professor K.N.Kornilov o'zining «Hozirgi zamon psixologiyasi va marksizm» nomli kitobida birinchi bo'lib o'z qarashlarini aniq ifoda qildi. U bu kitobida empirik psixologiyani tanqid qildi, avvalo, bu psixologiyaning asosiy

kamchiliklariga – inson psixik faoliyatida tashqi hulqiy momentni e'tibordan chetda qoldirilishiga, psixologiyadagi dualizm va idealizmga qarshi chiqdi. Kornilov Bexterevning refleksologiya maktabini va I.P.Pavlovning ba'zi bir izdoshlarini (chunki ular psixologiyani refleksologiya bilan almashtirmoqchi bo'ldilar) tanqid qilar edi, ularning inson hulqida ongining roliga yetarli baho bermaganliklarini, shuningdek psixika – ongga nisbatan qarashlaridagi mexanizmni fosh qilib tashladi.

Mustaqil fan sifatida psixologiya uchun bixevoirizm va refleksologiyaga qarshi kurashda Moskva, Leningrad (Sank-Peterburg) oliy o'quv yurtlari va boshqa tadqiqot muassasalarining psixologlari aktiv ishtirok etdilar. Mexanistik qarashlarning yaroqsizligini ko'rsatuvchi asarlar nashr qilindi. Psixologiyadagi mexanistik oqimlarga qarshi kurashda psixologiyaning predmeti – ong haqidagi masala katta o'rinn egalladi.

Bixevoirizm tarafdarlari, Bexterev va uning izdoshlari, refleksologlar ong masalasini o'rganishni e'tibordan chetda tutgan psixologiyani vujudga keltirish mumkin deb hisobladilar. Bu qarashlarga qarama-qarshi o'laroq, professor Kornilov rahbarligidagi psixologlar psixologiya predmeti faqat hulqning tashqi alomatlarinigina emas, balki shuning bilan birga insonning sub'ektiv kechiriklarini ham o'rganishdan iborat bo'lmos'h'i kerak, deb hisobladilar.

Ongni psixologlar tomonidan o'rganilishi mumkin va zarur ekanligiga ayniqsa L.S.Vigotskiy qat'iy rioya qildi. Bu borada u «Ong-hulq psixologiyasining muammosi sifatida» degan mahsus maqola yozdi. Psixologiya sohasida ikki frontga, ya'ni empirik psixologiyaning sub'ektivizm va idealizmga qarshi, bixevoiristlar va refleksologlarning mexanizmga qarshi olib borgan kurashi faqatgina psixologiyaga emas, balki filosofiyaga ham taalluqli edi. Bu kurashning yakunlari quyidagilarda ifodalandi. Empirik psixologiya o'zining inqilobdan oldingi mavqeini yo'qotdi, u o'qitish predmet sifatida uzil-kesil siqib chiqarilgan edi.

Refleksologiya vakillari o'z nuqtai nazarlarini yanada qattiq turib himoya qildilar. Lekin ular ham tanqid ta'sirida o'zlarining xatolarini tan olishga majbur

bo'ldilar. Bu jihatdan ayniqsa filosofik munozaralar (1927–1929 y.) katta natijalar berdi, munozaralar filosofiya frontida mexanitsislarniig batamom tor-mor bo'lishi bilan tugadi.

Bexterev (u vaqtida o'zi mahrum edi) shogirdlaridan bir gruppasi «Refleksologiyani yoki psixologiyani» va «Refleksologiya va uning yondosh fanlariga munosabati» degan ikkita ko'rsatma (broshyura) chiqardilar. Bunda ular o'zlarining oldingi fikrlarining yanglish ekanligini e'tirof etdilar. Ular o'z xatolarini, refleksologiya hali inson hulqini to'la-to'kis holiga ya'ni uni qiliqlari va hatti-harakatlarida olib mukammal tekshirish darajasiga ko'tarilganicha yo'q, degan bahona bilan izohladilar. Ular psixikaning realligini esa uni o'rganishning zarurligini e'tirof etadilar. 1930–1931 yillarda refleksologiya aslida tugatilgan edi.

Kornilovchi psixologlar gruppasining ishlari faqat empirik va sub'ektiv psixologiyani tanqid qilish bilangina cheklanib qolmadi. Tanqid jarayonida yangi psixologiya sistemasini tuzish bo'yicha ham ishlar olib borildi. Bu psixologlarning aytishicha, yangi psixologiya sistemasi marksistik fan bo'lishi kerak. Lekin bu faqat niyat edi, xolos. Aslida esa K.N.Kornilov psixologiya predmetini tushunishning o'zida bixevoiristlar va refleksologlar bergen ta'rifga asoslangan edi.

K.N.Kornilov ta'lismoti nuqtai nazaricha, psixologiyaning predmeti inson hulqini to'la-to'kis xolicha, ya'ni uning qiliqlari va hatti-harakatlarini o'rganishdir. Muayyan muhitdagi organizmning reaksiyalari hulqniig alohida elementlari deb hisoblandi. hulqning elementlari bo'lgan reaksiyalar haqidagi ta'lismot Kornilov maktabi psixologiyasida markaziy o'rinni egallardi. «Biz psixologiyada nimani o'rganmaylik,— deb yozgan edi Kornilov,— tub aslida reaksiyani o'rganamiz chunki reaksiya hulqimizning barcha eng murakkab, yuksak va nozik shakllaridan iboratdir. Yangi psixologiya bitta metodni, bu ham bo'lsa reaktologik metodni biladi». Lekin hulq va reaksiya tushunchasi bixevoiristlar va refleksologlarga qaraganda, boshqacha tushuntiriladi, jumladan hulq va reaksiya tushunchalarining mazmuniga nerv-fiziologik va mushak harakatlaridan tashqari, yana psixik moment, ong momenti ham kiritilgan edi. Lekin K.N.Kornilov psixika va ongi reaksiyada ishtirok etadigan va uning organizmning tashqi muhitga nisbatan javob

harakati bilan birgalikda ro'y beradigan passiv bir narsa debgina tushundi. Psixik moment esa faqat inson kechinmalaridagi reaktsiyalarning sub'ektiv ifodasi deb tushunildi, xolos. U reaktsiya tushunchasiga psixik, ongli momentlarni kiritar ekan, buning bilan u go'yoki sub'ektiv empirik psixologiyaning bir tomonlamaligini bartaraf qilmoqchi bo'ladi. K.N.Kornilovning fikricha, psixologiyani shunday tushunilsa, «inson hulqidagi ob'ektiv va sub'ektiv hodisalarning organik sintezi» kelib chiqadi.

1926 yili professor K.N.Kornilov o'z psixik nazariyasining namunasi sifatida "Psixologiya" darsligini chiqardi. Keyingi yillarda bu darslik (1931 yilgacha) mayda o'zgartirishlar bilan bir necha marta nashr qilindi. Aslida bu «psixologiya darsligi»da psixologiyaga doir hech narsa yo'q edi. Psixika haqidagi masala faqatgina bosh qismida, u ham bo'lsa reaktsiyaning tarkibiy momenti sifatida eslatilib o'tilar edi. Psixologiya hulq haqidagi fan sifatida talqin qilinar edi. Hulq organizm reaktsiyalarining yig'indisi deb tushunilar edi. Butun psixologiya sistemasi tug'ma va hosil qilingan, oddiy va murakkab reaktsiyalarini bayon qilishdan iborat qilib qo'yilgan edi, aslida esa bu darslikda bixevoiristik va refleksologlar ta'limoti qisqacha bayon qilingan edi, xolos (shuning uchun ham bu darslik keyinchalik «reaktologiya darsligi» deb atalgan edi). Shu narsani ta'kidlash kerakki, o'sha vaqtarda, bixevoiristlar va refleksoglarning siquvi ostida psixologiyani hulq haqidagi fandir deb ta'riflash keng tarqagan edi. Agar 1923 va 1924-yillardagi s'ezdlar psixonevrologiya fanlari sohasidagi s'ezdlar deb atalgan bo'lsa, 1930 yildagi psixologiya s'ezdi esa, inson hulqini o'rganish masalalariga bag'ishlangan s'ezd edi.

**3. Psixologiya sohasidagi 30-yillardagi munozaralar.** Inson hulqini o'rganish bo'yicha chaqirilgan s'ezdi sovet psixologiyasi taraqqiyoti birinchi bosqichining yakuni bo'ldi. Biroq, s'ezdning yakunlari sovet psixologiyasini ko'rish sohasida hamma narsa o'z o'rnida emasligini ko'rsatdi. Xususan, insonning butun psixik faoliyatini reaktsiyalarga tenglashtirib qo'yishga bo'lgan urinishlar ochiqdan-ochiq ko'rinish turardi, bu esa psixologiyani amalda reaktologiyaga aylantirib qo'yardi, bu reaktologiyani marksistik psixologiyaning konkret

gavdalanishi deb aytishga, demak, marksistik psixologiyani empirik (sub'ektiv) va ob'ektiv psixologiyani, ya'ni bixevoirizm bilan refleksologiyaning «sintezi» deb tushuntirishga urinishlaridan oydin dalolat berar edi.

S'ezddan keyin, ko'p o'tmasdan, (1929 – 1931 yilgacha) bularning hammasi psixologiya fani sohasidagi metodologiya munozaraning kuchayishiga olib keldi. Psixologiya sohasidagi munozaralar filosofik (umumetodologik) frontdagি kurashning konkret ifodasi bo'ldi. Filosofiyanagi munozara mexanizmni antimarksistik oqim deb qoraladi. Bu metodologik munozara fanning boshqa sohalariga, ya'ni siyosiy iqtisod, adabiyotshunoslik, tabiatshunoslik kabilarga hamtarqaldi. Diskussiya, bizning psixologiyamizda bir qancha juda qo'pol metodologik ofmachilik va buzfunchiliklarning mavjudligini ochib berdi. Shuningdek, munozara, refleksologiya va reaktologik psixologiya asosida sobiq Ittifoq pedagogikasi sistemasini ko'rish mumkin emasligini, qanday yo'nalishda tarbiyalash va qayta tarbiyalash mumkin degan masalani hal qilish mumkin emasligini ko'rsatdi. Refleksologiya va reaktologiya asosida faqat hayvonlarni dressirovka qilish (o'rgatish) usullari haqidagina gapirish mumkin.

Munozara jarayonida bizda idealistik psixologiyasining turli oqimlari, chunonchi: V.Shtern personalizmi, struktura psixologiya, freydizm boshqa-boshqa oqim tarqaganligi aniqlandi. Bu oqimlarning hammasi bizda tanqidiy asosda ko'rib chiqilmasdan qabul qilinib ilmiy nazariyalar deb taqdim qilinardi. Masalan, struktura,- Geshtalt` – psixologiya asosida ta'larning «kompleks sistemasi», savod o'rgatishda butun so'zlar metodi kabi mutlaqo yaroqsiz va zararli metodlar ishlab chiqildi. Psixotexnikani, ya'ni mehnatni sotsialistik asosda uyushtirish amaliyotini Shtern psixologiyasiga binoan rivojlantirmoqchi bo'ldilar. Sobiq Ittifoq pedagogikasi va psixiatriyasini freydizm psixologiyasiga tayangan holda asoslashga intildilar.

Professor Kornilov, bu sohada xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa ham, uning tarixiy xizmatlari shundan iborat ediki, bixevoiristlar va refleksologlarning avjiga chiqqan siqifi ostida kurash olib bordi va psixologiya fanining mustaqilligini himoya qilib qola oldi. Munozaralarning eng muhim yakuni haqiqatan ham ilmiy

psixologiyani yaratish vazifasi edi. Munozaralar shu narsani ko'rsatdiki, buning uchun psixologiya sohasiga bevosita dahldor bo'lган ta'limotini puxta o'rganish va egallab olmoqlari kerak edi, ikkinchidan, psixologlar psixologiya sohasidagi barcha tarixiy meros va yutuqlarni o'rganish bilan shufullanishlari va bu yutuqlarni tanqidiy o'zlashtirib olishlari kerak edi va uchinchidan, o'tmishda erishilgan yutuqlarga asoslanib turib, ilmiy psixologiya muammolarini ishlab chiqishni ilgari surmoqlari kerak edi.

Munozara natijasida sobiq Ittifoq psixologiyasida haqiqatan ham qayta kurash ishlari boshlandi. Psixologyaning metodologik va asosiy muammolari bo'yicha asarlar yozildi, bir qancha psixologiya nazariyalari tanqidiy ravishda yoritildi. Bir qancha eksperimental ishlar qilinib, ularda psixik jarayonlar sifat jihatidan o'ziga xos hodisalar deb tushunildi, ular organizmning reflekslari va reaktsiyalariga tenglashtirib qo'yilmadi. Munozaralardan keyin ikkita o'quv qo'llanma psixologyaning qayta ko'rileganligini ko'rsatuvchi yaqqol dalil edi. Bulardan birini professor Kornilov («Psixologiya» 1-nashri 1934 va 2-nashri hamda 1935 yillarda) ikkinchisini esa professor S. L.Rubinshteyn («Osnovo` obshey psixologii» 1935 yil) tuzgan edi. Bu asarlarda psixologiya masalalari munozaralargacha bo'lgandan boshqacharoq talqin qilingan edi. Xususan, professor Kornilov, bu kitobida psixologiya predmetini tushunishni keskin o'zgartirdi, ayrim psixik jarayonlar esa endi organizm reaktsiyalarining kombinatsiyasi deb talqin qilinmaydi. Bu psixologiyada emotsiyalar, iroda va xarakter psixologiyasiga ham o'rinn beriladi.

Psixologiya sohasidagi qayta qurilish hali unchalik to'liq emas edi. Psixologlarning asarlarida hali mexanistik, biologizatorlik hamda idealistik xatolar ham uchrab turardi. Bu xatolar VKP(b) Markaziy Komitetining 1936 yil 4 iyuldagagi «Xalq maorifi Komissarliklari sistemasidagi pedologik buzfunchiliklar haqida» degan tarixiy qarorini keltirib chiqardi. VKP(b) Markaziy Komitetining tarixiy qarori barcha psixologlarga birday tegishli edi. U sobiq Ittifoq psixologiyasining ahvolini yana bir marta tanqidiy ravishda qarab chiqishga majbur qildi, ayni vaqtida psixologiya sohasidagi ishlarni yanada kengaytirish uchun harakat omili bo'ldi.

Shu qarordan keyin ko'pchilik pedaloglar o'z kasblarini o'zgartirib psixolog bo'lib oldilar.

30- yillarda psixologlar psixikani eksperimental o'rganish yuzasidan ko'p mahsus laboratoriya va kabinetlar tashkil qildilar. Bunday laboratoriylar faqat markaziy shaharlar (Moskva, Leningrad)dagina emas, balki olis viloyatlar hamda milliy respublikalar, shaharlarida ham tashkil qilindi. Shu davrda O'zbekistonda ham eksperimental laboratoriya va kabinetlar tashkil qilina boshladi. Toshkentda O'rta Osiyo Davlat universiteti huzurida, O'rta Osiyo Kommunistik universiteti, temir yo'l transporti boshqarmasida va Magnat instituti huzurida laboratoriylar tashkil qilingan. Samarqand shahridagi o'zbek pedagogika institutida ham boy jihozlangan laboratoriya tashkil qilingan edi.

Bu davrda psixologlardan professor Lazurskiy kashf etgan juda foydali tabiiy eksperimentni qo'llab, bolalar psixologiyasi va eksperimental psixologiya sohasida ko'plab eksperimental tadqiqotlar o'tkazdilar. Ayrim psixik jarayonlar va ularning funktsiyalarini o'rganish sohasida ham bir qancha ishlar qilindi. Masalan, V.A.Artemovning idrok sohasidagi, E.A.Ribnikov va A.N.Leont`evlarning xotira sohasidagi, L.S.Vigotskiyning tafakkur sohasidagi tadqiqotlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Mehnat psixologiyasi sohasida ham faqat kabinet va laboratoriyalardangina emas, balki bevosita ishlab chiqarishning o'zida, zavod, fabrika va jamoalarda, shu jumladan, O'zbekiston paxta dalalarida ham o'tkazildi.

Bu davrda hayvonlar psixikasini o'rganish sohasidagi ishlar ham kuchli sur'atda avj oldirildi. Bu jihatdan Ladngina Kot Voytonis va boshqalarning ishlari, ayniqsa, qimmatlidir. Shu yillari davomida psixologiyaning deyarli hamma sohalarini: psixika, psixika va ong taraqqiyoti haqidagi, sezgi, idrok, xotira kabilar haqidagi ta'limotlarni qamrab oluvchi bir qancha katta asarlar nashr qilindi. Bulardan eng muhimlari quyidagilardir; «Psixologiya», professor. K.N.Kornilov, B.M.Teplov va L.M.Shvartslar taxriridagi jamoa asar; professor. S.L.Rubinshteyn «Osновы общей психологии»; «Psixologiya», Kostyuk tahririda (ukrain tilida), «Общая психология» D. N. Uznadze (gruzin tilida) chop ettirildi. Shu narsani

ta'kidlamoq kerakki, bu asarlarning ko'pchilik qismi sobiq Ittifoq psixologlarining tadqiqotlari materiallari asosida yozilgan.

**4.1940–1965 yillarda psixologiyaning fan sifatida rivojlanishi masalalari.** Ikkinci jahon urushi, nemis bosqinchilariga qarshi qahramonona kurashi psixologiyaning bir qancha yangi muammolarini ilgari surdi, harbiy psixologiyaning maxsus muammolarini ishlab chiqarishni kun tartibiga qo'ydi. Bizning askarlarimizning qahramonliklari inson psixikasining namoyon bo'lishi, ayniqsa iroda va emotsiyalar sohasidagi shunday dalillarni ko'rsatdiki, bular psixologiyada qaror topgan qoidalarni, xususan, iroda haqidagi, shaxsning psixik tabiat haqidagi, uning faolligi, kuchi va imkoniyatlari haqidagi masalalarni yangichasiga qaytadan ko'rib chiqishga majbur qildi. Urush tamom bo'lishi bilanoq, bu asosiy masalalarni har tomonlama va chuqur ishlab chiqish ishlari amalga oshirildi.

Psixik jarayonlarning fiziologiya asoslari haqida 1950 yil 28 iyundan 4 iyulgacha sobiq sovet Ittifoqining Fanlar Akademiyasi va sobiq sovet Ittifoqining Meditsina Fanlari akademiyasining I. P. Pavlov fiziologiyasi bo'yicha o'tkazilgan sessiyasi sobiq Ittifoq psixologiyasi tarixida katta voqeа bo'ldi. Sessiya materialistik psixologiyani barpo qilish uchun I. P. Pavlov asarlari qanday katta ahamiyatga ega ekanligini va bu asarlarga keyingi yillarda psixologlar tomonidan yetarli baholanmayotganligini ko'rsatdi. Buning sababi shundan iboratki, I. P. Pavlov ta'limotini ba'zi psixolog va fiziologlar mexanistik ta'limot deb hisoblardilar. Haqiqatan ham I. Pavlov shogirdlari va izdoshlarining ba'zilari mexanistik, biologizatorlik qarashlarga berilib, psixik hodisalarni fiziologik hodisalardan iborat qilib, psixologiyani esa oliv nerv faoliyati fiziologiyasiga tenglashtirib qo'ydilar. Lekin, yuqorida aytilganday, bu qarashlar filosofik va psixologik frontdagi munozaralar davridayoq, tanqid qilingan va qoralangan edi.

Bu sessiyaning ishi shuni ko'rsatdiki, I.P.Pavlov o'z tekshirishlari bilan psixik jarayonlarning nerv-fiziologik mexanizmlarini, psixik hodisalarning yuksak nerv-fiziologik jarayonlar bilan bo'lgan birligini ochgan. Ikki Akademiya birlashgan sessiyaning yakunladi, psixologiyaning Pavlov ta'limoti asosida yanada

taraqqiy ettirish uchun turtki bo'ldi. Sessiyadan keyin, ko'p o'tmay psixik jarayonlar – sezgi, idrok, hissiyot kabilarning nerv - fiziologik mexanizmlari haqidagi masalaga bag'ishlangan ko'plab asarlari maydonga kela boshladi. Ayniqsa I.P.Pavlovning bosh miya po'stida yangi muvaqqat nerv boflanishlarining hosil bo'lishi haqidagi ta'limoti, qo'zfalish va tormozlanish qonuniyatları haqidagi ta'limoti psixologiya uchun juda samarali bo'ldi. I. P. Pavlovning inson bosh miyasi po'sti faoliyatidagi ikki signal sistemasi haqidagi ta'limoti ham qimmatlidir. Bu ta'limot inson ongingin tafakkur va nutq singari yuksak formalarining nerv fiziologik mexanizmlarini aniqlash imkoniyatini beradi. I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyatining tiplari haqidagi ta'limoti temperamentning nerv-fiziologik asoslarini, uning muhit va tarbiya ta'siri tufayli o'zgaruvchanligini aniqlash imkoniyatini berdi.

Psixologiyaning metodlari haqidagi masala, xususan o'z-o'zini kuzatish metodi haqidagi masala, psixologiyada metodning ob'ektivligini qanday tushunmoq kerakligi haqidagi masala juda ham keskin qo'yildi. Metodning ob'ektivligini faqat tashqi kuzatish, tashqi eksperiment debgina tushunmaslik kerak, aksincha bu yana bixevoirizm va refleksologiyaga olib keladi. Ikki Akademianing I. P. Pavlov fizologiyasiga bag'ishlangan sessiyasidan keyin har xil psixik hodisalarining nerv-fiziologik mexanizmlarini o'rGANISH bo'yicha ko'plab maxsus tadqiqotlar o'tkazildi. Bu ishlar Moskva va Leningrad akademiyasining psixologiya institutida, Pedagogika Fanlari akademiyasining psixologiya institutida, shuningdek sobiqsoviet Ittifoqining boshqa shaharlaridagi oliy o'quv yurtlarining ba'zi bir kafedralarida va laboratoriylarida o'tkazildi.

Psixologiyani I. P. Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limoti asosida qayta tashkil qilish V.A.Artemov, T.P.Egorov, A.V.Zaporojets, P.I.Ivanovlarning psixologiyadan o'quv qo'llanmalarida ham o'z aksini topgan. Mana shularga binoan o'rta va oliy o'quv yurtlarida psixologiyani o'qitish ishlari ham qayta tashkil qilina boshladi.

1962 yili may oyida sobiqsoviet Ittifoqining Fanlar Akademiyasiniig huzurida oliy nerv faoliyati va psixologiyaning filosofik masalalari bo'yicha Butun

Ittifoq kengashi o'tkazildi. Bu kengashda I.P.Pavlov ta'limoti psixik jarayonlarning nerv-fiziologik asosi ekanligi yana bir marta asosli ravishda tasdiqlandi va uning tadqiqotlari yuksak darajada tashkil topgan materianing miyaning mahsuli bo'lган psixika haqidagi ta'limotni tasdiqladi. Keyingi yillarda fiziologlar tomonidan inson psixikasidagi ayrim hodisalarni tushuntirish uchun katta ahamiyatga ega bo'lган ishlar qilindi. Masalan, akademik P. K. Anoxin 1932 yildayoq boshlagan teskari afferentatsiya (teskari boflanish) ning ahamiyatini aniqladi.

Reflektor jarayonlar organizmning faqat javob harakati bilangina tugallanib qolmas ekan. Organizmning har bir javob harakati miya po'stiga markazga intiluvchi teskari (afferent) impuls yuborib turadi, bu impuls javob harakatning natijasidan miya po'stiga signal berib turar ekan. Shu refleksning strukturasi yoy shaklida emas, balki halqa shaklida ekan deb hisoblashga asos beradi. Demak, refleksning teskari boflanishni amalga oshiradigan yana 4-qismi (orqaga qaytaruvchi krani) ham bor ekan. Teskari afferentatsiya haqidagi bu ta'limot «oldindan aks ettirish» (javob harakatni maqsadga muvofiq qilishni bilish) deb atalgan hodisaga boflangan tekshirishlar o'tkazishga imkoniyat berdi. Anoxinning shu tadqiqoti maqsadga muvofiq yo'naltirilgan hatti-harakatlarning fiziologik asosini ochib beradi.

Bir qancha psixik hodisalarni tushuntirish uchun Bernshteynning organizmning biologik faolligi masalasi sohasidagi tekshirishlari muhim ahamiyatga egadir. Bu tekshirishlarning ma'lumotlariga qaraganda organizm muhitga moslashmaydi, balki shu muhitda paydo bo'lган to'siqlarni bartaraf qilishga «tirishadi» maqsadga erishmoq uchun kurashadi.

A.R.Nuriyaning bosh miya po'stida psixik funktsiyalarning lokalizatsiyalashuvi haqidagi ishlari psixik faoliyatning fiziologik asoslarini tekshirishga qo'shilgan qimmatli hissadir. Psixologlarining tekshirishlarida shaxs va shaxsning yoshga qarab rivojlanishi masalalari katta o'rinnegallaydi. 1956 yili (may-iyun) Leningradda shaxs psixologiyasi bo'yicha Butun Ittifoq kengashi

o'tkazildi. Dokladlarda kishi shaxsini tarbiyalash va shakllantirish masalalariga muhim e'tibor berildi.

Hozirgi vaqtida shaxs tushunchasini aniqlashga, uning eng muhim belgilarini: ijtimoiyligi, ongliligi, o'z-o'zini anglashni tahlil qilishga bag'ishlangan qimmatbaho asarlar oz emas. Shaxsning ehtiyojlariga xos xususiyatlari, uning ongli va ijodiy faolligiga, yangi jamiyat qurish davrida uning maslak, ideallari, dunyoqarashi va e'tiqodlarining yo'nalishiga katta e'tibor berilmoqda. Shaxsning turli yoshda qanday rivojlanishi, uning individual xususiyatlari, xarakteri, qobiliyatları hamda qiziqishlari masalasi inson psixikasi va ongi taraqqiyotiga oid umumiy muammoning muhim tarkibiy qismidir.

Psixologlar ongning individual taraqqiyotini shaxs sifatida o'sayotgan odamning barcha tomonlaridagi, barcha psixik jarayonlaridagi sifat jihatdan o'zgarishdir, deb qaraydi. Bu o'zgarish o'sish organizmning rivojlanish qonuniyatları va kishilarning turmush sharoitlari tufayli, ijtimoiy muhit hamda ta'lif-tarbiya ta'sirida ro'y beradi. Ijtimoiy muhit, ta'lif va tarbiyaning ta'siri har bir insonning rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq shu narsani ta'kidlamoq kerakki, bu rivojlanish rivojlanayotgan sub'ekt o'zi hayot jarayonida aktiv ishtirok etgan taqdirdagina ahamiyatga ega bo'ladi.

Keyingi yillar mobaynida psixologiya va pedagogikada «Ta'lif va aqliy rivojlanish» muammosi ayniqsa faollahdi. Bu masalaning hal etilishi maktablardagi ta'lif jarayonida o'tkazilayottan eksperimentlarga asoslanmoqda. Rivojlanishning o'zini qanday tushunishdan qat'iy nazar, tadqiqotchilarning hammasi ta'lifning hal qiluvchi roli sharoitida ta'lif va tarbiyaning bir-biri bilan boflanligini e'tirof etadilar.

Psixologlar alohida psixik funktsiyalar va bilishjarayonlarni o'rganish sohasida, xususan, sezgi, idrok, xotira, tafakkur sohasida ko'p ishlar qildilar. B.G.Ananev, A. V. Zaporojets, N.A.Leontev va boshqalar olib boradigan sezgi va idrok sohasidagi tekshirishlar asosan bu jarayonlarning retseptiv tomonlariga qaratilgan. Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, ko'ruv, eshituv, teri sezgilari, shuningdek, sezgi va idrokning boshqa turlari faqat markazga intiluvchi

jarayonning, faqat refleks boshlang'ich zvenosiningina mahsuli emas. Ular markazdan qochuvchi jarayonlarni ham, sub'ektning faolligini aks ettiradigan qidiruv, sinov reaktsiyalarini ham qamrab oladi. Bularning barchasi alohida, pertseptiv harakatlar bo'lib, ular ichki psixik jarayonlar bilan birga, tashqi, birinchi navbatda, ozmi-ko'pmi yorqin ifodalangan harakat komponentlarini ham o'ziga qamrab oladi.

Xotira sohasida xotiraning mahsuldorligi esda olib qolish faoliyatining nimaga qaratilganiga bog'liq ekanligi masalasi keng o'rganilgan. Yaxshi esda qoldirishda qaytadan tiklash (esga tushirish) va boshqa psixik jarayonlarning roli aniqlangan.

A.A.Smirnov va P.I.Zinchenkoning asarlarida esda qoldirish mahsus xildagi ichki psixik faoliyat sifatida aniqlangan. Bu faoliyatning strukturasi ochilgan, turli esda olib qolish usullarining xarakteristika, uning tarkibiga kiruvchi har xil mnemonik harakatlarning alohida zvenolarning xarakteristikasi berilgan. Esda qoldirish jarayonida ishtirok etadigan tafakkur jarayonlariga alohida e'tibor berilgan.

Keyinchalik psixologiya sohasidagi ilmiy ishlar faollashtirildi. 1956 yildan boshlab bizda «Voproso` psixologii» jurnalining chiqa boshlashi buning guvohidir. Psixologiya masalalari sohasidagi ko'p materiallar, shuningdek «Sovetskaya pedagogika», «Semya i shkola», «Doshkol`noe vospitanie», «Nachalnaya shkola», «Psixologicheskie jurnal», «Voproso` filosofii» jurnallarida va boshqa davriy matbuotda bosilib chiqib turdi. Ilmiy ishlarning aktivlashtirilganligi, shubhasiz, 1957 yil Psixologlar jamiyatini tuzishga yordam berdi. Shu yillar mobaynida bizning oliy o'quv yurtlarimiz psixologiyadan zaruriy o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlandi. Bu qobiliyatlarga kiruvchi esda olib qolish qobiliyatlarida ayrim zvenolarning xarakteristikasi berilgan. Esda olib qolishda qatnashuvchi fikrlash jarayonlariga alohida e'tibor berilgan.

Tafakkur to`g`risida S.L.Rubinshteyn va uning xodimlari, F.I.Shemyakin, shuningdek, S.K.Shoroxova va K.K.Platonovlar rahbarligida sobiq Ittifoq SSSR

Fanlar Akademiyasi qoshidagi falsafa institutining xodimlari jiddiy tadqiqot ishlari olib bordilar.

Texnika taraqqiyoti va mehnat politexnika hamda ishlab chiqarish professional ta'limning yuksalishi tufayli ko'pgina psixologlar (S.N.Arhangelskiy, V. V. Chebisheva, K. K. Platonov, G. V. Kiriya, B. P. Nikitin, G. F. Lomov, V. N. Pushkin, S. G. Gellershteyn, T. V. Kudryavtsev, I. S. Yakimanskaya, P.I.Ivanov va boshqalar) konstruktiv texnika va operativ tafakkur masalalariga, shuningdek bu tafakkurning o'quvchilarda taraqqiy etishi masalalariga juda qiziqdilar. Keyingi yilda psixologiya va pedagogikada «Ta'lim va aqliy jihatdan o'sish» masalasi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Bu masalaga oid ishlar maktablardagi ta'lim jarayonidagi tajribalari asosida olib borilmoqda.

Barcha tadqiqotchilarning aqliy o'sish to`g`risida turlicha fikrlarda bo'lishlariga qaramay (L. V. Zankov, K. I. Menchinskaya, D. K. Bogolyavlenkiy, P. Ya. Gal`perin va boshqalar) ta'lim va aqliy o'sishning, ta'limning yetakchi rol o'ynashi bilan birligi tan olinadi. Shuni aytish kerakki, psixologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy ishlar juda ham jonlanib ketdi. Bu jonlanishga 1956 yildan chiqa boshlagan «Voproso` psixologii» nomli mahsus jurnal dalil bo'la oladi. Bundan tashqari psixologiya masalalariga oid maqolalar «Sovetskaya pedagogika», «Semya i shkola», «Doshkol`noe vospitanie», «Nachalnaya shkola», «Voproso` filosofii» va boshqa davriy nashrlarda bosilib chiqdi. Psixologiya sohasida olib borilayotgan ilmiy ishlarning jonlanib ketishiga 1957 yilda tashkil qilingan Psixologlar Jamiyati yordam berdi. Bu yillarda Oliy o'quv yurtlari psixologiyaga oid zarur qo'llanmalar bilan ta'minlandi.

Psixologlarining faolligi va ular olib borayotgan ishlarning sermazmunligi Moskvada 1966 yil avgust oyida bo'lib o'tgan psixologlarining xalqaro XVIII Kongressida yorqin namoyon bo'ldi.

### **Amaliy mashg'ulotlardagi muhokama uchun savollar.**

1. Rossiyada psixologianing rivojlanishiga qaysi psixolog olimlar hissa qo'shgan?
2. Idealistik va mexanistik psixologianing rivojlanishini so'zlab bering.
3. I.M.Sechenov ilmiy psixologianing asosiy vazifasi nima deb hisobalydi?

4. Psixologiya sohasidagi 30-yillarda qanday munozaralar bo`lgan?
5. Rus psixologlaridan kimlar psixik funktsiyalar va bilishjarayonlarni o`rganish sohasida ish olib bordilar?
6. 1940–1965 yillarda psixologiyaning fan sifatida rivojlanishi masalalari qanday bo`lgan?
7. Rossiyadagi Psixologlar Jamiyati haqida nimalarni bilasiz?
8. Mehnat psixologiyasi sohasida qanday ishlar amalga oshirilgan?
9. Psixologlar qanday nashrlarda o`z ilmiy naqolalari bilan qatnashdilar?

## **8 Mavzu: O‘zbekistonda psixologiya: qadimgi va hozirgi davrda fanning rivojlanishi.**

**Reja:**

1. Sharq mutafakkirlaridan Abu Abu Nasr Farobiyning psixologik qarashlari.
2. Sharq mutafakkirlaridan asarlarida psixologik qarashlarning mazmuni.
3. O‘zbekistonda psixologiya fanning rivojlanishi.
4. Hozirgi davrda O‘zbekistonda psixologiya fanning rivojlanishi.

**Tayanch so’zlar:** O‘zbekistonda psixologiya, Abu Abu Nasr Farobi, Sharq mutafakkirlaridan asarlarida psixologik qarashlar, o‘zbek psixologlari, olimlar.

**1. Sharq mutafakkirlaridan Abu Abu Nasr Farobiyning psixologik qarashlari.** Abu Nasr Farobi - O’rta asr Yaqin va O’rta Sharqning mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon falsafasining Sharqdagi eng yirik davomchisi va ma’rifatchisi bo’lgan. Farobiyning pedagogik qarashlarini, ta’lim-tarbiya haqidagi ta’limotini o’rganishda inson hislatlari to`g`risidagi falsafiy fikrlari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Abu Nasr Farobi Yaqin va o’rta Sharqda ilfor ijtimoiy-falsafiy oqimning asoschilaridan biri bo’lib, «Sharq Aristoteli» degan unvonga sazovor bo’lgan mashxur mutafakkir. Farobi (873-950) dunyoqarashining asosi, ya’ni dunyoning tuzilishi haqidagi tushunchasini «panteistik» degan fikr tashkil etadi. Mavjudot

«emonasiya» yordamida yagona boshlanfichdan pofonama-pofona vujudga kelgan, yakkalikdan ko'plikka, rang baranglikka borgan. Uning dunyoqarashidagi asosiy maqsadlardan biri ilmiy-falsafiy usulning mustaqilligini nazariy jihatdan asoslab berishga, uning inson tafakkuriga, aqliy bilimiga asoslanganligini isbotlashga intilishdir.

Farobiy bilishning ikki shakli, bosqichini - xissiy va xayoliy, aqliy bilishni bir-biridan farqlaydi. U sezgi roliga to'xtalib, besh turga bo'ladi:

Farobiy sezgini bilishning manbai deb hisoblagan, uning qarashlari Aristotelning «sezmagan odam xech narsani bilmaydi ham, tushunmaydi ham» degan qarashlariga o'xshab ketadi. Farobiy inson (ruh) jonining bir tandan boshqasiga o'tib, ko'chib yurishi mumkinligini inkor etadi va uni balki tan kabi individual «substasiyasining birligi» sifatida tushunadi. Uning fikri izchil emas edi. Bunday ikkilanish Aristotelga ham xos bo'lgan. Farobiyning ruhiy jarayonlar, ularning bilish va mantiq tizimi haqidagi ta'limoti o'rta asrlar falsafasining katta yutufi edi.

U Sharqda qadim yunon falsafasi, qadimgi dunyoning eng mashhur olimi Aristotelning asarlarini o'rganish, tarfib etish va g'oyalarini rivojlantirishga ulkan hissa qushgan. Farobiy o'z davrida ijtimoiy-siyosiy hayotning turli masalalarini «Ideal shahar axolilarini ra'ylari», «Ideal jamoa haqida», «Baxt-saodatga erishuv to`g`risida» kabi asarlarida talqin qiladi. Farobiy ilfor pedagogik ta'limotlarning asoschilaridan biri sifatida o'z asarlarida didaktik ta'lim-tarbiyaning psixologik asoslarining muhim nazariy masalalarini o'z falsafasining ajralmas qismi tarzida tahlil etadi.

Farobiy insonni dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakuni debbiladi. Farobiy asarlarida insonga tarbiya va ta'lim berish zaruriyati va buning uchun nimaga asoslanish lozimligi, ta'lim-tarbiya usullari, undan kutilgan maqsad masalalari asosiy o'rinni egallaydi. Farobiy «Baxt-saodatga erishuv haqida» nomli risolasida bilimlarni egallah tartibi haqida fikr yuritib ularni birma-bir sanab o'tadi. Olam asoslari haqidagi ilm, tabiiy ilmlar, inson haqida ilmlar shular jumlasidandir. Insonni o'rganishda, uning inson bo'lib yetishishdagi kutilgan

maqsad va muddaoni o'rganish, insonni kamolatga erishuviga sabab bo'lgan narsalarni o'rganish, Shu jumladan ijobiy va salbiy fazilatlar va hislatlarini ajratib o'tish va ularni qanday insonlarga xos bo'lishini o'zgacha talqin qiladi.

Abu Nasr Farobiya yaqin va O'rta Sharqda ilfor ijtimoiy falsafiy oqimning asoschilaridan bo'lib, "Sharq Aristoteli" unvoniga yoki "Ikkinchi muallim" nomi bilan mashhur mutafakkir bo'lган.

Abu Nasr ibn Muhammad Farobiya 873 yilning oxirida Farob qishlog'ida dunyoga keldi. U Shosh, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda tahsil ko'rdi. Farobiya o'z davrining markazi hisoblangan Bag'dodda ilmiy ishlar bilan mashful bo'lib tanildi va faylasuf sifatida mashhur bo'ldi. Farobiya umrining so'nggi yillarini Xalab, Damashqda o'tkazadi va 950 yilda shu yerda vafot etadi. Farobiya ta'rificha, odam o'z bilimlarni tashqaridan, atrofdagi xodisalardan bilish jarayonida oladi. Bu jarayon o'z ichiga ko'p vosita va usullarni: sezgi, idrok, xotira, tasavvur va eng muhimmi, mantikiy fikr, aql va nuqtai nazarni oladi. Mana shu vositalar yordamida u fanni o'rganadi.

Farobiyning ko'rsatishicha, odam paydo bo'lgandan keyin dastavval "oziqlantiruvchi quvvat" vujudga keladi, uning yordamida ovqatlanish jarayoni amalga oshadi. So'ngra shu bilan bo'lagan sezgi a'zolari (turi) paydo bo'ladi, ular yordamida his, tasavvur, xotira vujudga keladi va shundan so'nggina "xayol quvvati" yordamida kishi bilim va xunar egallaydi, xatti-harakat va xulq - atvordagi guzal narsalarni amalga oshiradi, foydali narsalarni zararli narsalardan farqlaydi. Farobiya inson (ruh) jonining bir tanadan boshqasiga, ko'chib yurishi mumkinligini inkor etadi va uni tan kabi individual "substansianing birligi" sifatida tushunadi. Uning fikri izchil emas edi. Bunday ikkilanish Arrestotelga ham xos bo'lган.

U bilishning ikki shakli, bosqichini - hissiy va xayoliy, aqliy bilishni bir-biridan farqlaydi. Odamni tashqi dunyo bilan bog'laydigan sezgini roliga to'xtalib, Farobiya ularni sezgi a'zosiga muvofiq ravishda besh turga bo'ladi. Sezgini dastlabki bilim manbai deb hisoblagan Farobiya buyumning aks etishi va in'ikosi o'sha buyumning o'ziga muvofiq kelsa, sezgi haqiqiy bo'ladi deydi. Avvalo

"odam aql va sezgi vositasida bilimga ega bo'lishi" bilan hayvonlardan farqlanadi."Aqliy quvvat" borliqdagi narsalarni fikriy aks etishini o'zida ifodalaydi. Faol aql olam yaratilishining bosqichlaridan biri sifatida inson bilan boshlanfich sababni boflashga xizmat qiladi, boshlanfich sabab esa faol aql bilan bevosita va unga ta'sir ko'rsatib turadi. Faol aql esa ruh, jon bilan boflanadi, jon inson tanida mavjuddir. Shu tartibda "ilohiy hayot " hislatlari insonga o'tadi, natijada insonning mohiyatini, bilimi uning aqli mangulik hislatiga ega bo'ladi. Farobiy mantiqiy fikrlashning asosiy shakllari: tushuncha, hukm va xulosa chiqarishga katta e'tibor beradi. Farobiy fikrlashning ayrim elementlarini faqat mantiq nuqtai nazaridan emas, balki tabiatshunoslik nuqtaiy nazaridan ham baholaydi. Farobiy tafakkurning eng murakkab jarayoni xulosaga zo'r qiziqish bilan qarab, uni o'rganishga juda katta e'tibor berdi.

Farobiyning gneseologik konsepsiyanı materiyani turli-tuman shakllarga ega va cheksiz harakatda bo`lgan jism, real borliq sifatida tushunuvchi panteistik tasavvurlarga asoslanadi va bevosita undan kelib chiqadi. Materiyaning oliv maxsuli inson bo`lib, u aqlga va borliqni xar tomonlama bilish qobiliyatiga egadir. Farobiy o`zining risolalarida inson psixikasi, bilishv shakllari, jon va tananing munosabati mantiqiy fikrlashning moxiyatiga katta e`tabor berdi.

Farobiy fikricha, insonning bilish, ruxiy qobiliyatlarni miya boshqaradi, yurak esa barcha a`zolarni hayot uchun zarur bo`lgan qon bilan ta`minlovchi markaz vazifasini bajaradi. Barcha ruxiy quvvatlar, jumladan, bilish qobiliyatlarining harakati muayyan a`zoga bog`liqdir. “Bu quvvatlardan birortasi ham, - deb yozadi Farobiy, - materiyadan ajralgan xolda yashay olmaydi”. Rux va tananing o`zaro munosabati masalasida Farobiy faqat Platonga emas, balki ko`pchilik dinlarda keng tarqalgan ruxning ko`chib yurishi haqidagi ta`limotga ham qarshi chiqdi. “Rux deb yozadi u, - Platon ta`kidlaganidek, tanadan oldin mavjud bo`lishi mumkin emas, xuddi shuningdek, ruxning ko`chib yurishi haqidagi ta`limot tarafдорлари takidlaganlaridek, u bir tanadan boshqasiga ko`chib o`ta olmaydi”.

Insonni tashqi dunyo bilan bog'lovchi sezgining asosiy shakllarini to`g`ri tavsiflab, olim hissiy bilishga katta e'tibor beradi. Uni borliqning tashqi hossalari haqida to`g`ri bilim berish manbayi deb qaraydi. Bu masalada Farobiy mutakallimlarning "sezgi adashish manbai" degan tezislariga qarshi chiqadi. Ularning bu tezisiga ko'ra, haqiqat real narsalar va munosabatlarga mos keluvchi narsa emas, balki islom aqidalariga e'tiqod qilish natijasida qabul qilinadigan narsadir. O'rta asrda keng tarqalgan umumiylar tushunchalarning tabiat haqidagi Platon va Aristoteldan boshlanuvchi ikki g'oyaviy oqimning bahsida Farobiy umumiylar g'oyalarning birlamchiligi haqida Platon konsepsiyasiga qarshi chiqadi.

Farobiy real mavjud narsalarni birlamchi deb, tushunchalar, g'oyalarni esa xususiyni umumlashtirish natijasida aqlida paydo bo`ladigan ikkilamchi sifatlar deb hisoblab, nominalism pozitsiyasida teradi.

Farobiy inson aqlining bilish qobiliyatlarini aniqlashga intilib uning mantiqiy tuzulishini batafsil taxlil qiladi. Shuni aytish kerakki, ruxoniylar mantiq bilan shug`ullanishni keskin man etar uni o`rganish dindan chekinishga olib keladilar deb hisoblardilar. Farobiyning bilish haqidagi talimotida aql masalasiga keng o`rin berilgan. U aqlni borliq moxiyatini bilishning muxim va asosiy vositasi deb hisoblaydi. Aql muammosini talqin qilishda ko`plab qiziqarli to`g`ri qoidalar va farazlar bilan bir qatorda mistik va teologik narsalar ham uchraydi. Biroq O`rta asr uchun xarakterli bo`lgan faqat Farobiya emas, balki undan keyingi mutafakkirlarda (Ibn Sino, Ibn Rushd va boshqalar) ham uchraydigan dunyoviy rux va dunyoviy aql, ularning o`lmasligi haqidagi talimot umuman mistik – idealistik bo`lgani xolda teologik kategoriylar shaklida ifodalangan qimmatli fikr-ratsional mag`izga ham egadir.

Dunyoviy ruh va dunyoviy aql individual ruh va aqlning paydo bo`lishi va rivojlanishining sababi deb qaraladi va oqibatda individual ruh va aql tananing o`lishi va yo`q bo`lishi bilan yo`qolib ketmaydi, balki dunyoviy ruh va aql bilan qo`shiladi. Insonning ruhi va aqli abadiylikka ketadi, biroq hech aqachon qaytib kelmaydi va qayta namoyon bo`lmaydi. Ular tanani tark etib, goyo bir butunlikka birlashadi va xar bir ruh va aql hayotiylgida orttirilgan barcha ma`naviy narsalar

to`planib hamisha barhayot va dunyoviy ruh va aqlni tashkil etadi. Ruhning o`lmasligi haqidagi bu mistik qoidada ramziy fo`rmada inson bilimlarini to`planishi, insoniyat manaviy madaniyati jahon sivilizatsiyasining asta sekin taraqqiyoti, dunyoning abadiyligi inson zotining o`lmasligi insonning mangu qayta tug`ulib turishi, inson bilimlari va aqlining uzluksizligi haqidagi g`oyalar mavjuddir.

Farobiy aqlni din va dogmatikadan ustun qo`yib, dunyoni bilishda uning cheksiz imkoniyatlarini ko`rsatdi. Uning ratsionalizmi tabiiy insoniy qobiliyatlarga asoslanib, qadimgi va O`rta asr tabiatshunoslik yutuqlarini aks ettiradi hamda Platonning “xotirlash” haqidagi talimotiga, bilishning dogmatik metodiga, mutakallimlar va G`azzoliy tomonidan qo`llab quvvatlagan diniy haqiqatga ko`r ko`rona ishonishga, Payg`ambarlik va ekstaz nazariyasiga qarama- qarshi turadi.

Farobiy shaharni ijtimoiy uyushishning oliy shakli deb hisoblaydi.U shaharni inson komolotga-insoniyatning eng oliy va oxirgi masadga erishishining zaruriy vositasi deb hisoblaydi. Farobiy kishilarni intellektual va axloqiy komolotga, umumiy baxt-saodatga olib boruvchi o`zining ideal jamoasini bat afsil bayon etadi. Mutafakkir gumanist insonni, uning qadr-qimmatini kamsituvchi qullikga keskin qarshi chiqdi. U doimiy urushlar boshqa mamlakatlarni bosib olishga asoslanuvchi jamiyatniadolatsiz va joxil jamiyat sifatida inkor etdi. Faylasuf o`zining ideal jamoasida odamlarni turli belgilariga qarab xar xil guruhlarga bo`ladi. Biroq u kishilarning diniy mansubligiga emas balki tabiiy xususiyatlariga qobiliyatlariga avvalo aqliy qobiliyatlariga hamda ilmlarni o`rganish va hayotiy tajribani to`plash jarayonida ortirgan bilim va ko`nikmalariga katta axamiyat beradi. U kamolotga erishish uchun xizmat qilishi lozim bo`lgan ma`rifatga asosiy e`tibor beradi.

Farobiy asarlarida umumiy baxt-saodatga katta e`tabor beradi jamiyatning boshqa a`zolari uchun hamma sohada namuna bo`ladigan eng donishmand boshliq tomonidan boshqariladigan ideal jamiyatdagina ana shunday umumiy mukammal baxt-saodatga erishish mumkin. Farobiy fikricha ijtimoiy takomilga va umumiy baxt-saodatga erishish ilm va ma`rifat yordamida hosil qilinadigan va erishiladigan

yuksak intellektual va axloqiy fazilatlarning qo'llanilishi tufayli amalga oshiriladi. Ilm insonning tabiiy qobiliyatlari uning aqli yordamida bilingani tufayli kamolotga va baxt-saodatga erishish ham insonning o'ziga, jamiyatga va uning intilish irodasiga bog'liqdir.

Farobiy aql va ilm yordamida mutakallimlar va umuman islomning ortodoksal ideologiyasi tomonidan inkor etiladigan iroda erkinligi haqidagi g'oyani har tomonlama asoslashga intildi. Haqiqiy baxt aql va ilm yordamida axloqiy kamolotga hamda borliqning mohiyati haqida mukammal bilimga erishishdir. Shuni ham aytib o'tish kerakki, Farobiyning axloqiy qarashlari ham ratsionalistik xarakterga ega, axloq bilim bilan asoslanadi va mustahkamlanadi, ular o'zaro bog'liqdir. "Bilim-deb ko'rsatadi Farobiy, - yaxshi xulq-atvor bilan bezalgan bo'lisi kerak. Daraxtdagi barcha shoxlar meva bilan yakunlagani kabi insonning bilimga intilishi ham axloq bilan yakunlanadi".

Farobiy aql, ilm, ma'rifatni baxt-saodatga erishishning asosiy vositalari deb hisoblaydi. Har qanday yovuzlik bartaraf etilgach, inson ruhi va aqli esa mohiyatni va barcha ezgu ishlarni bilishda eng yuksak darajaga, dunyoviy ruh va dunyoviy aql bilan qo'shilgan paytda boshlanadi. Har bir avlod o'zidan so'ng qandaydir qimmatli yuksak narsalarni qoldiradi, u umumiy baxt-saodatga qo'shib uni boyitadi. Har bir kishi tomonidan erishiladigan barcha yaxshi ezgu intellektual va axloqiy fazilatlar uning baxt-saodati hamda insoniyat axloqini yanada takomillashtirishga qo'shilgan xissasidir. Har qanday odam o'z maqsadiga yerdagi hayotda erishishi mumkin, uning eng yaxshi orzu umidlari mangudir. Farobiyning umumiy va mukammal baxt-saodati haqidagi g'oyalarining ratsional mafzi shundan iborat. Biroq bu g'oya o'ta mistik shaklda ifodalangan.

Farobiy yerdagi hayotda baxt-saodatga va kamolotga erishish imkoniyatlarini ta'kidlab, mutakallimlar va umuman islomning "jannatdagi farofat" haqidagi ta'limotga asoslangan narigi dunyodagi hayot va baxt-saodatni "hom hayol", "odamlarni qo'rqtish uchun o'ylab chiqarilgan narsa", "bir guruhga qarshi boshqasining foydasi uchun to'qilgan nayrang, fisqu-fasod" deb e'lon qiladi

**Baxt saodatga erishuv haqida.** Insoniy hislatlar xalqlarda va shaharliklarda paydo bo'lar ekan, ularning yordamida insonlarning avvalgi hayotlarida dunyo baxt saodati, so'nggi hayotlarida esa eng so'nggi darajada baxt-saodat hosil bo'ladi.Bu insoniy xislatlar 4 guruhga bo'linadi: nazariy fazilatlar,tafakkur fazilatlari, yaralma fazilatlar va amaliy san'at fazilatlari.

Nazariy fazilatlar to`g`risidagi bilim, bu shunday bilimdurki, undan eng so'ngi yakunlovchi maqsad muddao ko'zda tutiladi, ya'ni bu ilm orqali barcha narsalarni o'z ichiga olgan mavjudotni va faqatgina aql yordamida bilinadigan predmetlar haqida tushunchani hosil qilish ko'zda tutiladi. Bu ilm shunday ilmdurki, uning yordamida insonlar tomonidan bilib olinadigan narsalar boshda kishiga tushunarli bo'lmaydi, kishi narsaning qanday qilib va qayerdan kelib chiqqanini bilmaydi va sezmaydi.

Mana bu-nazariy fazilatlar bilimi haqida boshlang'ich ma'lumotdir. Nazariy bilimlardan hosil qilinadigan tushunchalar uzoq va chuqur tushunish, tekshirish, kash-ijod, ta'lim olish va boshqalarga ta'lim berish yo'li bilan qo'lga kiritiladi. Boshlang'ich ma'lum bo'lgan narsalar-bu nazariy bilimlarga muqaddimasidir. Bu muqaddimada ham narsalarning qayerdan va qanday sharoitda chiqib kelishini bilishuzoq tekshirish, kashf-ixtiro etish, o'rganish va o'rgatish yo'li bilan hosil bo'ladi.

Bilinishi ta'lim va tekshirishni talab qilgan narsalar shunday narsalarki, ular boshda majhul (noaniq) narsalar bo'lib ko'rindilar. Ular ustida chuqur tekshirish o'tkazilsa va shu majhul narsalarni aniqlab bilish ustida ish olib borilsa, narsa yoki predmet inson uchun wng foydali va ayni muddao bir narsa bo'lib chiqadi. Agar shu tekshirish, kashf-ixtiro natijasida, shu narsalar haqida bir turli tushuncha, fikr va nilim hosil bo'lsa, demak, kutilgan hamma maqsad va muddao hosil bo'lgan bo'ladi. Bu yerdagi maqsad-muddao esa shu majhul narsa haqida bir turli ma'lumot, fikr, e'tiqod va to'la ishonchga ega bo'lishdir.

Bizda ba'zan, shu tekshirgan narsamiz haqida gumon aralash bir turli ishonch va qanoat hosil bo'ladi, ayrim hollarda esa, ehtimol, shu narsa haqida ikkilanish, hayronlik ham paydo bo'ladi.Bir maqsad yo'lida aqidalarning turlich

bo'lishi, yo'lning turli ravishda bo'lishiga sabab bo'ladi va yo'lning bir xilda bo'lishiga imkoniyat bermaydi. Chindan ham yagona maqsad yo'lida aqidalar turlicha bo'lsa, yo'llar ham turlicha bo'lishi kerak. Ammo biz yo'llarning turlicha ekanligini bilmaymiz va ularning o'rtalaridagi farq (ayirma) larni yaxshi tushunmaymiz, balki biz har xil maqsadlarga shu bir turli yo'ldangina boramiz, deb o'ylaymiz.

Maqsadga yetish uchun, yo'lning qaysi xilda va qanday holda ekanligini yaxshi tushunib olib, so'ngra shu yo'lga kirish kerak. Toki bu yo'l bizga narsaning kayfiyati haqida to'la va qanoatlik ma'lumot bag'ishlasin, gumon bilan narsa haqida hech qanday bilimga erisha olmaymiz...

Asosiy maqsad (ya'ni baxt-saodat) tomon boradigan yo'limizni aniq belgiilab olmasdan, chuqur tushunib yetmasdan va shu yo'lning chinakam baxt-saodatga tomon olib boruvchi yo'lmi yoki u soxta yo'lmbu to`g`rida aniq ma'lumot yoki bilimga ega bo'lmasdan turib, ancha taraddudlanib qolamiz va ihoyat shu yo'llardan birini asosiy kasb-hunar, kashf va ijodiy mashg'ulotdan iboratbo'lgan yo'lni, basharti bu yo'l bizning tabiiy-tug'ma qobiliyatlarimizga to`g`ri kelsa tanlab olamiz va shu yo'ldan ketamiz. Agar bordiyu, biz o'rgangan bilim shu yo'llarni bir-biridan ajratib olishga qodir va yetarli bo'lmasa, u vaqtda biz boshlang'ich muqaddimaning qaysi hol va sharoitida, qaysi xilda vujudga kelishidan to'la xabardor va bu to`g`rida to'la qanoatga ega bo'lishimiz kerak. Toki muqaddimani chuqur tushunib va o'zlashtirib olmoqchi bo'lgan kishida, shu muqaddima haqida to'la va ishonchli bir aqida hosil bo'lsin va u shubxasiz ochiqdan-ochiq haqiqatni ko'rsin.

Boshlang'ich muqaddima qaysi hol va sharoitda vujudga keladi va uning tartibi qaysi hilda tuziladi, degan savolga javob topmoqchi bo'lgan hamda bu muqaddimani o'zlashtirmoqchi bo'lgan kishi, ba'zan, haqiqiy yo'dan adashadi va shu muqaddima haqidagi fikr, mulohazada hayronlikka tushadim xatto o'zi bilishga intilayotgan haqiqatning ham nimaligini bilmasdan qoladi. Shuning uchun u boshlang'ich muqaddimaning qaysi tartibda va qaysi hol-sharoitda vujudga kelishini mulohazada hayronlikka tushadi, xatto o'zi bilishga mujmal maqsad va

g'oyalar ketidan yuradi, xatto asossiz va haqiqat bo'limgan bilimlarni haqiqat deb biladi, haqiqatning o'ziga emas, haqiqat bo'lib ko'ringan hayoliy obraziga erishadi va ergashadi.

Mana bu hol va sharoitlarning hammasini ochiq-oydin tushunib yetgandan keyin biz birga ishga kirishamiz, mavjudotni bilishga va o'rganishga boshlaymiz. Bu o'rganish bizning o'zimizning chuqur tekshirishimiz yoki boshqa birovdan o'rganishimiz orqasida hosil bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, narsa (predmet)larning haqiqat va mohiyatiga tushunib yetish uchun qanday o'rganish, narsa haqida qanday holda va qaysi tartibda ta'lim olishning yo'lini bilmaymiz va tushunmaymiz. Agar shularning hammasini bilib-tushunib olsak, unda biz, bilib olgan narsaning ilmmi yoki shubxami, narsa o'zi chindan ham bormi, narsami, yoki u narsaning hayolda aks etgan timsolimi, ajratib olishga qodir bo'lamic. Shuningdek, birovdan o'rgangan va birovga o'rgatganlarimizni sinab-imtihon qilib ko'rishga ham qodir bo'lamic.

Biz endi kamolotga (ya'ni yetuk baxt-saodatga)erishuv yo'lida insonning qiladigan ishi, harakati, qobiliyatlari va shu aqliy boshlang'ich to`g`risida chuqur fikr yuritamiz, fikr yuritish protsessida tabiatdan tashqarida bo'lgan mavjudotga qaraymiz va ishni shundan boshlaymiz. Tabiatdagi hodisalarni bilishda qanday yo'l tutgan bo'lsak, tabiatdan tashqari mavjudotarni tekshirishda ham shu yo'ldan boramiz. Biz tabiatdan tashqari narsalarning boshlang'ichi va vujudlarini o'rganib borar ekanmiz, nihoyat, boshlang'ich bo'limgan va boshlang'ichi bo'lishi mumkin bo'limgan vujudga yetib borganimizni o'zimiz bilmasdan qolamiz. Bu vujudga: "bu vujud nima", "bu vujud nimadan paydo bo'ldi", "vujud nima uchun kerak?" degan savol qo'yib bo'lmaydi, balki bu vujud yuqorida eslatib o'tilgan hamma mavjudodlarga eng birinchi boshlang'ich bo'ladi va u: "u bilan, "undan", "u o'zi mavjud" bo'lib qolaveradi, u shundayki, uning xislatlarida kamchilik yo'qdir, balki u mukammal xislatlari bilan mavjudotga boshlang'ich bo'ladi...

Bundan keyin biz, insonni o'rganishni kirishamiz va insonning inson bo'lishidan kutilgan maqsad va muddaoni o'rganamiz va shuning natijasida insonning nima va qanday narsa ekanligini bilib-aniqlab olamiz. Shundan keyin biz

insonni hozirgi shu kamolotga erishtirgan va shu kamolotiga sabab bo'lgan, unga erishish uchun yordami tekkan narsalarni o'rganishga boshlaymiz. Bu narsalar esa, hayr-ehsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlar bo'lib, bu fazilatlarni insonni shu kamolotga erishuvdan mahrum qiladigan salbiy xislatlarni o'rganish yo'li bilan ajratib olamiz. Bu salbiy xislatlar xar turli yomon odatlar, nuqsonlar va yomon-buzuq harakatlardir.

Biz bu yomon odatlar, nuqsonlar va jirkanch harakatlarning nimaligi va ularning qandayligi, qayerdan va qaysi sabab-illatlarga ko'ra chiqib ketganligining asosiy omillarini bir-biridan ajratib bilguncha qadar va ilm-bilim nuqtai nazaridan ular haqida chuqur ma'lumot hosil qilgunga qadar, avvalo, shu odatlar, nuqsonlar va yaramas harakatlar bilan tanishib o'tamiz.

Mana bu tanishishga madaniy bilimlar deb nom beramiz. Bu bilim yoki ilm shunday narsalarni o'rgatuvchi ilmki, uning yordamida shahar xalqlari va shaharlik bo'limgan xalqlarni o'z ichiga olgan, ya'ni inson olamiga xos bo'lgan barcha xislatlarni o'zida umumlashtirgan odamzod jismida har turli a'zolar kabi, (umumiyl xususiyatlar) kishiga ma'lum bo'ladi. Bu a'zolar o'z vazifasi funksiyasi va inson hayotida tutgan o'rni jihatidan birinchi, ikkinchi va shu tartibda boshlang'ichli vazifasini o'taydilar. Olamda ham avvalo birinchi boshlang'ich, undan keyin ikkinchi boshlang'ich, ikkinchidan so'ng uchinchi va hokazo, moddadan bo'lgan har bir predmet o'z vujudi jihatidan eng oxirgi martabada bo'lgan o'z boshlang'ichini ta'qib etib kela beradi. Shuningdek, shahar xalqlari va shaharlik bo'limgan boshqa xalqlarni o'z ichiga olgan jamiyatda ham bu xalqlarning turli tomondan, ya'ni birlashuvi jihatidan birinchi, undan keyin ikkinchi, uchinchi va hokazo boshlang'ichlar bo'lib, oxirgi madaniy yoki insoniy martabaga yetkunga qadar bu boshlang'ichlar bir-birini ta'qib etib boradi va nihoyat, hamma narsani o'z ichiga olgan olam, dunyo qiyofasidagi o'z o'xshashini topadi, ya'ni olamda vujudga kelishi mumkin bo'lgan mukammal yetuk jamoa obrazini yaratadi. Bu kamolot nazariy bilimlar o'rganish asosida vujudga keladi.

Kashf etilgan predmet eng so`ngi darajada chuqur bilimga va o'z vujudini bizga namoyon qilgan bo'ladi. Predmetlarni o'rganmoqchi bo`lganimizda va ularni

ijod etishda xatto ular (ichida) shundaylari uchraydiki, ular extimol chindan ham xayrli, extimol zararli yoki, extimol xayrliligi gumon predmet bo`ladi. Agar shu o`rganilgan kashf etilgan predmetlar o`ta ketgan ma`nfaatli bo`lsa demak ular go`zal va yaxshi harakatimiz natijasidir. Agar bordiyu o`ta ketgan zararli bo`lib chiqsa fikrlash nadijasida kelib chiqqan bu predmetlar zararli, qabix va buzuq harakat va ishlarning natijasidir bordiyu o`rganiladigan narsa o`ta ketgan xayrli predmetlar deb gumon qilinsa demak shu predmetni qo`lga kiritishga qaratilgan ishharakatlar xam xayrli deb qabul qilinadi.

Fikriy quvvatlar manashu yaxshi yomonlik etibori bilan ikki qismga bo`linadi: Fikriy fazilat fikriy quvvat. Fikriy fazilat shuki u bilan o`ta ketgan ma`anfaatli predmetlar bilinadi va ixtiro etiladi. Fikriy quvvat shuki uning bilan o`ta ketgan zararli narsalar kashf va ixtiro qilinadi. Shuning uchun bu faoliyatni fikriy fazilat deb emas balki keying nom bilan fikriy quvvat debgina atash kerak. Fikriy fazilat yordamida sodir bo`ladigan narsa kashf va ixtironing sifatiga qarab o`ta ketgan foydali va go`zal bo`lishi mumkin. Chunki odatda go`zal va manfaatli ishharakatning o`zi xam yaxshi fazilatdur, o`ta ketgan foydali narsa esa g`oyatda go`zal hamdir. Manabu fikriy fazilat madaniy (ya`ni ijtimoiy) fikriy fazilatdir. Bu fikriy fazilatning vujudga kelish yo`llari va uning shakllanish muddati (hammag) umumiyyidir. Ammo fikriy fazilat natijasida kashf etilgan xar qanday narsa uzoq vaqtgacha qoladimi yoki qisqa vaqt ichida yo`qoladimi, uni biz madaniy (ijtimoiy) fikriy fazilat natijasi deymiz.

Kimdaki eng go`zal va foydali narsani kashf etish fazilatiga ega bo`lsa, kashf etgan narsasi chindan ham o`zining istagiga va boshqa birovning istagiga muvofiq bo`la yoki uni boshqalarning xoxishiga muvofiq deb gumon qilinsa, kashf yoki ijod etilgan narsa haqiqatdan hayrli va foydalidir. Lekin manashu quvvat, ya`ni boshqalar uchun shu hayrli murod-chinakam odam (bo`lishdir). Manzil yoki san`at (kasb-hunar)har soat va har kun o`zgarishi bilan yangi xususiyat kasb etadi. Chunki kasb hunar (san`at)ga yaqin turgan kashfiy quvvat yoki fikriy fazilatning muddaosi insonga foydali narsalar ixtiro etishdir. Shuning uchun fazilatni o`rganganda quvvatda eng kuchli bo`lgan komil fazilatning yoki hamma

fazilatlarni o’z ichiga olgan tugal fazilatni tanlash va o’rganish kerak.Ba’zan shunday bo’ladiki manashu (kasb-hunar) fazilat quvvatda boshqa hamma fazilatlarning eng kuchlisi va mukammali bo’ladi. Bu shunday ulug`fazilatki inson uni egallash uchun boshqa hamma fazilatlarini ijodiy faoliyati, tug’ma fazilatini ham ishga solish kerak.

Bu fazilatlarning raisidir, raislikda undan o’tadigan fazilat yo’q va bo’lmaydi. Odam, mana shu fazilatini boshqa o’zining juz’iy ya’ni tug’ma fazilati bilan takomillashtiradi. Masalan lashkarboshida harbiy sa`natga oid eng go’zal va foydali narsalarni kashf etish fikriy fazilati bo’lishi bilan bir qatorda unda askarlikka va umumiy odamzodga taalluqli bo’lgan umumiy tug’ma fazilatning bo’lishi ham kerak. Chunonchi shu umumiy tug’ma fazilat tufayli amalgalashiriladigan ish harakatlarni to’la bajarmoqchi bo’lgan odam harbiy kishi bo’lgani uchun harbiy san’atga mos bo’lgan fazilatini ishlatadi. Masalan shijoat chinakamiga shijoat bo’lsin uchun askarlarda bo’ladigan shijoatga xos fel harakatlarini ishlatadi. Shuningdek (madaniy) mol davlat egasida bo’lgan fikriy fazilat faqat mol davlatni qo’lga kiritish uchun eng qulay va manfaatli yo’llarni izlab topishdir. Uning tug’ma fazilati kishilarining qo’lidagi mol dunyoni o’z qo’liga kiritishga qaratilgan qaratilgan qobiliyatini ishlatishdan iboratdir. Bu qobiliyat ham kasb-hunar holida bo’lishi mumkin (kasbi va xizmatiga qarab).

Insonda ma’lum kasb-hunar fazilati raislik qiladi va bu mazkur san’at (yoki kasb-hunar) shunday san’atki uni yuzaga chiqarish uchun unga muvofiq tushadigan hamma ish harakatini demak hamma san’atlarda bo’ladigan usul va harakatlarni qo’llamasdan ilojimiz yo’q. Demak bu san’at insondagi barcha san’atlarni boshlifi kasb-hunar fazilatlari ichida eng kuchlisi, quvvatda ham boshqa hamma san’atlarning kuchlirofi.Uni amalga oshirishga yordam beruvchi tug’ma fazilat esa quvvatda hamma fazilatlarning eng zo’ri va kattasidir. Mazkur san’atni boshqa turli san’atlar takomillashtiradi. Unda qandaydir bir yetishmovchilik bo’lsa boshqa san’atning ish va harakati bilan bajaradi. Masalan lashkarboshilik san’atini olaylik, bu san’at askarlarga rahbarlik qilish san’ati bo’lib, bu san’at shunday bir san’atki, unda hech so’zsiz boshqa san’atlarda ishlatiladigan ish harakat va usulini qo’llash

yo'li bilan maqsadga yetiladi. Shuningdek masalan shahar moliya san'atini olaylik, bu san'atda mol dunyoni qo'lga kiritish yo'lida kutilgan hamma maqsad va muddaoga erishish uchun boshqa juz'iy san'atlarning ish usullari qo'llaniladi.

Quvvatni jihatidan eng kuchli bo'lgan fikriy fazilat bilan kuchli tug'ma fazilat bir biridan ajralmaydi. Fikriy fazilat (o'z navbatida) nazariy fazilatga bo'ysunmasligi mumkin emas. Fikriy fazilatning nazariy fazilatdan ajramasligi uchun u tug'ma fazilatning insonning san'at(kasb-hunar) fazilatlari ichidagi eng kuchlisi bilan bog'liq va ajralamagan holda bo'lishi lozim. Aks holda keying ikki fazilat(tug'ma va san'atga oid)to'la va mukammal bo'lmaydi va ularni takomillashtirishi ham qiyin bo'ladi. Tug'ma fazilat insonda ustun (rais)fazilat bo'lsa, u mukammal nazariy fazilatga aylangandan so'ng, shu ma'qul nazariy fazilat vositasi bilan fazilatlarni ayira bilish va ular yordamida kutilgan predmetni kashf etish va hosil qilish hech so'zsiz mumkin bo'lib qoladi.

Tug'ma fazilatlardan boshqa yo'l bilan tug'ma fazilatni kashf va ixtiro etishga qodir bo'lgan fikriy fazilat egasiga shu fikriy fazilat tug'ma fazilatdan afzal, ortiqroq bo'lib ko'rindi.Fikriy fazilat tug'ma fazilatdan ajralgan bo'lsa, fikriy fazilatning o'zi bilan tug'ma fazilatni qo'lga kiritish va yaratish mumkin emas. Agar tug'ma fazilat fikriy fazilatdan uzoq, undan ajralgan bo'lsa, uni fikriy fazilatga yaqinlashtirish , unga bo'ysundirish lozim.

Yaxshi (foydali fikriy fazilat-M.X), buyuk g'oya egasi bo'lgan kishi, mana shu fikriy fazilat yordamida, mana shu tabiiy va tabiatdan mavjud fikriy fazilatga yaqin turgan fazilat-iroda-xoxish orqali ifodalanuvchi tug'ma fazilatni turtib chiqaradi. Lekin shu tabiiy fazilat qaysi xilda, u chindan ham iroda-xohish orqali ifodalanuvchi fazilatmi yoki yo'qmi, tekshirib ko'rish kerak. U iroda fazilat qiyofasidagi boshqacha bir fazilatdir. Masalan, tilsiz hayvonlarda topiladigan instinktiv odatni olaylik. Chunonchi, sherda shijoat, tulkida ayyorlik, bo'rida daxshat, hakkada o'frilik deyilganidek, insonda ham tabiiy shunday bir malaka (instinktiv-M.X) odat bor. Bu instinktiv odat insonga o'zidagi tug'ma kuchlarni fazilatlar tomon yo'naltirib yuborishga to'sqinlik qilmaydi. Hech shubxasiz, inson avvalo, harakat qoladi va harakatning yengil bo'lishini, keyinchalik shu

harakatning bekorga ketmasligini istaydi. Bordi-yu, inson o'z tevaragidagi jamiyat ichida, boshqalarga qaraganda qo'rqoqroq bo'lsa, yuqorida aytib o'tilganidek, undagi bu qo'rkoqlik yoki narsadan xavfsirash unga malaka yoki instinctiv odat bo'lib qolgan bo'lsa, bu odat unda, tabiiy bir necha marotaba takrorlanadi.

## **2. Sharq mutafakkirlari asarlarida psixologik qarashlarning mazmuni.**

VII asrning oxirlarida Movaraunnaxr xalqlari asta-sekin arab xalifaligi qaramofiga o'ta boshlaydi. Islomning xar jihatdan mustahkam joriy etilishi esa asosan IX asrning I choragida boshlangan. Shuning uchun ham Movaraunnaxr allomalari arab musulmon madaniyati bilan faqat IX asrning boshidan tanisha boshlaganlar. Chunonchi, Muhammad al-Xorazmiy va Axmad al-Farfoniy Bag'dod akademiyasi «Dorul xikma»ga IX asrning 16-20 yillarida kelganlar. Shu vaqtidan boshlab o'rta Osiyo fani, falsafasi, adabiyoti va madaniyati tarkibida mustaxkam bosqich sifatida, ya'ni o'rta Osiyo maxalliy madaniyatining yangi bosqichi sifatida shakllana boshlagan edi.

Demak, arab madaniyati va Islom dinining O'rta Osiyo xalqlari madaniyatiga, ruhiyatiga ta'siri haqida ham xuddi mana shu vaqtidan boshlab gapirish mumkin. Islomning o'rta Osiyo xalqlari ruhiyatidagi ilmi, tafakkuri, dunyoqarashlari roli haqida qisqacha to'xtalamiz.

Bu muammoni bir qancha xarakterli yo'naliishlari bo'yicha qo'yish mumkin. Bular: Movaraunnaxr xalqlarining islomga qadar bo'lган madaniyati va unga islomning munosabati, bu xalqlar madaniyatiga islomning kirishi, keyin shakllangan islam ruhiyati, madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari, maorif, ta'lim, tarbiya, dunyoviy fanlar, iloxiyot, falsafa, adabiyot, axloqiy-xuquqiy hayot va uning islam qoidalari asosida boshqarish, me'morchilik va boshqalardan iborat. Bularning hammasida islam ijobiy rol' o'ynaydi. Busiz u jamiyatda o'z o'rnini va ko'p asrlar davomida kishilarning turmushi, ruhiyati va ongiga ta'sirini saqlab qola olmagan bo'lar edi. Islomning tarqalishi xalqlarning islomga qadar bo'lган madaniyati, diniy mafkurasi, otashparastlik, buddiylik, mazdakiylik, moniylik bilan bog'liq bo'lган dunyoqarashlari yo'q qilingan edi.

Mazkur davrlarda Sharqda ham ilk psixologik qarashlar yuzaga keldi. Sharqda psixologik qarashlarning paydo bo'lishida buyuk Sharq mutafakkirlarining roli katta bo'lgan. Ular orasida Al-Xorazmiy, Al-Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug`bek kabilar o'zlarining inson psixikasi va yosh avlodni tarbiyalashga doir boy fikrlar va qarashlarini meros sifatida qoldirganlar.

Ular orasida ayniqsa Abu Ali ibn Sinoning mantiq, metafizika, tabiiy fanlar, ayniqsa, tibbiyat haqidagi fikrlari o'sha davr ilmiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. U maxsus psixologik muammolar bilan shufullangan olimlardan biridir. Uning ruh, asab tizimi haqidagi qarashlari katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sinoning temperament xususiyatlari qarab yondashish zarurligi haqidagi fikrlari ming yildan so'ng ham zamonaviy psixologiyada o'z qimmatini yo'qotmagan. Abu Ali ibn Sino dunyoda birinchi bo'lib psixoterapevtik usullarni qo'llab ko'rghan olimlardan biridir.

**Abu Ali ibn Sinoning psixologik qarashlari.** Ibn Sino 980 yili Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ildi. Yosh Ibn Sinoning Buxorodagi hayoti uning ilm jihatdan ShakllaniShiga katta ta'sir ko'rsatdi. 999 yilda Buxoro Qoraxoniylar tomonidan bosib olindi. Ibn Sino 1002 yili Xorazmga ketadi. Bu yerda o'z davrining yetuk olimlari bo'lgan Abu Rayhon Beruniy, Masixiy, ibn Irok, Abu Xayr Hammor kabilar bilan muloqotda bo'ladi. Maxmud Faznaviy bosqinchilik urushlarini kuchaytirib, Xorazmga huruj qila boshlagach, Faznaviy ta'qibidan qochib Ibn Sino Eronning turli shaharlarida yurishga majbur bo'ladi. Umrining yarmida Hamadonda saroy tabibi va vazirlik lavozimida xizmat qilib, shu yerda 1037 yil 18 iyunda 57 yoshda vafot etadi.

Ibn Sino 450 dan ortiq asar qoldirdi, shulardan 190 ga yaqini falsafa, mantiq, psixologiya, axloqshunoslik, va ijtimoiy - siyosiy masalalarga bafishlangandir. Bizgacha Ibn Sino asarlarining 242tasi etib kelgan. Ibn Sinoning bilish haqidagi ta'limoti xususan, hissiy bilish sezgilar, sezgi haqidagi fikrlarni uning "Tib qonunlari " asarida inson fiziologiyasi va psixologiyasi asosida talqin etiladi. Ibn Sino sezgini tashqi va ichki sezgilarga ajratdi. Tashqi sezgi insonni tashqi olam

bilan bog'laydi, ular 5ta - ko'rish, eshitish ta'm-maza bilish, hid va teri sezgisi. Bular insonning ma'lum organlari- teri, ko'z, og'iz, burun, qulqoq bilan uzviy bog'liq.

Ichki sezgilar - bu umumiy taxmin etuvchi, ifodalovchi, eslab qoluvchi (xotira), tasavvur etuvchi sezgilardir. Bu ichki sezgilar tashqi sezgilar asosida shakllanib tashqaridan olingan ayrim sezgilarni umumlashtirish, uni qabul etish, xotirada saqlash so'ng tasavvur etish uchun xizmat qiladilar. Tibbiyotni chuqr o'rganish asosida Ibn Sino miyani barcha sezgilaridan boruvchi nerv markazi, umuman inson nerv sistemasining markazi ekanligi haqidagi ta'limotni olfa surdi.

Inson tana va jondan tashkil topadi, miya jonne boshqarib turuvchi markazdir. Ibn Sino fikricha, o'simliklar va hayvonlar, inson ham qandaydir o'ziga xos ichki kuchga - jonga egadir. Inson joni - eng oliy va yetukdir, ya'ni u fikrlash hislatiga egadir va mavhum tushunchalarni o'zlashtirish, maqsadli harakatlarni amalga oshirish qobiliyatiga egadir. Aql, demak inson jonining oliy darajasidagi ifodasidir.

Mavjudotning mohiyatini bilish inson joni, tafakkurini dunyoviy aql bilan qo'shilishi asosida vujudga keladi, ya'ni dunyoviy aql inson aqlining faolligini, bilishdagi muaffaqiyatlarini ta'minlaydi. Inson bilimlarini hammasi ham tashqi sezgilar yordamida qo'lga kiritilmaydi, boshlanfich sezgi orqali bilib bo'lmaydigan aksiomalar, aqidalarni inson tafakkuri dunyoviy aqldan oladi. Ya'ni dunyoviy aql inson aqlining to'la va barkamol bo'lishi uchun imkon yaratadi. Dunyoviy aql insonda aqliy kuch va muhokama, mulohaza quvvatlarining shakllanishida ishtirok etadi. Bu quvvat esa insonga xos bo'lgan mantiqiy tafakkur vujudga kelishida hal etuvchi rol o'yndaydi.

**Abu Rayhon Beruniyning psixologik qarashlari.** Beruniy 973 yili Xorazmnning qadimgi poytaxti Kot shahrida dunyoga keldi. U 995 yili Xorazmda ko'tarilgan mojarolar sababli u yerdan chiqib ketishga majbur bo'ladi va Eronning Ray shahriga kelib yashaydi. Sulton Mahmudning Hindistonga qilgan yurishlari natijasida Beruniy hind olimlari bilan bevosita munosabatda bo'ladi va hind tarixi, madaniyati va fanlariga bafishlangan bir necha kitoblarni yozib oldiradi.

Beruniy 1048 yilda Faznada vafot etadi. U o'z umri davomida 152 asar yaratdi. Shulardan eng mashhurlari "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Geodeziya", "Minerologiya ", "Saydana"dir. Beruniy insonlar o'rtasida tafovut borligi haqida gapirar ekan, u faqat tashqi farqlar to`g`risida fikr yuritadi. Uning fikricha, kishilarning ichki tuzilishi barchada umumiydir. Beruniy fikricha inson hayvondan aql bilan farq kiladi. Lekin mutafakkir insonning hayvondan tubdan farq qiladigan bu xususiyati qanday paydo bo`lganligini tushuntirganda, xudoga murojaat qilib, insonni xudo azaldan shunday yaratgan, deydi.

U insonning jismoniy tuzilishi va butun hayotini aniqlashda geografik omilning roli haqida ajoyib fikrlarni aytadi; "... (odamlar) tuzilishlarining rang, surat tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarning turlichaligida emas, balki tuproq, suv, havo va er (odam yashaydigan joylar)ning turlichaligandan hamdir". Xatto tillarning turlichaligi ham geografik sharoitlarga bog'liq deb qaraydi va "tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir- birlaridan uzoq turishi", deydi.

Beruniy ruhiy va moddiy ehtiyojlarning roli haqida fikri ham o'sha davr uchun nihoyatda qimmatli fikr edi. U jamiyat yuzaga kelishida kishilarning moddiy ehtiyojlarining o'rnini ko'ra oladi. Ehtiyojlar "ovqat, kiyim -kechak va h.k"ni qondiruvchi zaruriyatlar kabi moddiy omillar insonlarni birgalikda yashashga da`vat etadi" ehtiyojlar turli tuman va son-sanoqsizdir. Faqat ularni bir qancha kishilar birgalikda ta`minlay olishlari mumkin. Buning uchun kishilarda shaharlar tashkil etish zarurati tug'iladi".

Beruniy, odam ehtiyojining ko'pligi, himoya qilish quroliga ega bo'limganligi, bir-biri dushmanidan himoya kilish zarurligi, o'zini va boshqalarni ta`minlash uchun biror ishni bajarish lozim bo`lganligi tufayli o'z qarindosh- urufi bilan jamiyatda birlashishi lozim, degan xulosaga keladi. Ularning birgalikdag'i turmushi insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun mehnat qilish ham zarurdir. Beruniy inson boshqa odamlarning baxtsaodati haqida doim o'yashi kerak deydi va shunday yozadi:" Muayyan vazifalarni bajarish zarurati inson faoliyatining bir umrga yashash qoidasidir". Bu fikrni

davom ettirib insonning asosiy vazifasi va o'rni mehnat bilan belgilanishidan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Zero inson o'z xohishiga mehnat tufayli erishadi.

**Alisher Navoiyning psixologik qarashlari.** Alisher Navoiy (1441-1501), Hirot shahrining bog'i Davlatxona deb atalagan joyida Temuriylar oilasiga mansub xonadonda dunyoga keldi. U 10-12 yoshilaridayoq ilk she'rlari bilan nom chiqarib san'atkorlar va adiblar diqqatini jalb etgan, zamonasining taniqli madaniyat arboblari e'tiborini qozongan edi.

Alisher turkiy, forsiy va arab tillarini mukammal bilgan. U 15 yoshlarida forsiy va turkiy tillarda go'zal she'rlar yaratib, zullisonayn (ikki tilda ijod etuvchi) shoir sifatida tanildi. Shoir dunyoqarashini mavhum tushunchalarda emas, balki badiiy-she'riy shaklda turli estetik vositalar yordamida jonli tasvirlagan, uning g'oya va qarashlari turli badiiy o'xshatish va ramzli iboralar orqali ifodalangan. Navoiy ijodida tafakkur hissiy estetik vositalar bilan risolalarda esa tafakkur mantiqiy dalil-isbotlarga va ilmiy usulga asoslanadi, mulohazalar mavhum tushunchalar, aqidalar va murakkab iboralarda bayon etiladi. Ammo har ikkilasi ham haqiqatni bilish usublaridir.

Alisher Navoiy dostonlarining ichki, botiniy ma'nosini anglar ekanmiz, ularda ideal dunyo hayotining tasvirini ko'ramiz. Bu muhabbat va ezgulik, do'stlik va birdamlik dunyosi bo'lib, unda yaxshilik yovuzlik o'rtasidan g`alaba qozonadi,adolat va donolik, muhabbat va yaxshilik hukm suradi. Ularda inson ruhi (aql)ning kamolot sari yuksalishi jarayoni ifodalanadi. Navoiy qahramonlari uchun ishq - bu insonda qalbini turli illatlar va hayvoniy hissiyotlar ta'siridan tozalovchi, insonni yuksak ma'naviy his tuyg'ular uyfotuvchi bir ruh yoki axloqiy kuchdir. Ishq - bu inson ruhining olivjanoblik va mardlikka yuksalish yo'li, sadoqat va do'stlikni sinov yo'li, inson o'zining barcha ma'naviy kuch - quvvati, jismoniy va aqliy qobiliyatlarni yuzaga chiqarishining vositasidir. Navoiyning lirik qahramonlariga xos ishqda uch xususiyatni ko'rishimiz mumkin:

Ishqning qurbolik xususiyati, oshiqning abadiy dard- hasrat va halokatga mahkumligi. Asosiy g'oya - ishq yo'lida o'z-o'zini qurban qilish, har qanday qiyinchiliklar oldida bosh egmasdan yovuz kuchlar, zulm va jaholatga qarshi qat'iy

kurash olib borishdir. Ishq yo'lida dunyoviy manfaatlarni tark etish, o'zligini tark etish. Dunyo lazzatlaridan voz kechish orqali nafshi turli illatlardan tozalash va ma'naviy kamolatga yetish talab qilinadi. Buni biz Farhod, Majnun obrazlarida, ularning ishqida ko'rishimiz mumkin. Ishq inson qalbini tozalovchi, uni yaxshilikka da`vat etuvchi, mardlikka chorlovchi ma'naviy kuch. Unda go'zalikka intilish yuksak axloqiy fazilatlar bilan uzviy boflangan.

Navoiy ijodida ishq majoziy va ishq haqiqiy kuylanadi, ular o'zaro birlari bilan uzviy ravishda boflangan, chunki bu ishqning har ikkala turi bir narsaga - haqiqatga qaratilgan bo'lib, maqsadlari haqiqatga yetishdan iborat. Mutafakkir shoirning tafakkur kuchi va badiiy mahorat bilan yaratilgan ijobiy obrazlari, yuksak g'oyalalar va ahloqiy qoidalar dunyosi bizning davrimizda ham kishilarni maftun etishi shubhasizdir.

**Husayin Voiz Koshifiyning ijtimoiy axloqiy qarashlari.** Koshifiy taxallusi bilan ijod qilgan O'rta Osiyo va Xurosonning mashhur mutafakkiri Husayin Voiz Koshifiy 1440 yillarda tug'ilib 1505 yilgacha yashagan va ijod qilgan. Koshifiyi o'z davrining ilmli hamda ma'rifatli kishisi deb tan olganlar. Husayin Voiz Koshifiy ahloqshunoslik, falsafa, tarix, riyoziyot, falakiyot, adabiyot ta'lim-tarbiya sohasida ijod qilgan.

Koshifiy «Futuvatnomai Sultoniy yoxud juvonmardlik tariqati», «Risolai Hotamiya», «Ahloqi Muhsiniy», «Anvari Suxayliy» risolalarida ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy ta'lim g'oyalarini ilgari suradi. Husayin Voiz Koshifiy ko'p yillar talabalarga tahsil beradi. Shu sababli o'z asarlarida ta'lim va tarbiya masalalariga oid ko'plab fikrlarni uchratish mumkin. Bola tarbiyasida eng katta ahamiyat kasb etuvchi muallimning roli haqida to'xtalib unga katta baho beradi va o'ziga xos tarbiya uslublarini qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Bolalarda qobiliyat masalasiga jiddiy e'tibor berish uni yanada rivojlantirish, yo'naltirishi, kasblarga bo'lgan layoqat va qobiliyatlarini yanada takomillashtirish shart-sharoitlarini qanday yaratish haqida batafsil fikr yuritadi.

Koshifiy Alisher Navoiy singari kishilarni toifalarga ajratadi. Shaxslarni toifalashda asosan ularning ijobiy va salbiy xususiyatlarining ustuvorligiga

tayangan holda yaxshi hamda yomonga ajratadi. Beshta guruhga bo'lingan, ya'ni toifalangan shaxslarga ta'rif berib ijtimoiy davrning talablarini ham inobatga oladi. Shaxsning ijtimoiy belgisi zarur, lekin ahloqiy fazilatlari ustuvordir degan xulosani keltiradi.

X-XIII asrlarda insonlarni tabaqalashtirish zarurati yuzaga keladi, futuvvat jamoa bo'lib shakllana boshladilar. Futuvvatchilar muayyan qoida - talablarga rioya etar, ma`naviy va jismoniy yetuklikka intilar, qayerdaki bo'lmasinlar, nima ish bilan shug'ullanmasinlar, mardlik va olivjanoblik namunasini ko'rsatar, zulm va haqsizlikka qarshi kurashadilar.

Futuvvat haqida arab va fors tillarida yozilgan asarlar bir talay bo'lib, ushbu risolalarda juvonmardlikning rasm-rusumlari, odobi xususida fikrlar keltiriladi. Husayin Voiz Koshify qalamiga mansub bo'lgan «Futuvvatnomai sultoniy» nomli risolasi bu ilmning ko'p tomonlarini qamrab olgani bilan ajralib turadi. U o'z asarida futuvvatni tariqatning bir bo'lagi deb karaydi. Futuvvat asoslari va tasavvufg'oyalari bir-biriga muvofik keladi. Inson ahloqini poklash, mehru-shavkat, ximmat va mardlik ko'rsatish haqida batafsil gapiradi. Bu ilmning mavzusi inson ruhi tadqiqi va ahloq martabalarini bayon qiladi, risolada barcha masalalar savol javob tariqasida beriladi.

Husayin Voiz Koshify «Ahloqi Muxsiniy» asari ahloqshunoslik muammolarini fan sifatida tan olib, uning vazifalarini belgilab beradi. Adib ushbu asarida ahloqiy g'oyalari, fikrlarni uqtirishi bilan emas balki xikmat va falsafa asosida mushohada yuritadi, jamiyatni, odamlarni tahlil etadi. Insonga xos bo'lган umumiy xususiyat va fazilatlarni, ojizlik va ulug`lik sifatlarini ochib beradi. Koshifiyning har bir asari olam-olam ma`noga ega xazinadir. Koshifiyning fikricha, asosan insonning sahiyligi, ezgu xulq-atvori, zohiran va botinan poklik, mehr-oqibat va muruvvat ko'rsatish kabi sifatlarini o'zida mujassamlashtirgan adibning insoniyat qalbida hamisha fozil kishi bo'lib qolishi muqarrardir.

**Al Xorazmiyning psixologik qarashlari.** Abu Abdulloh al Xorazmiy 997 yil vafot etgan. Abu Abdulloh al Xorazmiyning dunyoqarashining muxim tomoni, uning keng bilimi, ilmning ko'p jabxalari masalalarini tushunishga ob`ektiv

yondoshishga qaratilgan. Xususan. Uning tib, odam anatomiysi va fiziologiyasi sohasidagi bilimi xissiy sezgining moddiy asoslarini qidirishga yordam beradi. «Shaxsiy ruh - u miyada bo'lib, undan badan a'zolariga asab orqali tarqaladi» deydi. O'rta asr sharq peripatetiklari uchun aql bilimning yana bir manbaidir. Ular aqlni ikki turga - tug'ma va orttirilgan aqlga ajratishadi. Xorazmiy aqlni odam nafslarining kuchlaridan biri deb hisoblab, yuqorida qayd etilgan uch turga bo'ladi.Umuman olganda, Abu Abdulloh al Xorazmiyning psixologik falsafiy qarashlari o'z davri ilmiy dunyoqarashining rivojiga katta xissa qo'shgan.

**Rudakiy** (IX asrning 50-60 yillari - 941) ruh bilan materiyaning munosabati masalalarida idealistik mavqedaga turadi. Ruhni «ota»ga qiyos qiladi, moddiy narsalarni «ona»ga o'xshatadi. Uning fikricha barcha narsalarni yaratuvchi birinchi sabab xudodir. Moddiy narsalarni ham inkor etmaydi. Moddiy narsalar asosida tuproq, olov, suv va xavo yotadi. Rudakiy inson aql va idrokini ulug`laydi.

**Umar Xayyom** (1040-1123) bilish nazariyasi uning tabiiy va ilmiy qarashlari bilan uzviy boflangan Umar Xayyomning materializmi, uning dinga qarshi muloxazalari esa islom dinining narigi dunyo, jonning o'lmasligi,jannat va do'zax to`g`risidagi ta`limotlarni rad etdi.

VIII asrda islomda turli yo'nalishlar paydo bo'ldi. Bulardan mutakallimlar, ularning psixik ta`limotiga ko'ra xissiy bilishning ahamiyatini, bilimlarimizning voqelikka muvofiq kelishini inkor etishdir. Ular nimaiki o'zлari uchun nomaqbul bo'lsa (xissiy bilish bilan bog'liq bo'lган sezgi ma'lumotlari va bilimni inkor etish yordamida), hammasini inkor etadilar va ularga nimaiki tasdiqlash lozim bo'lsa, hamma tasavvur qilish mumkin bo'lган narsaga yo'l qo'yish yordamida hammasiga yo'l qo'yish mumkin deb hisoblaydilar.

Mutazaliylar ta`limotida muxim masalalardan biri - inson irodasining erkinligi to`g`risidagi masaladir. Inson o'z xatti harakatlarida erkendir. Insonning erkin irodasi haqidagi fikr xudoning «oliy qudrati» to`g`risidagi diniy aqidalarga zid keladi. Olloxning o'z yaratganlariga nisbatan majburiyati bilan almash-tirdilar. Mutazaliylar taqdirning avvaldan belgilab qo'yilganligi to`g`risidagi ta`limotni - tavakkul ta`limotini inkor etadilar.So'fizm ta`limotida butun odam xudoning

mujassamlanishidan boshqa narsa emas. Xudo hamma ko'rinadigan narsalarda mavjud. Narsalar esa o'z navbatida xudoda mavjud. Dunyo - ruh shaklida butun olamga tarqalgan xudo singari yagonadir. Inson esa ana shu ruhning bir qismi, ertami kechmi u bilan qo'shiladi. Bu qo'shilish xudoga yaqinlashishning asosiy bosqichi - shariat, taraqqiyot, ma'rifat va xaqiqat olib keladi. So'fizmga ko'ra xudo bilan qo'shilishning o'zi - eng oliy roxat. So'fizm xudoga aql yordamida ishonish emas, balki unga ichki xissiyot orqali yaqinlashishga katta e'tibor beradi.

**Abu Hamid Muhammad ibn Muhammad al G'azzoliy** 1058 yil Xurosonning Tus shahrida tug'ilgan . Uning oilasi forslardan bo'lib, Tus shahrida istiqomat qilgan. Otasidan erta yetim qolgan G'azzoliy 1070 yilda akasi Abul-Futuh Ahmad bilan Jurjonga tahsil olish uchun ketadilar. U yerda Imom Ahmad ar-Roziqoni va Abul Qosim Jurjoniylarda ta`lim oladi. Keyinchalik Nishopurda ilmga chanqoq G'azzoliy ta`rifini tez orada Saljuqiylar vaziri Nizomul Mulk eshitgach, uni Bag'dodga taklif etadi va nizomiya madrasasi boshqaruvini topshiradi. Imom G'azzoliy 1111 yil 19 dekabrda 53 yoshda Tus shahrida vafot etadi.

Juda yoshlik chog'idanoq olimlik pog'onasiga ko'tarildi. 1091 yildan boshlab u Bog'doddagi mashhur Nizomiy madrasasida talabalarga falsafa va ilohiyot ilmidan saboq berdi. U 34 yoshida kuchli ruhiy inqirozni boshidan kechirdi. SHundan so'ng haqiqatni faylasuflar belgilagan yo'ldan topa olmasligini tushunib, mudarrislikni tashladi va mustaqil ravishda tasavvuf ilmini o'rganishga kirishdi. Oradan 11 yil o'tgach, imom G'azzoliy yana madrasaga qaytib, talabalarga tahsil bera boshlaydi. U butun umrini haqiqatni odamlarga tushuntirish va adashganlarni to'g'ri yo'lga qaytarishga bag'ishladi.

G'azzoliyning falsafa, tasavvuf ilmiga oid asarlari juda yorqin, ravon va tushunarli uslubda bitilgan. Quyida uning ana shunday asarlaridan ba`zilarini sanab o'tamiz: "Faylasuflarning maqsadlari", "Faylasuflarning raddiyasi", "Din haqidagi fanning tug'ilishi", "Olam javoni" va hakozo.

Tirik mavjudotlarning quyi darajadagi turlari, chumoli va chivinlarni ham faqat chumoli hamda chivinlargina anglay oladi. Afsuski, faqat insongina o'zi

haqida haqiqiy bilimga ega emas. Biz o'zimizni faqat sirdan – u yoki bu qilmishimiz va tashqi qiyofamiz orqali bilamiz. Ruhiy mohiyatimizni bilishga urinmaymiz.

Uchta olam mavjuddir: ularning biri zohiriyligi, ikkinchisi botiniy olam bo'lsa, har ikkisining orasidan yana bir olam – ruhiy olam o'rinni olgan.

VIII asrda islomda turli yo'nalishlar paydo bo'ldi. Bulardan mutakallimlar, ularning psixik ta`limotiga ko'ra hissiy bilishning ahamiyatini, bilimlarimizning voqelikka muvofiq kelishini inkor etishdir. Ular nimaiki o'zlari uchun nomaqbul bo'lsa (hissiy bilish bilan bog'liq bo'lган sezgi ma'lumotlari va bilimni inkor etish yordamida), hammasini inkor etadilar va ularga nimaiki tasdiqlash lozim bo'lsa, hamma tasavvur qilish mumkin bo'lган narsaga yo'l qo'yish yordamida hammasiga yo'l qo'yish mumkin deb hisoblaydilar.

Mutazaliylar ta`limotida muhim masalalardan biri - inson irodasining erkinligi to'g'risidagi masaladir. Inson o'z hatti- harakatlarida erkendir. Insonning erkin irodasi haqidagi fikr xudoning "oliy qudrati" to'g'risidagi diniy aqidalarga zid keladi. Ollohnинг o'z yaratganlariga nisbatan majburiyati bilan almashtirdilar. Mutazaliylar taqdirning avvaldan belgilab qo'yilganligi to'g'risidagi ta`limotni-tavakkul ta`limotini inkor etadilar.

So'fizm ta`limotida butun olam xudoning mujassamlanishidan boshqa narsa emas. Xudo hamma ko'rindigan narsalarda mavjud. Narsalar esa o'z navbatida xudoda mavjud. Dunyo - ruh shaklida butun olamga tarqalgan xudo singari yagonadir. Inson esa ana shu ruhning bir qismi, ertami kechmi u bilan qo'shiladi. Bu qo'shilish xudoga yaqinlashishning asosiy bosqichi-shariat, taraqqiyot, ma'rifat va haqiqat olib keladi. So'fizmga ko'ra xudo bilan qo'shilishning o'zi-eng oly rohat. So'fizm xudoga aql yordamida ishonish emas, balki unga ichki hissiyot orqali yaqinlashishga katta e'tibor beradi.

Abu Xomid G'azzoliy va uning ta`limotidagi ilg'or psixologik g'oyalarni ajratish va yoshlarga o'rgatish orqali ularga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish lozim. Abu Xomid G'azzoliy ta`limotida ifodalangan yosh avlodni xar tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalash, jamiyat taraqqiyoti uchun fidokorlik ko'rsatish,

xalol luqma egasi bo'lish, yurt tinchligi yo'lida xizmat qilish kabi tarbiyaviy g'oyalar alohida didaktik ahamiyatga ega.

G'azzoliyning fikricha, yoshlarni barkamollikka yetaklovchi asosiy mezon aql-zakovat, kuchli farosat, saxovat, xalol luqma topish hisoblanadi. Shuning uchun ham Abu Xomid G'azzoliyning qarashlari, g'oyalari o'ziga xos psixologik - pedagogik ahamiyatga ega bo'lib, tarixiy hamda ma`naviy ildizlariga ega. Abu Xomid G'azzoliy xar bir asarida farzandlar tarbiyasiga alohida urg'u beradi, yoshlarni jamiyatning kelajagini quruvchilar deb hisoblaydi. Shu bilan bir qatorda, alloma uch xil yo'nalishdagi olimlar mavjudligini ta`kidlaydi:

1. O'zini ham, boshqalarni ham xalok etuvchi olimlar.
2. O'zini ham, boshqalarni ham saodatga elituvchi olimlar.
3. O'zini xalok qilib, boshqalarni saodatga yo'llovchi olimlar.

Abu Xomid G'azzoliyning mazkur fikrlari bugungi kunda mumtoz merosimizga asoslanib ta`lim tizimida "Ustoz shogird" munosabatlarini tiklashga qilinayotgan sa'y- harakatlarimizning rivoji uchun muhimdir. G'azzoliy ta`limotida ustozlarning sifatlari ochib berilgan. U "E, farzand" asarida quyidagi fikrlarni keltiradi: olimlar suhbatlarida qatnashishga harakat qil; odobdan tashqari so'z va harakatlar qilma; jamoat xuzuriga salom berib kir.

Abu Xomid G'azzoliyning inson tafakkurini rivojlantirish borasidagi qarashlari pedagogik nuqtai nazardan diqqatga sazovordir. Alloma narsalarning tashqi ko'rinishi haqidagi ilmni emas, balki ularning ichki mohiyatini ochib beruvchi bilimlarni haqiqiy ilm deb hisoblaydi. Abu Xomid G'azzoliy islom dunyosida fikrlar rivojlanishiga faol ta`sir etib, murakkab iloxiy masalalarga javob topishning yangi usul va shakllarini izlashga xarakat qildi.

Imom G'azzoliy g'oyalarining muhim jihatni, unda bir necha asr davomida uyg'oq tafakkurga oziq bo'lган tasavvuf ta`limotining bevosita ta`limiy asoslari ishlab chiqilganlidadir. G'azzoliy tafakkur tushunchasini ma`rifat, maqsad, tafakkur (yodlamoq), e'tibor, fikr, iroda, rag'bat kabilalar bilan bog'lab talqin etadi. Uning fikricha, tafakkur ilm (ma`rifat) dan hosil bo'ladi. Ma`rifatning tafakkurga o'tishida va inson o'z-o'zini takomillashtirishida tafakkur (yodlash) alohida

ahamiyat kasb etadi. Tafakkur o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash bo'lsa, tafakkur ilmni yanada chuqurlashtirish va ko'paytirish sari intilishdir. G'azzoliy kishilarni ilm egallahsga undar ekan, ilmning Qur'on mohiyatini anglashdagi o'rni hamda insonning axloqiy kamolotida hayot qiyinchiliklarini yengishga ko'maklashuvchi muhim vosita ekanligiga kishilarni ishontiradi.

Abu Xomid G'azzoliy o'zining "Tafakkur kitobi" risolasida ilmda izchillik, tizimlilik, tadrijiylik tamoyillariga alohida e'tibor qaratadi. Allomaning o'qtirishicha, ilmlar maxsus tartibga ko'ra jamlansa va bir-biriga moslashtirilsa, mazkur jarayonda muayyan natija kelib chiqadi. Ilmning chegarasi yo'q, faqat insonning imkoniyatlari cheklangan. Shunga ko'ra, inson o'z-o'zini rivojlantirish dasturiga ega bo'lishi, o'zini taftish qilishi, shular asosida o'zining bilim darajasini anglashi zarur. U o'zi biladigan, lekin o'zlashtirilmagan, hayotga tatbiq etmagan bilimlari ruyxatini tuzib olgach, o'zlashtirgan, ko'nikma va malaka hosil qilgan bilimlarini ruyhatdan uchirib boradi. Shu tariqa inson komillik sari intiladi. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, ma`rifat, tafakkur, diniy bilimlar, axloq-odob o'rtasida hech qanday chegara mavjud emas. Ularning barchasi yaxlit tarzda inson mohiyatini belgilab beradi. Shuningdek Abu Xomid G'azzoliy fikrning din bilan bog'liq bo'limgan narsaga taalluqli bo'lishi mumkinligini ham e`tirof etadi.

Allomaning fikricha, ilmni vujudga keltiruvchi omillar tug'ma bo'lishi bilan bir qatorda, ular o'rganish va amaliyot orqali vujudga keladi. Demak, tafakkur va fikr qilishdan maqsad uning samarasiga erishmoq, ya`ni kamolotga erishishdan iborat. Kamolot esa lug'aviy ma`nosi "to'qlik" bo'lgan "amol" so'zining ko'pligidir. U inson taraqqiyotning eng yuqori darjasini hisoblanadi. Tafakkur tarbiyasida izchillik va tadrijiylikka amal qilish masalasi ham Abu Xomid G'azzoliy e'tiboridan chetda qolmagan. Uning fikricha, ilmlar qalbda maxsus tartibga ko'ra jamlanishi, bir-biriga mos tushishi natijasida boshda bir ilmning kelib chiqishiga asos bo'ladi. Shu tariqa natija, ilm va fikr cheksiz davom etaveradi.

Allomaning ta`kidlashicha, ilm egallah, tafakkur yuritish, o'z nafsin idora etish kabilarning barchasi o'z-o'zini takomillashtirish, go'zal axloqiy barkamollikka erishish uchun zarur bo'lgan amallar hisoblanadi. G'azzoliyning

o'qtirishicha, ilmni xohlagan va uni o'rganishni istagan kishiga o'rgatish kerak. Ilm kishilarni olimlik darajasiga yetkazishda eng asosiy vositadir. G'azzoliyning fikricha, ilm olish va har qanday faoliyatda xalollik, poklik, ishni to'g'ri hamda aniq bajarish xar bir shaxs odobiga xos xususiyatdir. U olimlar ko'p, lekin ilmga amal qiluvchi kam ekanligini alohida ta`kidlaydi.

Abu Xomid G'azzoliyning tafakkur darajalaridagi ma`siyat bosqichi haqidagi fikrlari ham alohida didaktik ahamiyatga ega. Chunonchi, inson har kuni ertalab uyg'ongach, u o'zining etti a`zosini taftishdan o'tkazishi lozim. Shundagina u o'z tanasi bilan biror gunox qilgan yoki qilmaganligini o'ylab ko'radi, fikr yuritadi. Inson tiliga nazar solib, g'iybat, yolgon, o'zini maqtash, boshqalar ustidan istexzo qilish va boshqa makrux amallarni qilgan-qilmaganligini uylamog'i lozim. Bunday xolatda esa inson o'zini tuzatish choralarini ko'rishi talab etiladi.

G'azzoliyning fikricha, ba`zi ustoz va olimlarni xalokatga yetaklovchi narsa shuhratparastlik va mashxo'rlikka intilish illatlari hisoblanadi. Zero, insonning asl maqsadi, ilmni yuksaltirish bo'lmay, ilm orqali boylik orttirish, o'zini kuz-kuz qilish, o'zgalardan ustunligini namoyish etish, boshqalarga zulm qilish, poraxo'rlik bo'lsa, ular ilmni taraqqiy ettirmay, aksincha, uning rivojiga tusqinlik qiladilar.

Abu Xomid G'azzoliyning ta`kidlashicha, qalbning ozig'i va hayot manbai ilmu xikmatdir. Kim ilmni boy bergen bo'lsa, uning qalbi kasaldir, u qalb ulimga mahkum, lekin buni uning o'zi sezmaydi. Olimning jamiyatdagi mavqeい qanchalik yuqori bo'lmasin, uning asosiy vazifasi ilm o'rganish va ta`lim olishdan iboratdir, ya`ni u o'zining asosiy vazifasidan chekinmasligi, muayyan darajani egallagach, ilm o'rganishdan to'xtab qolmasligi lozim. Ular maqtanish yoki g'ururlanish uchun ilm egallashlari joiz emas.

Imom G'azzoliy o'zining pedagogik faoliyatida ustoz-shogird, ilm va olimlik masalalariga ham jiddiy e'tibor beradi. U olimlarni to'rt toifaga ajratadi. Ular quyidagilar:

Birinchi toifa olim: Biladi. Bilishini ham biladi. Bu olim. Unga ergashing.

Ikkinchisi: Biladi. Lekin bilishini bilmaydi, bilganidan xabari yo'q. U uyquda. Uni uyg'oting.

Uchinchisi: Bilmaydi. Lekin bilmasligini biladi. Bilmasligini farqlaydi. Bu — irshodga muxtoj. Uni irshod qiling.

To'rtinchi toifa olim: Bilmaydi. Bilmasligini ham bilmaydi (johili murakkab). O'zini alloma deb hisoblaydi. U johil. Undan qoching.

G'azzoliy qo'shimcha tarzda yana shuni ham ta`kidlaydiki, olim uchun eng muhim xususiyat tinimsiz izlanishdir. Agar u izlanishdan to'xtasa, joxilga aylana boshlaydi. U ilm beruvchi nutqiga quyiladigan birinchi talab uning muayyan mazmun, ma`noga ega bo'lishida ekanligini ta`kidlaydi. Nutq qanchalik go'zal tashbeh va xayratli iboralarga boy bo'lmasin, negizada ma`no bo'lmasa, sog'lom aqlning mevasi hisoblanmaydi. Buday so'zlar so'zlovchi tomonidan tushunmagan xolatda aqlning quisirligi yoki eshitgan so'zining ma`nosini tushunib yetishga ilmi noqisligi tufayli xayolidagi vasvasalardan kelib chiqqan bo'lishi mumkin”.

“Qolaversa, aytileyotgan so'z tinglovchiga ham tushunarli bo'lishi, ularda qiziqish, xayrat, ma`qullay olish yoki inkor etish imkoniyatini hosil qilishi lozim. Chunki tinlovchi tushunmasa, so'zlovchi tushunadigan so'z bo'lsa ham, uni gapirish durust emas”.

Abu Xomid G'azzoliy munozarani ijobiy va salbiy turlarga ajratadi. Uning fikricha, ilm o'rganish va o'rgatishda ijobiy munozaradan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya etish lozim:

1. Munozara hayotda sodir bo'lgan yoki ko'pincha sodir bo'lishi ko'tilayotgan masalalar ustida qilinishi lozim. O'zini ko'rsatish uchun dovrug'li masalalar izlash kerak emas.

2. Munozara imkon qadar xilvatda, munozarachi uchun qulay, foydali shart-sharoitda amalga oshirilishi kerak. Obruli insonlar va amaldorlik oldida munozara qilishdan zavqlanmaslik lozim.

3. Munozara qiluvchi tortishuvni faqatgina xaqni bilmoq, topmoq uchun qilishi zarur. O'zi bilan baxslashuvchini raqib emas, balki yordamchi deb qabul qilishi kerak. Chunki maqsad yagona muammoning yechimini izlash va topish.

Demak, mushkul ishga birga kirishgan inson sifatida munozara so'ngida unga minnatdorchilik bildirish lozim.

4. Munozarachi shergini bir dalildan boshqasiga, bir muammodan boshqasiga o'tishiga qarshilik qilmasligi lozim. Sening bu so'zing oldingisiga zid deb, rad etmasligi kerak. Balki o'z dalillarini keltirgach, bundan to'g'riroq va ravshanroq biror fikring bo'lsa ayt, birgalikda tanqid etamiz deya taklif qilishi zarur. Agar u kuchli dalil keltirsa, uni olishi, mabodo u dalil zaif bo'lsa, u xolda zaif jihatlarini tushuntirib berib, uni jaholat qorong'uligidan ilm nuri sari elitishi kerak”.

5. Munozara foydali ilmlar bilan mashg'ul bo'lgan kishilar orqali qilinishi kerak.

Salbiy munozara quyidagi xulqlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi:

1. Xasad. O'zini boshqalardan ustun ko'rishi natijasida munozaraga o'zini ko'rsatish maqsadida kirishgan odam, albatta, raqibining muvaffaqiyatini ko'ra olmaydi. Kimki xasadga mubtalo bo'lsa, uning azob, iztirobdan boshi chiqmaydi.

2. Takabburlik va o'zini odamlardan ustun qo'yish.

3. Gina-qudurat. Munozara ginalardan xoli bo'lishi juda qiyin. Chunki u xasad va adovatning mevasi.

4. G'iybat. Ko'pincha munozarada yengilgan, ilmi kam, noxolis munozarachi doimo raqibini yomonlash, so'zlarini keltirishdan to'xtamaydi.

5. Odamlarning nochor xolga tushib qolganiga suyunib, shodligidan g'amgin bo'lish.

6. Nifoq (ikki yuzlamachilik).

7. Xaqdan yuz o'girish, uni yoqtirmaslik hamda noxaq narsada bardavom bo'lish kabilar.

Imom G'azzoliy farzandga xitob qilib, iymonli bo'lishni istagan xar bir insonning komillikka intilishiuning asosiy vazifasidir. Iymon insonni xasislik, yomonlik kabi illatlardan asraydi, deb ta`kidlaydi. Iymonli kishi o'z aqli va bilganiga amal qiladi, bilmaganini esa, so'rab o'rganadi. Inson ma`rifatining

asosini tashkil qiluvchi sifatlar o'z-o'zidan emas, balki ularni ilm orqali egallash lozimligini ta'kidlaydi.

G'azzoliy kishilar, ayniqsa, yoshlarni bir-birlariga izzat-hurmatda va marxamatli bo'lishlarini irfoniy va amaliy dalillar bilan keltiradi. Chunonchi, fadatgina o'ziga nisbatan marhamatli bo'lganlar marhamatli emasdirlar. Marhamatli deb ham o'zi, ham boshqalarga nisbatan marhamatli bo'lgnalarga aytildi. Marhamatli insonning sifatlari: gunohlarni tark etishi, tavba qilib, yomon fe'llardan voz kechishi hamda ibodatlarini ixlos-e`tiqod bilan bajo keltirib, Alloh rizosiga erishishida namoyon bo'ladi. Musulmon kishi har qanday xolatda boshqalarni qiynamasligi, ularga qo'li va tili bilan jabr, zarar keltirmasligi zarur. Ular kishilar hayvonlar va o'simliklarga ham mehrli bo'ladilar.

**Jaloliddin Rumiy (1207 - 1273)** Jaloliddin Rumiy Balx shahrida tug'ilib o'sdi. Uni ba`zan Jaloliddin Balxiy deb ham atashadi.

Rumiy she`riyatning barcha shakllarida mukammal ijod qildi. U bitgan g'azallar, ruboiylar va masnaviyalar she`riyat bo'stonining durdonasiga aylangan. Rumiy asarlarida tashbehlarga o'ralgan falsafiy, so'fiyona, teran g'oyalarga keng o'rinn berilgan. Quyida Jaloliddin Rumiyni bizni muloxazaga chorlovchi fikrlaridan keltiramiz:

- Ey dono odam, sen eng avvalo narsalarning mohiyatini bil, ularning aldamchi shakliga ishonma!
- So'z – libos. Ma`no shu libos ostiga yashiringan sir.
- Ko'zguda hamma narsa teskari ko'rindi. Ammo biz ko'zgusiz o'zimizni hech qachon ko'ra olmagan bo'lardik. Sen menga so'z ojiz deding. Agar o'zingni haq deb bilsang, u holda so'zning ojizligi haqidagi so'zlarining ham ojizdir.

**Abulqosim Firdavsiy (934 (taxminan) – 1024 yillar)** Buyuk shoir Abulqosim Firdavsiy Xuroson viloyatining Tus shahrida kambag'al oilada dunyoga keldi.

Firdavsiy keng qamrovli va chuqur ilm egasi bo'lib etishdi. SHu bois uni "hakim", "donishmand" deb ulug'laganlar. SHoir ijodining ayni gullagan davrida

G'azna shahrida (hozirgi Afg'oniston hududi) turk sultoni Mahmud G'aznaviy saroyida yashab, ijod qildi.

Firdavsiy Mahmud G'aznaviyiga bag'ishlab, mashhur "SHohnoma" asarini yozdi. Lekin bu asar Mahmud G'aznaviy tomonidan etarlicha qadrlanmadı.

Rivoyat qilishlaricha, sulton G'aznaviy Firdavsiyning yozilajak "SHohnoma" asarining har bir bayti uchun bittadan oltin tanga berishni va`da qiladi. 60.000 baytdan iborat asar tayyor bo'lgandan keyin esa G'aznaviy va`dasidan qaytadi. Firdavsiyga G'aznaviy karvon orqali berib yuborgan tangalarning hammasi kumush bo'lib chiqadi. Bundan qattiq ranjigan shoir tangalarning bir qismini karvondagilarga, boshqa qismini hamollarga ulashadi. Tangalarning qolgan hammasiga esa yaxna ichimliklar sotib oladi. Uning bu harakatlari hukmdorga qarshi norozilikning yaqqol ifodasi edi. Sulton G'aznaviy shoirni filning oyoqlari ostiga tashlab, jazolash haqida farmon beradi. Firdavsiy tug'ilgan erini tashlab, musofirlikda hayot kechirishga majbur bo'ladi.

G'am-qayg'u ham, huzur-halovat ham aqldandur. Ulug'vorlik va buzilish ham aqldandur- deydi Firdavsiy.

Olamda eng avvalo inson aqli yaralgan. Aql qalb posbonidir. Aql yana uch qo'riqchi: til, ko'z, quloqning ustidan ham posbonlik qilguvchidir. Zero, ezgulik va yovuzlik aynan ana shu uch a`zo orqali qalbga kirib boradi.

Ne sababdan uzoq umr ko'rmoq tilaysan? Bilasan-ku, baribir olam sirlarini hech qachon anglab eta olmaysan.

**3. O'zbekistonda psixologiya fanning rivojlanishi.** XX asrga kelib, O'zbekistonda ham boshqa fanlar qatori psixologiya fanining rivojlanishiga imkon tug'ildi. Qozon universitetini tamomlagan va 1933 yildan boshlab professor unvoniga ega bo'lgan, hamda 1941-1968 yillar mobaynida Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika institutining psixologiya kafedrasiga mudirlik qilgan bilimdon, aql-zakovat egasi P.I.Ivanov O'zbekistonda psixologiya fanini rivojlanishiga katta hissa qo'shdi, 80 ga yaqin ilmiy qo'llanma va maqolalar yozdi. Ayniqsa, umumiyligi yosib yashash va pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi yo'nalishda barakali ijod qildi.

Uning «Pamyat». T., 1941; «Psixologiya» (qisqacha izohli lug'at) 1946; Psixologiya (pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma). 1954, 1956, 1959; psixologiya (pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma) 1957, 1960 (2 nashr); Psixologicheskie osnovo` obucheniya. 1960; shu kitobning o'zbek tilidagisi «Ta'limning psixologik asoslari» 1961; «Umumiy psixologiya» (o'zbek tilida). 1957 yil; «Obshaya psixologiya» T, 1967 (2 nashr); «Razvitiya texnicheskogo mishleniya uchashixsyu na uroke truda» (Yaroslavl, 1969 yili) kabi qator darslik va qo'llanmalari chop etildi. U o'zining ko'p yillik pedagogik faoliyatini psixologiyadan o'quv qo'llanmalari yaratishga bag'ishladi va ko'plab ilmiy kadrlar yetishtirib chiqardi. Uning kamtarin mehnati «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi» unvoni bilan taqdirlandi.

1945-50 yillarga qadar O'zbekistonda psixologiya fani bo'yicha birorta ham o'zbek tilida darslik, qo'llanmalar yo'q edi. O'rta Osiyodagi ilk mustaqil "Psixologiya" kafedrasasi asoschisi professor Platon Ivanovich Ivanov (1891-1968) bo'lib, P.I.Ivanovning «Psixologiya» kitobi o'zbek tiliga tarjima qilingunga qadar uning shogirdlari domlani ma'ruzalariga muntazam qatnashib, uni o'zbek tiliga tarjima qilib, keng talabalar ommasiga yetkazishga harakat qildilar.



**P.I. Ivanov**



**M.G.Davletshin**



**V. A.Tokareva**

P.I.Ivanovning shogirdlaridan biri bo'lgan Sh.Bayburova domlaning rus tilidagi ma'ruzalarini o'zbek tiliga tarjima qilib, talabalarga o'zbek tilida psixologiyadan ma'ruzalar o'qidi va psixologiya sohasidagi bilimlarni mujassamlashtirib, o'zbek tilida «Psixologiya» darsligini 1949 yili chop ettirdi. Bu darslik sirtqi va kunduzgi bo'lim talabalari uchun o'zbek tilida yagona o'quv

qo'llanma edi. Keyinchalik P. I. Ivanovning «Psixologiya» kitobi o'zbek tilda chop etildi.

Bolalar psixologiyasi sohasida ham katta ishlar amalga oshirildi. 1964 yili A.A.Asqarxo'jaev, P.I.Leventuev, M.Vohidov, E.Chudnovskiy larning «Bolalar psixologiyasining ocherklari» nomli qo'llanmasi chop etildi. Bunda bolaning dunyoga kelgan kunidan boshlab to 17-18 yoshgacha bo'lган davrdagi anotomo-fiziologik xususiyatlari, psixologik xususiyatlari, bolalar shaxsining shakllanishi masalalari keng yoritib berildi.

P.I.Leventuev yosh avlodni mehnatga tayyorlash, adabiy ijodiyot psixologiyasini tadqiq qilish ustida ish olib bordi. M.Vohidov esa bolalar psixologiyasini talqin qilib, darslik yaratishga kirishdi.

1965 yili birinchilardan bo'lib, I.M. Krasnobaev «Yuqori sinf o'quvchilarida ahloqiy e'tiqodlarning rivojlanishi», 1971 yili Davletshin Muhammad Gabdulgalimovich Leningradda «O'quvchilarining texnik qobiliyati psixologiyasi» bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qildilar.

O'zbekistonda psixologiya ilmiy maktabi asoschisi Davletshin Muhammad Gabdulgalimovich (1923-2011) 1923 yil 11 noyabrda Rossiya Federatsiyasining Orenburg shahrida tavallud topgan. 1941 yil Toshkentdag'i 42 - maktabni tamomlagan. M.G.Davletshinning hayot faoliyatini ishlab chiqarishdan boshlanadi. Bu davrda M.G.Davletshin o'z faoliyatini Toshkent aviatsiya korxonasining kadrlar tayyorlash bo'limida shogird-slesar` lavozimidan boshlab, 1942 yil master instruktor lavozimiga ko'tarilgan. M.G.Davletshin 1946-1948 yillarda Toshkent shahrining Shayhontohur tumanida deputat lavozimida o'z faoliyatlarini olib borganlar. Usha yillarning o'zida "O'zbekiston maorif a`lochisi" belgisi, "Faxriy belgi" ordeni bilan mukofatlangan.

1952 yilda O'zbekiston tibbiy xodimlarining Respublika qumitasida madaniy ishlar bo'limi lavozimida ishlagan. U respublikadagi madaniy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etib, aholining madaniy ehtiyojlarining qondirilishida, ma`naviyatini yuksaltirishda katta hissa qo'shgan. M. G. Davletshinning Toshkent davlat pedagogika institutidagi rahbarlik va pedagogik faoliyati 1953-2001 yillargacha

davom ettirdi.

M.G.Davletshin 1953 yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining tarix fakul`teti eksterni bo`limini tamomlagan. U 1957 yillarda TDPIning psixologiya kafedrasasi aspiranturasida tahsil olgan. Davletshinning ilmiy faoliyatida professor Platon Ivanovich Ivanovning xizmatlari katta. Bu haqda M.G.Davletshin quyidagi fikrlarni bildirgan: “1925 yilda P.I.Ivanov Toshkentga qayta tashkil etilgan qozoq pedagogika institutiga ishga taklif etiladi. Usha yildan boshlab umrining oxirigacha P.I.Ivanov O’zbekistonda yashab, psixologiya fanining rivojiga ulkan xissa qushdi. 1941 yilda Toshkent davlat pedagogika institutida psixologiya kafedrasasi tashkil etiladi.

U 1956 yildan Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining psixologiya kafedrasida pedagogik faoliyatini boshlagan. 1960 yilda olimga psixologiya kafedrasasi dotsenti ilmiy unvoni berilgan. M.G.Davletshin 11 yil (1957-1968) mobaynida Nizomiy nomidagi TDPI da o’quv ishlari buyicha prorektor lavozimida faoliyat ko’rsatgan, universitetdagi o’quv-tarbiya jarayonini shakllantirish, takomillashtirish bo’yicha katta ish olib bordi.

M.G.Davletshin pedagogik va rahbarlik faoliyatini jamoatchilik ishlari bilan uyg’un xolda olib borgan. Bunga 1960-1991 yillarda psixologlar jamiyatining Respublika bo’limi rayosat raisi bo’lib faoliyat ko’rsatganligi yorqin misol bo’la oladi. Shu bilan birga M.G.Davletshin keng xalq ommasining davlatdagi vakili sifatida faoliyat yuritgan, 1968 -70 yillarda Toshkentdagi Yakkasaroy tumani deputati bo’lgan.

1978-1993 yillarda Nizomiy nomidagi TDPI qoshidagi pedagogik fanlar bo’yicha nomzodlik va doktorlik ilmiy darajasini berish bo’yicha ixtisoslashtirilgan Kengash a`zosi sifatida faoliyat yuritgan.

U 1971 yil Leningrad davlat universitetida akademik B.G.Anan`ev ilmiy maslaxatchiligi ostida “O’quvchilarda texnik qobiliyatlarning psixologiyasi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqlagan. 1972 yilda olimga psixologiya kafedrasasi professori ilmiy unvoni berilgan.

M.G.Davletshin 1968 yildan 2001 yilgacha Nizomiy nomidagi TDPIning

psixologiya kafedrasiga mudirlik qilgan. U boshqaruv va rahbarlik psixologiyasi asoslarini yaxshi bilgani uchun kafedrani moxirona boshqara olgan hamda kafedra institutdagi, 1998 yildan universitetdagi eng ilg'or kafedralardan biri bo'lган. Chunki olim kafedra a`zolarining individual-psixologik xususiyatlarini bilganligi uchun xar bir topshiriqni berishda, xodimning layoqati va qobiliyatiga yarasha ishni taqsimlagan. U boshchilik qilgan kafedrada faoliyat yuritgan professor-o'qituvchilar ustozdan pedagogik, ilmiy, boshkaruv faoliyati sir asrorlarini o'rganishgan. M.G.Davletshin o'zlarining xaqiqiy psixolog ekanliklarini doimo namoyon qilganlar, ya`ni xar bir shaxsning ijobiy xislatlarini ko'ra olganlar.

Professor M.G.Davletshin mehnat ta`limi va kasbga yo'llash muammolariga, texnik qiziqish va texnik qobiliyatlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlariga, Respublikamizdagi pedagogika oliy o'quv yurtlari va universitetlarida o'qituvchi kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish muammolariga ko'p e'tibor beradi.

M.G.Davletshinning ilmiy qiziqishlari asosan oliy maktablarda psixologiyani o'qitish samaradorligini oshirish muammolariga qaratilgan edi. Olim tomonidan O'zbekiston mакtablarida psixologik xizmatni tashkil kilish, boshqarishning shakl va tizimi ishlab chikildi. Professor M.G.Davletshin hozirgi zamon talablarini nazarda tutib, asosiy e`tiborni Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlarini o'rganish masalalari bilan oliy o'quv yurtlarida psixologiyani o'qitish va Respublika psixologlarining ilmiy tadqiqot ishlarida bu boy merosdan foydalanish masalasiga qaratgan.

Respublikamiz mustakillikka erishgandan so'ng, 1991 yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika instituti qoshida psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini beradigan Ixtisoslashgan Kengash ochilishini asoslab bergen va 1991-1999 yillar davomida shu kengashni boshqargan. Shuni ta'kidlash joizki, mustaqillikdan oldin fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun Moskva, Leningrad, Kiiev kabi shaharlarga borib, dissertatsiyalar (rus tilida) yoqlanar edi.

Mustaqil respublikamizda ilmiy salohiyatlari kadrlarning ko'payishida M.G.Davletshin tashkil etgan bo'lib, Birlashgan Ixtisoslashgan Kengashning roli

beqiyosdir. Shu bilan birga M.G.Davletshin 1996-1999 yillarda O'zbekiston psixologlar assotsiatsiyasining birinchi raisi ham bo'lган.

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, psixologiya fanlari doktori, professor M.G.Davletshin o'zlarining faoliyatida rahbarligida 1 nafar fan doktori, 49 nafar fan nomzodlari yetishib chiqdi. M.G.Davletshinni MDXda tanimaydigan psixolog yo'q, uning shogirdlari respublikamizdagi barcha oliy o'quv yurtlarida faoliyat ko'rsatishmoqda. Talantli olim, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi M.G. Davletshin O'zbekistonda psixologiya fanining o'qitilishini takomillashtirish, uzlusiz ta'lim jarayonida pedagogika institut va universitetlar uchun o'qituvchilar tayyorlashning psixologik masalalari, umumiyligi va pedagogik psixologiya Oliy pedagogika o'quv yurtlarining o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning ilmiy asoslari mакtablarga psixologik xizmat ko'rsatishning ilmiy metodologik asoslariga bag'ishlangan ko'plab anjumanlarni tashkilotchisidir.

Professor M.G.Davletshin tomonidan psixologiya fanining turli masalalari bo'yicha 250ga yaqin ilmiy ish chop etilgan. Ustoz tomonidan qoldirilgan eng yirik monografiya va o'quv qo'llanmalar sirasiga "Qobiliyatlar va diagnostika" (1979), "Yosh va pedagogik psixologiya" (1974), "Zamonaviy mакtab o'qituvchisining psixologiyasi" (1999), "Umumiy psixologiya" (2001), "Yosh va pedagogik psixologiya" (2004) va boshqalarni kiritish mumkin. U respublikada o'tkazilgan barcha ilmiy anjumanlar materiallarining va ilmiy to'plamlarning mas'ul muxarriri bo'lган.

**Valentina Andreevna Tokareva** 1935 yil 27 iyunda Andijon shahrida tug'ilgan. Andijon shahridagi 1-sonli xotin-qizlar mакtabini tamomlagach, Leningrad davlat Universiteti (hozirgi Sankt-Peterburg davlat universiteti)ning falsafa fakul`tetiga o'qishga kiradi.

V.A. Tokarevaning yuksak darajadagi olim va psixolog bo'lishida psixologiya fanining allomalari B.G.Anan`ev, V.N.Myasishev, B.F.Lomov, A.V.Petrovskiy, A.A.Bodalev, A.M.Matyushkin, E.F.Ribalko, A.V.YArmolenko, M.G. Davletshinlarning katta ta'siri bo'lган. Ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish

layoqati uning universitetdagi talabalik davridayoq namoyon bo'ladi. Buni "Maktab-internat tarbiyalanuvchilarida faoliyatga ehtiyoj va qobiliyatning o'zaro bog'liqligi tadqiqotlari tajribasi" mavzusidagi bitiruv diplom ishi misolida ko'rishimiz mumkin.

V.A.Tokarevaning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati juda keng. U bola shaxsining rivojlanishi, fikrlash jarayoni shakllanishining o'ziga xos jihatlari, ta`lim va tarbiya berishning psixologik muammolarini o'rgangan. O'z tadqiqotlarida V.A. Tokareva maktab o'quvchilarining aqliy rivojlanishini diagnostika qilish, shaxsni o'rganish metodlari, maktab va OTM, akmeologiyada psixologik xizmat metodlari masalalariga alohida e`tiborini qaratadi.

V.A.Tokareva shaxs axloqiy rivojlanishidagi psixologik muammolarni hal etish masalasiga ulkan hissa qo'shgan. Bu muammolarni tadqiq qilishning boshlanishi uning "Psixologiyada kichik o'smir yoshidagi bolalarda (V-VI sinflarda) jamiyat oldidagi burchga sodiqlikni shakllantirish masalalari" mavzusidagi nomzodlik ishida namoyon bo'ladi. Bu muammoni o'rganish V. Tokarevaning 1992 yilda Moskvada Umumiy va pedagogik psixologiya instituti qoshidagi Ilmiy darajalarni belgilash Maxsus Kengashi majlisida himoya qilingan "Talaba shaxsining axloqiy rivojlanishi psixologiyasi: fenomenologiya, tipologiya, qonuniylatlari" mavzusidagi doktorlik ishida ham davom ettirildi.

V. Tokareva shaxsning axloqiy rivojlanishiga ko'p komponentli axloqiy-psixologik fenomen sifatida, o'zida axloqiy bilimlarni, axloqiy his va shaxsiy sifatlariga axloqiy baho berish va o'z-o'zini baholashni, axloqiy hatti-harakat va xulqini yaxlit jamlovchi axloqiy qobiliyatlarning rivojlanishi sifatida yondashishni taklif etadi. Axloq shaxsni tizimlashtiruvchi markaz sifatida ko'rildi. Fundamental psixologik muammolar bilan bir qatorda V. Tokareva o'z faoliyatida amaliy sohalarga ham e`tibor beradi. Jumladan, u ta`lim berishning faolmetodlari ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqadi. Maqolalaridan birida u psixologik tizimdagи fanlardan imtihonlarni "Yumaloq stol" metodi shaklida o'tkazishni taklif qiladi. Bu shakl talabalarning imtihondagi hayajonini pasaytiradi, ularning imtihonga tayyorgarlik jarayonidagi mas`uliyatlarini oshiradi, tanqidiy fikrlash va nazariy

bilimlarni aniq hayotiy vaziyatlarda qo'llab tahlil qilish malakalari shakllanishiga asos bo'ladi. V. Tokarevaning talabalarni o'qitishning psixologik asoslarini chuqur anglaganligi uning o'qituvchilik faoliyatini samarali bo'lismiga asos bo'lgan. O'z pedagogik faoliyatini V.A. Tokareva ADMI (Andijon davlat meditsina instituti)da boshlagan.

Uzoq davr mobaynida 1978 yildan 1998 yilga qadar Valentina Andreevna Toshkent davlat universiteti psixologiya kafedrasida o'qituvchilik faoliyatini olib borgan. 1998 yildan boshlab u O'zbekistonning oliv harbiy ta`lim muassasalari (harbiy akademiya)da faoliyat olib boradi. Bu muassasalardagi faoliyat davomida V. Tokareva "Umumiy psixologiya asoslari", "Ijtimoiy psixologiya", "Harbiy psixologiya" fanlaridan ma`ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar olib borgan.

V.A.Tokareva 220 dan ortiq nashr ettirilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalar, uslubiy ko'rsatmalar, ilmiy jurnallardagi maqolalar muallifi. Masalan, O'zbekiston harbiy oliv ta`lim muassasalaridagi faoliyati davrida uning "Harbiy xizmatchilar psixologiyasini o'rganish uchun ofitserlarga qo'llanma" (Nastol`naya kniga ofitserov po izucheniyu psixologi ivoennoslujashix) (2001 y), "Shaxsiy tarkibni o'qitish va tarbiyalashda harbiy xizmatchilar temperamentining o'ziga xos jihatlari, ularni aniqlash hisobga olish" (Ocobennosti temperamenta voennoslujayushix, ix viyavlenie iuchet pri obuchenii i vospitani i lichnogo sostava) (2001y), shuningdek, quyidagilar nashr ettirilgan: "Ijtimoiy psixologiyadan sxemalar al`bomi" (Al`bom sxem po sotsial`noy psixologii) (2004 y.), "Umumiy psixologiyadan sxemalar al`bomi" (Al`bom sxempo obshey psixologii) (2005 y.), qo'llanmalar "Taqidiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari" (Psixologicheckie ocnovi razvitiya kreativnogo mishleniya) (2008 g.), "Kommunikativ malakalarni rivojlantirishning psixologik asoslari" (Psixologicheckie ocnovi razvitiya kommunikativnix umeniy) (2010g.).

Psixologiya fanining taraqqiyotida M.X.Rahmonovaning roli ham muhimdir. Olima ta'lim jarayonida diqqatining roli, o'quvchilar diqqatini dars jarayonida barqarorlashtirish, o'quvchilar diqqatining individual xususiyatlari kabi masalalarni keng yoritib berdi. M.X. Raxmonovaning «Ta'limga diqqatning roli»

(1963y), «O'qish darslarida birinchi sinf o'quvchilar diqqatining barqarorligi» (1969y), «O'quvchilar diqqatini ba'zi individual xususiyatlari» (1971y) kabi ilmiy maqolalari ta'lif jarayonida o'quvchilar diqqatini tashkil etishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Keyinchalik u «Psixologiya kursida ko'rsatmalilik» (1981y), «Oilaga sovfa» (1996y) kabi ilmiy ishlarini chop ettirdi. Uni qo'rkoq bolalarning ruhiyati, aql-zakovati, diqqat-e'tibor sohalari qiziqtirib, u hozirgi kunda shu sohalarda kuzatish, tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

R.Sh.Karimova ayniqsa, mактабгача bolalarni ona-tili egallashning psixologik xususiyatlarni aniqlash, o'smirlarning o'quv jamoasida o'zaro munosabatlarini shakllantirish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bordi. Uning «Osnovno'e elemen to' grammaticeskogo stroya rodnoy yazika kak put razvitiya mishleniya detey starshego doshkol'nogo vozrasta» (1959), «Uchet individualnix razlichiy detey pri obuchenii ix rodnomu yaziku v detskix sadax»(1971y), «Izuchenie vzaimo otnosheniy podrostkov i ix formirovaniya» (1985y) kabi maqolalari hozirgi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan.

Shuningdek, yosh psixologiyasida M.A. Muzaffarov «O'smir yoshlarining tasavvur qilish asoslari» (80dan ortiq ilmiy maqola), B. Mamajonovning «Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar», «Psixika hodisalari haqida», «Bolalarda ijobjiy va salbiy ertak personajlari haqida tessavvurlarni shakllantirish jarayonini psixologik tadqiq qilish» kabi, V.P.Ivanovaning «Umstvennaya deyatel'nost uchahixsyu pri napisanii diktanta» (1962), «Faktoro' obespechivayuhie vosprizvedenie v umstvennoy deyatelnosti uchahixsyu»(1977), X. G'ofurovaning xotira va uning xususiyatlari, umumta'lim maktablarida o'quvchilarda tasavvurlarning shakllanishi, ularni so'z bilan tasvirlash hamda rasm darslarini ularning shakllanishiga ta'siri haqidagi maqolalari, S.Rahimovning «Abu Ali ibn Sinoning psixologik qarashlari», A.Saydullaevning o'quvchilarni fan, texnika, san'at, shaxslararo munosabatlar, xayolning rivojlanishiga bag'ishlangan qator maqolalari, F. Temurovning o'quvchilarni kasbiy qiziqishlarini kasbga yo'nalish, individul yondoshishi, kasbiy qiziqishlarining aniqlash kabi qator ilmiy maqola va to'plamlari chop etildi. F.Temurov bilan bir vaqtida faoliyat ko'rsatgan.

N.Negmatov ham o'zining ijodiy izlanishlarini tafakkur jarayoniga bag'ishladi. U tafakkur va uning jarayonlarini tadqiq qilish, 1-sinfdan boshlab o'quvchilarda umumlashtirish faoliyatning rivojlanishi bo'yicha longityud tadqiqtolarini amalga oshirdi. Oliy maktabda psixologiya fanlarini o'qitish masalalariga katta e'tibor berdi.

Q.Turg'unov esa respublikada birinchilardan bo'lib, mehnat psixologiyasi sohasiga asos soldi. U mehnat jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanishini to'qimachilik jarayonida o'rgandi va tajribaga asoslanib, to'quvchilikning psixologik asoslarini yoritib berdi. Muallif «Razvitie proizvodstvennix navkov u uchahixsy»(1963y), «Voprosi o ponyatiy «umenie» i «navuk» v psixologii» (1964), «K problemam umeniy i navo'kov» 1964y. kabi ilmiy ishlari chop etildi, ayniqsa uning «Psixologiya terminlarining ruscha – o'zbekcha lug'ati» psixologiya fanini o'rghanishda muhim ahamiyatga egadir.

Mehnat ta'limining psixologiyasini rivojlanishida N.Yaxyarov o'quvchilarda mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatlarni shakllantirish masalasida ko'pgina ilmiy maqolalar chop ettirdi.

M.Voxidov (1927-1989 y) 1955 yilda Leningradda nomzodlik ishini himoya qilgan. Dastlab Andijon pedagogika institutida, so'ngra Qori Niyoziy nomidagi pedagogika ilmiy tadqiqtolar institutida ishlagan. 1966 yil Toshkent Davlat universiteti Psixologiya kafedrasи mudiri etib saylangan. 1973 yili Ministrlar Soveti topshirifiga binoan tarix fakulteti tarkibida tashkil etgan. Zinin, L.I.Sofeर ishtirokida va markazning iste'dodli olimlari yordamida bu yerda o'quv eksperimental laboratoriya tashkil qilingan. M.Voxidov tomonidan maktabgacha pedagogika bilim yurtlari uchun, pedagogika institutlari uchun darsliklar yozilgan, oxirgi yillarda M.Voxidov, A.Petrovskiy tahriri ostidagi "Umumiу psixologiya" darsligi tarjima qilingan va ayni paytda milliy va mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda o'zbek tilida darslik yaratish bilan mashful bo'ldi.

O'zbekistonda psixologiya fanining tarqqiyotida professor (1985 yil) M.Vohidovning ham o'rni bor. Muallifning asosiy tadqiqt sohasi o'quvchilarining o'quv faoliyatida mnemik jarayonlarni o'rghanishga bag'ishlangan

edi. Shuningdek, u O'zbekistonda psixologik fikrlarning rivojlanishi tarixi, bolalarning psixologik xususiyatlarini keng miqyosda o'rgandi. O'zining ko'p yillik tajribalariga suyanib 1981 yili «Psixologiya» darsligini yaratdi. Bu darslik bolalar psixologiyasi bobida ham hozirgi kunda pedagogika oliy o'quv yurtlari va pedagogika kolleji talabalarining asosiy qo'llanmalaridan biridir.

Yosh va pedagogik psixologiya sohasida P.I.Ivanovning shogirdlaridan biri M. E.Zufarova 7 yoshli bolalarni psixologik tomondan maktab ta'limga tayyorlash masalasini ilmiy tajribalar asosida yoritib bergen. U «6 yoshli iqtidorli bolalarni maktab ta'limini egallashdagi psixologik imkoniyatlari», ularda bilish jarayonlarini shakllanishi xususiyatlari, talabalarni pedagogik faoliyatga psixologik tayyorlash, pedagogik amaliyot bo'yicha talabalarga metodik amaliy yordam, «Insonlarda o'z-o'ziga munosabatni tarkib toptirish», «Psixologiyadan kurs ishlarini yozishga doir uslubiy ko'rsatmalar», «Yosh va pedagogik psixologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari va amaliyotda talabalarga uslubiy yordam», «Umumiyl psixologiyadan asosiy tushunchalarning tematik izohli lug'ati va o'quv-uslubiy ishlanmalar», “ Psixologiya tarixi” o'quv qo'llanmalari, “Umumiyl psixologiya” ustozlari P.I.Ivanovga bag'ishlangan darsliklari 2008 va 2014 yillarda chop ettirilib, O'zbekistondagi Pedagogika yo'nalishidagi oily ta'lim muassasalarida foydalananib kelinmoqda. U 100 ga yaqin ilmiy uslubiy maqolalar muallifidir.

**4. Hozirgi davrda O'zbekistonda psixologiya fanning rivojlanishi.** Hozirgi kunda O'zbekistonda ham psixologiya tarmoqlari kuchayib unga e'tibor berilmoqda. Hozirgi yetishib chiqqan barcha olimlarimiz O'zbekistondagi psixologiyani chet mamlakatlar psixologiyasi kabi yuqori cho'qqiga chiqishida katta xissa qo'shib, intilmoqdalar, milliy psixologiya asosida, ya'ni milliylik ruhda tarbiyalab, ularni ongiga psixologiyani sindirmoqdalar. O'zbekistonda psixologiya fanining hozirgi ahvoli ilgarigidan ancha rivojlangan. Chunki bu fanni o'qitish muassasa tayyorlov qurollar va markazlar ochilib kishilar ongiga yetib bormoqda. Bundan tashqari psixologiya tarmoqlari bo'yicha turli xil muammolarni yechishda asosiy rol' o'ynaydi.

Bu fanni rivojlanishida o'zbek psixologiyasi, ya'ni B.Qodirov, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, M.Voxidov, M.Davletshin, E.G'.G'oziev, R.Sunnatova, N.S.Safayev, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonova, Sh.A.Dusmuxamedova va boshqa olimlarning xissasi katta. Hozirgi kunda psixologiya fani ham o'z tarmoqlarini rivojlanirmaqda. Xulosa qilib aytganda psixologiya fanini rivoji odamlar hayotiga ya'ni yashash tarziga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin O'zbekistonda psixologiya fanining rivojida keskin burilish yuz berdi. Hozirgi kunda ko'plab fan nomzodlari bilan birga fan doktorlari, professorlar faoliyik ko'rsata boshladilar.



**G'ayrat Baxromovich Shoumarov** - 1947 yil Toshkent shahrining Baland masjid mahallasi (hozirgi Xadra maydoni, Alisher Navoiy ko'chasi xududi)da vrach oilasida tavallud topgan.

1969-73 yillar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining pedagogika va psixologiya fakul`teti defektologiya bo'limida tahsil olgan. 1973yildan shu institutning assistenti sifatida pedagogik faoliyatini boshlagan. 1973-74 yillari Pol`sha Respublikasida Xarbiy xizmatni o'tagan. 1977 yildan 1980yilgacha Moskva shahridagi Pedagogik fanlar akademiyasi qoshidagi ilmiy-tekshirish institutida maxsus psixologiya ixtisosligi bo'yicha akademik, psixologiya fanlari doktori Vladimir Ivanovich Lubovskiy rahbarligida nomzodlik dissertatsiyasini tayyorlab, 1980 yili ximoya qilgan. Dissertatsiya intellektual test metodikalarining diagnostik imkoniyatlarini aniqlashga bag'ishlangan edi.

1980-1987 yillari Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining "Umumiy psixologiya" kafedrasida assistent, dotsent lavozimlarida

ishlagan. Katta ilmiy xodim lavozimiga o'tkazilgach, 1988-89 yillar doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlash uchun Moskva shahriga yuborilgan. Doktorlik dissertatsiyasining mavzusi yosh oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolarini tadkik etishga bag'ishlangan edi. Dissertatsiya mavzusi buyicha Moskva, Nijniy Novgorod, Kishinyov, Toshkent shaharlarida eksperimental ma'lumotlarni yig'ib, 1990 yili doktorlik dissertatsiyasini Moskva shahrida muvaffaqiyatli ximoya qilgan. Umuman olganda, uning olim sifatida shakllanishida Moskva ilmiy muhiti alohida o'rinni tutgan.

1991-1996 yillari Avloniy nomidagi Xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish markaziy instituti rektori, 1996-1998 yillari Respublika ta'lim markazi direktori lavozimlarida ishlagan. 1998 yildan 2002 yilgacha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida yetakchi konsul'tant, bosh konsul'tant, monitoring guruhi rahbari lavozimlarida faoliyat yuritgan. 2002-2008 yillari O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori, 2008 yildan 2010 yilgacha O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri lavozimlarida ishlagan.

U ikki yil davomida Respublika komissiyasi kotibi bo'lib, Milliy istiqlol g'oyasi: "Asosiy tushuncha va tamoyillar" fani ta'lim tizimiga joriy etilishiga o'z hissasini qo'shgan. Barcha ta'lim turlarida birinchi bor davlat ta'lim standartlari (DTS) tasdiqlanishida monitoring guruhi rahbari sifatida uning ham alohida o'rni bor.

Ta'lim tizimiga psixologik xizmatning joriy etilishida, respublika maktablari shtat jadvallariga psixolog shtati kiritilishida uning hissasi katta. G'.B.Shoumarov psixologiya fani yunalishida O'zbekistonda oilani o'rganish bo'yicha shakllangan ilmiy mактабning asoschisidir. G'.B.Shoumarov mактаб o'quvchilari uchun muljallangan sog'lom turmush tarzi, salomatlik, oila masalalariga bag'ishlangan qator o'quv qo'llanmalari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o'qitiladigan "Oila psixologiyasi" o'quv qo'llanmasi, "O'zbek milliy entsiklopediyasi", "Ayollar entsiklopediyasi", "Bolalar entsiklopediyasi" singari kitoblardagi maqolalar mualliflaridan biri bo'lib, uning rahbarligi va hammuallifligida psixologiya bo'yicha qator ilmiy-ommabop kitoblar tayyorlangan.

Psixologiya sohasiga oid masalalar bo'yicha ko'p yillar davomida "Oila", "O'zingni er bilsang", "Inson va qonun", "Yuzma-yuz" singari ko'rsatuv hamda eshittirishlarda faol ishtirok etgan. Respublikada chop etilayotgan 5 ta jurnal va "Turkiston", "Tong yulduzi" gazetalarining yillar davomida tahrir hay`atlari a`zosi bo'lган. Jumladan, G'. B. Shoumarov (1990 yilda fan doktori, 1993 yili professor) dig'g'erentsial psixologiya, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya, oila psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, psixodiagnostika, o'zbek oilasining ijtimoiyi psixologik, etnopsixologik xususiyatlari masalasini o'rganishga katta e'tibor berdi.

G'.B.Shoumarov bir necha yillardan beri sog'lom turmush targ'ibotchisi bo'lib, a`zolari turli bo'g'indagi rahbarlardan iborat futbol komandasiga sardorlik qilib kelmoqda. Yana bir jihatni ta`kidlash lozimki, uning kasbiy qiziqishlari doirasida tibbiyat sohasining alohida o'rni bor. U yillar davomida (1970 yildan 1980 yilgacha) Toshkent harbiy tez tibbiy yordam markazi (03) va Moskvadagi hozirgi Sklifosovskiy nomidagi tez tibbiy yordam markazida o'rindoshlik asosida tibbiyat xodimi (fel'dsher) bo'lib ishlagan.

G'.B.Shoumarov O'zbekiston Respublikasi ta`limi va psixologiya fani yutuqlarining dunyo miqyosida targ'ib-tashviq etilishida ham o'z hissasini qo'shib kelmoqda. U 2009 yili Frantsianing Parij shahrida bo'lib o'tgan YUNESKO Bosh Assambleyasida O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasiga rahbarlik qilgan va Assambleyada o'z ma`ruzasi bilan ishtirok etgan.

G'.B.Shoumarov bugungi kunga qadar 30 nafar fan nomzodiga ilmiy rahbarlik, 3 nafar fan doktoriga ilmiy maslahatchilik qilgan. Hozirgi vaqtida unlab tadqiqotchilar uning rahbarligida doktorlik dissertatsiyalarini tayyorlash ustida ish olib borishmoqda. Uning rahbarligida o'zbek, tojik, qoraqalpoq, qirg'iz oilalarining ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari, ayollarda o'ziga o'ziga o't quyish, bolalarda o'z joniga qasd qilish, jinsiy qoniqishning nikoh mustahkamligiga ta`siri, respublikada psixologik xizmatni tashkil etish, badiiy ijodiyot psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, deviatsiya masalalari taxlili va shu kabi yo'naliishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. O'zbekistonda birinchi marta oliy ta`lim tizimida psixologik xizmatni tashkil etish yo'naliishida "Fan va

texnologiyalar” markazi tomonidan moliyalashtirilgan amaliy loyiha rahbari sifatida O’zbekiston davlat jahon tillari universitetida psixologik markazning ishga tushirilishi va faoliyat yuritishida uning xizmati kattadir.

G’.B. Shoumarov jamoat ishlarida ham faol ishtirok etib kelmoqda. Uning tashabbusi bilan 2000 yili tashkil etilgan O’zbekiston psixologlar assotsiatsiyasiga o’n yil mobaynida rahbarlik qilgan. Bundan tashqari 2003-2010 yillari “O’zbekiston-Turkmaniston” do’stlik jamiyati raisi bo’lib ishlagan. Hozirgi vaqtida G’ayrat Shoumarov Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida professor lavozimida ilmiy-pedagogik faoliyatini davom ettirib kelmoqda.

**G’oziyev Ergash G’oziyevich** - psixologiya fanlari doktori, professor. Bir qancha darsliklari o’tmishdoshlaridan psixologik kategoriylar, muammolarning yangicha metodologik yondashuvga egaligi, psixologiyaning predmeti, tadqiqot metodlari, printsiplari, psixikaning evolyutsion taraqqiyoti, faoliyat va ongning psixologik tahlillari umumlashtirilganligi bilan ajralib turadi.

Ergash G’ozievich G’oziev 1973 yilda «O’quvchilarda umumlashtirish usullarini shakllantirish va kuchirish» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 1991 yilda esa «Talaba va o’quvchilarda o’quv faoliyatini boshqarishning psixologik asoslari» mavzuida doktorlik ilmiy ishini muvaffaqiyat bilan ximoya qilgan. 1993 yilda «Psixologiya» yo’nalishi bo’yicha professor unvoniga sazovor bo’lgan.

E.G.G’oziev - o’z ilmiy matabiga ega olim bo’lib, olimning rahbarligida ikki nafar fan doktori va 47 nafar fan nomzodlari etishib chiqqan. Uning shogirdlari psixologiya fanining turli sohalari bo’yicha izlanishlar olib boradilar. Masalan, umumiylar psixologiya, psixologiya tarixi, shaxs psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya, pedagogik psixologiya, yosh psixologiyasi, tibbiyot psixologiyasi va boshqalar. Shu bilan bir qatorda olim bir nechta chet el va respublika miqyosidagi ilmiy grantlarning rahbari sifatida ham katta ilmiy-amaliy tajribaga ega.

E. G'.G'oziev (1992 yilda psixologiya fanlari doktori, 1994 yilda professor), ta'lif jarayonida o'quvchilar tafakkurini o'sishi, o'quvchilarni umumlashtirish usullariga o'rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti, o'quv faoliyatini boshqarish, tafakkur, xotira, shaxs, psixologiyasi masalalari, bilish nazariyasining psixologik muammolari, komil insonni tarbiyalashning psixologik asoslari kabi masalalarni yoritishga e'tibor berdi. Uning «O'quvchilar o'quv faoliyatini boshqarish» (1988yil), «Oila etikasi va psixologiyasi» (1992 y), «Psixologiya» (1999y) «Tafakkur», «Xotira», «Shaxs», “Umumiyl psixologiya” (psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. I – II kitob. T., 2002.) nomli qo'llanmalari ko'p sonli talabalarning asosiy o'quv qo'llanmasi bo'lib xizmat qilmoqda.

“Ontogenetik psixologiyasi” darsligida ontogenetik rivojlanish bosqichlari, maktabgacha yoshdagagi bolalar psixologiyasi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, o'smirlar psixologiyasi, ilk o'spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari, o'spirinlik davrining o'ziga xosligi, yetuklik davri muammolari, keksalik psixologiyasi (psixogerontologiya) yuzasidan fikr, muloxaza, mushoxadalar berilgan. Shuningdek, inson shaxsi kamolotini aniqlovchi metodikalar, testlar, metodlar izchil ravishda, ierarxik tarzda yoritilgan.

“Psixologiya metodologiyasi” kitobi fanning metodologik muammolariga bag'ishlangan bo'lib, unda psixologiya fanida olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqot natijalari taxlil qilingan, muloxazalar umumlashtirilgan. Fan metodologiyasining maqsad va vazifalari, printsiplari, metodlari, metodikalari, qonunlari, qonuniyatlari, mexanizmlari, fenomenal xolatlari to'g'risida mukammal fikrlar bildirilgan. Umumpsixologik metodologiya masalalari, ya`ni psixikani o'rganishning ob`ektiv metodi masalalari, determinizm muammosi inson psixikasining ijtimoiy (sotsial) va biologik nisbati (munosabati), psixofizik va psixofiziologik muammolar, reduktsionizm, psixologiyada izoxlash, tushuntirishning xususiyatlari, psixologiyaning asosiy kategoriyalari, bilish nazariyalari atroflicha ochib berilgan.

muomala, katta guruhlar to'g'risida tushuncha, boshqaruv psixologiyasi, oila psixologiyasi, sotsial psixologiyada fenomenal xolatlar, kichik guruhlar psixologiyasi, sotsial psixologiyaning tatbiqiy jabhalari, shuningdek, shaxs kamoloti, guruh jipsligini aniqlovchi metodikalar, testlar ierarxik tarzda joylashtirilgan.

“Psixologiya” darsligi kasb-hunar kollejlarining pedagogika-psixologiya yo’nalishidagi talabalarga mo’ljallangan bo’lib, unda shaxs, uning individual-tipologik xususiyatlari to’g’risidagi materiallar jamlangan. Kitobda shaxs ehtiyojlari, qiziqishi, xissiyoti, xarakteri, irodasi, temperamenti, bilish jarayonlariga oid masalalar aks ettirilgan. Uning 100 ga yaqin darslik, o’quv uslubiy qo’llanma va 900 tadan ziyod ilmiy maqolalari mavjud. Hozirda olim tomonidan yaratilgan ilmiy, ilmiy-amaliy manbalarsiz Respublikamizdagi amaliy psixologlar faoliyatini xatto tasavvur ham qilib bo’lmaydi.

**R.Z.Gaynutdinov** (1992 yilda psixologiya fanlari doktori, 1997 yildan professor) «Psixologiya upravleniya v organax vnutrennix del» (o’quv qo’llanma. 2001 yil), «Psixologicheskie osobennosti nesovershennoletnix i ix uchet pri doprose» (T., 2000), «Samosoznanie i samoregulyatsii uchitelya» (o’quv metodik qo’llanma, 1991), «Uchitelyu o psixologii vospitaniya»(1994y) kabi ko’plab dolzarb muammolariga bag’ishlangan ilmiy, uslubiy maqolalar chop ettirdi.

O’zbek xalqining xotin-qizlari ichida birinchi marta psixologiya fanlari doktori (1994) ilmiy darajasini olgan Farg’onalik ayol **V.M.Karimova** ham O’zbekistonda psixologiya fanining ravnaqiga katta hissa qo’shamoqda. Uning ilmiy-tadqiqot yo’nalishida etnopsixologik g’oyalar katta o’rin oldi. U o’zbek xalqining milliy ana’analari, qadriyatlari, rasm-rusumlari psixologiyasi, o’zbek ayolining ijtimoiy mavqeini oshirish, ularni keng xalq ommasiga singdirish bo’yicha ilmiy ishlarni amalga oshirmoqda. Uning yangi o’quv dasturlari, darsliklari, o’quv qo’llanmalarni qayta ko’rib chiqish va milliy istiqlol mag’kurasini kontseptsiyasini ishlab chiqishdagi, oila va mahalla tizimidagi g’oyalarni xalq ongiga singdirish haqidagi izlanishlari maqsadga muvog’imdir.

Olimaning «O'zbek ayoli shaxsining shakllanishi»(1986), «Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyat» (1999), «Tashkiliy hulq» (1999), «Mustaqil fikrlash»(2000 y), «Psixologiya» (2000), «Salomatlik psixologiyasi» kabi o'quv qo'llanmalaridan universitet va pedagogika oliygohlarining o'qituvchi va talablari keng foydalanmoqdalar.

Iste'dodli psixolog, psixologiya fanlari doktori, professor B.R.Qodirov o'zining ijodiy faoliyatini iqtidorli yoshlarni o'rganishga bag'ishladi. U differentsial psixologiya sohasida yoshlarning individual xususiyatlarini o'rgandi. Yoshlarda ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan o'quvchilarning faoliyat yo'nalishlari, layoqat va birlamchi qobiliyatlarining miya mexanizmlari o'rganildi. Yoshlarni u yoki bu ijtimoiy faoliyat yo'nalishlarini tanlashlari elektroentsefalografik usullar bilan neyrofiziologik jihatlari tadqiq qilindi. Olingan ma'lumotlar miya faoliyatida kasb tanlash, kasbga moyillik va layoqat turlarini ta'minlab turadigan muqobil neyrofiziologik xislatlar borligini isbot etdi. Zehn testlari majmuasi shakllantirildi.

Z. Qodirova (2001 yilda fan doktori) yoshlarning ijtimoiy faolligini, ularni ijtimoiy muhitga moslashuvini tezlashtiruvchi omillar va ularni daraja tuzilmasini aniqlash, faollikning rolini talqin qilish, ya'ni jamiyat yaratishda yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayonidagi faollik, shaxs ichki dunyosi muammolarining ijtimoiyy-falsafiy jihatlarini tadqiq qilish masalalari bo'yicha faollik ko'rsatmoqda.



Psixologiya fanlari doktori, professor **Sharif Barotovning** psixologiya sohasi bo'yicha xizmatlari katta. Sh.Barotov 1960 yil 22 martda Buxoro viloyati

Kogon tumanida tavallud topdi. Oliy ma`lumotni Buxoro davlat pedagogika institutida oldi. 1990-yil nomzodlik, 1999-yil doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli ximoya qildi. Zaxmatkash olim, ajoyib inson Sharif Barotov ilmda o'z maktabini yarata oldi. O'zbekistonda psixologik xizmatni tashkil etishda salmoqli ishlarni amalga oshirdi.

Professor Sharif Barotov respublikamizdagi ilmiy jarayonni doimo kuzatib, unda faol qatnashib keladi. Respublikada yagona “Psixologiya” ilmiy jurnalining asoschisi, xalqaro ilmiy anjumanlar tashkilotchisi va ishtirokchisi hisoblanadi. Mamlakatimizda psixologiya fanining rivojlanishi, Oliy va o'rta ta`lim sohalarida ishlaydigan mutaxassislarni psixologik bilimlar bilan hozirlash, psixologiya fanini targ'ib qilish kabi mas`uliyatli va xayrli ishga rahbarlik qilib kelyapti. Hozirgi kunda “Psixologiya” jurnali muallifi. Sh. Barotov har doim o'zi saboq berayotgan yuzlab talaba, unlab shogirdlar va doktorantlar, hamkasblariga o'z bilimlarini beminnat exson qilishdan xecham charchamaydi.

**Azim Meylikulovich Jabborov** Qarshi davlat universitetining psixologiya kafedrasи mudiri, psixologiya fanlari doktori, professor. 1957 yil 1 fevralda Qashkadaryo viloyat Yakkabog' tumanining Toshqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan.

Azim Jabborov 1975-1980 yillarda Toshkent Davlat Universiteti (hozirgi O'zMU) psixologiya mutaxassisligini tugatgan. 1989 yilda nomzodlik “O'quvchilar paxtachilik ishlab chiqarish brigadalarida bo'lg'usi paxtakorlar uchun zarur sifatlarni shakllantirishning psixologik asoslari” mavzusidagi dissertatsiyasini (ilmiy rahbar: prof. M.G. Davletshin, Ukraina FA huzuridagi Psixologiya ilmiy tadqiqot instituti, Kiev), 2000 yilda doktorlik “O'zbek maktabi o'qituvchisining psixologik va etnik xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiyasini O'zbekiston Milliy universitetida ximoya qilgan. Uning Respublika miqyosidagi jurnallarda, ilmiy anjumanlar va xalqaro konferentsiyalarda 200 ga yaqin ilmiy ishlari chop etilgan. Shundan 4 tasi o'quv qo'llanma, 6 tasi o'quv-uslubiy qo'llanma va 2 tasi monografiyalardir.

Azim Jabborov 1991 yilda O'zbekiston Respublikasi “Xalq ma`orifi a`lochisi” nishoni bilan mukofotlangan. Uning viloyat televideniyasi orqali olib

borilayotgan “Psixolog maslahati” kursatuvi va “Baxtu-bekamlik siri” nomli radio eshittirishlardagi chiqishlari millionlab muxlislarga manzur bo’lmoqda.

Olimning universitetlar va pedagogika institutlarida tayyorlanayotgan “Psixologiya”, “Pedagogika-psixologiya” bakalavr yo’nalishlari va magistrler tayyorlash uchun mo’ljallangan “Turmush tarzi, ta’lim va milliy o’ziga xoslik” (2002), “Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi” (2003), “Pedagogik psixologianing etnik asoslari” (2006), “Oilaviy munosabatlar psixologiyasi” (2007), “O’qituvchi va o’quvchi hamkorligining psixologik xususiyatlari” (2008), “O’qituvchi kasbiy tayyorgarligining psixologik asoslari” (2009) monografiya va o’quv qo’llanmalari Oliy ta`lim muassasalarining ilmiy jamoatchiligi tomonidan yuqori baholanib, amaliyotda keng qo’llanilmoqda.

U o’qitishning ilg’or pedagogik texnologiyalarini zamon ruxi, milliy istiqlol g’oyasi tamoyillari bilan uyg’un bog’lagan xolda talabalarga saboq beradi. O’zbekiston Respublikasi OAK ruxsati bilan kafedrada tashkil etilgan “Psixologiya fanlari bo’yicha metodik seminar”ga rahbar, 2000-2006 yillar davomida (uzluksiz) Oliy attestatsiya Komissiyasida “Pedagogika va psixologiya fanlari ekspert kengashi” a`zosi, “O’zbekiston psixologlari assotsiatsiyasi”ning muxtor vakili, Psixologiya fanlaridan darslik va o’quv adabiyotlari tayyorlash bo’yicha ekspert guruxi a`zosi sifatida faoliyat ko’rsatib kelmoqda.

U o’z ish faoliyati davomida ko’plab shogirdlar yetishtirdi. Uning rahbarligida 4 ta nomzodlik, 10 ta magistrlik, 100 dan ziyod bakalavrlik ishlari tayyorlandi, shuningdek, 8 ta ilmiy izlanuvchilar psixologianing dolzarb mavzularida doktorlik ilmiy izlanishlari olib bormoqdalar.

Yuqorida fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, ya’ni psixologiya fani O’zbekistonda 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli jabhalarda rivojlandi. Psixologianing turli sohalari bo’yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. O’zbekiston Respublikasi psixologlar assotsiatsiyasi tashkil topdi.

Hali psixologiya fanining turli sohalarida yoritilmagan, yetarli ilmiy jihatdan o’rganilmagan muammolar juda ko’p. Ularni o’rganish respublikamiz psixologlarining asosiy vazifa laridir.

### **Amaliy mashg'ulotlardagi muhokama uchun savollar.**

1. Islom dinining o'rta Osiyo xalqlari ruhiyatiga ta'siri qanday bo`lgan?
2. VIII asrdagi turli oqim tarafdarlarining fikrlaridagi farqlar nimalardan iborat edi?
3. Sharq mutafakkirlari Abu Abu Nasr Farobiyning psixologik qarashlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Sharq mutafakkirlari asarlarida psixologik qarashlarning mazmuni qanday?
5. O'zbekistonlik olimlar psixologiya sohasida qanday mavzularda ilmiy ish olib borganlar?
6. O'zbekistonda psixologiyaning rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlardan kimlarni bilasiz?
7. Hozirgi davrda O'zbekistonda psixologiya fanning rivojlanishi qanday kechmoqda?
8. V.A.Tokareva O'zbekistonda psixologiyaning qaysi sohasi rivojiga hissa qo'shgan?
9. G`B.Shoumarovning o'zbek psixologiyasi fani rivojiga qo'shgan hissasi qanday?
10. E.G`oziyevning o'zbek psixologiyasi fani rivojiga qo'shgan hissasi nimalardan iborat?
11. Sh.Barofovning o'zbek psixologiyasi fani rivojiga qo'shgan hissasi nimalardan iborat?
12. A.Jabborovning o'zbek psixologiyasi fani rivojiga qo'shgan hissasi nimalardan iborat?

### **Buyuk kishilarning naqllaridan**

Insonning hayrli va go'zal ishlari uchun xizmat qiluvchi ruhiy xislatlari yaxshi fazilatdir, agar aksi bo'lib inson ular bilan yomonlik va qabix ishlar qilsa bu xislatlar razillik shakkoklik va kamchiliklardir.

Ruhning 5 ta katta quvvati bor: oziqlantiruvchi, hissiy, tasavvur, intiluvchi va aql quvvatlari.Oziqlantiruvchi quvvat, ovqatlanish va shunga bog'liq ishlarni bajaradi. Oziqlantiruvchiquvvatning ish jarayoni uchga bo`linadi: yani birinchi qism, o`rtanchi qism va oxirgi qism. Birinchi qism bu ozuqaning masalan, non yoki go`shtning xazm bo`lishi, oxirgi qism shu ozuqaning kerakli a`zolarga tarqalishi, yani tamomila xazm bo`lib a`zolarga singib ketishidir.

O`rtancha qism o`zi ikkiga bo`linadi, birinchi qismida ozuqa oshqozon va ichaklarda qayta ishlanib qonga aylanish arafasida tursa, ikkinchi qismida qonga aylanadi. Ozuqlantiruvchi quvvatga xazm qildiruvchi, o`stiruvchi, tug`diruvchi, jalg qildiruvchi, ushlab qoluvchi, farq qildiruvchi, ximoya qildiruvchi quvvatlar kiradi. To`g`riroq qilib aytganimizda oziqlantiruvchi quvvat inson ovqatlanish paytida olgan moddasini ana shu inson organizmidagi qon moddalariga aylantiradi. Hazm qildiruvchi quvvat oshqozon va ichaklarda hazm bo`layotgan ovqati to qon bo`lish darajasiga olib keladi va so`ngra buni masalan, jigarda qonga aylantiradi. O`stiruvchi quvvat bu hamma a`zolarning ozuqaga bo`lgan ehtiyojini qondirib, ularni rivojlantiruvchi quvvatdir.Tug`diruvchi quvvat. Bu quvvat ozuqani hazm qilinishining oxirgi qismiga, ya`ni qonga aylanish qismiga yaqinroq bo`lib, xuddi bir moddadan ikkinchi shunga o`xhash moddani vujudga keltiruvchi quvvatdek, bir juft jonlik zotdan ikkinchi bir zotni vujudga keltiruvchi quvvatdir. Bu quvvat ikkiga bo`linadi: birinchisi vujudga keladigan zotning moddasini beradi bu urg`ochi quvvat deb ataladi, ikkinchisi shaklini beradi bu erkak quvvat deb ataladi. Bu modda va shaklning qo`shilishi natijasida erkak yoki urg`ochi uchunchi bir jonli mayjudot vujudga keladi. Xis qildiruvchi quvvat. Hammada bor, ma`lum beshta xissiy organlar orqali xis ettiruvchi quvvatdir. Tasavvur quvvatihis qilingan narsalarning ko`rinishlarini ular ko`z oldidan yo`qolgandan keyin xam saqlab qoluvchi, ularni bir biridan farq qildiruvchi va qo`shuvchi ularni to`g`ri va noto`g`ri tafsilotlarni payqatdiruvchi, ularning o`ngida xam tushida xam saqlab

turuvchi quvvatdir. Aql quvvati yordamida inson aqlini ishlatadi, fikr yurgizadi, ilm xunar o`rganadi, qilgan ishlarining yaxshi – yomonini ajratadi. Bu quvvat o`z navbatida ikkiga bo`linadi: ya`ni amaliy va nazariy aql.

Amaliy aql hunar quvvati va fikr quvvatidan iborat. Nazariy aql quvvati bilan biz o`zgartirolmaydigan narsalarni o`rganamiz, masalan uch toq, to`rt juft, bularni biz o`zgartirolmaymiz yani uch xech qacho juft bo`lmaydi to`rt hech qachon toq bo`lmaydi. Shuningdek biz bu quvvat bilan o`zgartirilishi mumkin bo`lgan narsalarni ham o`rganamiz. Masalan to`rt burchak yog`ochni biz dumaloq qilishimiz mumkin. Amaliy quvvat bilan biz o`zgartirishimiz mumkin bo`lgan shaklni o`zgartirib boshqacha shakl berishimiz mumkin bo`lgan buyumlarni ajratamiz saralaymiz. Hunar quvvati bilan biz har xil hunar va mutaxasisliklarni egallaymiz masalan: tabiblik, dehqonchilik, dengiz sayyoohligi, fikrlash quvvati bilan biz qiladigan ishlarimizni ularning yaxshi yoki yomon tomonlarini ularni qanday bajarish kerakligini fikr qilamiz.

Yaxshi fazilatliklar ikki tur bo`ladi: ya`ni xulqiy va fikriy. Fikriy fazilat aqliy quvvatga kirib aqllilik, donolik, faxm – farosatlilik, zexnlilikdan iborat. Xulqiy fazilat intiluvchi quvvatga kirib iffat, shijoat, saxiylik va adolatlilikni o`z ichiga oladi. Yomon fazilatlar razilliklar xam ikki qismga bo`linadi.

Axloqiy fazilatlar va razilliklar axloqiy harakatlarning ishlarni bir necha marta takrorlanishida va uzoq davom etishi jarayonida vujudga keladi va mustahkamlanadi. Agar qilinayotgan ishlar hayrli bo`lsa undan fazilat kelib chiqadi, agar yomon bo`lsa, undan razillik kelib chiqadi. Bu hunarni bir necha marotaba qunt bilan mashq qilish orqasida qo`lga kiritish mumkin. Agar biz yomon mashq qilsak, quntsizlik qilsak bizdan yomon xattot kelib chiqadi. Agar izchillik bilan mashqni davom ettirsak qunt bilan harakat qilsak bizdan yaxshi xattot chiqadi.

Ma'lumki inson hech qachon tug'ilganida yaxshi yoki yomon bo'lib tufulmaydi, shuningdek, hech qachon tug'ilishidan yo to'quvchilikni yo xattotlikni bilib tug'ilmaydi, biroq har bir kishida biron bir fazilatga, yoki qabixlikka moyil qobiliyat bo'ladi, ya`ni biron-bir soha boshqa sohalarga nisbatan yengilroq

seziladi, ana shu sababli inson odatda yozish yoki boshqa hunarlarga, o'ziga qulay bo'lgan hunarlarga yoshlidan moyil bo'ladi va shu sohaga u intiladi, faqat "tashqaridan" biron-bir unga qarama-qarshi maslahat berilmasa albatta. Bu tabiiy iste'dodning quruq o'zini fazilat deb aytilmaydi, masalan to'quvchilik qobiliyatni bor odamni hech qachon to'quvchi deb aytilmaydi. Faqat ana shu qobiliyat yuzaga chiqsa, chiniqsa u fazilatga aylanadi. Tug'ma qobiliyatning quruq o'zini na fazilat va kamchilik deb bo'ladi. Tug'ma quruq qobiliyatning ismi yo'q agar uni biron joyda ishlatmoqchi bo'lsak faqat nomigina ishtirok etadi xolos, chunki u amalda yuzaga chiqmagan. Bir kishi uchun tug'ma talent boshqa kishi uchun tug'ma talent bo'lmasligi mumkin. Bir kishi tug'ma talantni amalga oshirib yaxshi yoki yomon nom chiqarishi mumkin, boshqasi uni amalga oshira olmay hech qachon nom chiqarmasligi mumkin.

Yaxshilik yoki yomonlikka tabiiy mayl bo'lgan kishilarining hislati bir xil paytlarda to'siqsiz namoyon bo'lishi mumkin. Birxil paytlarda ularning yo'qqa chiqarib teskari qilishi, axloqiy va odatiy hislatlar bilan almashtirish ham mumkin. Sovuqqonlik bilan fozillik o'rtasida farq juda katta. "Sovuqqonlik bilan qilingan ish", "sovuq" bo'ladi ya'ni shu ish bajarayotganda shu ishni bajarayotgan kishida shavq zavq bilinmaydi, yaxshimi yomonmi bu ish unga baribirdek tuyuladi. Ammo fozillik bilan qilingan ish ishtiyoq bilan zavq-shavq bilan qilinadi va bu ish bilan xuzurlansa bo'ladi. Xuddi shuningdek, sabr-toqat, qiyinchilik orqasidan erishilgan mofaqqiyat o'rtasida katta farq bor. Shu singari did farosatlilik bilan sovuqqonlik o'rtasida ham farq bor, masalan did farosatli kishi yeb-ichayotganda faqat ovqatyeish qoidalarigagina amal qilib ovqat yemasdan, balki ovqatni hidu lazzatini ham farq qilib yeydi, sovuqqonlik bilan ovqat yegan kishi esa faqat sunna qoidalarigagina amal qilib ovqatlanadi, qolgan narsaga e'tibor ham bermaydi, ya'ni unga yeyayotgan ovqatining lazzati bormi, yoqmi, tozami, notozami baribir. Bunday kishilar aksariyat umrini befarosatlilik bilan o'tkazadi.

Yomon xislatlar aholi orasidan yo kishilar qalbini fazilat to'la egallagandan keyin, yo sovuqqonlik, layoqatsizlik, farosatlilik yo'qolgandan keyin yo'qoladi.

Qaysi kishi o'zida bor farazgo'ylikni fazilatga almashtirmas ekan, u aholi orasidan chiqib ketishi kerak.

Biron bir ishga istedodi, havasi bo'lib shu ishning aksini qiladigan, tabiiy fazilatga yoki razillikka mayli bo'lgan odam shu hislatlarning aksini bajarishga qodirdir.Biroq bu nihoyatda qiyinchilik bilan amalga oshiriladi.Chunki bir ishga o'rganar ekan uning aksini qilish unga qiyin bo'ladi, u o'zining ishiga ko'nikib qolgan bo'ladi.

Yaxshiliklar hammasi o'rtachalikning natijasi bo'lib, ikki keskin chegara kamchilik va ortiqchalik o'rtasida o'rashgandir. Bu ikkala chegara fazilatlikning u yon va bu yonida turgan nuqta bo'lib har ikkisi ham yomonlikka olib boradi. Chunki fazilatlik kerakli narsa bo'lsa, uning bir tomonidagi keragidan ortiqchalik bo'lib, ikkinchi tomonidagi keragidan ozlikdir. Did farosatlilik ham ikki nuqta o'rtasida joylashgan.Saxiylik ham xuddi shunday bir tomondan hasislik bo'lsa, ikkinchi tomonda haddan tashqari hotamtoylilik turadi. Shijoatlilik ham shunday joylashgan, ya'ni uning ham bir tomonida shoshma-shosharlik, bir tomonida qo'rkoqlik turadi, o'tkir so'z gapirishning ham bir tarafida xazil, ermak, ikkinchi tarafida kaltafaxmlik, yaxshi odobning bir tarafida takabburlik , boshqa tarafida xasislik (pastlik), xurmat-ikromning bir tarafida haddan tashqari mafrurlik, bir tarafida xushomadgo'ylik, xushfe'lllikning bir tomonida osoyishtalik, ikkinchi tarafida fazablanish, hayoning bir tomonida vijdonsizlik, bir tomonida haddan tashqari uyatchanlik, do'stlikning bir tarafida ko'ra olmaslik, bir tomonida xushomadgo'ylik turadi, boshqa ishlarida ham axvol xuddi shunday.

Shahar zaruriy yoki fazilatli bo'lishi mumkin. Birinchi shahar faqat zaruriyat orqasida vujudga kelib, unda insonlar faqat o'z hayotini saqlash, oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun yashaydilar. Fazilatli shahar aholilari haqiqiy insonlar bo'lib, o'zlarining yaxshi hayot kechirishlari uchun kerakli bo'lgan narsalarni yaratish uchuno'zaro birlashib ishlaydilar. Bir hil ulamolar o'z manfaatlari uchun zaruriy yashash formasini afzal desalar, bir hillari boylikda yashashni afzal deb biladilar, boshqa bir hillari esa unisini ham bunisini ham qo'shaloq afzal deb hisoblaydilar. Ammo Suqrot, Aristotel, Aflatun insonning ikki hayoti bor deb ataydilar: birinchisi

oziq-ovqat yeish va bir-birlari bilan aloqa qilish va o'zlariga kerakli narsalarga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun harakat qilish bo'lsa, ikkinchisi bunday tashvishlardan ozod bo'lgan narigi dunyo hayotidir. Shuningdek insonda ikkita kamolot bor: avvalgisi va oxirgisi, oxirgisi biz bu dunyoda erisha olmay, balki narigi dunyoda erishadigan kamolot bo'lib, bu kamolotga bu dunyoda yetishgan kamolotimiz natijasiga u dunyo sinovidan o'tgandan so'ng yetishamiz. Bu dunyoda yetishgan kamolotimiz avvalgi kamolotdir.

Avvalgi kamolotimizda faqat fazilatli ishlar qilinadi. Inson birin-bir kasbni egallashi uchun faqat tug'ma qobiliyati kig'oya emas, albatta. U kasb-hunarda kamolotga ham yetishishi kerak, bu kamolot insondan hunarning biron-bir sohasini egallah bilan qanoatlanib qolmay, bu hunarni to'liq o'zlashtirishni talab etadi, masalan, xattot yozish bilan shufullanibgina qolmasdan, balki u shunga doir hamma faoliyatlar bilan shufullanishi kerak, tabib ham xuddi shunday, u faqat davolash bilangina shufullanib qolmasdan, meditsinaga doir hamma ishlar bilan qiziqishi kerak. Bu hamma hunarlarga ham taalluqlidir. Mana shu kamolot natijasida oxirgi kamolotlikka erishamiz. Bu kamolotlik esa o'z novbatida oliy baxt, abadiy yaxshilik, bu har bir insonning o'ziga foydali hayrli ishidir. Baxtsaodatga erishish uchun hamma zarur ishlarning teskarisini qilish bu razolatlikdir.

Fozil shaharning abadiy saodat beruvchi oliy kamolotga erishish yo'lida bir yoqadan bosh chiqarib ishlayotgan aholisi boshqa shahar aholilaridan o'ziga xos fazilatlari bilan ajralib turishlari kerak. Chunki bu shahar aholisi boylik yo'lidagina hamkorlik qilib, ularga fazilatning o'zingga kerak bo'lmasdan axillik va adolatlilik ham kerakdir, biroq bunday shar aholisi axillikni, adolatlilikni o'z maqsadlari yo'lida niqob qilib olib, haqiqat ishlari uchun hech qachon qo'llamaydilar, bualr hamma ishda ham shunday qiladilar.

Bir qancha qilinadigan ishlar orasida foydalisisini ajratib olish uchun u baxtga olib boradimi, yo'qmi bilish kerak, ana shundan keyin bu ishni yanada foydaliroq qilish uchun harakat qilish kerak, agar haqiqiy foydali bo'lsa, shahar axolisining hammasigami yoki faqat ayrim qismigami, yoki faqat o'zigami buni bilish kerak,

tabib ham shunday qilishi kerak. Masalan, biror kasalni dori-darmon bilan davolayotgan paytida, uni davolasa bo'ladimi, yo'qmi, buni bilishi kerak.

Hikmat bu hamma mavjudodlarning eng so'nggi sabablari va sababi bor narsalarning eng yaqin sabablari haqidagi va u sabablarining borligini isbotlaydigan bilimlardir. Biz bu bilim orqali ularning mohiyatini, qanday vujudga kelishini agar ular ko'p bo'lsa "birinchi sabab"ni (sababul avval) nisbatan qay tartibda joylanishini va uning uzoq sabablarining sababchisi ekanligini, ularning oldidagi yaqin sabablarini o'rghanamiz. Shuningdek bu "sababul avval" eng birinchi asos ekanligi va tuzulishi jixatidan boshqa narsalarga o'xshamasligini o'z-o'zidan mavjud ekanligini uning boshqa narsalarga xojati ham yo'qligini, aslida jism ham emas ekanligini jismda bo`lishi mumkun ham emasligini uning borligi hamma mavjudotlarning so`ngi chegarasi ekanligini uning o`zi hech narsa bilan umumiyligi bo`lmay yagona ishtirok etmay faqat nomigagina ishtirok etishini xaqiqatligida ekanligini uning yakka o`zida hamma mavjudotning ifoda etilishini bilamiz. Shuningdek u hamma mavjudodliklarning asosiy birinchi xaqiqat ekanligini boshqa narsalar esa uning xaqiqatligiga asoslanishini u eng fazilatli eng xaqqoniy borliq va yakkayu yagona ekanligini bilamiz.

Biz bu ilm orqali undan boshqa mavjudotlarning qanday qilib kelib chiqishini o'rghanamiz, shuningdek mavjudotlarning qanday tartibda joylanishini qaysi boshi qaysi o'rtasi, qaysi oxiri, ularning sabablari, ularning boshqa narsalarga sababchimi, yoqmi ekanligini bilamiz, o'z navbatida boshqa sabablar bilan bog'liqligini, nuhoyat shuningdek oxirgi mavjudotning o'rtanchiga, o'rtanchining birinchiga, va nihoyat so'nggi sabab, eng avvalgiga (xudoga) qanday bag'ishlashini va aksincha ularning avvalgidan qanday boshlanishi va qanday qilib to oxirgi mavjudotgacha ma'lum tartibda boflanib yetib kelishini bilamiz. Bu ilm haqiqatni bilishdagi hikmat ilmi bo'lib, bu nom ko'chma ma'noda ishlataladi, chunki bunday ilmni egallagan, mohir, tajribali kishilar, hikmatni yaxshi egallagan kishilar hukamolar, donolar bo'ladi, shu sababli bu ilm hukamolar ilmidir.

Amaliy aql (al-aql al-amaliy)bu shunday quvvatki, bu orqali inson hayotdagি tajribalar, xis qilinadigan narsalarni kuzatish, ulardan taassurot olish, bir narsani

ikkinchi narsadan ajratish bilan xulosalar chiqaradi. Bu xulosalar insonuchun biz to'qnashayotgan hodisalarning qaysi biri kerakli, qaysisi keraksizligi haqida xizmat qiladi. Bu quvvat har bir insonda to'xtovsiz rivojlanib boradi, chunki inson biron-bir notanish ishni bajarsa, bu bilan uning tajribasi oshib boradi, tajribasiga tajriba qo'shadi.

Mulohazalikning, ya'ni oqilona ish tutishning qirralari ko'p masalan bir xil kishilar binokorlikda ishbilarmonlik qilib, usta me'mor deb nom oladi, bir xil kishilar shaharni boshqarishda mohirlik qilib dono boshliq deb nomlanadi, boshqa bir xillari turmushning boshqa sohalarida mulohazalik qiladilar, bular ham o'z mohirliklariga qarab nom oladilar. Mulohazali kishi biror narsani o'ylaganda, o'zi uchun qayfurnasdan, boshqalar, ya'ni xalq uchun qayfuradi. Masalan xoh shaharni boshqarishda bo'lsin, xoh uy qurishda bo'lsin, ya'ni har bir sohada mulohazali odam uchun eng muhimi to`g`ri, fozilona fikr yuritishdir, toki boron qarshilikka uchraganda uni bartaraf etuvchi to`g`ri yo'l topa olsin. Xalq hamisha biron-bir zarur ishni bajarishda aqli kishilarga muhtoj bo'lib turadi. Mulohazali kishilarni xalq dono deb ataydi va bu mulohazalik insondagi shunday bir quvvatki u quvvat sofлом aql deb ataladi. Foydali fikr yuritish har bir insonning maqsadi bo'lmos'i kerak, chunki inson ish qilayotgan paytida albatta o'z oldiga biron-bir maqsad qo'yadi.

Zehnlilik- bu bir-biriga zid kelib qolgan turli fikrlar orasidan to`g`risini topa olish, birining xatoligini ko'rsatib bera olish, nohaqini to`g`rilab munozaralardan eng haq fikrni ko'rsata olish quvvatidir.

Fikran ustunlik fozil, hayrli kishilarda bo'ladigan xislatdir. Bunday xislati bor inson o'z ishlarida hayrli, fazilatli bo'lishi kerak, keyin uning fikrlari, ishlari, ko'rsatmalari bir-biriga mos tushishi kerak, tajribalarda bir karra emas, bir necha karra sinalgan bo'lishi kerak, toki uning ko'rsatmalari, ishlari, naqllari to`g`risida kishilarda ishonch hosil bo'lsin va ular uning ishini misol qilib ko'rsatsin, gaplarini dalil qilib aytsinlar. Ma'lumki hamma kishini to`g`ri ishga boshlash aql bilan bo'ladi. Shunday ekan bu donishmandlikning bir qirrasidir. Biror narsa ustida mulohaza yurituvchining asosi ikki xil bo'ladi, birinchisi hamma uchun yoki

ko'pchilik uchun ma'lum bo'lgan fikrlar, ikkinchisi kuzatishlar va tajribalar asosida hosil bo'lgan fikrlar.

Tajribasizlik- tajribasiz kishi boror ishni amalga oshirmoqchi bo'lganda qiynaladi, chunki bunday ishni oldin hech ko'rмаган bo'ladi, ba'zan inson ayrim ishlarda tajribasiz bo'lishi, boshqa bir ishda tajribali bo'lishi mumkin.

Quntsizlik –bunda inson ma'lum bir ishni qilayotganda yoki biror narsaga duch kelganda uni quntsizlik bilan bajaradi, ishni bo'sh qiladi.U agar har qanday ish uchrasa ham baribir uni quntsizlik bilan bajaradi, butun umri mobaynida quntsiz bo'lib o'tadi, ya'ni unga nisbatan loqayd bo'ladi.

Ahmoqlik. Bunga griftor bo'lgan kishilarda ham o'ziga yarasha fikr, maqsad, g'oyalar bo'ladi, tajribasi bo'ladi, lekin biror ishni qilayotganda o'z bilimi, tajribasidan to`g`rifoydalana olmaydi, bir-biriga to`g`rifikrlarni boflay olmaydi, natijada bergen ko'rdatmali, qilgan ishlari ahmoqona bo'lib chiqadi.

Ziyaraklik –bu insondagi tez fikrlilik, o'ylagan narsasini darrov topa olishi qobiliyatidir. Inson o'z mulohazasi, ziyarakligini hamisha oshirib borishi kerak, agar aql yomonlikka qaratilsa, bu xislatlar razillik, makkorlik, aldamchilikka olib boradi.

Xalq aqli kishilarni dono deb ataydi.Chunki ular insonlarga kerakli narsalarni o'ylab topadilar, ya'ni insonlarga foydali, zarur bo'lgan narsalarni o'ylab topadilar.E xudo, demak shunday ekan, ularni yer yuzidagi eng yaxshi kishilar desak bo'lmaydimi, agar shunga munosib bo'lmas ekan ular nomigagina donodirlar.

Hikmat mavjudotlarga so`ngi sabablari, insonning so`ngi maqsadi haqidagi bilim bu maqsad baxt saodatdan iborat ekan va maqsad xam sababning bir ko`rinishi bo'lgan uchun xikmat bu dunyodagi barcha mavjudotlarning baxtga erishuvi yo`lini ko`rsatadi. Bundan inson ruxan o`z ulushini olib aqli kamolotga erishadi buning natiasi saodatdir. Shunday qilib, hikmat haqiqat yo'lida saodatga erishuv yo`lini ko`rsatib beradi, shunday qilib biri bilan - g`oya bersa ikkinchisi bu g`oyani amalga oshirish usulidir.

Tushuntirish qobiliyati. Bu qobiliyat ishontirish qobiliyatidan farq qiladi, bu farq shuki, ishontirayotgan kishining nutqini eshitayotgan kishi uning maqsadini, faqat uning gapiga ishonch hosil qilgandan keyingina bajaradi, tushuntirayotgan kishining nutqini eshitgan kishi esa buni tushunib yetgandan keyin, uning tushuntirgan gapidan xulosa chiqarib biror ish qilmoqchi bo'ladi, yoki aksincha qiladi, yoki umuman ishga qo'l tekkizmaydi, unga shontirishning hojati yoq, chunki u o'ziyoq gap nimada ekanligini fahmlab yetadi. Tushuntirih qobiliyati kishi qalbida bir narsaga nisbatan fazab uyfonganida rozi bo'lganida, havotirlanganida, kishi ruhiy tushkunlikka uchraganida umuman shunday hollarda ishlatiladi. Tushuntirishdan maqsad insonni kerakli ishga undash, uning qilayotgan ishi noto`g`ri ekanligini anglatishdir. Ko'pincha ayrim kishilar biror narsaga nisbatan havasi ortganda yoki fazabi qo'z g`alganda maqsadining aksini qilib qo'yishi mumkin, tushuntirish ularni to`g`ri yolga solishga yordam beradi.

Fozil shaharda martabalar hamisha bosqichma bosqich ko'tarila borishi kerak, ya'ni inson oliv maqsad sari doimo intila borishi kerak, bu yerda tinmay harakat qilgan kishi oxiri boshliq bo'ladi, ikkinchidan shaharda eng ilfor kishi bo'ladi, masalan, otliq jangchilarini olganimizda ularning maqsadi qurolni dushmanga qarshi mohirlik bilan ishlatishdir, ularning orasida bittasi bu sohada eng mohir usta bo'lib u ham boshliq ham ustoz bo'ladi, boshqa ishlarda ham axvol xuddi shunga o'xshashdir. Masalan, ikkita kishini olsak ularning maqsadi bitta bo'lsa ulardan bittasi ana shu maqsadni qanday qilib amalga oshirishni bilsa, o'ylab ish qiladigan bo'lsa, fazilatli, aqli bo'lsa, ikkinchisi birinchisidagidek xislatga ega bo'lmasa albatta birinchisi ikkinchisiga boshliq bo'lishi kerak. Agar ikki kishi boshqa kishini maqsadini amalga oshishiga yordam beradigan ikki ishni qilayotgan bo'lsa bu yerda ana shu ikkita ishdan muhimrofini qilayotgan kishi sal baland pofonada turadi. Chunki u kishi boshqasiga nisbatan ko'proq foydali ish qiladigan bo'lib chiqadi.

Shahar qismlari va ularning mahallalari bir-biri bilan o'zlarining mehribonliklari orqali birlashadi, bu birlashuv adolatli muhofaza qilishga asoslanadi, bu mehribonlik tabiiydir. Masalan ota-onaning farzandga

mehribonligini, irodaga suyanadigan mehribonlikni, kishining kishiga mehribonligini misol qilib ko'rsatsa bo'ladi, mehribonlikni uchga bo'lish mumkin: birinchi – fazilatli ishlardagi mehribonlik, ikkinchi manfaatli ishlardagi mehribonlik, uchinchi lazzatli ishlardagi mehribonlik. Adolatlik ham mehribonlik bilan bog'liqdir, fazilatli shahardagi mehribonlik avvalo fazilatli ishlarda va fikrlarda ko'rinnmofi kerak.

Mehribonlik uch sohada namoyon bo'lmog'i kerak.

Birinchi soha boshlang'ich mehribonlik, ya'ni birinchi mehribonlik bo'lib, bu xudoga bo'lgan mehribonlik;

Ikkinchisi esa dunyoviy ishlarga bo'lgan mehr-muhabbat bo'lib, bu tugallagan mehr-muhabbat bo'ladi.

Uchinchisi esa mana shu birinchisi bilan ikkinchisi o'rtasidagi narsalarga bo'lgan mehr-muhabbatdir. Olloh taolo haqidagi, ruh, taqvodorlik haqidagi shuningdek olam uning bo'laklarining paydo bo'lishi, insonning yaratilishini tushunishshuningdek olam qismlarini bir-biriga bo'lgan nisbati, shuningdek odam va ruhning xudo tomonidan yaratilishi haqidagi fikrlar ilohiyot haqidagi to`g`ri munosabat deb atalib ularga bo'lgan mehr-muhabbat avvalgi mehr-muhabbat ya'ni asosiy mehr-muhabbat deb ataladi.

Dunyoviy ishlarga bo'lgan munosabat ya'ni saodatga erishuv haqidagi qarashlar tugallangan qarashlar deb atalib ularga bo'lgan mehr-muhabbat tugallangan mehr-muhabbat deb ataladi. Bu har ikkalasining o'rtasida bo'lgan qarashlar ikkinchi ya'ni o'rtanchi munosabatlar bo'lib bu mehr-muhabbat saodatga erishish uvhun qilingan ishlarga bo'lgan mehr-muhabbat bo'lib o'rtanchi mehr-muhabbat deb ataladi. Agar shahar axolisining fikrlari mana shu munosabatlarga mos tushsa va saodatga erishish uchun kerakli bo'lgan ishlarni qilsa, mehribonlik ularning bir birlariga qiladigan zaruriy munosabatiga aylanadi. Shuningdek kishilar bir joyda birga yashaganliklari uchun bir biridan manfaatdor shu sababli bu yerda mehribonlik manfaatdorlikka aylanadi, shuningdek bu yerda kishilar bir birlaridan lazzat-rohat oladilar. Bu yerda mehribonlik lazzat-rohatga ham aylanadi, mana shu tarzda ular bir birlariga boflanadi, jipslashadi.

Ayrim kishilar nafsnинг barcha kuchlarini xususan intiluvchi quvvat kuchlarini yomonlik deb o`ylaydilar. Basilar faqat shaxvoniy va g`azab kuchlarini yomonlik deb biladilar yana birovleri ruxni qo`zg`atuvchi kuchlari masalan ko`ra olmaslikni baxillikni pastkashlikni xudbinlik kabilarni yomonlik deb biladilar. Ularning xammasi xato qiladilar, chunki yaxshilik va yomonlikni ifodalash uchun xizmat qiluvchi kuchlar – usullarning o`zi yaxshilik yoki yomonlik bo`lmaydi. Shunday narsalarga yomonlik bo`lishi mumkinki, qachonki u baxtsizlikka olib kelsa yoki shunday narsalar yaxshilik bo`lishi mumkin agar saodat olib kelsa.

Fazilatli inson o`limdan omon qolgan bo`lsa u o`zining narigi dunyodagi saodatini ko`paytirish uchu yana bir qancha ishlar qiladi. Biroq shuni aytish kerakki uni o`limdan qo`rqishi o`lgandan keyin juda xam yomonlik ko`raman yoki qo`limda bo`lgan saodatni o`lsam yo`qotaman deb qo`rqishi kerak emas chunki uning tirikligida erishgan baxti o`zi bilan qoladi o`limidan keyin xam saqlanadi o`lganidan keyin xam xech qanday yomonlik ko`rmaydi. Fazilatli inson o`limdan extiyot bo`lishi qochishi kerak. Chunki u tirik qolsa baxt saodatini ziyoda qiluvchi yanada ko`proq ishlarni qiladi.

Fazilatli inson o`limga shoshilmasligi kerak va shuningdek o`lim oldida har xil ayyorlik ham qilmasligi kerak, uning o`limi shahar aholisi uchun tirikligidan ko`ra foydaliroq bo`lsa shunda u o`limni afzal ko`rmog`i kerak. Agar u o`limni shunday tushunar ekan, shunda u o`limdan xech qachon qo`rqmaydi, uni birov qo`rqita olmaydi xam joxil shahar axolisi o`limdan shuning uchun xam qo`rqadiki agar o`lsam molu-dunyoyimdan, ayshu-ishratimdan, obro`-xurmatimdan ajralib qolaman deb o`ylaydi. Fosix ziqla ham molu-dunyoyimdan va saodatimdan ajralib qolaman deb o`ylaydi. O`lim joxil shahar aholisiga nixoyatda qo`rqinchlidir chunki ular o`limdan so`ngi baxtning nima ekanligini bilmaydilar, ular saodatdan abadiy ajraymiz o`limimiz hayotimizning faoliyatimizning so`ngisi deb o`ylaydilar va g`am tashvishga botib qoladi.

Inson aqlli bo`lsa uning ikki xislati bo`lishi kerak birinchisi shunday xislatki uning yordami bilan yaxshi, yomon ishlarni bir biridan farq qiladi. Ikkinchisi yordamida oldida turgan ishlarning eng afzalini ajratib oladi. “Falon kishi aqlli”

deganimizda bizda u bilimdon, faxmlı, ishbilarmon degan tasavvur hosil bo`ladi. Bu yerda aql bilan ilm o`rtasida farq yo`q. yani aqllik bilan olimlik o`rtasida farq yo`q, aqlga maqul narsa bilan olimga malum bo`lgan narsa o`rtasida xam farq yo`q. aqlli kishida shuningdek fikrlash qobiliyati xam zo`r bo`lmog`i zarur. Aristotel fikricha ular yani aqlli kishilar tug`ilgandan fazilatli bo`lsalar fazilatli ishlarni qilish kerak, ammo lekin biroq dialektiklar aytadiki aqlilar aqlga mos keladigan ishlarni qilish kerak. Agar mos kelmasa bu ishlarni qilmasligi kerak.

Nafsoniy quvvatlarda ham xuddi shunday xolni uchratamiz. Xayrli kishilar xamisha xayrli narsalarning sababchisi bo`ladi va shuning uchun ular xamisha sharafli kishilardir. Yomon inson xamisha yomon ishlarning sababchisi bo`ladi agar bunday kishi podsho bo`lsa u bunday ishlarning sababchisi bo`ladi, shuning uchun bunday ishlarni o`ylab topgan fikriy quvvatni fazilatli fikriy quvvat deb atamasdan fitnagarchilik, xiylagarchilik vas hunga o`xhash nomlar bilan ataydilar.

Yovuz shaharda eng yaxshi ishlarning o`rnini eng yomon, zararli ishlar fikrlar egallaydi. Ana shuning uchun bunday shahardan agar imkon bo`lsa fazilatli shaharga ko`chib o`tish kerak. Agar bunga imkon bo`lmasa fazilatli inson bo`lmasa azaliy yomon bo`lib dunyoda g`arib bo`lib yashagandan o`lim afzalroqdir.

Fikriy fazilat insondagi shunday bir fazilatki buning natijasi bo`lmish xar bir g`oya - ixtirolardan xalqlar yoki xalq, yoki shahar naf ko`radi va bu foydali narsalar o`zaro almashtiriladi. Bu foydali narsalarni qo`lga kiritish uchun kerak bo`lgan davriy tadbirlar manbayi fikriy kuch deb ataladi. Agar fikriy kuch biror narsan kashf qilishda yomon narsani o`z oldiga maqsad qilib qo`ysa bu yomon fikriy fazilat bo`lib fazilatli fikr bo`lmaydi.

### **Mavzuga doir test topshiriqlari.**

#### **1. Psixologiya tarixiga to`g`ri tarif berilgan qatorni aniqlang.**

- Psixologiya tarixi jamiyat tomonidan hayvonlarga va insonlarga xos bo`lgan psixik hayot hodisalari haqidagi bilimlarning asta-sekin to`planib borishi tarixidir.

b) Psixologiya tarixi inson tomonidan hayvonlarga va individlarga xos bo'lgan psixik hayot hodisalari haqidagi bilimlarning asta-sekin to'planib borish tarixidir.

c) Psixologiya tarixi inson tomonidan hayvonlarga va insonlarga xos bo'lgan biologik hayot hodisalari haqidagi bilimlarning asta-sekin to'planib borish tarixidir.

d) Psixologiya tarixi inson tomonidan hayvonlarga va insonlarga xos bo'lgan psixik hayot hodisalari haqidagi bilimlarning asta-sekin to'planib borish tarixidir.

**2. Quyidagi fikr qaysi mutafakkir olimga tegishli? “Eksperimental va nazariy psixologiyani talqin qilish uchun, shunday qiyoslash o'tkazish zarurki, bu yerda hozirgi kun muammolarini ko'raylik va tarix bilan muloqotga kirishaylik”.**

- a) Ananev
- b) Dj.Moreno
- c) Arrian
- d) Arastu

**3. Psixologiya tarixini o'rghanishda qanday ma'lumotlar katta ahamiyat kasb etadi?**

- a) Termik ma'lumotlar
- b) Diagnostik ma'lumotlar
- c) Didaktik ma'lumotlar
- d) Emperik ma'lumotlar

**4. Psixologiya haqidagi quyida keltirilgan ta'rif kimga tegishli?  
“Psixologiya uzoq o'tmishga va qisqa tarixga ega”.**

- a) D. Yurkevich
- b) D. Ushinskiy
- c) G.Chelpanov
- d) G.Ebbengauz

**5. Psixologiya tarixi nechta davrga ajratiladi va ular qanday prinsipga asosan tuzilgan?**

- a) 3 ta davrga, o'rta davrlarga bo'linish prinsipi
- b) 3 ta davrga, katta davrlarga bo'linish prinsipi
- c) 2 ta davrga, o'rta davrlarga bo'linish prinsipi
- d) 2 ta davrga, kichik davrlarga bo'linish prinsipi

**6. Psixologiya tarixinining manbalari bo'lib xizmat qilgan fanlar to`g`ri keltirilgan qatorni toping.**

- a) Fizika, kimyo, anatomiya, antropologiya, tilshunoslik, etnografiya;
- b) Fizika, biologiya, astronomiya, antropologiya, falsafa, mantiq, tarix;
- c) Fizika, biologiya, anatomiya, antropologiya, falsafa, mantiq, tarix;
- d) Fizika, kimyo, astronomiya, antropologiya, tilshunoslik, etnografiya;

**7. Psixologiya tarixida psixika haqidagi dastlabki ilmiy fikrlarning paydo bo'lishidan hosil bo'lgan oqimlar to`g`ri korsatilgan qatorni toping.**

- a) Bixevoirizm va materializm
- b) Dualizm va idealizm
- c) Bixevoirizm va dualizm
- d) Idealizm va materializm

**8. Hozirgi davrda psixologiyaning tamoyillari nechta?**

- a) 6 ta tamoyil
- b) 5 ta tamoyil
- c) 4 ta tamoyil
- d) 3 ta tamoyil

**9. “... tamoyiliga ko'ra, psixika yashash sharoiti bilan belgilanadi va sharoit o'zgarishi bilan o'zgaradi” – ushbu ta'rif qaysi tamoyilga tegishli?**

- a) Dualizm
- b) Idealizm
- c) Materializm
- d) Determinizm

**10. Psixologiya tarixida psixika va ongning faoliyatda taraqqiy etish tamoyiliga ulkan xissa qo'shgan olimlar keltirilgan qatorni toping.**

- a) S.Vigotskiy, G.Ebbengauz, M.Teplov
- b) S.Vigotskiy, D.Ushinskiy, L.Rubinshteyn,
- c) P.Blonskiy, G.Ebbengauz, M.Teplov
- d) S.Vigotskiy, L.Rubinshteyn, M.Teplov

**11. Platon va Arrestotelning qaysi ta'limoti O'rta asrlarda Sharq va G'arbda xukumron bo'lган?**

- a) Ruh haqida
- b) Olov haqida
- c) Psixika haqida
- d) Atomlar haqida

**12. Epikurning fikriga ko'ra ruh nechta o'zgarmas elementlardan iborat?**

- a) 4
- b) 3
- c) 6
- d) 8

**13. Grek faylasuflaridan birinchi bo'lib, ruh va ruhiy faoliyat haqida sistemali ta'limot yaratgan olim qaysi?**

- a) Aristotel
- b) Platon
- c) Demokrit
- d) Fales

**14. Butun mavjudod zinchlashish va siyraklashish qobiliyatiga ega bo'lган havodan tashkil topgan deb ta'lim bergen olim qaysi?**

- a) Anaksimen
- b) Empedokl
- c) Geraklit
- d)Platon

**15. Ratsionalizmning eng ko'zga ko'ringan vakillari qaysilar?**

- a) A.Kenterbenskiy va Sh.Vilgelm
- b) I.Rosselin va D.Skott
- c) V.Okkam va I.Rosselin
- d) I.Damask va Sh.Vilgelm

**16. F.Bekon qaysi fanlar asoschisi hisoblanadi?**

- a) Ingliz materializmi va umuman tajriba fanlari.
- b) Tajriba va matematika
- c) Ingliz materializmi va falsafa
- d) Astronomiya va falsafa

**17. Yangi materialistik psixologiyaning asoschisi kim?**

- a) Gobbs
- b) David Gartli
- c) Djeyms Mil
- d) Aleksandr Bel

**18. Refleks-tushunchasini fanga olib kirgan olim?**

- a) R. Dekart b) Bekon c) Gegel d) Spinoza

**19. Empirik psixologiyaning “Otasi” kim hisoblanadi?**

- a) Dj.Lokk b) T.Gobbs c) Bekon d) V.Leybnits

**20. Psixologiyaga “Assotsiatsiya” terminini fanga kim kiritgan?**

- a) Dj.Lokk b) V.Leybnits c) B.Spinoza d) Bekon

**21. Empirik psixologiya nechanchi asrda paydo bo’ldi?**

- a) XVII asrda b) XVI asrda c) XIX asrda d) XV asrda

**22. Empirik psixologiyaning yutuqlarga erishishiga qaysi metodning tatbiq qilinishi sabab bo’ldi?**

- a) Eksprement b) Kuzatish c) Sotsiometriya d) Suhbat

**23. Psixologiya va pedagogikada intellektualizmning eng ko’zga ko’ringan vakili kim hisoblanadi?**

- a) Gerbart b) Ushinskiy c) Veber d) Vudnt

**24. Volyuntaristik psixologiyada psixik hayotning asosi sifatida qaysi bilish jarayoni hisoblanadi?**

- a) Iroda b) Tafakkur c) Xotira d) Sezgi

**25. Volyuntaristik psixologiya vakillari berilgan qatorni aniqlang.**

- a) G.Linne, G.Myunsterberg  
b) V.Keller, K.Kofka  
c) X.Erenfels, V.Vudnt  
d) V.Vudnt, A.Adler

**26. Freyd ta'limotiga kora shaxs hayotining asosi nimaga qaratilgan?**

- a) Ongsiz mayllarga  
b) Tabiiy mayllarga  
c) Psixik protsesslarga  
d) Hukmronlik hissiga

**27. Ko’pchilik kishilarining hayoti va taraqqiyotida tabiiy ongsiz mayl energiyasi mehnat faoliyatiga sarf etilishi nima deb ataladi?**

- a) Sudlimasiya b) Senzura c) Substansiya d) Sensor

**28. Yaxlit strukturaviy psihologiya nima deb ataladi?**

- a) Geshtal`t psixologiya
- b) Gerantapsixologiya
- c) Volyuntaristik psixologiya
- d) Tiflopsixologiya

**29. Geshtal`t psixologiya vakillari berilgan qatorni aniqlang?**

- a) K.Kofka, V.Keller
- b) K.Kofka, G.Linne
- c) X.Erenfels, V.Vudnt
- d) A.Adler, X.Erenfels

**30. Sezgi qo'zg'atgich logarifmasiga proportionaldir degan psixik fizika qonunni asoschisini toping?**

- a) Fexner
- b) Weber
- c) Chelpanov
- d) V.Vundt

**31. Kimlar tomonidan psixofizika faniga asos solgan?**

- a) Weber, Fexner
- b) K.Byuller, Dj.Uotson
- c) E.Torndayk, Veterans
- d) V.Vundt, A.F.Lazurskiy

**32. Psixologiya tabiat fanlari singari, eksperimental fanga aylantirish mumkin ekanligini isbotlagan olimlar qatorini ko'rsating?**

- a) Weber, Fexner
- b) V.Vundt, A.F.Lazurskiy
- c) Dj Uotson, Fexner
- d) D.O.Kyulpe, E.Torndayk

**33. Kimlar tomonidan qo'zg'atish, ifodalash, reaksiya metodlari taklif etilgan?**

- a) V.Vundt
- b) Dj Uotson
- c) Fexner
- d) E.Tordayk

**34. Kim tomonidan birinchi bo'lib eksperimental psixologiya laboratoriyasi tashkil qilinadi?**

- a) V.Vundt
- b) Veber
- c) Fexner
- d) F. Lazurski

**35. Psixologiyada kim tomonidan birinchi bo'lib maxsus mayatnik ishlab chiqariladi?**

- a) V.Vundt
- b) Chelpanov
- c) Fexner
- d) Veber

**36. XIX va XX asrlarda yuksak rivoj topgan psixologiya yo'nalushlaridan biri qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- a) Emperik psixologiya
- b) Funktsionalizm
- c) Strukturalizm
- d) Bixevierizm

**37. Freydizm yo'nalishning asoschisi kim?**

- a) Z.Fryed
- b) D.Gartli
- c) D.Yum

d) V.Vundt

**38. XVIII asrning 2-yarmida Angiliyada psixologiya fanining qaysi oqimi vujudga keldi?**

- a) Assotsianizm
- b) Intellektualizm
- c) Volyuntarizm
- d) Fredizim

**39. Bioxeviorizm asoschisi Torndayk malaka hosil qilish protsessini asosan qaysi hayvonda o'rgangan?**

- a) Kalamush
- b) Sichqon
- c) Quyon
- d) Maymunda

**40. Psixoterapevtik usulni Sharq olimlaridan birinchi bo'lib kim qo'llagan?**

- a) Abu Ali ibn Sino
- b) Abu Nasr Farobi
- c) Abu Xayr Hammor
- d) Husayin Voiz Koshifiy

**41. Husayin Voiz Koshifiy nechanchi yillarda yashab ijod qilgan?**

- a) 1440-1505 yillar
- b) 1410-1460 yillar
- c) 1440-1501 yillar
- d) 1505-1540 yillar

**42. "Baxt saodatga erishuv haqida" risolani kim yozgan?**

- a) Farobi
- b) Navoiy

- c) Beruniy
- d) Ibn Sino

**43.”Sharq Aristoteli” degan unvonga sazovor bo’lgan mashxur mutaffakir kim?**

- a) Farobiy
- b) Ibn Sino
- c) Beruniy
- d) Navoiy

**44. Inson jonining oliy darajadagi ifodasi nima?**

- a) Aql
- b) Ong
- c) Tafakkur
- d) Idrok

**45. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Geodeziya”, “Mineralogiya” asarlari mualiffi kim?**

- a) Beruniy
- b) Ibn Sino
- c) Farobiy
- d) Mirzo Ulug’bek

**46. Ibn Sino sezgini turga ajiratgan?**

- a) 2 turga
- b) 5 turga
- c) 1 turga
- d) 4 turga

**47. O’zbekistonda psixologiyaning rivojlanishiga katta xissa qo’shgan, taniqli olimlardan biri P.Ivanovning asrlari qaysilar?**

- a) Umumiy pedagogika, O’quvchilarni texnik qobiliyatlari psixologiyasi.

- b) Umumiy psixologiya, Umumiy pedagogika
- c) Ta’limning psixologik asoslari, Umumiy psixologiya
- d) Bola psixikasi, Umumiy pedagogika.

**48. “Bilish jarayonlarining tarixiy taraqqiyoti haqida” asari kimga tegishli?**

- a) I.Pavlov
- b) M.G. Davletshin
- c) P.Ivanov
- d) E.G’oziyev

**49. Quydagi variantlarda qaysi biri P.Ivanov hissasiga to’g’ri keladi?**

- a) Samarqanddagi pedakademiyada eksperimental psixologiya laboratoriysi tashkil etilishi.
- b) “Bilish jarayonlarining tarixiy taraqqiyoti haqida” asar
- c) O’zbekistinda 100dan ortiq doktorlik va nomzodlik ishlari himoya qilingan.
- d) Maktabda psixologik xizmatni yo’lga qo’ydi.

**50. Taniqli olimlardan biri Sh. R. Baratov qanday mavzu asosida doktorlik dissertasiyasini yoqlagan?**

- a) Ta’lim tizimida va ishlab chiqarishda psixologik xizmatni tashkil etishning psixologik xususiyatlari
- b) Bilish jarayonlarining tarixiy taraqqiyoti haqida
- c) Yuqori sinf o’quvchilarida e’tiqod axloqiy tushunchalarni shakillanishi
- d) Bolalarda yosh bilan bog’liq muammolar

**Tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro’yxati.**

1. Abu Ali Ibn Sino. «Tib qonunlari asari». Toshkent – 1992 y.
2. Davletshin M.G. «Psixologicheskaya nauka v Uzbekistane» Psixologicheskiy jurnal. Toshkent. №7. 1986 y.
3. Davletshin M.G. «Psixologiya tarixi» dastur. T.-1996y.
4. David G. Mayers “Psychology ninth addition in modulus” 2010. 6-7 pages
5. Jdan G. «Istoriya psixologii» – Uchebnik. — M.: Izd-va J42 MGU, 1990.—367 s
6. Iskandarov B. «O'rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikrlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavxalar. » Toshkent. «O'zbekiston». –1993 .
7. Nishonova Z.T. «Psixologiya tarixi» T-2002y.
8. Xayrullaev M.M. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavxalar». Toshkent -1995y.
9. E.G`oziev «Tafakkur psixologiyasi» Toshkent. O'qituvchi – 1990y.
10. X`ell L., Zigler D. Teorii lichnosti. — SPb.: Piter Press, 1997. 528—573 s.
11. Rodgers K.R. Vzglyadna psixoterapiyu. Stanovlenie cheloveka. — M.: Izdatel'skaya gruppa «Progress», «Univers», 1994. — 480 s.
12. Rijov B.N. Istoriya psixologicheskoy misli. M.: Voenizdat Uchebnoe posobie dlya visshiv uchebnix zavedenie 2004
13. Yaroshevskiy M. G. Psixologiya v XX stoletii. Teoreticheskie problemi razvitiya psixologicheskoy nauki. — M.: Politizdat, 1994. — 305—319 s.
14. Psixologicheskiy slovar`/ Podred.V.P.Zinchenko, B.G.Mesheryakova. — M.: Pedagogika - Press, 1997. — 440 s.
15. Freydjer R., Feydimen Dj. Lichnost'. Teorii, uprajneniya, eksperimenti.
16. Bliznesi: ucheb. Posobie dlya vuzov. Ziryanova N. M.— M.: Soliton, 2006.
17. Genotip. Sreda. Razvitie: monografiya. Egorova M. S., Ziryanova N. M., Parshikova O. V., P'yankova S. D., Chertkova Yu. D.— M.: OGI, 2004.
18. Metodi psixogenetiki: ucheb. Posobie dlya vuzov. Pankratova A. A.— M.: Soliton, 2006.

19. Osobennosti uchebnoy deyatel`nosti bliznesov: ucheb. Posobie dlya vuzov. Ziryanova N. M. — M.: Soliton, 2006.
20. Psixogenetika. Uchebnik dlya vuzov. Malix S. B., Egorova M. S., Meshkova T. A. — Spb . : Piter, 2008, t.1. 406 s., t.2. 336 s.
21. Psixogenetika: Uchebnoe posobie. Aleksandrov A. A.— SPb Piter, 2007. — 192 s.: il. — (Seriya «Uchebnoe posobie») ISBN 5-94723-662-1
22. Psixogenetika. Uchebnik. I. V. Ravich-Sherbo, T. M. Maryutina, E. L. Grigorenko. Podred. I. V. Ravich-Sherbo — M.; Aspekt Press, 2000. 447 s.
23. Psixogenetika: teoriya, metodologiya, eksperiment. Malix S. B. — M.: Epidavr, 2004. — 414 s.
24. “Psixologiya” jurnali 2014-2018 yillar soni.
25. Psixologicheskie ocherki o bliznesax. Semenov V. V., KochubeyB. I., Egorova M. S., Ziryanova N. M., P`yankova S. D. — M.: Voprosi psixologii, 2003.
26. X`ell L., Zigler D. Teorii lichnosti. — SPb.: Piter Press, 1997. — 528—573 s.
27. Xrestomatiya po istorii psixologii / Pod red. P. YA. Gal`perina, A. N. Jdan. M., 1980.
28. Rodjers K. R. Vzglyad na psixoterapiyu. Stanovlenie cheloveka. — M.: Izdatel`skaya gruppa «Progress», «Univers», 1994.— 480 s.
29. Psixologicheskiy slovar` / Podred. V. P. Zinchenko, B. G. Mesheryakova. — M.: Pedagogika-Press, 1997. — 440 s.
30. Freydjer R., Feydimen Dj. Lichnost`. Teorii, uprajneniya, eksperimenti. 2009
31. Abu Xomid G`azzoliy. Mukoshafat-ul qulub (Qalblar kashfiyoti) 1-kitob. — T.: Yangi asr avlodi, 2004. — B. 91.

## MUNDARIJA

1 Mavzu: Psixologiya tarixi.....	3
2 Mavzu: Psixologiyani dastlabki va o‘rtaschlarda rivojlanishi.....	16
3 Mavzu: XVIII-XIX asrlarda psixologiyani rivojlanishi.....	43
4 Mavzu: XIX –XX asrlarda xorijda psixologiyani rivojlanishi.....	57
5 Mavzu: XX asrda psixologiyani rivojlanishi. ....	65
6 Mavzu: XX asrning ikkinchi yarmida yangi yo‘nalishlarni yuzaga kelishi.....	91
7 Mavzu: XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Rossiyada psixologiyaning rivojlanishi.....	98
8 Mavzu: O‘zbekistonda psixologiya: qadimgi va hozirgi davrda fanning rivojlanishi.....	116
Buyuk kishilarning naqlaridan.....	165
Mavzularga doir test topshiriqlari.....	177